

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA
O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

B.S.MAMATOV, SH.K.XAMDAMOV, J.P.TURSUNOV

**DAVLAT MAQSADLI VA
BYUDJETDAN TASHQARI
JAMG'ARMALAR**

*O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus
ta'lim vazirligi tomonidan darslik sifatida
tavsiya etilgan*

**TOSHKENT
“IQTISOD-MOLIYA”
2019**

UO'K: 364.35(075.8)

KBK: 65.261ya73

Taqrizchilar: *i.f.n., dots. D.R. Rustamov;*
yu.f.n. G.M. Murodova

M 23 Davlat maqsadli va byudjetdan tashqari jamg'armalar: *Darslik / B.S.Mamatov, Sh.K.Xamdamov, J.P.Tursunov. – T.: “Iqtisod-Moliya”, 2019. – 344 b.*

Darslikda davlat maqsadli va byudjetdan tashqari jamg'armalarning nazariy asoslari, ularning moliya tizimida tutgan o'rni, huquqiy-me'yoriy asoslari, asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari tahlili bayon qilingan. Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi, Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasi, Respublika yo'l jamg'armasi, Ta'lim va tibbiyot muassasalarining moddiy-texnik ba'zasini rivojlantirish jamg'armasi, Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi, Sug'oriladigan yerkarning meliorativ holatini yaxshilash jamg'armasi, shuningdek, Nuroni, Mahalla, Kitob, Madaniyat va san'atni rivojlantirish, Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash, Orolbo'yini mintaqasini rivojlantirish, “Iste'dod” jamg'armalari faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari ochib berilgan.

UO'K: 364.35(075.8)

KBK: 65.261ya73

ISBN 978-9943-13-850-6

© B.S.Mamatov, Sh.K.Xamdamov,

J.P.Tursunov, 2019

© “IQTISOD-MOLIYA, 2019

KIRISH

Bugungi kunda iqtisodiyotni liberallashtirish davrida davlat maqsadli va byudjetdan tashqari jamg‘armalari har bir mamlakatning eng muhim institutlaridan biri hisoblanadi. Chunki, davlatning ijtimoiy-iqtisodiy tizimda kechayotgan jarayonlarga ta’sir etish dastaklaridan biri davlat maqsadli va byudjetdan tashqari jamg‘armalaridir. Davlat maqsadli va byudjetdan tashqari jamg‘armalar orqali jamiyat talablariga mos ravishda pul mablag‘larini ijtimoiy va iqtisodiy sohalar o‘rtasida qayta taqsimlanish jarayonini tartibga solib turishi, iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarining rivojlanishini rag‘batlantirishi, ilmiy-texnika taraqqiyotining jadallahushi, ijtimoiy barqarorlikka ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Bir so‘z bilan aytganda, davlat maqsadli va byudjetdan tashqari jamg‘armalari iqtisodiyotni va ijtimoiy sohalarni davlat tomonidan boshqarish va tartibga solishda muhim vosita – dastak bo‘lib xizmat qiladi.

Mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi uchun tobora ortib borayotgan ehtiyojarining davlat maqsadli va byudjetdan tashqari jamg‘armalar hisobidan qondirilishi, jumladan, jamg‘armalarning samarali faoliyat ko‘rsatishi ko‘p jihatdan mamlakatning iqtisodiy o‘sish sur’atlariga bog‘liq bo‘ladi.

Ma’lumki, davlatning qo‘lida davlat byudjeti bilan bir qatorda, davlat maqsadli jamg‘armalari jamlanadi va ular davlat byudjeti bilan birga jamlanma (konsolidatsiyalashgan) byudjetni tashkil qiladi. Bu jamg‘armalarning ayrimlari vazirliklar yoki yirik davlat uyushmalari huzurida tuzilgan bo‘lsa, ayrimlari O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida tarkib topgan bo‘lib, ularni operativ boshqarish shu muassasa zimmasiga yuklatilgan.

2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha

Harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalarni amalga oshirishda davlat maqsadli va byudjetdan tashqari jamg'armalarning o'rni va ahamiyati muhimligini hisobga olib, jamg'armalar faoliyatini takomillashtirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. Buning uchun, avvalo, davlat maqsadli va byudjetdan tashqari jamg'armalarning tashkiliy-huquqiy asoslarini, faoliyatining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish va bu bo'yicha nazariy bilimlarga ega bo'lish muhim sanaladi. Mazkur darslik ushbu masalalardan kelib chiqib tayyorlangan.

Ushbu darslik iqtisodiy yo'nalishdagi oliy o'quv yurtlarining moliya, byudjet hisobi, pensiya ishi, davlat byudjetining g'azna ijrosi yo'nalishlarida tahsil olayotgan talabalarga mo'ljallangan bo'lib, undan ushbu sohada ilmiy izlanish olib borayotgan katta ilmiy xodim izlanuvchilar, mustaqil tadqiqotchilar hamda moliya, byudjet-soliq tizimida faoliyat ko'rsatayotgan amaliyotchi mutaxassislar ham foydalanishi mumkin.

1-BOB. DAVLAT MAQSADLI VA BYUDJETDAN TASHQARI JAMG'ARMALARINING MOHIYATI VA AHAMIYATI

Reja:

1.1 Davlat maqsadli va byudjetdan tashqari jamg'armalarining mohiyati va ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati

1.2 Davlat maqsadli va byudjetdan tashqari jamg'armalarining guruhanishi va turlari

1.3 Davlat maqsadli va byudjetdan tashqari jamg'armalarining shakllanish manbalari va mablag'laridan foydalanish yo'nalishlari

1.1. Davlat maqsadli va byudjetdan tashqari jamg'armalarining mohiyati va ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati

Davlat moliyasini sog'lomlashtirish, byudjetdan tashqari jamg'armalar moliyaviy resurslari barqarorligini, ularni shakllantirish manbalari mukammal nisbatini va butligini ta'minlash, byudjetdan tashqari jamg'armalarining moliyaviy resurslaridan samarali foydalanish masalalari O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan moliya tizimidagi hamda davlat ijtimoiy siyosati doirasidagi islohotlarning hozirgi bosqichida yanada muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Ma'lumki, 2017-yil 7-fevralda mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi farmonga imzo chekdi. Mazkur farmon bilan tasdiqlangan "Harakatlar strategiyasi"da mamlakatimizni rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi belgilab berildi. Avvalo, ushbu ustuvor yo'nalishlar va ulardagи amalga oshirilishi nazarda tutilgan vazifalar hamda chora-

tadbirlarning ijrosi bugungi kunning hayotiy va ijtimoiy zarurati ekanligini ta'kidlash lozim.

Darhaqiqat, farmonda ta'kidlanganidek, mustaqillik yillarida mamlakatda huquqiy demokratik davlat, kuchli fuqarolik jamiyati qurishga, erkin bozor munosabatlariiga va xususiy mulk ustuvorligiga asoslangan iqtisodiyotni rivojlantirishga, xalqning osoyishta va farovon hayot kechirishi uchun shart-sharoitlar yaratishga, xalqaro maydonda O'zbekistonning munosib o'rin egallashiga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar amalga oshirildi. "Harakatlar strategiyasi"ning "Ijtimoiy sohani rivojlantirish" to'rtinchi ustuvor yo'naliш sifatida belgilangan bo'lib, bu yo'naliш aholi bandligini oshirish, fuqarolarni ijtimoiy himoya qilish va ularning salomatligini saqlash, yo'l-transport, muhandislik-kommunikatsiya hamda ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish va modernizatsiyalash, aholini elektr energiya, gaz bilan ta'minlashni yaxshilash, aholining muhtoj qatlamlariga ko'rsatiladigan ijtimoiy yordam sifatini oshirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy hayotdagi maqomini oshirish, sog'liqni saqlash sohasini isloh qilish, maktabgacha ta'lim muassasalarining qulayligini ta'minlash, umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus va oliy ta'lim sifatini yaxshilash hamda ularni rivojlantirish chora-tadbirlarini amalga oshirishni nazarda tutadi. "Samarali mehnat uchun zarur sharoitlar, munosib ish haqi, zamonaviy uy-joylar, sifatli ta'lim va tibbiy yordam, dam olish va hordiq chiqarish uchun keng imkoniyatlar yaratish - bularning barchasi iqtisodiy sohadagi islohotlarimiz mohiyati va mazmunini belgilab beradigan muhim omillardir. Shu borada nafaqat eng kam oylik ish haqini, balki byudjet tashkilotlarda ham, xo'jalik yurituvchi subyektlarda ham o'rtacha ish haqi miqdorini, pensiya, stipendiya va ijtimoiy nafaqalar hajmini bosqichma-bosqich ko'paytirish e'tiborimiz markazida bo'ladi" - deydilar Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev o'z ma'ruzalarida.¹ Ushbu vazifalarni amalga oshirishning

¹ "Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt tarraqiyoti va xalq farovonligining garovi" O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston

moliyaviy manbalaridan biri bu davlatning maqsadli jamg'armalaridir.

Har bir jamiyat o'zining milliy, madaniy, tarixiy qadriyatlariga asosan mehnatga qobiliyatsiz va vaqtinchalik ishsiz aholi qatlamini himoya qilishni va boshqa ijtimoiy vazifalarni o'z zimmasiga oladi. Jahan tajribasidan ma'lumki, ushbu maxsus davlat maqsadli funksiyalarini davlat byudjetidan amalga oshirish hamma vaqt ham samarali emas. Qoidaga ko'ta, inqirozlar, yuqori inflyatsiya, ijtimoiy va siyosiy larzalar sharoitida ushbu funksiyalarini davlat byudjetidan moliyalashtirish samarasining pasayishini kuzatish mumkin.

Davlat byudjeti o'zining daromadlarini aniq xarajatlariga biriktirilmashigi hisobiga mablag'larning moslashishiga ko'mak beradi. Ammo xarajat moddalari bo'yicha mablag'larning ortiqroq yo'naltirishga erishmaslik lozim, xususan bunda ijtimoiy talablar maxsus e'tiborni talab etadi, chunki hamma vaqt ushbu maqsadlar uchun xarajatlarni kamaytirishdek xavf mavjud bo'лади. Shuning uchun ham rivojlanishning eng muhim yo'nalishlarini aniqlash va mablag'larni maqsadli ishlatalishi va yo'naltirilishi ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Ushbu holatlar maqsadli umumdavlat vazifalarini moliyalashtirishda tegishli byudjetdan tashqari jamg'armalarni tashkil etish uchun asos bo'лди.

Ushbu vazifalarni amalga oshirish uchun ikki usuldan foydalanish mumkin:

- ma'lum maqsadli qismini davlat yoki mahalliy byudjetlardan ajratish;

- hukumat qarorlariga asosan aniq maqsadli yangi byudjetdan tashqari jamg'armalarni tashkil etish.

Iqtisodiy rivojlanishning hozirgi bosqichida ikkala usuldan ham foydalanilmoqda.

Alohibda davlat organlari sifatida tashkil etilgan byudjetdan tashqari fondlarning institutsional tuzilmalariga alohibda e'tibor qaratadi. Biroq, bunday

subyektlar barcha byudjetdan tashqari bitimlarni ushlab turishi mumkin emas.²

Byudjetdan tashqari jamg'armalarni tashkil etishning maqsadi jamiyat uchun muhim bo'lgan xarajatlarni byudjet mablag'lardan tashqari mustaqil manbalar hisobidan ta'minlashdir.

Byudjetdan tashqari jamg'armalarni tashkil etilishining muvofiqligini ta'minlovchi yana bir muhim omil – bu byudjet taqchilligidir. Xarajatlarni daromaddan o'sib ketishi kuchayishiga moliyaviy resurslarni faqat qidirib topishda emas, balki korxonalar, tashkilotlar va aholidan tushgan mablag'larni qayta guruhanishini ham talab etadi. Va nihoyat, xo'jalik yuritishning va xususiy lashtirishning ko'p qirrali shakllari, byudjet shakllari bilan bir qatorda jamiyatda pul mablag'larni qayta taqsimlashni yangi usullarini qo'llash zaruriyatini qat'iy talab etadi.


Byudjetdan tashqari jamg'armalar dastlab, maxsus jamg'armalar shaklida yoki byudjet kelib chiqqunga qadar maxsus hisoblar shaklida paydo bo'lgan. Hukumat faoliyatining kengayishi bilan ularni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan mablag'larni talab etuvchi yangi xarajatlarga ehtiyoj sezardi. Bu mablag'lar maxsus maqsadlar uchun mo'ljallangan alohida jamg'armalarda yig'ilar edi. Bu jamg'armalar qoidaga ko'ra, vaqtinchalik xarakterga ega edi. Davlatning rejalashtirgan tadbirlarini amalga oshirib bo'lganidan keyin ushbu jamg'armalar o'z faoliyatini to'xtatar edi. Shu bilan bog'liq ravishda jamg'armalar soni doimiy o'zgarib turar edi.

Markazlashgan davlatning barqarorlashuvi bilan bиргаликда maxsus jamg'armalarni muvofiqlashtirish davri boshlandi. Turli jamg'armalarni birlashtirilishi asosida davlat byudjeti tuzildi. Bugungi kunda davlat byudjeti bilan bir qatorda byudjetdan tashqari jamg'armalarning ahamiyati ortib bormoqda. Byudjetdan tashqari jamg'armalarga badallarni to'lovchi sifatida yuridik va jismoniy shaxslar – ijtimoiy kafolatlarning iste'molchilar

² Dimitar Radev, Richard Allen «Extrabudgetary Funds» 2010 y. p.1-2

hisoblanar ekan, to'lovlar va jamg'armalar pul mablag'laringin taqsimlanishi mamlakatning barcha fuqarolariga ta'lluqli bo'ladi va shuning uchun ham byudjetdan tashqari jamg'armalar samarali faoliyat ko'rsatishida ularning qiziqishlari kuzatiladi.

Byudjetdan tashqari jamg'armalar – davlat organlari tomonidan milliy daromadni aholining ma'lum ijtimoiy guruhlari manfaatlarini nazarda tutgan holda qayta taqsimlashning bir usulidir (1.1-rasm).



1.1-rasm. Byudjetdan tashqari jamg'armalarning tarifi³

Davlat o'z tadbirlarini moliyalashtirish uchun aholi daromadlarining bir qismini jamg'armalarga jalb etadi.

Byudjetdan tashqari jamg'armalar haqida quyidagilarni aytib o'tish mumkin:

- byudjetdan tashqari fondlar markaziy boshqaruva xarajatlarining katta qismini tashkil etadi. Ijtimoiy himoya fondlarini o'z ichiga olgan holda ular umumiylar xarajatlarning 46 foizini tashkil qiladi;
- ijtimoiy himoya jamg'armalari umumiylar xarajatlarning 35 foizini hisoblab chiqadigan byudjetdan tashqari faoliyatning yagona eng ko'p shaklidir;

³ Nurmuxamedova B., Kabirova N. Moliya T., "Tasvir", 2014. 149 b.

– ijtimoiy himoya fondlari byudjet tashqari faoliyatlar darajasi, rivojlangan mamlakatlar va o'tish va rivojlanayotgan mamlakatlar uchun juda mos bo'lishi bilan birga, ijtimoiy xavfsizlik jamg'armalari, rivojlangan mamlakatlarda markaziy hukumat xarajatlarining katta qismini tashkil etadi.

– ma'lumotlarning bat afsil tahlili shuni ko'rsatadiki, ko'plab rivojlangan mamlakatlarda byudjetdan tashqari fondlar yaxshi tashkil etilgan institutsional asosga ega, o'tish davri va rivojlanayotgan mamlakatlar esa keng miqyosda tartibga solinishi mumkin;

– rivojlangan mamlakatlarda byudjetdan tashqari fondlar byudjet jarayoni bilan yaxshi integratsiyalangan bo'lib, kelgusida muhokama qilingan konsolidatsiya qilingan byudjet konsepsiyasiga muvofiq va ayrim hollarda alohida davlat subyekti sifatida taqdim etilmaydi. Misol uchun, Yevropa Ittifoqi a'zo davlatlarning ko'pchiligi uchun byudjetdan ajratilgan ma'lumotlar, markaziy hukumat byudjeti qismi sifatida taqdim etiladi.⁴

Byudjetdan tashqari jamg'armalar ikki asosiy vazifani bajaradi (1.2-rasm):

– iqtisodiyotning muhim tarmoqlarini qo'shimcha mablag'lar bilan ta'minlash;

– aholi uchun ijtimoiy xizmatlarni kengaytirish.

Byudjetdan tashqari jamg'armalar moliya tizimining bir bo'g'ini bo'lishi bilan birgalikda bir necha xususiyatlarni o'zida aks ettiradi:

– hukumat va boshqaruв organlari tomonidan rejalashtiriladi hamda qat'iy maqsadli yo'naltirilgan bo'ladi;

– jamg'armalar mablag'laridan byudjetga kiritilmagan davlat xarajatlarini moliyalashtirish uchun foydalaniladi;


– asosan yuridik va jismoniy shaxslarning ajratmalari asosida shakllantiriladi;

– jamg'armalarga sug'urta badallari va ularni to'lashda yuzaga keladigan o'zaro aloqalar soliqli xarakterga ega, badallar tarifi davlat tomonidan belgilanadi va majburiy hisoblanadi;

⁴ Dimitar Radev, Richard Allen «Extrabudgetary Funds» 2010 y. p.3-4

- jamg'armalar pul mablag'lari davlat qaramog'ida bo'lib, ular byudjetlar, shuningdek, boshqa jamg'armalar tarkibiga kirmaydi hamda qonun hujjatlarida e'tirof etilmagan maqsadlarga sarflanmaydi;

jamg'armalar mablag'laridan foydalanish ko'rsatmaga asosida amalga oshiradi.



1.2-rasm. Byudjetdan tashqari jamg'armalarning asosiy vazifalari va o'ziga xos xususiyatlari⁵

Byudjetdan tashqari jamg'armalar – davlat tomonidan byudjetga kiritilmaydigan ba'zi jamoat ehtiyojlarini mustaqil tezkorlik asosida moliyaviy resurslardan qat'iy maqsadli foydalanishning shaklidir.

Byudjetdan tashqari davlat jamg'armalari davlat tomonidan jamiyat ehtiyojlarini va mustaqil kompleks ravishda xarajat qilish uchun jalb etilgan mablag'larni qayta taqsimlash va ulardan foydalanish bilan bog'liq

⁵ Mualliflar tomonidan mustaqil shakllantirildi.

munosabatlardir. Byudjetdan tashqari davlat jamg'armalarining afzalliklariga quyidagilarni kiritish mumkin:

– ijtimoiy va iqtisodiy xarajatlarni moliyaviy mablag'lar bilan ta'minlashning qoldiq tamoyillarini bartaraf etish imkonini beradi;

– byudjet xarajatlarining bir qismini o'z zimmasiga oladi va byudjetdan mablag' bilan ta'minlash muammosini ma'lum darajada hal qiladi;

– mablag'lardan maqsadli foydalanadi va moliyaviy resurslarni ko'paytirish imkonini yaratadi.

Professor A.Vahobovning fikricha, "Byudjetdan tashqari jamg'armalar avval maxsus jamg'armalar va o'ziga xos hisob raqamlar ko'rinishida mavjud bo'lgan. Davlat o'zining faoliyat doirasini kengaytirishi bilan tobora yangi xarajatlarga ehtiyoj sezal boshladi. Ularni qoplash uchun mablag'lar maxsus jamg'armalarda to'plandi va maxsus maqsadlarga qaratildi. Byudjetdan tashqari jamg'armalar maqsadliligiga ko'ra ijtimoiy va iqtisodiy, boshqaruv darajasiga ko'ra markaziy va mintaqaviy jamg'armalarga bo'linadi".⁶

Professor L.A.Drobozinaning fikricha, byudjetdan tashqari maqsadli jamg'armalar jamiyatdagi ayrim xarajatlarni moliyalashtirish va kompleks ravishda tezkor mustaqillik asosida mablag'larni sarflash, davlat orqali jalb qilinadigan moliyaviy resurslarni qayta taqsimlash va foydalanish usulidir.⁷ Bunday jamg'armalar vaqtinchalik tusga ega boladi. Davlat tomonidan belgilangan tadbirlarning bajarilishi va ularni moliyalashtirishning to'xtatilishi sababli jamg'armalar ham o'z faoliyatini to'xtatadi. Shundan kelib chiqib, jamg'armalarning miqdori doimo o'zgarib boradi: ba'zilari tugatiladi, ba'zilari tashkil etiladi.


⁶ Vahobov A. Bozor munosabatlari tizimidagi ijtimoiy fondlar. T Sharq. 2003. 117 b.

⁷ Дробозина Л.А. Финансы: Учебное пособие. – Москва: ЮНИТИ. 2005г. -20 стр.

1.2. Davlat maqsadli va byudjetdan tashqari jamg'armalarning guruhlanishi va turlari

Byudjetdan tashqari jamg'armalar har doim ham davlatga tegishli bo'lmaydi. Jamiyatning taraqqiyoti, ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy ehtiyojlarni kengayishi jamiyat a'zolarining turli xil, kengayib borayotgan qiziqishlarini qondirishga maqsad qilib qo'yilgan nodavlat byudjetdan tashqari jamg'armalarning rivojlanishiga turtki bo'ldi.

Byudjetdan tashqari jamg'armalarni quyidagi xususiyatlar bo'yicha tasniflash mumkin (1.3-rasm)



1.3-rasm. Byudjetdan tashqari jamg'armalarning tasniflanishi⁸

Mablag'lar sarflanishining maqsadli yo'naltirilishiga ko'ra, byudjetdan tashqari jamg'armalar ijtimoiy, iqtisodiy,

⁸ Nurmuxamedova B., Kabirova N. Moliya T., "Tasvir", 2014. 155 b.

ekologik va boshqa jamg'armalarga ajratiladi. Ijtimoiy ahamiyatdagi jamg'armalar davlat organlariga faol ijtimoiy siyosatni yuritishga ko'mak beradi. Ushbu jamg'armalarni shakllantirishda, asosan, sug'urta qilingan shaxslarning sug'urta badallaridan, tadbirkorlarning sug'urta badallaridan, subsidiyalar va davlatning foizsiz ssudalaridan foydalaniлади.

Davlat *ijtimoiy jamg'armalari* fuqarolarning pensiya olish, kasalligi, nogironligi, boquvchisini yo'qtganligi sababli, shuningdek, sog'liqni saqlash va tibbiy yordam olish, ishsizlikdan himoya qilinish va boshqalar uchun ijtimoiy nafaqalarni olishdek konstitutsion huquqlarni ta'minlashga yo'naltirilgan.

Iqtisodiy jamg'armalar jamiyatning xo'jalik va ijtimoiy hayotining rivojlanishida davlat ta'siri imkoniyatlarini kengaytiradi.

Oltmishinchchi yillarning boshlaridan rivojlangan davlatlarda ilmiy-texnik jamg'armalarni tashkil etishga katta e'tibor berilmoqda. Ushbu jamg'armalarning daromad qismini shakllantirishda byudjet mablag'lari qatorida yirik kompaniyalarning mablag'lari, universitetlarning badallari va boshqa manbalardan foydalaniлади. Yuqorida ta'kidlangan jamg'armalarning mablag'lari fundamental tadqiqotlar, ilmiy markazlar qurilishi, kadrlarni tayyorlash sohasidagi dasturlarni moliyalashtirishga yo'naltiriladi.

Turli mamlakatlarda turli yo'nalishlarga qaratilgan jamg'armalar ularda tanlangan moliyaviy siyosatiga mos ravishda tashkil etiladi. Bir mamlakatda mavjud bo'lgan byudjetdan tashqari jamg'armaning mavjudligi ikkinchi bir mamlakatda ham xuddi shu jamg'armaning mavjud bo'lishiga asos bo'lmaydi.


Davriylik xususiyatiga ko'ra byudjetdan tashqari jamg'armalarni doimiy va vaqtinchalik jamg'armalarga ajratish mumkin. Vaqtinchalik jamg'armalar ma'lum bir davrga tuzulib, o'zining oxirgi maqsadini amalga oshirganidan so'ng to'xtatiladi.

Bugungi kunda davlat byudjetida Byudjet Kodeksi bilan belgilab berilgan davlat maqsadli jamg'armalari ham

konsolidatsiyalashadi va davlat byudjeti bilan birligida jamlanma byudjetni (konsolidatsiyalashgan byudjet) tashkil qiladi.

Konsolidatsiyalashgan byudjet O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan moliya yili yakunlari bo'yicha tahliliy maqsadlar uchun hamda byudjet tizimi byudjetlarining (byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari jamg'armalari bundan mustasno) barcha tushumlari va xarajatlarini hamda O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi mablag'larni, ular o'tasidagi transfertlarni hisobga olmagan holda hisobga olib borish uchun tuziladi.

O'zbekiston Respublikasining konsolidatsiyalashgan byudjeti tarkibi rasmda ko'rsatilgan bo'lib, uning tarkibiga quyidagilar kiradi (1.4-rasm):



1.4-rasm. O'zbekiston Respublikasi

konsolidatsiyalashgan byudjetining tarkibi⁹

- davlat byudjeti;
- davlat maqsadli jamg'armalarining byudjetlari;
- O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi mablag'lari.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida davlat byudjeti bilan bir qatorda, davlatning byudjetdan tashqari maqsadli jamg'armalarining mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishdagi ahamiyati yanada ortib bormoqda.

⁹ O'zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksi. 7-bob, 46-modda asosida.


Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarda byudjetdan tashqari maqsadli jamg'armalarning ham ahamiyati yuqori bo'lmoqda. Bu hol ular daromadlarining shakllanish ko'lamlarida yaqqol namoyon bo'ladi. Xususan, maqsadli jamg'armalar daromadlari oxirgi yillarda konsolidatsiyalashgan byudjet daromadlarining o'rtacha 33,7 – 35,7 foizni tashkil qilgan.

Dastlab ayrim ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarni aniq manbalar bilan ta'minlash maqsadida davlat byudjeti tarkibidan ma'lum maqsadlarga mo'ljallangan byudjetdan tashqari maqsadli fondlar shakllangan. Masalan, davlat byudjeti tarkibiga kiruvchi "ijtimoiy sug'urta fondi" negizida byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi tuzilgan. Bu va shu kabi boshqa fondlar davlat byudjetidan ajralib chiqqani bois adabiyotlarda "nobyudjet fondlar" yoki "byudjetdan tashqari fondlar" deb yuritilgan. Shuningdek, Byudjet kodeksining qabul qilinishi va amalga kiritilishigacha bolgan oxirgi o'n yilliklar davomida "Byudjet tizimi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunining 20-moddasi bilan bir qator jamg'armalarning davlat byudjetida konsolidatsiyalanishi (jamylanishi) belgilab berildi va ular byudjet nazariyasi va amaliyotida "davlat maqsadli jamg'armalari" degan umumiyl nom oldi. Lekin jamlanma byudjet tarkibiga kirmagan, shakllanish manbalari va ishlatish yo'nalishlari hukumatning tegishli qarorlari bilan belgilab qo'yilgan, vazirliklar va boshqa davlat idoralari tasarrufidagi fondlar ham bugungi kunda davlatning ayrim ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarini qo'shimcha mablag' bilan ta'minlash uchun xizmat qilib kelmoqda va ularga nisbatan adabiyotlarda "maqsadli fondlar" iborasi qo'llanilmoqda.

Bugungi kunda konsolidatsiyalashgan byudjet tarkibidagi davlat maqsadli jamg'armalari qatoriga quyidagi jamg'armalar kiradi (1.5-rasmga qarang).

2007-yildan boshlab davlat byudjeti parametrlarida alohida satr bilan Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasining daromadlari va xarajatlari ko'zda tutila boshlandi. Mazkur jamg'arma iqtisodiyotning yetakchi, eng avvalo, bazaviy

tarmoqlarini modernizatsiyalash va texnik qayta qurallantirish loyihalarining amalga oshirilishini ta'minlash, mamlakatni barqaror va mutanosib ravishda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga erishish, shuningdek, samarali tarkibiy va investitsion siyosatni amalga oshirish maqsadida tuzilgan.



1.5-rasm. O'zbekiston Respublikasi konsolidatsiyalashgan byudjeti tuzilmasi¹⁰

Byudjet nazariyasi va amaliyoti bir joyda qotib turmaydi, jamiyatda amalga oshirilayotgan islohotlar, har bir davrning rivojlanish ustuvorliklari, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning oldidagi vazifalardan kelib chiqqan holda o'zgarib turadi, takomillashib boradi. Xususan, iqtisodiyotning real sektori tarmoqlarini hamda ijtimoiy

¹⁰ O'zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksining 46-moddasi asosida

sohani barqaror, mutanosib va jadal rivojlantirish¹¹ maqsadida “Moliya organlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 18-martdagি PQ-2847-sonli qarori bilan byudjetdan tashqari umumta‘lim maktablari, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar va tibbiyot muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta‘mirlash va jihozlash jamg‘armasi hamda Oliy ta‘lim muassasalarining moddiy-texnika bazasini rivojlantirish jamg‘armasi negizida Byudjetdan tashqari ta‘lim va tibbiyot muassasalarining moddiy-texnika bazasini rivojlantirish jamg‘armasi tashkil qilindi.

Bugungi kunda ushbu qayta tashkil etilgan jamg‘armaning mablag‘lari 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning Harakatlar strategiyasida nazarda tutilgan fan va ta‘lim sohasini rivojlantirish borasidagi keng ko‘lamli tadbirlar va dasturlarni moliyalashtirishga safarbar etilmoqda.

Byudjetdan tashqari jamg‘armalar xalqaro doirada quyidagicha farqlanadi:

- rivojlanish mablag‘lari: odatda, donorlik hissasini qo‘sadigan va ba’zan ichki manbalar (masalan, xususiylashtirish tushumlari), masalan, ijtimoiy fondlar, atrof-muhit fondlari va tarmoq fondlari kabi rivojlanish dasturlarini qo’llab-quvvatlash uchun yaratilgan mablag‘lar;

- investitsiya jamg‘armalari: muayyan investitsiya maqsadlari bilan tashkil etilgan va qimmatbaho qog‘ozlar, obligatsiyalar, mol-mulk, qimmatbaho metallar yoki suveren fondlar kabi boshqa moliyaviy aktivlardan tashkil topgan mablag‘lar;

- shartli (zaxira) mablag‘lar: favqulodda vaziyatlar uchun kutilgan mablag‘lar yoki kutilmagan xarajatlar;

- barqarorlik jamg‘armalari: daromadlarni hukumat va iqtisodiyotga ta’sirini kamaytirish maqsadida tashkil

¹¹ “Moliya organlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-2847-sonli (18.03.2017) Qarori

etilgan mablag'lar, masalan, neftni barqarorlashtirish fondi;

- Jamg'arma mablag'lari: kelajak avlodlar uchun, masalan, neftni tejash jamg'armalari kabi boylik do'konini yaratishga intiladigan mablag'lar;

- Moliyalashtirishni moliyalashtirish: neftni moliyalashtirish jamg'armalari kabi neft va boshqa resurslardan olinadigan daromadlardan foydalangan holda muntazam xarajatlarni emas, balki umumiy byudjet balansini moliyalash uchun foydalaniladigan mablag'lar;

- Konvensiyaning mablag'lari: donorlar yordamining (shu jumladan noqonuniy) oqimlari bilan bog'liq mablag'lar, tegishli donorlar talablarini inobatga olgan holda muayyan tartib-qoidalar asosida boshqariladi;

- Qaytariladigan mablag'lar: tovarlar va xizmatlar uchun ajratilgan mablag'lar va kreditlash operatsiyalari bilan to'ldirilgan mablag'lar va uning daromadi uning davom ettiradigan operatsiyalarini moliyalashtirish uchun mavjud bo'lib qoladi, aks holda byudjet mablag'lari to'lashni talab qiladigan byudjet qoidalari bilan xavf tug'diradi;

- Savdoni moliyalashtirish: o'z-o'zini moliyalashtirish tamoyili bo'yicha hukumatning savdo faoliyatini moliyaviy mexanizmni ta'minlash uchun tashkil etilgan mablag'lar;

- mablag'larni jamg'arish: davlat yoki hukumat tomonidan to'plangan mablag'lar, odatda qarzni to'lash uchun soliq, majburiyat yoki majburiyatlardan kelib chiqadi;


- Har xil byudjetdan tashqari hisobotlar, shu jumladan maxfiy mablag'lar: vazirlik va idoralar tomonidan olib boriladigan, ko'pincha vazirlar va tayinlangan mansabdor shaxslardan foydalanish uchun.¹²

¹² Dimitar Radev, Richard Allen «Extrabudgetary Funds» 2010 y. p.4

1.3. Davlat maqsadli va byudjetdan tashqari jamg‘armalarning shakllanish manbalari va mablag‘laridan foydalanish yo‘nalishlari

Byudjetdan tashqari jamg‘armalarning mablag‘lari maqsadli ishlatilishga yo‘naltirilgan. Odatda, ularning nomlanishida mablag‘larning ishlatilish maqsadi qayd etiladi. Byudjetdan tashqari jamg‘armalarni shakllantirishning manbalari ular tashkil etgan vazifalarning xarakteri va ko‘lamiga qarab aniqlanadi. Manbalarning turi va hajmiga rivojlanishning u yoki bu bosqichidagi mamlakatning iqtisodiy va moliyaviy holati ta’sir etadi.

Byudjetdan tashqari jamg‘armalarni shakllantirish manbalari nisbatan doimiy va vaqtinchalik xarakterga ega. Ular davlat hududida turli xil bo‘lishi mumkin (1.6-rasm).



1.6-rasm. Byudjetdan tashqari jamg‘armalarni shakllantirish manbalari¹³

Byudjetdan tashqari jamg‘armalarning mablag‘laridan foydalanish jamg‘armalarning maqsadi, aniq iqtisodiy sharoitlar, ishlab chiqilgan va amalga oshirilayotgan dasturlardan kelib chiqiladi. Mablag‘larning ma’lum bir

¹³ Nurmuxamedova B., Kabirova N. Moliya T., “Tasvir”, 2014. 158 b.

qismi ta'sischilik faoliyatiga hamda qimmatli qog'ozlarga joylashtiriladi. Byudjetdan tashqari jamg'armalar investor sifatida hamda moliya bozori ishtirokchisi sifatida ishtirok etishi mumkin.

Masalan, davlat maqsadli jamg'armalar mablag'lari quyidagilar hisobidan shakllantiriladi va sarf etiladi:

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti, ijtimoiy nafaqalar to'lash, kompensatsiya to'lovleri va boshqa to'lovlar bo'yicha xarajatlarni moliyalashtirishga yo'naltiriladigan majburiy to'lovlar, badallar, shuningdek, boshqa manbalardan tushadigan mablag'larni jamlaydi.

Davlat mulkini xususiy lashtirishdan tushgan mablag'lar jamg'armasi davlat mulki bo'lgan korxonalarini, xo'jalik jamiyatlarining ustav jamg'armalaridagi aksiyalarini (ulushlarni), yer uchastkalari va boshqa mol-mulkni realizatsiya qilish, ustav jamg'armalarida davlat ulushi bo'lgan xo'jalik jamiyatlarini tugatishdan tushgan tushumlarni hamda qonun hujjatlariga muvofiq boshqa manbalar hisobidan shakllantiriladi va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoki O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaroriga ko'ra bir yo'la to'lanadigan to'lovlar, davlat aktivlari bilan bog'liq operatsiyalar va belgilangan tartibda aniqlanadigan boshqa maqsaddagi xarajatlar uchun foydalilaniladi.

O'zbekiston Respublikasining Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasi bandlik va aholini ijtimoiy muhofaza qilish sohasidagi xarajatlarning moliyalashtirilishini ta'minlash uchun yagona ijtimoiy to'lovdan ajratmalar va qonun hujjatlariga muvofiq boshqa manbalar hisobidan shakllantiriladi.

Ko'rinish turibdiki, har bir davlat maqsadli va byudjetdan tashqari jamg'armalar o'z daromad manbai hamda ulardan foydalanish yo'nalishlariga ega va ushbu yo'nalishlar ularning faoliyat maqsadlaridan kelib chiqadi.

Xalqaro doirada byudjetdan tashqari jamg'armalarni moliyalashtirish manbalari¹⁴:

- umumiy daromadlar: (masalan, jami daromadlarning foizlari sifatida belgilanadi) va aniq (ma'lum soliqlar yoki ijtimoiy ta'minot to'lovlari bilan belgilanadi);
- byudjetdan pul o'tkazmalari;
- foydalanuvchi uchun to'lovlar;
- moliyaviy va moliyaviy bo'Imagan aktivlarni sotish, shu jumladan, xususiy lashtirish tushumlari: odatda, bir martalik maqsadlarda foydalaniladi;
- tovarlar va yoki xizmatlarni sotish;
- qarz olish;
- donor jamg'armalari: to'g'ridan-to'g'ri yordam berish va qarzni qoplash va qarzni almashtirish qoidalari.

Bahs-munozara va nazorat uchun savollar

1. Byudjetdan tashqari fondlarga ta'rif bering.
2. Davlat byudjetdan tashqari fondlarini shakllantirish zarurati nimada? Ular qanday vazifalarni bajaradi?
3. Byudjetdan tashqari fondlarni shakllantirish usullarini aytib bering.
4. Byudjetdan tashqari fondlarning xususiyatlarini aytib bering va izohlang.
5. Davlat moliya tizimida davlatning byudjetdan tashqari fondlarining roli va ahamiyati nimalardan iborat?
6. Davlatning maqsadli fondlari tuzilmasiga ta'rif bering.
7. O'zbekiston Respublikasi jamlanma byudjetida davlat maqsadli fondlari maqsad va vazifalari nimalardan iborat?
8. O'zbekiston Respublikasi jamlanma byudjetida davlat maqsadli fondlari mablag'larining shakllanish manbalari va ishlatilish yo'nalishlarini aytib bering.

¹⁴ Dimitar Radev, Richard Allen «Extrabudgetary Funds» 2010 y. p.5

2-BOB. MOLIYA TIZIMIDA DAVLAT MAQSADLI VA BYUDJETDAN TASHQARI JAMG'ARMALARING TUTGAN O'RNI

Reja:

2.1. Moliya tizimida davlat maqsadli va byudjetdan tashqari jamg'armalarining o'rni

2.2. Ijtimoiy siyosatni amalga oshirishda davlat maqsadli va byudjetdan tashqari jamg'armalarining ahamiyati

2.3. Davlat maqsadli jamg'armalarining funksional jihatiga ko'ra tasniflanishi

2.1. Moliya tizimida davlat maqsadli va byudjetdan tashqari jamg'armalarining o'rni

Davlat boshqaruvining turli pog'onalarida (markaziy va mahalliy darajada) hamda xo'jalik yuritishning turli sohalarida (ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish, ishlar bajarish) sodir bo'ladijan ko'p qirrali moliyaviy munosabatlarning sohalari va bo'g'inlari yig'indisi mamlakat moliya tizimini tashkil qiladi.

Mamlakatda moliyaviy resurslarni shakllanitirish va ularning sarflanish mexanizmiga ko'ra moliya tizimini uch sohaga ajratish mumkin. Bular:

- davlat moliyasi;
- korxonalar, tashkilotlar va muassasalardan iborat bo'lgan xo'jalik subyektlari moliyasi;
- uy xo'jaliklari moliyasi.

Davlat byudjeti tarkibida davlat maqsadli jamg'armalari to'planib, qonunchilikda ularning har biri uchun mablag'lar manbalari, har bir manbadan kelib tushadigan mablag'lar normalari va shartlari hamda mablag'lar ishlatilishi mumkin bo'lgan maqsadlar belgilangan.

Bozor munosabatlariiga o'tish sharoitlarida davlat rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari davlat moliya tizimi

tuzilmasiga jiddiy ta'sir ko'rsatdi. Shu tarzda yangi institutlar yuzaga keldi, moliya tizimining boshqa bo'g'inlari mazmuni juda katta o'zgarishlarga uchradi.

O'zbekiston Respublikasi moliya tizimi quyidagi bo'g'inlardan tarkib topgan:

- davlat byudjeti, uning tuzilmasiga kiruvchi respublika byudjeti, Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti va mahalliy byudjetlar;

- davlat maqsadli jamg'armalari va byudjetdan tashqari jamg'ar-malar;

- xo'jalik yurituvchi subyektlar va iqtisodiyot tarmoqlari moliyasi;

- kredit (davlat krediti va bank krediti);

- mulkni sug'urta qilish va shaxsiy sug'urta.

O'zbekiston Respublikasining hozirgi bosqichda tarkib topgan moliya tizimi maxsus maqsadli va byudjetdan tashqari jamg'armalarni yaratishda jahon tajribasidan foydalanadi, ushbu jamg'armalar yordamida ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan chora-tadbirlar amalga oshiriladi. Xo'jalik yurituvchi subyektlar moliyasiga nisbatan qattiq tartibga solish choralar qo'llanmaydi, shaxsiy sug'urta va mulkni sug'urta qilishga davlat monopoliyasi bekor qilingan.

O'zbekiston Respublikasi moliya tizimining har bir bo'g'ini u yoki bu ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish uchun mo'ljallangan turli pul jamg'armalarini hosil qilish, taqsimlash va ulardan foydalanishga qaratilgan o'ziga xos vazifalar majmuini bajaradi. Mazkur jamg'armalar, agar ular byudjet tizimi yoki markazlashtirilmagan (xo'jalik yurituvchi subyektlar) holda tashkil etilgan bo'lsa, markazlashtirilgan jamg'armalar bo'lishi mumkin.

Moliya tizimining markaziy bo'g'ini mamlakatning Davlat byudjeti bo'lib, uning yordamida davlatning umum davlat markazlashtirilgan pul jamg'armasi tashkil etiladi va foydalaniladi. U davlat tomonidan o'zining ichki va tashqi funksiyalarini amalga oshirishi uchun asosiy moliyaviy baza bo'lib xizmat qiladi. Moliya tizimining ushbu bo'g'indida mamlakat daromadlarining asosiy qismi hamda

siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy xususiyatdagi eng muhim xarajatlari to'planadi. Davlat byudjeti moliya tizimining boshqa bo'g'lnari bilan o'zaro uzviy bog'liq bo'lib, muvofiqlashtiruvchi markaz vazifasini bajaradi.

O'zbekiston Respublikasi davlat byudjetining tarkibiy qismi Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti va mahalliy byudjetlar hisoblanadi. Hozirgi vaqtida bu bo'g'in iqtisodiyotga samarali ta'sir ko'rsatish, xo'jalik yuritish jarayonlarini tartibga solish, ishlab chiqaruvchi kuchlarni oqilona joylashtirish va h.k. uchun tobora ko'proq foydalanimoqda. Mahalliy byudjetlar bozor islohotlarining barcha bosqichlarida davlat tomonidan olib borilayotgan kuchli ijtimoiy siyosatga faol ta'sir ko'rsatadi.

Mamlakatning davlat byudjetida davlat maqsadli jamg'armalarini to'plangan bo'lib, ular yordamida fuqarolarining pensiya ta'minoti, xususiy lashtirish jarayonlarini rivojlantirish, aholini ish bilan band etish va boshqa masalalar hal etiladi.

Davlat maqsadli jamg'armalarini tuzish, mablag'larni shakllantirish va ulardan foydalanish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

2.2. Ijtimoiy siyosatni amalga oshirishda davlat maqsadli va byudjetdan tashqari jamg'armalarning ahamiyati

Ijtimoiy siyosatni amalga oshirishda sifat jihatidan yangi bosqich, ya'ni ijtimoiy himoyalash vositasini chuqurlashtirish, uni o'zgarib borayotgan sharoitlarga moslashtirish zarurati yuzaga keldi. Ijtimoiy himoyalash chora-tadbirlari butun aholiga emas, balki faqat shunday himoyaga haqiqatan ham muhtoj bo'lganlarga nisbatan qo'llanilishi lozim. Butun tizim bir tekischilik va tayyorga ayyorlik kayfiyatini tugatishga qaratilgan bo'lishi kerak. Bu narsa ijtimoiy himoyaning mavjud usullarini, ularni moliyaviy ta'minlash manbalarini tubdan o'zgartirishni taqozo etadi. Shunday bir vosita zarurki, bunda aholining turmush darajasi ishonzchli ravishda himoya qilingan, turli

xil ijtimoiy xavflar ta'siridan himoya qilinishi kafolatlangan bo'lishi lozim.

Buning ma'nosi shuki, ijtimoiy ta'minotga muhtoj fuqarolarni himoya qilish tizimida ularning tur mush darajasi byudjet vositasida va davlat kafolati yo'li bilan ham, shuningdek, turli xayriya jamg'armalari, korxonalar, tashkilotlar va xo'jaliklarning jamg'armalari orqali ham qo'llab-quvvatlanishi mustahkamlab qo'yilishi kerak. Mehnatga layoqatli aholining psixologiyasini o'zgartirish juda muhimdir. U ijtimoiy himoyalashning passiv obyektidan, davlatning moddiy yordamidan bevosita va bilvosita foydalanuvchidan o'z taqdirining faol sohibiga, o'zining ijtimoiy farovonligi uchun mas'ul bo'lgan shaxsga aylanishi lozim. Aholining mehnat faoliyatini kuchaytirish hisobiga uning yakka tartibda o'zini-o'zi himoya qilish vositalari to'la ishga solinishi kerak. Bozor munosabatlarini shakllantirishning yangi bosqichida quyidagilar ijtimoiy siyosatning asosiy yo'nalishlari hisoblanadi.

Birinchidan, fuqarolarning iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va mehnat qilish erkinligi, kasb-korini va mehnat sohasini erkin tanlash bo'yicha kafolatlangan konstitutsiyaviy huquqlarini ta'minlash. Mehnatga layoqatli kishining o'zi mehnat faoliyati shaklini erkin tanlash huquqidan foydalana borib, o'zini va o'z oilasini moddiy jihatdan zarur darajada ta'minlashi, oilasining farovonligi uchun, sog'lom avlodni kamol toptirish uchun javobgar bo'lishi kerak. Ijtimoiy siyosat, uni ro'yobga chiqarish vositalari odamlarning mehnatdagi faolligi va tadbirkorligini oshirish uchun shart-sharoit vujudga keltirishga qaratilmog'i lozim.

Ikkinchidan, ijtimoiy himoyalash aniq maqsadni ko'zlagan va manzilli bo'lishi kerak. Aholining turli qatlamlariga alohida-alohida yondashish – ijtimoiy muhofaza yangi tizimining o'ziga xos xususiyati bo'lib qolmog'i lozim. Bu borada, avvalo, asosiy oziq-ovqat mahsulotlarining narxlariga dotatsiya berishdan voz kechish talab etiladi. Mavjud tizimda davlat byudjetidan ajratilayotgan mablag'lar unga hammadan ko'ra ko'proq

muhtoj bo'lganlargagina yetib bormasdan, balki butun aholi o'ttasida tarqalib ketmoqda. Bu holda ijtimoiy himoyalash tadbirining samarasi ko'zga ko'rinxay qoladi.

Uchinchidan, aholining ijtimoiy jihatdan eng muhtoj tabaqalari va guruhlarini qo'llab-quvvatlash, avvalgidek, ijtimoiy siyosatning ustuvor yo'nalishi bo'lib qolaveradi, biroq u ma'lum yo'nalishdagi siyosat tusini olishi lozim.

To'rtinchidan, iqtisodiy jihatdan faol aholiga kelganda shuni aytish kerakki, uning uchun davlat mehnatni rag'batlantirishning kuchli vositasini joriy etish hisobiga bu tabaqaning mehnat va ijodiy imkoniyatini to'liq darajada ro'yobga chiqarish uchun shart-sharoit yaratib berishi kerak. Xodimlar mehnatiga qarab taqdirlanishi lozim.

Beshinchidan, aholini ijtimoiy himoyalash chora-tadbirlari tizimida real mehnat bozorini shakllantirish, mehnatga layoqatli har bir kishiga o'z mehnati bilan oilasining turmush darajasini yaxshilash imkonini beradigan sharoitni yaratish asosiy o'rnlardan birini egallaydi. Mehnat bozori mehnat resurslarini ishchi kuchiga bo'lgan talab va taklifni shakllantirish asosida, xo'jalik yuritish sohalari va tarmoqlari, mashg'ulot turlari va shakllari bo'yicha aniq maqsadni ko'zlab taqsimlash va qayta taqsimlash vositasi vazifasini bajarishi lozim. Odamlarning bir qismi ishsiz qolsa, qashshoqlar ko'payib ketadi, degan noto'g'ri tasavvurdan xalos bo'lish payti keldi. Mehnat bozori bo'lmasa, ishchi kuchi tovarga aylantirilmasa, bozor munosabatlari to'g'risidagi gap-so'zlar og'izda qolib ketadi. Kishilarning bir qismini moddiy ishlab chiqarish tarmoqlaridagi, ayniqsa, yashirin ishsizlik mavjud bo'lgan, mehnat faolligini namoyon qilish imkonini bermayotgan qishloq xo'jaligidagi ishdan ozod qilish zarur. Bizda xizmat ko'rsatish sohasi sust rivojlangan, bu soha barcha erkin mehnat resurslarini qamrab olishi mumkin.

Oltinchidan, bozor munosabatlariga o'tish davrida ijtimoiy soha – sog'liqni saqlash, ta'lim, madaniyat va san'at, shuningdek, ilm-fan ayniqsa mushkul ahvolga tushib qoladi. Biz uchun ma'naviyat, tarixiy va madaniy qadriyatlar, aholining ma'naviy, axloqiy holati, yosh avlodni

tarbiyalash eng asosiy ustuvor vazifa bo'lishi lozim. Shuning uchun ham biz xalqning ma'naviyatiga zarar yetkazgan holda mablag'ni tejay olmaymiz. Hozirgi murakkab davrda mazkur tarmoqlarni ishonchli tarzda qo'llab-quvvatlash, ularda ishlovchi kishilarning mehnatiga munosib baho berish, ularni kuchli ijtimoiy himoyalash, ularning ijodiy imkoniyatlarini namoyon etish uchun shart-sharoit yaratish talab qilinadi.

Ijtimoiy xizmatni tashkil etishning butun dunyoda qabul qilingan ikki bo'g'inli tizimiga o'tish zarur, bu tizim pul bilan aralash tarzda ta'minlashga asoslanadi. Bunday tizimda davlat har bir kishiga belgilangan eng oz miqdor doirasida malakali ijtimoiy xizmat ko'rsatish ta'minlanishini kafolatlaydi. Qo'shimcha xizmatlardan esa fuqarolar o'z mablag'lari – daromadlari, jamg'armalari, sug'urta to'lovlari va aniq maqsadga qaratilgan davlat qarzlari hisobiga foydalanishlari lozim.

Sog'liqni saqlash tizimidagi islohotning asosiy yo'nalishlari fuqarolarga bepul davlat tibbiy xizmati ko'rsatishning va shoshilinch yordam berishning kafolatlangan minimumini saqlab qolgan holda fuqarolarni tibbiy sug'urta qilishni joriy etish va tibbiy muassasalar ishini byudjet-sug'urta prinsipiga o'tkazish bilan bog'liq bo'lishi kerak.

Ta'lim sohasida o'tish davrida umumiy va kasb ta'limi sifatining davlat standartini, ta'lim sohasida moliyaviy mablag'lardan samarali foydalanishni ta'minlash, ulardan kimlar foydalanishini aniq belgilash, davlatdan tashqari ta'lim tuzilmalarini rivojlantirish vazifasi birinchi o'ringa chiqmoqda.

Ilmiy va madaniy sohadagi mavjud imkoniyatlarni saqlab qolish, qayta tiklash, ko'paytirish maqsadida bundan buyon ham fundamental fanning, madaniyat va san'at muassasalarining moddiy-texnika bazasini rivojlantirish va mustahkamlashga, aqliy va ijodiy mehnat xodimlarining obro'yini oshirishga davlat tomonidan zarur mablag'lar ajratilaveradi.

Bozor munosabatlariga o'tishning boshqa prinsiplarini amalga oshirish ham aholini ijtimoiy jihatdan kuchli himoya qilish dasturlarini ro'yobga chiqarishga bog'liqdir. Samarali ijtimoiy siyosatni iqtisodiyotni barqarorlashtirish, tarkibiy o'zgartirishlar, bozor munosabatlarini bosqichma-bosqich joriy etish chora-tadbirlari bilan uyg'unlashtirib amalga oshirib borgan taqdirdagina ijtimoiy sohaga yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini barpo etish mumkin. Pirovard maqsad esa O'zbekistonda istiqomat qilayotgan millionlab oilalarning munosib turmush kechirishi uchun sharoit vujudga keltirishdan iboratdir.

Amalga oshirilayotgan islohotlarning barcha bosqichlarida kuchli ijtimoiy siyosat takomillashtirib borildi. Davlatimiz tomonidan ish haqi, pensiya va nafaqalar indeksatsiyalanib, kam ta'minlangan oilalarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimi yaratildi, pensiya tayinlash va to'lash tizimida milliy o'ziga xoslik inobatga olinib, xalqaro umuminsoniy prinsip va me'yorlarga muvofiqlashtirildi. Yaqin istiqbolda ijtimoiy himoyaga muhtoj va kam ta'minlangan aholi qatlamlarini ijtimoiy himoya qilish va turmush darajasini oshirish sohasida davlat bosh islohotchi bo'lib, muhim qadamlar tashlanmoqda. Bunda, ya'ni kam ta'minlangan va ijtimoiy himoyaga muhtoj fuqarolarning manzilli to'g'ri aniqlanishida davlat organlari va fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari hamkorligi yo'lga qo'yilgan. Yolg'iz keksalar, nogironlar va ishga layoqatsiz fuqarolarni aniq ijtimoiy muhofaza qilish dasturini amalga oshirish; kam ta'minlangan oilalarga oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun maqsadli mikrokreditlar ajratish; mehnat bozoridagi vaziyat murakkab bo'lgan hududlarda ishsizlikni qisqartirish maqsadida sanoat ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarida yangi tashkil etilayotgan korxonalarini maqsadli joylashtirish; ishsiz fuqarolarni haq to'lanadigan jamoat ishlariga jalb qilishni faollashtirish, avvalambor, hududlarni obodonlashtirish, transport infratuzilmasini rivojlantirish; tadbirkorlik faoliyatiga jadal jalb qilish, o'z biznesini kengaytirishiga imtiyozli kreditlar ajratish orqali

yoshlar uchun ish o'rinlari tashkil etish kabi muhim yo'nalishlar ijobjiy hal qilinmoqda.

Kam ta'minlangan oilalarни ijtimoiy himoyalash va qo'llab-quvvatlash, turli xil usullar, mehnat daromadlarining qo'shimcha manbalari bilan ta'minlash orqali daromadlari oshirilmoqda. Mamlakatimizda ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirish sharoitida yaratilayotgan moddiy boyliklar adolatli taqsimlanmoqda. Jumladan, keksalarimizning Vatan, xalq oldidagi xizmatlarini qadrlash, yoshlarimiz qalbida ularga hurmat va ehtirom tuyg'ularini uyg'otish davlatimiz siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Bugungi kunda mamlakatimizda inson omilining hal qiluvchi kuch sifatida amal qilishi va izchil ravishda rivojlanib borishi uchun real shart-sharoitlarni yaratadigan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, ahamiyatga molik o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Biz o'z oldimizga qo'yayotgan maqsad esa - bu zamonaviy rivojlangan demokratik davlatlar qatoriga kirish, xalqimiz uchun munosib turmush sharoitini yaratish va uning jahon hamjamiyatida munosib o'rinnegallashini ta'minlashdan iborat.¹⁵

O'zbekiston hukumati mamlakatimizda kam ta'minlangan toifadagi aholi sonini kamaytirish va jamiyatimiz hayotida insonparvarlik prinsiplarining yanada rivojlanishiga ko'maklashish maqsadida Ming yillik rivojlanish maqsadlari borasida ma'lum bir majburiyatlarni o'z zimmasiga olgan. Xalqaro miqyosda hamjamiyat, shu jumladan, BMTning turli tarkibiy tuzilmalari bu borada moliyaviy yordam berish va mamlakatimizdagi davlat va nodavlat tashkilotlar bilan hamkorlik qilish orqali ko'maklashishga hozirligini izhor etadi. O'zbekistonning 2015-yilgacha bo'lgan davrdagi vazifasi kam ta'minlangan aholi hissasini 50 foizga qisqartirishdan iborat. Mamlakatimizda aholini samarali muhofaza qilishga yo'naltirilgan maqsadli chora-tadbirlar hamda yuksak

¹⁵ O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotining mustaqillik yillardagi (1990-2010 yillar) asosiy tendensiya va ko'rsatkichlari hamda 2011-2015 yillarga mo'ljalangan proqnozlar: statistik to'plam. – T.: "O'zbekiston", 2011, 3-4-b.

iqtisodiy o'sish va bandlik sur'atlari aholi farovonligini oshirishni ta'minlamoqda.

Mamlakatimiz iqtisodiyotini modernizatsiya qilish sharoitida aholi daromadlari tarkibida qator o'zgarishlar sodir bo'ldi.

Birinchidan, daromad shakllari o'zgardi, ya'ni uning an'anaviy turlari (ish haqi, pensiya, nafaqa, stipendiya) qatoriga mutlaqo yangilari – tadbirkorlik faoliyatidan, (ko'chmas) mulkdan, qimmatli qog'ozlardan, chet el valyutasidan keladigan daromadlar qo'shildi.

Ikkinchidan, daromadlarning tarkibiy qismlari miqdor va sifat jihatidan o'zgardi, bu borada fuqaro ixtiyoridagi haqiqiy daromadlar, daromad tanqisligi, tirikchilik minimumi, qashshoqlik darajasi, oila pul daromadlarining xarid qobiliyati kabi tushuncha va kategoriyalar paydo bo'ldi.

Uchinchidan, daromadlardan foydalanishning yangi yo'nalishi paydo bo'ldi: majburiy to'lovlar va badallar, chet el valyutasi, qimmatli qog'ozlar va shaxsiy mulkni sotib olish uchun xarajatlar, tijorat banklariga qo'yilmalar shular jumlasidandir.

Ta'kidlash joizki, aholi daromadlarining darajasi qanchalik yuqori bolsa, uning zaruriy ehtiyojini qondirish, salomatligini saqlash, dam olishini tashkil etish, ma'lumot olishi, bo'sh vaqtlarini madaniy tarzda o'tkazishi bo'yicha imkoniyatlari shunchalik ko'p bo'ladi.

Mamlakatimizda olib borilayotgan ijtimoiy va iqtisodiy sohadagi islohotlarning bosh maqsadi iqtisodiyotni yuksaltirishning ijobiy sur'atlariga erishish orqali aholining turmush farovonligini yuksaltirishdir.

Bugungi kunda respublikada aynan aholini ijtimoiy himoya sohasida amalga oshirilayotgan ijtimoiy siyosat quyidagilarga qaratilgan:

- ijtimoiy nafaqalarni aynan kam ta'minlangan oilalarga qaratish;

- aholini ijtimoiy himoya qilishda manzillilikni ta'minlash;

- shu maqsadlarda kam ta'minlangan oilalarga nafaqalarni mahallalar orqali yetkazilishini ta'minlaydigan mexanizmlarni bosqichma-bosqich takomillashtirib borish;

- aholining ijtimoiy muhofazasi uchun davlat moliyaviy manbalari bilan bir qatorda, homiylik, xayriya tashkilotlari, korxonalar mablag'larini jalg etish.

Aholi farovonligini oshirishning asosiy yo'nalishlарини quyidagi larda ko'rishimiz mumkin (2.1-rasm).

Aholi farovonligini oshirish yo'nalishlari

→ Aholining real daromadlarini oshirish

→ Aholi bandligini ta'minlash

→ Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini yanada rivojlantirish

→ Davlat tomonidan beriladigan aniq manzilli ijtimoiy yordam tizimini takomillashtirish

2.1-rasm. Aholi farovonligini oshirish yo'nalishlari

Aholining ijtimoiy farovonligi mamlakatda olib borilayotgan ijtimoiy siyosatga, uning yo'nalishlari va tanlangan ustuvorliklar ko'lamiga bog'liq bo'ladi. Odatda, ijtimoiy siyosat quyidagi asosiy yo'nalishlarda olib boriladi:

- aholini ijtimoiy himoya qilish;
- ijtimoiy ta'minot;
- davlat ijtimoiy kafolatlarini ta'minlash.

Ijtimoiy himoya - o'ziga bog'liq bo'lмаган ravishda ijtimoiy muhofazaga muhtoj fuqarolarga nisbatan ko'rsatiladigan ijtimoiy yordam shakli bo'lib, kam ta'minlangan aholi qatlamlariga ko'rsatiladigan xizmatlar,

nafaqalar va imtiyozlarni ko'zda tutadi. Ijtimoiy himoya tadbirlari yordamida aholining umumjamiyat ishlab chiqarish jarayonida qanday qatnashishidan qat'iy nazar, aholining ma'lum tabaqalari turmush darajasini birmuncha (vaqtinchalik yoki doimiy) yaxshilashga erishiladi. Bu maqsadlardagi xarajatlarning aksariyati davlat byudjeti mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladi, shuningdek, mulkchilik shaklidan qat'iy nazar, korxona, muassasa va tashkilotlarning o'z mablag'lari hisobidan ham amalga oshiriladi. Bugungi kunda quyidagilar ijtimoiy yordam tizimini moliyaviy va moddiy jihatdan qo'shimcha tarzda qo'llab-quvvatlamoqda:

- o'z mablag'lari va jamg'armalari hisobidan o'z xodimlariga ijtimoiy qo'llab-quvvatlash maqsadlarida moliyaviy yordam to'layotgan va turli imtiyozlar berayotgan korxonalar;
- jamoat tashkilotlari;
- kasaba uyushmalari, nuroniylar, nogironlar jamiyatlari va boshqalar.

Ijtimoiy ta'minot – fuqarolarning qarilikda, kasallik ro'y berganda, mehnat qobiliyatini vaqtinchalik yoki butunlay yo'qotganda, boquvchisini yo'qotganda, shuningdek, uyda ijtimoiy yordam ko'rsatish davlat tizimidir. Ijtimoiy ta'minotning markazida pensiya ta'minoti yotadi (Butun dunyoda ijtimoiy ta'minot deganda pensiya ta'minoti tushuniladi). Bizning respublikamizda ijtimoiy ta'minot quyidagi manbalardan amalga oshiriladi:

- davlat ijtimoiy sug'urtasi hisobidan shakllanadigan Pensiya jamg'armasi;
- davlat ijtimoiy sug'urtasining bir qismini yo'naltirish hisobidan shakllanadigan Bandlikka ko'maklashish jamg'armasi;
- davlat ijtimoiy sug'urtasining bir qismini yo'naltirish hisobidan shakllanadigan Kasaba uyushmalarining mablag'lari;
- davlat byudjeti.

Ijtimoiy himoyani to'liq ta'minlash uchun, ularga maqsadli jamg'arma mablag'larini to'liq yo'naltirish uchun

byudjet tasnifida ularni aniq tizimlashtirish fiskal ma'lumotlar to'liq va moliyaviy maqsadlarga to'g'ri belgilanganligini ta'minlash uchun muhimdir.

Har qanday mamlakat o'z taraqqiyot yo'lini belgilashda moliya tiziminining qay darajada tashkil etilganligiga alohida e'tibor qaratishi tabiiy hol, albatta. Moliya tizimida markazlashgan maqsadli jamg'armalar alohida o'rIN tutadi. Mazkur jamg'armalarning iqtisodiy va ijtimoiy vazifalari mavjud. Respublikamiz mustaqillikka erishgan dastlabki kunlardan boshlab ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti sari islohotlar bosqichma-bosqich amalga oshirib kelinmoqda. Bozor iqtisodiyoti sharoitida byudjetdan tashqari maqsadli pul jamg'armalarining o'rni va ahamiyati juda muhimdir. Chunki, davlat byudjeti daromadlari va xarajatlarini samarali boshqarishda, aholi turmush darajasini oshirishda, ishlab chiqarishni rag'batlantirishda bevosita davlat byudjeti bilan birga byudjetdan tashqari maqsadli jamg'armalardan ham foydalaniladi.

Davlat byudjeti o'zining daromadlarini aniq xarajatlariga biriktirilmasligi hisobiga mablag'larning moslashishiga ko'mak beradi. Ammo xarajat moddalari bo'yicha mablag'larning ortiqroq yo'naltirishga erishmaslik lozim, xususan bunda ijtimoiy talablar maxsus e'tiborni talab etadi, chunki hamma vaqt ushbu maqsadlar uchun xarajatlarni kamaytirishdek xavf mavjud bo'ladi. Shuning uchun ham rivojlanishning eng muhim yo'nalishlarini aniqlash va mablag'larni maqsadli ishlatilishi va yo'naltirishini ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu holatlar maqsadli umum davlat vazifalarini moliyalashtirishda tegishli davlat maqsadli jamg'armalarni tashkil etish uchun asos bo'ldi.

Byudjetdan tashqari jamg'armalarni tashkil etishning maqsadi jamiyat uchun muhim bo'lgan xarajatlarni byudjet mablag'laridan tashqari mustaqil manbalar hisobidan ta'minlashdir. Byudjetdan tashqari jamg'armalarni tashkil etilishining muvofiqligini ta'minlovchi yana bir muhim omil – bu byudjet taqchilligidir. Xarajatlarni daromaddan o'sib ketishi kuchayishiga moliyaviy resurslarni faqat qidirib

topishda emas, balki korxonalar, tashkilotlar va aholidan tushgan mablag'larni qayta guruhlanishini ham talab etadi. Va nihoyat, xo'jalik yuritishning va xususiyashtirishning ko'p qirrali shakllari, byudjet shakllari bilan bir qatorda jamiyatda pul mablag'larni qayta taqsimlashni yangi usullarini qollash zaruriyatini qat'iy talab etadi.

Byudjetdan tashqari jamg'armalar dastlab, maxsus jamg'armalar shaklida yoki byudjet kelib chiqqunga qadar maxsus hisoblar shaklida paydo bo'lgan. Hukumat o'z faoliyatining kengayishi bilan ularni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan mablag'larni talab etuvchi yangi xarajatlarga ehtiyoj sezardi. Bu mablag'lar maxsus maqsadlar uchun mo'ljallangan alohida jamg'armalarda yig'ilar edi. Bu jamg'armalar qoidaga ko'ra vaqtinchalik xarakterga edi. Davlatning rejalashtirgan tadbirlarini amalga oshirib bo'ganidan keyin ushbu jamg'armalar o'z faoliyatini to'xtatar edi. Shu bilan bog'liq ravishda jamg'armalar soni doimiy o'zgarib turar edi. Markazlashgan davlatning barqarorlashishi bilan birqalikda maxsus jamg'armalarni muvofiqlashtirish davri boshlandi. Turli jamg'armalarni birlashtirilishi asosida davlat byudjeti tuzildi. Bugungi kunda byudjet bilan bir qatorda byudjetdan tashqari jamg'armalarning ahamiyati ortib bormoqda. Budgetdan tashqari jamg'armalarga badallarni to'lovchi sifatida yuridik va jismoniy shaxslar (tadbirkorlar)-ijtimoiy kafolatlarning iste'molchilari hisoblanar ekan, to'lovlar va jamg'armalar pul mablag'larining taqsimlanishi mamlakatning barcha fuqarolariga taalluqli bo'ladi va shuning uchun ham byudjetdan tashqari jamg'armalar samarali faoliyat ko'rsatishida ularning qiziqishlari kuzatiladi.

Shunday qilib, davlat maqsadli jamg'armalari – davlat organlari tomonidan milliy daromadni aholining ma'lum ijtimoiy guruhlari foydasiga qayta taqsimlashning bir usulidir.

Davlat o'z tadbirlarini moliyalashtirish uchun aholi daromadlarining bir qismini jamg'armalarga jalb etadi.

Byudjetdan tashqari jamg'armalar ikkita asosiy vazifani bajaradi:

- iqtisodiyotning muhim tarmoqlarini qo'shimcha mablag'lar bilan ta'minlash;
- aholi uchun ijtimoiy xizmatlarni kengaytirish.

Byudjetdan tashqari jamg'armalar moliya tizimining bir bo'g'ini bo'lishi bilan birgalikda bir necha xususiyatlarni o'zida aks ettiradi:

- hukumat va boshqaruv organlari tomonidan rejalashtiriladi hamda qat'iy maqsadli yo'naltirilgan bo'ladi;
- jamg'armalar mablag'laridan byudjetga kiritilmagan davlat xaratjatlarini moliyalashtirish uchun foydalaniladi;
- asosan yuridik va jismoniy shaxslarning ajratmalari asosida shakllantiriladi;
- jamg'armalarga sug'urta badallari va ularni to'lashda yuzaga keladigan o'zaro aloqalar soliqli xarakterga ega, badallar tarifi davlat tomonidan belgilanadi va majburiy hisoblanadi;
- jamg'armalar pul mablag'lari davlat qaramog'ida bo'lib, ular byudjetlar, shuningdek, boshqa jamg'armalar tarkibiga kirmaydi hamda qonun hujjatlarida e'tirof etilmagan maqsadlarda ishlatilmaydi;
- jamg'armalar mablag'laridan foydalanish ko'rsatmaga asosan foydalaniladi.

Byudjetdan tashqari jamg'armalar – davlat tomonidan byudjetga kiritilmaydigan ba'zi jamoat ehtiyojlarini moliyalashtirish uchun mustaqil tezkorlik asosida moliyaviy resurslardan qat'iy maqsadli foydalanishning shaklidir.

Mablag'lar ishlatilishining maqsadli yo'naltirilishiga ko'ra byudjetdan tashqari jamg'armalar ijtimoiy, iqtisodiy, ekologik va boshqa jamg'armalarga ajratiladi. Ijtimoiy ahamiyatdagi jamg'armalar davlat organlariga faol ijtimoiy siyosatni yuritishga ko'mak beradi. Ushbu jamg'armalarni shakllantirishda asosan, sug'urta qilingan shaxslarning, tadbirkorlarning sug'urta badallaridan, subsidiyalar va davlatning foizsiz ssudalaridan foydalaniladi. O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy jamg'armalarga byudjetdan

tashqari Pensiya jamg'armasini, Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasini hamda Ta'lim va tibbiyot muassasalarining moddiy-texnika bazasini rivojlantirish jamg'armasini va boshqa nodavlat jamg'armalarini kiritish mumkin.

Maqsadli jamg'armalarni quyidagi xususiyatlar bo'yicha tasniflash mumkin. Davlat ijtimoiy jamg'armalari fuqarolarning pensiya olish, kasalligi, nogironligi, boquvchisini yo'qotganligi sababli, shuningdek, sog'liqni saqlash va tibbiy yordam olish, ishsizlikdan himoya qilinish uchun va boshqalar uchun ijtimoiy nafaqalarni olishdek konstitutsion huquqlarni ta'minlashga yo'naltirilgan. Iqtisodiy jamg'armalar jamiyatning xo'jalik va ijtimoiy hayotining rivojlanishida davlat ta'siri imkoniyatlarini kengaytiradi. O'zbekiston Respublikasida iqtisodiy jamg'armalarga Respublika yo'l jamg'armasini, Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasini va Sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash jamg'armasini, shuningdek, boshqa iqtisodiy ahamiyatga ega jamg'armalarni kiritish mumkin. Davlat byudjetida jamlangan byudjetdan tashqari jamg'armalar davlat maqsadli jamg'armalar hisoblanadi.

2.3. Davlat maqsadli jamg'armalarining funksional jihatiga ko'ra tasniflanishi

Jahon tajribasida byudjetdan tashqari fondlarning juda ko'p turlari mavjud va ularni ikki katta guruhga ajratish mumkin:

- ijtimoiy yo'naltirilgan fondlar (pensiya fondlari, majburiy tibbiy sug'urta fondlari, bandlik fondlari, ijtimoiy sug'urta fondlari, aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash umummilliy fondlari);
- iqtisodiy yo'naltirilgan fondlar (o'z yo'nalishi va manbalariga ega).

Fondlarning mavjud bo'lish manbalarining ko'pchiligi davlat tomonidan belgilanadigan majburiy badallar hisobiga shakllanadi va faoliyat ko'rsatadi.

Hozirgi moliyaviy munosabatlarning rang-barang tizimida moliyaning faoliyat yo'nalishi mezonlarini ajratib ko'rsatish kerak. Bunda quyidagi ikki mezonnini belgilash lozim: rivojlanish va ijtimoiy yo'naltirilganlik mezonlari. Bozor iqtisodiyoti sharoitida rivojlanish mezoni tobora ijtimoiy mezonga aylanib borayotgani muhim holatdir. Bu holat, inson kapitalini investitsiyalash nazariyasidan kelib chiqadi. Ijtimoiy investitsiyalar jumlasiga inson salohiyatini, malakasi va ishlab chiqarish tajribasini oshirishga, shuningdek, nomoddiy ne'matlarning boshqa shakllarini rivojlantirishga qo'shiladigan investitsiyalar kiradi. Davlatning moliyaviy faoliyati yalpi ichki mahsulot (YaIM)ni taqsimlash va qayta taqsimlash yo'li bilan shaxsiy ehtiyojlarnigina emas, ijtimoiy ehtiyojlarni ham qondirish zarurligi yuzasidan obyektiv jarayon hisoblanadi.

Moliyaviy munosabatlar vujudga kelishining dastlabki sohasi YaIMning birlamchi taqsimlanishi jarayoni bo'lib, bunda pul daromadlari va jamg'armalarining turli shakllarining vujudga kelishi sodir bo'ladi. YaIMning xo'jalik subyektlari o'rtaida keyingi qayta taqsimlanishi va undan maqsadli foydalanishning aniqlashtirilishi endi moliya negizada amalga oshiriladi. Moliyaviy resurslardan maxsus maqsadlarga mo'ljallangan pul jamg'armalari orqali foydalaniladi.

Bahs-munozara va nazorat uchun savollar

1. O'zbekiston Respublikasi moliya tizimini tushuntirib bering.
2. Davlat byudjeti tizimida davlat maqsadli va byudjetdan tashqari jamg'armalarining ahamiyatini izohlab bering.
3. O'zbekistonda faoliyat ko'rsatayotgan davlat maqsadli jamg'armalarini aytib bering.
4. Davlat maqsadli jamg'armalarining faoliyatini tashkil etish davlatning qaysi organi tomonidan amalga oshiriladi?

5. Mamlakatda ijtimoiy siyosatni amalga oshirishda davlat maqsadli jamg'armalarining ahamiyatini tushuntirib bering.
6. Ijtimoiy soha tarkibiga qanday sohalar kiradi?
7. Ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan davlat maqsadli jamg'armalarini aytib bering.
8. Iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lgan davlat maqsadli jamg'armalarini aytib bering.

3-BOB. BYUDJETDAN TASHQARI JAMG‘ARMALARING TASHKILIY-HUQUQIY ASOSLARI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI

Reja:

**3.1. Byudjetdan tashqari jamg‘armalarining
tashkiliy-huquqiy asoslari**

**3.2. Byudjetdan tashqari jamg‘armalarining
boshqaruvi va rivojlanish tendensiyalari**

**3.1. Byudjetdan tashqari jamg‘armalarining tashkiliy-
huquqiy asoslari**


O‘zbekiston Respublikasining byudjet tizimi byudjetlari tarkibiga kiruvchi davlat maqsadli fondlari, davlat byudjeti kabi, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O‘zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining har yili qabul qilinadigan “O‘zbekiston Respublikasining davlat byudjeti to‘g‘risida”gi qarori va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasining asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozlari va davlat byudjeti parametrlari to‘g‘risida”gi qarorlari va boshqa qonun hujjalari asosida belgilanadi.

Ma‘lumki, byudjet qonunchiligini yanada rivojlantirish va takomillashtirish asosida byudjet faoliyatini rivojlantirish davlat moliyasini boshqarish tizimini isloh qilishning asosiy yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. 2000-yil 14-dekabrda “Byudjet tizimi to‘g‘risida”gi¹⁶ O‘zbekiston Respublikasi qonunining qabul qilinganidan beri o‘tgan davr mobaynida byudjet tizimi amaliyotida bir qator o‘zgarishlar sodir bo‘ldi, ular:

– davlat byudjeti ijrosi g‘aznachilik tizimining joriy etilishi;

¹⁶ “Byudjet tizimi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni Byudjet Kodeksining qabul qilinishi va kuchga kirishi munosabati bilan 2014-yil 1-yanvardan boshlab o‘z kuchini yo‘qotgan.

- bir qator davlat maqsadli jamg'armalarini va boshqa nobyudjet fondlarining tuzilishi va amal qilishi;
- byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari qo'shimcha mablag'larni jalb qilish manbalarining kengayishi va ular ustidan nazoratni yaxshilash zarurligi;
- byudjet tasnifi, byudjet hisobi va hisoboti tizimining takomillashuvi;
- yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksining qabul qilinishi va amalga kiritilishi va boshqa holatlар bilan bog'liq bo'lib, byudjet qonunchiligini yanada takomillashtirish zarurligini taqozo etdi.



3.1-rasm. Byudjetdan tashqari maqsadli jamg'armalarining huquqiy-me'yoriy asoslari

Natijada amaldagi "Byudjet tizimi to'g'risida"gi hamda "Davlat byudjetining g'azna ijrosi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunlarida belgilangan normalar mukammal tarzda qayta ishlangan holda Byudjet Kodeksida o'z aksini topdi.

Byudjet tizimidagi islohotlar doirasida 2014-yildan boshlab O'zbekiston Respublikasida amalga kiritilgan yangi Byudjet Kodeksi davlat moliyasini boshqarishning huquqiy asoslarini yanada mustahkamlash, byudjet siyosatining ustuvorliklarini belgilab olish, byudjet mablag'lardan foydalanish samaradorligini oshirish va davlat xizmatlarini

taqdim etish sifatini oshirishga qaratilgan. Ushbu Kodeks O'zbekiston Respublikasining byudjet tizimi byudjetlarini shakllantirish, tuzish, ko'rib chiqish, qabul qilish, tasdiqlash, ijro etish, davlat tomonidan mablag' jalb qilish va byudjet to'g'risidagi qonun hujjatlari ijrosini nazorat qilish sohasidagi munosabatlarni tartibga soladi.

Yangi Byudjet Kodeksi byudjet jarayonini xalqaro amaliyot tajribalaridan kelib chiqqan holda tartibga solish, byudjet amaliyotida mavjud bo'lgan ziddiyatlarni bartaraf etish, eskirgan tartib-qoidalarni bekor qilish, byudjet jarayonini tashkil etishdagi me'yorlar, nizomlar va byudjet jarayoni ishtirokchilarining vakolatlarini tizimlashtirish maqsadida ishlab chiqildi. Byudjet Kodeksining alohida boblarida byudjet tizimi, uning tamoyillari, byudjet tizimini boshqarish organlarining byudjet sohasidagi vakolatlari, byudjet tizimi tarkibiga kiruvchi byudjetlarning daromadlari va xarajatlari kabilar belgilab berilgan. Xususan, Kodeksning 29-moddasida O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining byudjet sohasidagi vakolatlari belgilangan bo'lib, u:

- Davlat byudjeti hamda soliq va byudjet siyosatining asosiy yo'nalishlari loyihamalarini tayyorlaydi;
- davlat maqsadli jamg'armalarini byudjetlari loyihamalarini ko'rib chiqadi;
- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga byudjetnoma loyihasini ko'rib chiqish uchun taqdim etadi;
- O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi va Davlat bojaxona qo'mitasiga O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti daromadlari prognozini har chorakda yetkazadi;
- byudjet mablag'larini taqsimlovchilarga va davlat maqsadli jamg'armalarini taqsimlovchi organlarga ular uchun nazarda tutilgan byudjetdan ajratiladigan mablag'lar hajmlarini yetkazadi;
- byudjet mablag'larini taqsimlovchilarning xarajatlar smetalari va jamlanma xarajatlar smetalari, shtat jadvallarini, shuningdek, ularga kiritilgan o'zgartirishlarni ro'yxatdan o'tkazadi;

- Kodeks bilan belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasi respublika byudjetining xarajatlari yoyilmasiga moliya yili mobaynida o'zgartirishlar kiritadi;
- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga Davlat byudjeti, O'zbekiston Respublikasining respublika byudjeti va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlari parametrlariga o'zgartirishlar kiritish bo'yicha takliflar taqdim etadi;
 - moliya yili mobaynida Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarining Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlarining tasdiqlangan parametrlariga o'zgartirishlar kiritish to'g'risidagi takliflarini ko'rib chiqadi;
 - soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni ularning manbalari kesimida to'liq va o'z vaqtida tushishi ustidan monitoringni amalga oshiradi;
 - byudjet tizimi byudjetlarining mablag'lardan maqsadli foydalanilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi;
 - Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlarining ijrosi to'g'risidagi hisobotlar, shuningdek, byudjet tashkilotlari hamda byudjet mablag'lari oluvchilarining moliyaviy hisobotlari shakllarini va ularni taqdim etish tartibini tasdiqlaydi;
 - O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga Davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlarining tegishli davrdagi ijrosi to'g'risida hisobot taqdim etadi;
 - byudjetdan tashqari maxsus hisobvaraqlarda zaxiralar tashkil etadi;
 - Davlat byudjetini ijro etish jarayonida unga tushumlarni ko'paytirish bo'yicha qo'shimcha zaxiralarni aniqlaydi;
 - byudjet tashkilotlari va byudjet mablag'lari oluvchilarining xarajatlarini maqbullashtirishni amalga oshiradi;
 - byudjet ssudalarini beradi;

- davlat tomonidan mablag'lar jalb qilish bo'yicha O'zbekiston Respublikasining shartnomalari va davlat kafolatlarini ro'yxatdan o'tkazadi;
- davlat qarzining hisobini va monitoringini yuritadi;
- byudjet tizimi byudjetlarining kassa ijrosini yuritadi;
- byudjet tizimi byudjetlarining Yagona g'azna hisobvarag'idagi va boshqa bank hisobvaraqlaridagi mablag'larini boshqaradi;
- byudjet tizimi byudjetlari daromadlari va xarajatlarining balansliligiga ta'sir ko'rsatuvchi normativ-huquqiy hujjatlarni moliyaviy hamda iqtisodiy ekspertizadan o'tkazadi;
- o'z vakolatiga kiradigan masalalarga doir normativ-huquqiy hujjatlar qabul qiladi.

Shuningdek, Byudjet Kodeksining 33-moddasida davlat maqsadli jamg'armalarini taqsimlovchi organlarning byudjet sohasidagi vakolatlari belgilab berilgan bo'lib, davlat maqsadli jamg'armalarini taqsimlovchi organlar:

- davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlarining loyihalarini tayyorlaydi va O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga kiritadi;
- davlat maqsadli jamg'armalarining mablag'lari bo'yicha xarajatlar smetalarini, shuningdek, ularga kiritilgan o'zgartirishlarni ro'yxatdan o'tkazadi;
- davlat maqsadli jamg'armalarining byudjetlari daromadlari prognozini davlat soliq xizmati organlari va bojxona organlariga yilning har choragida yetkazadi;
- davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlariga o'zgartirishlar kiritish bo'yicha takliflar tayyorlaydi va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga kiritadi;
- davlat maqsadli jamg'armalariga majburiy to'lovlar va boshqa tushumlar to'liq hamda o'z vaqtida tushishi ustidan monitoringni amalga oshiradi;
- davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlarining tegishli davrdagi ijrosi to'g'risidagi hisobotlarni O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga taqdim etadi;
- davlat maqsadli jamg'armalari mablag'laridan maqsadli foydalaniishi ustidan nazoratni amalga oshiradi;

– davlat maqsadli jamg‘armalari byudjetlarini ijro etish jarayonida tushumlarni ko‘paytirish bo‘yicha qo‘srimcha zaxiralarni aniqlaydi va boshqalar.

3.2. Byudjetdan tashqari jamg‘armalarning boshqaruvi va rivojlanish tendensiyalari

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 14-moddasida belgilab qo‘ylganidek, “Davlat o‘z faoliyatini inson va jamiyat farovonligini ko‘zlab, ijtimoiyadolat va qonuniylik prinsiplari asosida amalga oshiradi”.¹⁷ “Resurslarniadolatli ravishda taqsimlash jamiyatning barcha a’zolari uchun ne’matlarni tanlash imkoniyatlarini kengaytiradi, shuningdek, turmush sifatini oshirish negizini yaratadi. Daromadlar va inson turmushi o‘rtasidagi bog‘liqlik soliq-byudjet siyosati va ijtimoiy siyosat choralarini qamrab oladigan davlat strategiyasi yordamida shakllantiriladi”.¹⁸

O‘zbekiston Respublikasining Byudjet Kodeksi byudjet tizimi byudjetlarini shakllantirish, tuzish, ko‘rib chiqish, qabul qilish, tasdiqlash va ijro etish, byudjet daromadlari va xarajatlarini guruhlash, davlat tomonidan mablag‘ jalb qilish, davlat qarzlarini boshqarish va byudjet to‘g‘risidagi qonun hujjatlari ijrosini moliyaviy nazorat qilish sohasidagi munosabatlarni tartibga soladi.

Davlat byudjeti daromadlari:

- soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar;
- davlat aktivlarini joylashtirish, foydalanishga berish va sotishdan olingan daromadlar;
- meros, hadya huquqi bo‘yicha davlat mulkiga o‘tgan pul mablag‘lari;
- yuridik va jismoniy shaxslardan, shuningdek, chet davlatlardan tushadigan qaytarilmaydigan pul tushumlari;
- rezident-yuridik shaxslarga berilgan byudjet ssudalarini va chet davlatlarga ajratilgan kreditlarni to‘lash hisobidan to‘lovlar;

¹⁷ O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 14-modda. Toshkent. O‘zbekiston. 2013. –B.11.

¹⁸ Abduraxmonov Q.H. Inson taraqqiyoti. Darslik. – T.: Iqtisodiyot. 2013.-B.6.

– qonun hujjatlariga muvofiq boshqa daromadlar hisobidan shakllantiriladi.

Byudjet tizimi byudjetlari daromadlarining tasnifi daromadlarni ularning turlari va manbalari bo'yicha kodlashdan iborat. Byudjet tizimi byudjetlari daromadlarining tuzilmasi quyidagilardan iborat: byudjet tizimi byudjetlari mablag'larining manbalari va darajalari tasnifi; daromadlarning turlari; tashkiliy tasnif; hududiy tasnif. Byudjet tizimi byudjetlari mablag'larining manbalari va darajalari tasnifi kelib tushayotgan daromadlarning tegishli mablag'lar manbalariga va ushbu byudjetlar darajalariga mansubligini aniqlash uchun qo'llaniladi.

Daromadlarning turi bo'lim, paragraf va daromad tipidan iborat. Daromadlar bo'limi daromadlarni ularni olish manbalari bo'yicha kodlashdan iborat bo'ladi. "Daromadlar paragrafi soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni, shuningdek, soliq bo'lмаган то'ловларни ularни undirish bazasi bo'yicha kodlashdan iborat".¹⁹

Daromad tipi byudjet tizimi byudjetlari daromadining aniq turidan iborat. Tashkiliy tasnif kelib tushayotgan daromadlarning ana shu daromadlarni ma'muriy jihatdan idora qiluvchi tegishli organga mansubligini identifikatsiyalash maqsadida qo'llaniladi. Hududiy tasnif kelib tushayotgan daromadlarning ushbu daromadlar shakllantirilayotgan yoxud o'tkazib berilayotgan tegishli ma'muriy-hududiy birlikka mansubligini identifikatsiyalash maqsadida qo'llaniladi.

"Maqsadli jamg'armalar AQShning funksiyalarini bir muncha yengillashtirish maqsadida tashkil qilingan bo'sada, ammo ular Qo'shma shtatlarning muhim funksiyalarini bajaradi".²⁰

Davlat maqsadli jamg'armalari – davlat byudjeti tarkibida jamlantiriladigan jamg'armalar bo'lib, ularning har biri uchun mablag'lar manbalari, har bir manbadan mablag' tushishi normalari va shartlari, shuningdek, shu

¹⁹ O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining "Byudjet tasnifini qo'llash bo'yicha Yo'riqnomani tasdiqlash haqida" 2010-yil 20-avgustdag'i 65-son buyrug'i.

²⁰ Robert D.Lee Jr., Ronald W.Johnson, Philip G. Joyce. PUBLIC BUDGETING SYSTEMS. Jones & Bartlett Learning; 9 edition. USA, 2012. P72

mablag'laridan foydalanilishi mumkin bo'lgan maqsadlar qonun hujjatlari bilan belgilanadi. Mamlakat moliya tizimi oldiga qo'yilgan muhim vazifalardan biri – davlat maqsadli jamg'armalarining faoliyatidan samarali foydalanish hisoblanadi. Byudjet tizimini shakllantirish va uni barqarorlashtirish, mazkur sohani davlat tomonidan boshqarish samaradorligini oshirish asosiy shartlaridan biri sifatida amal qiladi. Bu borada davlat moliyasini rivojlanishini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Jamlangan byudjet bir tomonidan byudjet sohasi samaradorligiga, ikkinchi tomonidan esa, davlat maqsadli jamg'armalari faoliyati natijaviyligiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatadi.

Bahs-munozara va nazorat uchun savollar

1. Davlatning maqsadli jamg'armalari deganda nimani tushunasiz va u mamlakat uchun nimaga kerak?
2. Byudjetdan tashqari jamg'armalarning rivojlanish davrlarini tushuntirib bering.
3. Davlat maqsadli va byudjetdan tashqari jamg'arma-larning tashkiliy asoslarini izohlab bering.
4. Davlat maqsadli va byudjetdan tashqari jamg'arma-larning faoliyati qaysi me'yoriy-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinadi?
5. O'zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksida davlat maqsadli jamg'armalari haqida nimalar yozilgan?
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 29-dekabrdagi "O'zbekiston Respublikasining 2018-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozlari va davlat byudjeti parametlari to'g'risida"gi PQ-3454-sonli qarorining mohiyatini tushuntirib bering.

**4-BOB. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MOLIYA
VAZIRLIGI HUZURIDAGI BUDJETDAN TASHQARI
PENSIYA JAMG'ARMASI**

Reja:

4.1. Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining mohiyati va tashkiliy tuzilishi

4.2. Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi faoliyatining asosiy vazifalari va funksiyalari

4.3. Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining daromad va xarajatlari

4.4. Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasidan to'lanuvchi davlat pensiyalari va ijtimoiy nafaqalar

4.1. Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining mohiyati va tashkiliy tuzilishi

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida ijtimoiymadaniy sohani rivojlantirish va aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini qo'llab-quvvatlash mexanizmi yaratildi. Aholini manzilli himoyalash tizimiga bosqichma-bosqich o'tildi. Bu sohaning barqaror faoliyatini ta'minlash va rivojlantirishga Davlat byudjeti jami xarajatlarining qariyb 60 foizi yo'naltirilmoqda. "O'zbekiston Respublikasini 2017-2021-yillarda rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishlari bo'yicha" Harakatlar strategiyasining "Ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari" deb nomlangan 4-qismi ham aynan shunga qaratildi. Bugungi kunda ijtimoiy-iqtisodiy sohaning bir qismi hisoblangan pensiya taminoti tizimi o'zining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyatiga ko'ra, jahondagi barcha davlatlarda, aholini ijtimoiy himoyalash siyosatini amalga oshirishda markaziy bo'g'in hisoblanadi. Pensiya tizimi orqali dunyo mamlakatlarida yaratilgan YalMning o'rtacha 10,0-14,0 foiziga yaqin qismi qayta taqsimlanadi.

Mamlakatimizda keng ko'lamda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlarning markazida inson omili va u bilan bog'liq ijtimoiy siyosat masalasi turadi. Ularni ijtimoiy ta'minotini ta'minlash ham muhim hisoblanadi. Ijtimoiy ta'minot shakllanishidan boshlab, pensiyaga chiqquncha bolgan daromadni o'rmini qoplash yoki uning asosiy qismini qoplashga yo'naltirilgan. Ijtimoiy ta'minot nafaqalari moliyaviy xavfsizlikning yuqori darajasiga emas, balki uning bazaviy darajasiga bog'liq. Shuning uchun ham ijtimoiy ta'minot "qo'shimcha daromad" degan nomga ham ega bo'lib, u yashash xarajatlarini qoplash uchun minimal darajadan past bolgan ijtimoiy sug'urta nafaqalarini oluvchilar uchun qo'shimcha ta'minot hisoblanadi.²¹

Respublikamizda so'nggi yillarda ijtimoiy ta'minot sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar pensiya yoshiga yetgan aholining faravonligini qo'shimcha ravishda oshirish uchun tegishli shart-sharoitlarni yaratish ko'zlangan holda, 2005-yildan xalqaro talablarga javob beradigan jamg'arilib boriladigan pensiya tizimi tashkil etildi. Har bir fuqaroni har tomonlama ijtimoiy himoya qilish, ularni qariganda, mehnat qobiliyatini yo'qtoganda davlat pensiyalari va ijtimoiy nafaqalar bilan belgilangan miqdorda ta'minlash davlat ijtimoiy siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Ilmiy adabiyotlar tahlili xorijiy mamlakatlar ilmiy doiralarida pensiya ta'minoti tizimining moliyaviy barqarorligini oshirish, optimal pensiya tizimi modelini tanlash borasida ilmiy tortishuvlar davom etayotganligini ko'rsatmoqda. Ayrim taddiqotchilar "pensiya ta'minoti tizimining moliyaviy asosini ustun darajada taqsimlanuvchi komponentlar tashkil etishi zarur"²² deb hisoblashsa,

²¹ Jun Peng. State and Local Pension Fund Management. (Public Administration and Public Policy) 0 th Edition. USA: Publisher: Auerbach Publications (August 21, 2008). – P. 2-3

²² Disney R. Public pension reform in Europe: policies, prospects and evaluation // The World Economy. 2003. Vol. 26. № 10. P. 1425-1445. Соловьев А.К. Пенсионные системы в контексте страховых принципов. //Журнал НЭА, №3(15), 2012. Ронк В.Д. Эволюция пенсионных систем: мировые тенденции и опыт России //Человек и Труд. 2008. № 8. <http://www.chebt.ru/2008/8-08/roik808.html>.

boshqalari jamg'ariladigan komponentlar tarafdori hisoblanadilar.²³

Tadqiqotchilarning bashoratlariga qaraganda, 2025-yilga kelib jahonda 60 yoshdan oshgan odamlar 1,1 milliarddan ortishi taxmin qilinmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan asrdagiga nisbatan 5 barobar ko'pdir. Mutaxassislarning fikricha, uzoq umr ko'radigan odamlarning ko'payib borishi kafolatli pensiya ta'minotini yaratish, tibbiy va ijtimoiy xizmatlar sifatini yanada yaxshilash bo'yicha davlat zimmasiga katta mas'uliyat yuklamoqda.

Respublikamiz mustaqillikka erishgan ilk yillardanoq aholining ijtimoiy himoyasini ta'minlash, ularning turmush darajasini oshirish va moddiy ta'minotini mustahkamlashga oid masalalar birinchi darajali qilib belgilandi. Bugungi kunda mamlakatimizda pensionerlar va nogironligi bo'lgan shaxslarni aniq manzilli himoya qilishni ta'minlash, ularning turmush sifati darajasini yanada oshirish hukumatimizning diqqat markazida bo'lib kelmoqda. Shu sababli ijtimoiy himoya tizimida muhim ahamiyat kasb etgan pensiya ta'minoti tizimini takomillashtirish aholini jamiyatdagi mavqeini yanada mustahkamlashga asos bo'la oladi.

O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi qonuni fuqarolarining qariganda, mehnat qobiliyatini to'liq yoki qisman yo'qtoganda, boquvchisiz qolganda ijtimoiy ta'minlanishdan iborat konstitutsiyaviy huquqlarini ro'yobga chiqarish, davlat pensiyalarining yagona tizimini, ularni tayinlash, hisoblab chiqarish, qayta hisoblash va to'lash tartibini belgilab beruvchi qonun hujjati bo'lib, mustaqil davlatlar orasida birinchilar qatorida qabul qilingani, ushbu qonun 1993-yil 3-sentyabrda qabul qilindi va 1994-yil 1-iyuldan amaliyotga joriy etildi. Mazkur qonunda pensiya

²³ Stalebrink J. Public pension funds and assumed rates of return: an empirical examination of public sector defined benefit pension plans // American review of public administration. 2014. № 1(44). P. 92–111.; Rozanov A. Public pension fund management: best practice and international experience // Asian Economic Policy Review. 2015. № 10. P. 275–295.; Klapper L., Panos G. Financial literacy and retirement planning: the Russian case // Journal of pension economics and finance. 2011. № 4. P. 599–618.

ta'minotiga oid bir qator imtiyozlar va afzaliklar ko'zda tutilgan bo'lib, "aholining kuchli ijtimoiy himoyasi" tamoyilini yaqqol ifoda etadi. Mazkur qonunga kiritilayotgan o'zgartishlar va qo'shimchalar, mamlakatimizda istiqomat qiluvchi keksalar, nogironligi bolgan shaxslar va boquvchisini yo'qotgan oilalarning turmush darajasi hamda farovonligini yanada oshirishga, ularning ijtimoiy muhofazasini ta'minlashga qaratildi. So'nggi besh yilda pensiya va nafaqa oluvchilar soni yiliga o'rtacha 4,0 foizdan o'sib, bugungi kunda 3 million nafardan ortiqni tashkil etmoqda.

4.1-jadval

O'zbekistonda pensiya va ijtimoiy nafaqa olvuchilar soni²⁴

№	Ko'rsatkichlar	2018-yil	
		soni (ming kishi)	%
	Jami pensionerlar va ijtimoiy nafaqa oluvchilar soni, sh.j	3300,0	100,0
1.	Yoshga doir pensiya oluvchilar	2502,6	75,8
2.	Nogironlik pensiya oluvchilar	360,3	10,9
3.	Boquvchisini yo'qotganlik pensiyasini oluvchilar	168,5	5,1
4.	Boshqa nafaqalar oluvchilar	294,1	8,9

Fuqarolarning birdamlashgan davlat pensiya ta'minoti tizimi, ya'ni hozirgi vaqtida O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budgetdan tashqari Pensiya jamg'armasi mustaqillik yillari mobaynida bosqichma-bosqich rivojlantirib borildi va to'rt bosqichda amalga oshirildi:

Birinchi bosqich 1990-1993-yillar, ikkinchi bosqich 1996-2000-yillar, uchunchi bosqich 2000-2009-yillar va

²⁴ Davlat pensiya ta'minoti tizimini isloh qilish konsepsiysi loyihasi. www.pfru.uz

to'rtinchi bosqich 2010-yildan hozirgacha bo'lgan davrlarni o'z ichiga oladi.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti, ijtimoiy nafaqalar to'lash, kompensatsiya to'lovlari va boshqa to'lovlar bo'yicha xarajatlarni moliyalashtirishga yo'naltiriladigan majburiy to'lovlar, badallar, shuningdek, boshqa manbalardan tushadigan mablag'larni jamlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Hukumatining 2004-yil 21-oktyabrdagi 490-son qaroriga asosan, 2005-yil 1-yanvardan boshlab O'zbekiston Respublikasining byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Pensiya jamg'armasiga aylantirilgan. "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuniga muvofiq hamda pensiya ta'minoti tizimining tashkiliy tuzilmasini yanada takomillashtirish, pensiyalar va ijtimoiy nafaqalarni byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasidan o'z vaqtida moliyalashtirish hamda ularni to'liq hajmda to'lash, shuningdek, respublika fuqarolarining pensiya ta'minotiga yo'naltiriladigan mablag'lardan maqsadli foydalanilishi ustidan nazoratni kuchaytirish maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009-yil 30-dekabrdagi PF-4161-son farmoniga muvofiq, 2010-yilning 1-yanvaridan boshlab pensiyalar, shuningdek, ijtimoiy nafaqalar, kompensatsiya va boshqa to'lovlarni tayinlash, moliyalashtirish, ularning to'lanishini hisobga olish va monitoringini yuritish Pensiya jamg'armasining tegishli hududiy bo'linmalari tomonidan amalga oshirilishi belgilangan.

4.2. Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi faoliyatining asosiy vazifalari va funksiyalari

Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

– qonun hujjatlarida belgilangan tartibda fuqarolarning davlat pensiya ta'minotini tashkil etish, fuqarolarga pensiyalar, ijtimoiy nafaqalar, kompensatsiya to'lovlari va boshqa to'lovlarni tayinlash, pensiyalar va boshqa to'lovlar miqdorlarining qayta hisoblab chiqilishini ta'minlash;

– pensiyalar va boshqa to'lovlarni to'liq hajmda moliyalashtirish va to'lanishini tashkil etish, ular bo'yicha hisob va hisobotni yuritish;

– tizimli asosda pensiyalar tayinlash va ularni qayta hisoblashning doimiy tahlilini o'tkazish va monitoringini olib borish, fuqarolarning pensiya ta'minotiga yo'naltiriladigan mablag'lardan qat'iy maqsadli foydalanimishini ta'minlash;

– boquvchisini yo'qotgan taqdirda, shuningdek, mehnatda mayib bo'lganlik yoki xodim mehnat majburiyatlarini bajarishi bilan bog'liq kasb kasalligi oqibatidagi nogironlik tufayli tayinlangan pensiyalarga to'langan mablag'larni da'volar bo'yicha aybdor yuridik va jismoniy shaxslardan belgilangan tartibda undirib olishni tashkil etish.

Pensiya jamg'armasi o'ziga yuklangan vazifalarga muvofiq, pensiyalar va ijtimoiy nafaqalarni tayinlash hamda qayta hisoblab chiqish bo'yicha quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi²⁵:

a) Jamg'armaning daromadlari bo'yicha:

– – jamg'arma mablag'lari bo'yicha majburiy to'lovlар, badallardan mablag'larni hamda boshqa to'lovlarni O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining G'aznachiligidagi (keyingi o'rnlarda G'aznachilik deb yuritiladi) hisob raqamiga jamlaydi hamda pensiyalar, ijtimoiy nafaqalar, kompensatsiya va boshqa to'lov larga xarajatlarni moliyalashtirishni ta'minlaydi;

– har yili manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda Jamg'arma daromadlari tushumlar prognozini ishlab chiqadi;

²⁵ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010-yil 19-fevraldagagi "O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi to'g'risida nizomni tasdiqlash haqida"gi 30-sen Qarori. (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. 2010-yil. 8-sen. 62-modda).

– davlat ijtimoiy sug‘urtasi tizimining barqarorligini ta‘minlash va uni yanada takomillashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish maqsadida Jamg‘arma daromadlari va xarajatlarining o‘rtacha va uzoq muddatli prognozlarini tayyorlaydi;

– boquvchisini yo‘qotgan taqdirda, shuningdek, mehnatda mayib bo‘lganlik yoki xodim mehnat majburiyatlarini bajarishi bilan bog‘liq kasb kasalligi oqibatidagi nogironlik tufayli tayinlangan pensiyalarga sarflangan mablaglarni “Fuqarolarning davlat pensiya ta‘minoti to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuniga muvofiq aybdor yuridik va jismoniy shaxslardan regress da‘volar bo‘yicha belgilangan tartibda undirib oladi;

– “Fuqarolarning davlat pensiya ta‘minoti to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunining 12-moddasi “b” – “j”-bandlariga muvofiq tayinlangan imtiyozli pensiyalarni to‘lashga sarflangan mablaglarni yuridik shaxslardan regress da‘volar bo‘yicha belgilangan tartibda undirib oladi;

– badallar va boshqa to‘lovlar tushishi hisobini olib boradi, shuningdek, yuridik shaxs bo‘imasdan tadbirdorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi shaxslarning hamda dehqon xo‘jaliklari a‘zolarining mehnat daftarchalarini belgilangan tartibda yuritadi va saqlaydi;

b) pensiyalar va ijtimoiy nafaqalarni tayinlash hamda qayta hisoblab chiqish bo‘yicha:

– pensiyalar va ijtimoiy nafaqalarni tayinlash va qayta hisoblab chiqish uchun zarur bo‘lgan taqdimnomalar, arizalar va boshqa hujjatlarni qabul qiladi, ularni qonun hujjatlariga muvofiq rasmiylashtiradi;

– pensiyalar va ijtimoiy nafaqalarni tayinlash uchun yuridik shaxslar va fuqarolar tomonidan taqdim etilgan hujjatlarni belgilangan tartibda tayyorlaydi, ko‘rib chiqadi va tekshiradi;

– jamg‘armaning tuman (shahar) bo‘limlarida pensiyalar tayinlash bo‘yicha komissiyalar faoliyatini tashkil etadi;

– zarur tarzda rasmiylashtirgan hujjatlarga muvofiq va pensiyalar tayinlash bo‘yicha komissiyalar qarorlari

asosida qonun hujjatlarida belgilangan tartibda pensiyalarni tayinlaydi va ularni qayta hisoblab chiqadi;

– pensionerlarning pensiya ishlarini va ijtimoiy nafaqa oluvchi shaxslarning ishlarini, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa hujjatlarni rasmiylashtiradi, pensionerlarga pensiya guvohnomalari beradi;

– pensiyalar va ijtimoiy nafaqalar tayinlash uchun hujjatlarni rasmiylashtirishning qonun hujjatlarida belgilangan tartibiga rioya etilishini nazorat qiladi;

– tashkilotlar, yakka tartibdagi tadbirkorlar va dehqon xo'jaliklari a'zolari tomonidan taqdim etilgan pensiyalar, Davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha nafaqalar olish huquqini beradigan hujjatlarning ishonchligini tekshiradi;

d) pensiyalar, ijtimoiy nafaqalar, kompensatsiya va boshqa to'lovlaraga xarajatlarni amalga oshirish bo'yicha:

– pensiyalar va ijtimoiy nafaqalarni hisoblab chiqish bo'yicha operatsiyalarni amalga oshiradi, ishlaymaydigan pensionerlarga pensiya va nafaqalarni yetkazib berish (topshirish) yuklangan tashkilot va banklar orqali, ishlaydigan pensionerlarga esa – tashkilotlar orqali pensiyalar va ijtimoiy nafaqalar to'lash yuzasidan topshiriqlarni rasmiylashtiradi va beradi;

– aloqa tashkilotlari, banklar tomonidan pensiyalar va ijtimoiy nafaqalarning o'z vaqtida va to'g'ri yetkazib berilishi hamda to'lanishi yuzasidan doimiy monitoring va nazoratni amalga oshiradi;

– yuridik shaxs bo'lmasdan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi shaxslarga, shuningdek, dehqon xo'jaliklari a'zolariga — ular tomonidan ijtimoiy sug'urta bo'yicha badallar to'langan taqdirda, chaqaloq tug'ilganda beriladigan nafaqalar hamda dafn marosimi nafaqalarini hisoblaydi va to'laydi;

– tashkilotlarning ishlaydigan pensionerlarga pensiyalar, 16 yoshgacha bo'lgan nogiron bolaning ota-onalaridan biriga (vasiyga, homiyga) bir oyda qo'shimcha dam olish kuni uchun to'lov, Chernobil halokati oqibatida zarar ko'rgan fuqarolarga kompensatsiya to'lovlarini va

qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa to'lov larga xarajatlarini moliyalashtiradi;

e) fuqarolarning pensiya ta'minoti bilan bog'liq boshqa masalalar bo'yicha:

- ommaviy axborot vositalari yordamida respublika aholisini fuqarolarning pensiya ta'minoti masalalari bo'yicha xabardor qiladi;

- belgilangan tartibda tayinlangan shaxsiy pensiyalar to'lanishini tashkil etadi;

- imtiyozli pensiya ta'minoti huquqini beradigan ishlab chiqarishlar, ishlar, kasblar, lavozimlar va ko'rsatkichlar ro'yxatlarini qo'llash masalalari bo'yicha davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari bilan o'zaro hamkorlik qiladi, imtiyozli pensiyalarni takomillashtirish va tartibga solish bo'yicha takliflar ishlab chiqilishini tashkil etadi;

- jismoniy shaxslar va yuridik shaxslarning murojaatlarini qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda ko'rib chiqadi, jismoniy shaxslarni va yuridik shaxslarning vakillarini qabul qiladi;

- pensiya va nafaqalarni yetkazib berish (topshirish) yuklangan tashkilot va tijorat banklarida pensiyalar, ijtimoiy nafaqalar, kompensatsiya to'lovleri hamda boshqa to'lov larning o'z vaqtida to'lanishi monitoringini olib boradi;

- normativ-huquqiy hujjatlar loyihibalarini ishlab chiqishda qatnashadi, fuqarolarning pensiya ta'minoti masalalari bo'yicha zamonaviy nazariy ishlanmalarni va xorijiy tajribani o'rganadi;

- jamg'armaning mablag'lарини oluvchilar, pensiyalar hamda davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha nafaqalar tayinlash va to'lash to'g'risidagi axborotni ishlab chiqishda qatnashadi va avtomatlashtirilgan tizimda qayta ishlashni joriy etadi;

- pensiya ta'minoti masalalari bo'yicha davlat organlari va boshqa tashkilotlar bilan o'zaro hamkorlik qiladi;

- jamg'arma vakolatiga tegishli bo'lgan masalalar bo'yicha qonun hujjatlarini qo'llash amaliyotini umumillashtiradi;

– pensiya ta'minoti masalalari va Jamg'armaning vakolatiga tegishli bo'lgan boshqa masalalar bo'yicha xodimlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tadbirlarini amalga oshiradi;

f) jamg'armaning vakolatiga kiradigan boshqa masalalar bo'yicha:

– jamg'arma vakolatiga tegishli bo'lgan masalalar bo'yicha e'tiroz-da'vo ishlari olib borilishini tashkil etadi va amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining tashabbusi, O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarni rivojlantirish vazirligi va Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish Jamg'armasining tashkiliy hamda moliyaviy yordami, shuningdek, "Mobi Tel Inform" MChJning tashkiliy-texnik ko'magi asosida 2017-yil 1 fevraldan Pensiya jamg'armasi tomonidan pensiya va nafaqalarni oluvchi shaxslarga SMS-Pensiya interaktiv xizmati taqdim etila boshlandi.

4.3. Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining daromad va xarajatlari

Byudjet Kodeksida belgilab qo'yilishicha, budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi mablag'lari quyidagilar hisobiga shakllantiriladi:

– korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning, yuridik shaxs tuzmasdan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning sug'urta badallari;

– fuqarolarning majburiy sug'urta badallari;

– dehqon xo'jaliklari a'zolarining ixtiyoriy ravishda to'laydigan sug'urta badallari;

– korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning belgilangan tartibda ajratiladigan majburiy ajratmalari;

– "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunining 15-moddasiga muvofiq tayinlangan mehnatda mayiblanganlik yoki kasb kasalligi oqibatida nogiron bo'lganlarga pensiya to'lash

xarajatlarini qoplash uchun regressiv talablar (da'volar) bo'yicha ish beruvchilar va fuqarolardan undiriladigan mablag'lар;

– "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunining 14-moddasiga muvofiq, muddatidan oldin tayinlangan pensiyalarни to'lash xarajatlarini qoplash uchun Aholini ish bilan ta'minlashga ko'maklashuvchi davlat jamg'armasidan o'tkaziladigan mablag'lар;


– "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunining 12-moddasiga muvofiq tayinlangan imtiyozli pensiyalarни to'lash xarajatlarini qoplash uchun o'tkaziladigan korxonalar, muassasalar va tashkilotlar mablag'lари;

– hisoblangan jarimalar summалари (qонун hujjатларига muvofiq soliq organларини rivojlantirish Jamg'armasiga undiriladigan summалардан tashqari), sug'urta badallари va ajratmalarning o'z vaqtida to'lanmaganligi uchun penyalar;

– yuridik va jismoniy shaxslarning ixtiyoriy badallари va qonunchilik bilan ta'qilanganboshqa daromadlar.

Shulardan, byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy to'lovlarni qiyidagicha guruhlash mumkin (4.1-rasm): Pensiya jamg'armasiga bir tomondan "pensiyalar, ijtimoiy nafaqalar, kompensatsiya to'lovlarni va boshqa to'lovlarni tayinlashni, moliyalashtirishni, hisobga olishni va ularning to'lanishi monitoringini olib borishni, ushbu maqsadlarga yo'naltiriladigan maqsadli moliyaviy resurslarni jamlash"²⁶ bo'yicha vazifalar va funksiyalarни bajarish zimmasiga yuklatilgan maxsus vakolatli davlat ijroiya organi, pensiya ta'minotining institutsional tuzilmasi sifatida qaralsa, ikkinchi tomondan mamlakat moliya tizimidagi aniq maqsadlarga mo'ljalangan davlatning byudjetdan tashqari maqsadli jamg'armasi sifatida qarash kerak.

²⁶ "O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi to'g'risidagi nizom", 7-band. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010-yil 19-fevraldagи 30-son qarori bilan tasdiqlangan.



4.1-rasm. Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy to'lovlarning turlari²⁷

Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining daromadlari quyidagilar hisobidan shakllantiriladi (4.2-rasm):

yagona ijtimoiy to'lovning belgilangan miqdordagi tushumlari

fuqarolarning byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga sug'urta badallari

byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalar

byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining boshqa daromadlari

4.2-rasm. Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining daromadlari

4.2-rasmning oxirgi bandida ko'rsatilgan boshqa daromadlarga mehnatda mayib bo'lganlik yoki kasb

²⁷ O'zbekiston Respublikasining Soliq Kodeksi. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-y., 1-son, 1-modda, 16-son, 265-modda. 23-moddaga asosan.

kasalligiga chalinganlik tufayli tayinlangan nogironlik pensiyalarini to'lash xarajatlarining o'rmini qoplash uchun taqdim etiladigan regress talablar (da'volar) bo'yicha ish beruvchilar va fuqarolar tomonidan o'rni qoplanadigan mablag'lар тушуминг бир qismi, O'zbekiston Respublikasi Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasining muddatidan oldin tayinlangan yoshga doir pensiyalarni to'lash xarajatlarini qoplash hisobidan kiritiladigan mablag'lari, yuridik shaxslarning imtiyozli pensiyalarni to'lash xarajatlarini qoplash hisobidan kiritiladigan mablag'lari, fuqarolarning ixtiyoriy tartibda to'lanadigan sug'urta badallari, majburiy to'lovlar, badallar o'z vaqtida to'lanmaganligi uchun hisoblangan jarimalar va penyalar summasining bir qismi, mehnat vazifalarini bajarish bilan bog'liq holda mayib bo'lgan, kasb kasalligiga chalingan yoxud sog'lig'iga boshqacha shikast yetkazilgan xodimga yuridik shaxs tugatilganda, qishloq xo'jaligi kooperativi (shirkat xo'jaligi), fermer va dehqon xo'jaligi qayta tashkil etilganda yoki tugatilganda zararning o'rnini qoplash uchun to'lanadigan nazarda tutilgan mablag'lар, vaqtinchalik bo'sh turgan mablag'larni joylashtirishdan olingan daromadlar va qonun hujjatlariga muvofiq boshqa manbalar kiradi.

Fuqarolarning byudjetdan tashqari Pensiya jamg'arma-siga sug'urta badallarini hisoblash va ushlab qolish majburiyati, shuningdek, ularning to'g'ri hisoblab chiqarilishi uchun javobgarlik ish beruvchi zimmasiga yuklatiladi, bundan Soliq Kodeksining 311-moddasida nazarda tutilgan tartibga muvofiq sug'urta badallari to'lovchi yakka tartibdagi tadbirkorlar, yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo'jaliklari a'zolari mustasno.

Soliq Kodeksining 172-moddasida ko'rsatilgan ish haqi tarzidagi daromadlar yagona ijtimoiy to'lovning va sug'urta badallarining soliq solish obyekti hisoblanadi. Ular: "Mehnat shartnomalariga yoki ishlar bajarish va xizmatlar ko'rsatish predmeti bo'lgan fuqarolik-huquqiy tusdag'i shartnomalarga muvofiq jismoniy shaxslarga hisoblan-

digan va to'lanadigan barcha to'lovlar, shuningdek, rag'batlantirish xususiyatiga ega bo'lgan to'lovlar, kompensatsiya to'lovlari, ishlanmagan vaqt uchun haq to'lash".²⁸

O'zbekiston Respublikasi hududida ishlash uchun chet ellik xodimlarni berish bo'yicha xizmatlar ko'rsatish shartnomasiga muvofiq yuridik shaxs – O'zbekiston Respublikasi norezidentiga to'lanadigan chet ellik xodimlarning daromadlari ham yagona ijtimoiy to'lovning soliq solish obyektiidir.

Quyida keltirilgan jadvalda keyingi yillarda ish beruvchilarning mehnat haqi fondiga nisbatan hisoblanadigan va to'lanadigan yagona ijtimoiy to'lovning ijtimoiy jamg'armalar o'rtaida taqsimlanish foizlari ko'rsatilgan (4.2-jadval).

4.2-jadval

Yuridik shaxslarning ish haqi fondidan yagona ijtimoiy to'lov miqdori va uning taqsimlanishi²⁹, (foizda)

	2006-yil	2007-yil	2008-yil	2009-yil	2010-2017-yillar	2015-2017-y.y. (mikrofirmalar, kichik korxonalar, fermer xo'jaliklari)
Yagona ijtimoiy to'lov stavkasi	25,0	24,0	24,0	24,0	25,0	15,0
Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi	24,2	23,5	23,5	23,6	24,8	14,8
Ish bilan ta'minlashga ko'maklashuvchi jamg'arma	0,5	0,3	0,3	0,2	0,1	0,1
Kasaba uyushmalari Federatsiyasi Kengashi	0,3	0,2	0,2	0,2	0,1	0,1

²⁸ O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi, 172-modda.

²⁹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarorlari asosida mualliflar tomonidan tuzildi. Manba: lex.uz – O'zbekiston qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy ba'zasi.

Yuridik shaxslarning ish haqi fondidan Pensiya jamg'armasiga tushadigan mablag'lar uchun belgilangan stavka 2006-yilda 24,2 foiz, 2007-2008-yillarda 23,5 foiz qilib belgilangan edi, 2009-yilda 23,6 foiz, 2010-2017-yillarda esa 24,8 foiz qilib belgilandi. 2015-yildan boshlab kichik biznes vakillari – mikrofirmalar va kichik korxonalar, shuningdek, fermer xo'jaliklarini qo'llab-quvvatlash maqsadida ular uchun yagona ijtimoiy to'lovning miqdori ish haqi fondiga nisbatan 15 foiz³⁰ qilib belgilandi.

Yagona ijtimoiy to'lov va sug'urta badallari quyidagi to'lovlarga nisbatan hisoblanmaydi (4.3-rasm):

-
- 1. mehnatda may'ib bo'lganlik yoki sog'liqqa boshqacha shukast yetganlik bilan bog'liq zararning o'mini qoplash uchun Soliq kodeksi 171-moddasi ikkinchisi qismining 9-bandida ko'rsatilgan miqdorlardan ortiqcha olingan summlar
 - 2. yosh imutaxassislarga oliv o'quv yurtini taniomlaganlaridan so'ng ta'til vaqtin uchun yuridik shaxslar hisobidan to'lanadigan nafaqalar
 - 3. davlatlar, davlatlarning hukumatlari, xalqaro va chet el hukumatiga qarashli tashkilotlar tomonidan berilgan grant mablag'ları
 - 4. O'zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan belgilanadigan ro'yxatga kiritilgan xalqaro va chet el nohukumat tashkilotlari tomonidan berilgan grant mablag'ları
 - 5. O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari doirasida berilgan grant mablag'ları

4.3-rasm. Pensiya jamg'armasiga yagona ijtimoiy to'lov va sug'urta badallari undirilmaydigan to'lovlar

Yagona ijtimoiy to'lov va sug'urta badallarini to'lovchilar esa quyidagilar hisoblanadi, ya'ni³¹:

- yuridik shaxslar – O'zbekiston Respublikasining rezidentlari;
- O'zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa, chet elliq yuridik shaxslarning vakolatxonalarini va filiallari orqali amalga oshiruvchi O'zbekiston Respublikasi nerezidentlari.

³⁰ O'zR Prezidentining 2014-yi 4-dekabrdagi PQ-2270-sonli qarorining 25- ilovasi asosida.

³¹ O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi. 305-modda.

- Jismoniy shaxslar - O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, shuningdek, O'zbekiston Respublikasida doimiy ravishda yashab turgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'limgan shaxslar fuqarolarning byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga sug'urta badallarini (bundan buyon matnda sug'urta badallari deb yuritiladi) to'lovchilardir.

Shuningdek, Soliq kodeksi bilan byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalarni to'lovchilar tarkibi ham belgilab berilgan, ular:

- yuridik shaxslar - O'zbekiston Respublikasining rezidentlari;

- oddiy shirkat ishlarini yuritish zimmasiga yuklatilgan (ishonchli shaxs) sherik (ishtirokchi) – yuridik shaxs.³²

Quyidagilar byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga mahsulot ishlab chiqarish hajmidan majburiy ajratmalarni to'lamaydilar:

- notijorat tashkilotlar, bundan ularning tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishdan olgan daromadlari mustasno;

- yagona soliq to'lovini va yagona yer solig'ini to'lovchi yuridik shaxslar.

Pensiya jamg'armasi daromadlarining holatini mazkur 4.3-jadval ma'lumotlaridan ko'rishimiz mumkin. Pensiya jamg'armasining daromadlari shakllantirishda muhim o'rinni yuridik shaxslarning mehnatga haq to'lash fondidan yagona ijtimoiy to'lovdan ajratmalar egallaydi. Yagona ijtimoiy to'lovdan ajratmalar 2014-yilga nazar soladigan bo'lsak jami daromadlarga nisbatan 56,1 foizni tashkil qilgan bo'lsa, 2018-yilga kelib 58,4 foiz bo'lishi kutilmoqda. Bunda o'sish tendensiyasini ko'rishimiz mumkin. Fuqarolarning ish haqidan majburiy sug'urta badallari esa o'sish tendensiyasiga ega bo'lmoqda. Ya'ni, 2014-yilda jami daromadlarga nisbatan ushbu daromad turining ulushi 1877,2 mlrd so'mni ulushi 14,4 foizga teng bo'lsa, 2018-yilga kelib 4466,3 mlrd so'mga ya'ni 22,1 foizga o'sishi kutilmoqda.

³² O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi. 312-modda.

4.3-jadval

**O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi
daromadlari tarkibi va tuzilishi³³**

Ko'rsatkichlar	2014 yil		2015 yil		2016 yil		2017 yil		2018 yil (prognoz)	
	mlrd. so'm	%	mlrd. so'm	%	mlrd. so'm	%	mlrd. so'm	%	mlrd. so'm	%
Daromadlar	13013,7	100,0	16557,0	100,0	18113,3	100,0	19505,1	100,0	20 232,6	100,0
Yil boshiga qoldiq	1067,3	8,2	2592,0	15,7	2568,3	14,2	2282,0	11,7	3007,5	14,9
Ish haqi fondidan yagona ijtimoiy to'lovdan tushumlar	7299,5	56,1	8324,2	50,3	9474,0	52,3	10226,0	52,4	11808,0	58,4
Fuqarolarning majburiy sug'urta badallari	1877,2	14,4	2463,8	14,9	3235,0	17,9	3993,9	20,5	4466,3	22,1
Mahsulot sotish hajmidan majburiy ajratmalar	1933,0	14,9	2063,8	12,5	1527,0	8,4	1429,7	7,3	2059,9	10,2
Boshqa daromadlar	836,7	6,4	1113,1	6,7	1291,0	7,2	1555,0	8,0	1852,4	9,1
Soliqsiz tushumlar	-	-	-	-	18,0	0,1	18,0	0,09	46,0	0,2

³³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-2099, PQ-2270, PQ-2455, PQ-2699, PQ-3454-sonli Qarorlari asosida mualliflar tomonidan tuzildi. Manba: lex.uz – O'zbekiston qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy ba'zasi.

Mamlakatda olib borilayotgan islohotlar natijasida pensiya tizimi sohasida ham bir muncha ijobiy o'zgarishlarga erishilmoxda. Qonunchiligidan qancha o'zgarishlar amalga oshirildi va pensiya jamg'armasi daromadlarining shakllanish manbalari aniq va ravshan qilib qo'yildi. Natijada, 2011-yildan boshlab Pensiya jamg'armasi profitsit bilan ijro qilina boshlandi. Daromad manbalari tarkibida korxona va tashkilotlarning ish haqi jamg'armasidan to'laydigan ajratmasi eng yuqori ulushga ega bo'lishi pensiya jamg'armasi daromad manbalarining oshishiga sabab bo'lmoqda. Bu ko'rsatkich, yuqoridagi tahlil ma'lumotlariga asosan yildan-yilga jami daromad tarkibidagi ulushi kamayib bormoqda.

Shu sababli, mamlakatimizda kichik biznes va tadbirkorlikka, ya'ni kasanachilikka, duradgorchilikka va boshqa kichik biznesga alohida e'tibor berib kelinmoqda. Daromad manbalarini tarkibida ishchilar ish haqqidan ajratmaning foiz stavkasi yildan-yilga o'smoqda, ya'ni bu ko'rsatkich 2008-yilda 2,5 foizni, 2015-yilda esa bu ko'rsatkich 7,0 foizni, 2016-yilda 7,5 foizni, 2018-yilda 8,0 foizni tashkil qilmoqda. O'rtacha oylik ish haqining ham yildan-yilga oshishi ham daromad manbalarining oshishiga sabab bo'lmoqda.

Bugungi kunda Pensiya jamg'armasi daromadlarining o'z vaqtida va to'liq kelib tushishiga bir qancha omillar ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Birinchidan, soliq to'lovchilar tomonidan soliq majburiyatlarining o'z vaqtida bajarilishi, soliq idoralarining moliya, g'aznachilik tuzilmalari bilan muvofiqlashgan harakati, shuningdek, byudjet tizimi byudjetlarining ijrosida g'aznachilik elementlarining bosqichma-bosqich izchil tatbiq etilishi bo'lsa, ikkinchi tomonidan mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanayotganligi, iqtisodiy subyektlar faolligining oshib borayotganligi, iqtisodiy o'sish sur'atlari prognoz ko'rsatkichlarining bajarilayotganligi yuqorida erishilgan natijalarni bermoqda.

4.4-jadval

**O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya
jamg'armasining xarajatlari tarkibi va tuzilishi³⁴**

Ko'rsatkichlar	2014-yil		2015-yil		2016-yil		2017-yil		2018-yil (Prognoz)	
	mldr so'mda	Jami xarajat- larga nisbatan foizda	mldr so'mda	Jami xarajat- larga nisbatan foizda	mldr so'mda	Jami xarajat- larga nisbatan foizda	mldr so'mda	Jami xarajat- larga nisbatan foizda	mldr so'mda	Jami xarajat- larga nisbatan foizda
Xarajatlar jami	13013,7	100,0	16557,0	100,0	18113,3	100,0	19505,1	100,0	23240,1	100,0
Ishlamayotgan pensionerlarga pensiya to'lovleri	11191,9	86,0	12838,1	77,5	14779,6	81,6	16629,9	85,2	19586,9	84,3
Ishlayotgan pensionerlarga pensiya to'lovleri	426,6	3,3	474,8	2,8	484,3	2,7	534,5	2,7	616,5	2,6
Keksa yoshdagilar va ishlamaydigan fuqarolar uchun nafaqalar, dafn marosimlari uchun nafaqalar va boshqa to'lovlar	29,1	0,2	105,2	0,6	152,1	0,8	204,3	1,0	237,7	1,0
Boshqa xarajatlar	2,4	0,02	2,8	0,02	3,0	0,02	10,0	0,05	34,0	0,1
Yil oxirida qoldiq mablag'lar	1363,7	10,5	3136,1	18,9	2694,3	14,9	2126,4	11,0	2764,9	11,9

³⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-2099, PQ-2270, PQ-2455, PQ-2699, PQ-3454-sonli Qarorlari asosida mualliflar tomonidan tuzildi. Manba: lex.uz – O'zbekiston qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy ba'zasi.

Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi davlatning ixtiyoridagi aniq maqsadlarga moljallangan maqsadli pul mablag'lari jamg'armasi hisoblanadi. Jamg'arma xarajatlari tarkibi O'zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksi bilan belgilab qo'yilgan. Byudjet Kodeksining "O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining xarajatlari" deb nomlangan 74-moddasida belgilab qo'yilishicha, byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining mablag'lari quyidagi xarajatlarni moliyalashtirish uchun yo'naltiriladi:


- ishlayotgan pensionerlarga davlat pensiyalarini to'lash;
- ishlamaydigan pensionerlarga davlat pensiyalarini to'lash;
- davlat pensiya ta'minoti huquqiga ega bo'lмаган qariyalar va mehnatga qobiliyatsiz fuqarolarga nafaqalar;
- dafn etish marosimi uchun nafaqalar;
- belgilangan tartibda aniqlanadigan boshqa xarajatlar.

Yuqoridagi jadvalda byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining xarajatlari tizimining 2014-2018-yillar davomidagi dinamikasi keltirilgan bo'lib, undan ko'rindiki, ya'ni Pensiya jamg'armasi xarajatlari tizimida assosiy ulush ishlamayotgan pensionerlarga pensiya to'lovleri hissasiga to'g'ri kelib, uning tutgan ulushi 2014-yilda 86,0 foizni tashkil etgan bolsa, 2018-yilga kelib 84,3 foizni tashkil etishi prognoz qilingan. 2014-yilda jami xarajatlarini tarkibida ishlaydigan pensionerlarga pensiya to'lovleri xarajatlari 3,3 foizni, 2015-yilda 2,8 foizni, 2016-yilda 2,7 foizni, 2017-yil ham 2,7 foizni tashkil etgan. 2018-yilda esa 2,6 foizni tashkil etishi rejalashtirilgan. Pensiya jamg'armasida yil oxirida qoldiq mavjud bo'lib, uning ulushi o'sish xususiyatiga egadir. Agar 2014-yilda uning ulushi jami xarajatlarning tarkibida 10,5 foizni tashkil etgan, 2017-yilda esa 11,0 foizni tashkil etgan. 2018-yilga kelib esa 11,9 foizni tashkil etishi rejalashtirilgan. Bu esa oxirgi yillarda hukumatimiz tomonidan Davlat pensiya tizimini isloh qilish, uning mablag'laridan samarali

foydalananish tizimidagi say harakatlari natijasidir. 2018-yilgi byudjet prognoziga nazar soladigan bo'lsak, bu ko'rsatkich anchagina kamligini ko'rishimiz mumkin. Buning asosiy sababi pensiya tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar bilan bog'liq bo'lib, avval Pensiya jamg'armasidan tolanadigan bir qator nafaqa va to'lovlarining davlat byudjetiga o'tkazilishi Pensiya jamg'armasiga pensiyalarini to'lash bilan bog'liq bo'limgan bosimni birmuncha kamaytirdi.


4.4. Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasidan to'lanuvchi davlat pensiyalarini va ijtimoiy nafaqalar

Fuqarolarda pensiya va ijtimoiy nafaqalarni olish huquqi paydo bo'lgan taqdirda tegishli tartibda ularga pensiya va nafaqalar tayinlanadi. Bu vazifani byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi amalga oshiradi.

- 
- 1 • ishlayotgan pensionerlarga davlat pensiyalarini to'lash
 - 2 • ishlamaydigan pensionerlarga davlat pensiyalarini to'lash
 - 3 • davlat pensiya ta'minoti huquqiga ega bo'limgan qariyalar va mehnatga qobiliyatsiz fuqarolarga nafaqalar berish
 - 4 • dafn marosimlari uchun nafaqalar
 - 5 • belgilangan tartibda aniqlanadigan boshqa xarajatlar

4.4-rasm. Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasidan to'lanuvchi pensiyalar va ijtimoiy nafaqalar

Hozirgi kunda respublikamizda davlat pensiyalarining 3 turi qo'llaniladi (4.5-rasm).



4.5-rasm. Davlat pensiyalarining turlari

Yoshga doir pensiya umumiy tartibda qonunchilik asosida erkaklar uchun 60 yoshga tolganda va ish staji kamida 25 yil bolganda, ayollar uchun 55 yoshga tolganda va ish staji kamida 20 yil bolganda tayinlanadi. Pensiya tayinlash uchun yetarlicha ish stajiga ega bo'lмаган shaxslarga yoshga doir pensiyalar kamida 7 yil (2016-yildan boshlab, 2016-yilgacha 5 yil bolgan) ish staji mavjud bolgan taqdirda, bor stajga mutanosib miqdorda, biroq, yoshga doir eng kam pensiyaning 50 foizidan kam bo'lмаган miqdorda tayinlanadi.

Nogironlik pensiyalar eng avvalo pensiya olish huquqi, qachonki, nogironlikning tegishli guruhlarini olgan shaxslarda yuzaga keladi.

Sog'ligini yoki mehnat qobiliyatini yo'qotganlik darajasiga qarab, nogironlikning uch guruhi aniqlanadi. Biroq, qonunchilikka kiritilgan o'zgarishga muvofiq, 2011-yil 1-yanvardan boshlab, nogironlik pensiyalar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda I va II-guruh nogironlari deb topilgan shaxslarga tayinlanadi.

Nogironlik pensiyasini ikki xil holatda olish mumkin, ya'ni:

- mehnatda mayiblanganda yoki kasb kasalligiga uchraganda - nogironlik pensiyalar ish stajidan qat'iy nazar tayinlanadi;

- umumiy kasallik tufayli beriladigan nogironlik pensiyalar - nogironlik boshlangan paytga qadar mavjud ish stajiga ega bolgan taqdirda tayinlanadi.

Umumiy kasallik tufayli beriladigan nogironlik pensiyalari nogironlik boshlangan paytga qadar mavjud ish staji “Fuqarolarning davlat pensiya ta’minoti to’g’risida”gi qonunning 17-moddasida belgilab qo'yilgan. Shuningdek, 20 yoshga tolgunga qadar umumiy kasallik tufayli ish davrida yoki ishslash toxtatilganidan keyin nogiron bo'lib qolgan shaxslarga pensiyalar ish stajidan qat'iy nazar tayinlanadi. Agarda, mehnatda mayiblanganda yoki kasb kasalligiga uchraganda beriladigan nogironlik pensiyasidan umumiy kasallik tufayli beriladigan nogironlik pensiyasiga o'tkazilganda zarur staj nogironlik dastlab belgilangan vaqtdagi yoshga qarab aniqlanadi.

Boquvchisini yo'qotganlik pensiyalari – vafot etgan boquvchining qaramog'ida bo'lgan mehnatga qobiliyatsiz oila a'zolari boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi olish huquqiga ega bo'ladi. Bunda farzandlarga va qonunda belgilangan oilaning mehnatga qibiliyatsiz a'zolari hisoblanadigan a'zolariga pensiya ular boquvchining qaramog'ida turgan-turmaganidan qat'iy nazar tayinlanadi.

Pensiya jamg'armasi mablag'larining asosiy qismi aynan ishlaymaydigan va ishlaydigan fuqarolarga pensiya va ijtimoiy nafaqalarni moliyalashtirishga yo'naltirilmoqda.

ishlamaydigan fuqarolarga	ishlaydigan fuqarolarga:
<ul style="list-style-type: none"> • davlat pensiyalarining barcha turlari; • dafn marosimi uchun nafaqalar; • davlat pensiya ta'minotiga huquqi bo'limgan keksa va mehnatga layoqatsiz fuqarolarga nafaqalar; • qonun hujjatlariga muvofiq Jamg'arma mablag'laridan moliyalashtiriladigan kompensatsiya to'lovlari va boshqa to'lovlarni to'lash uchun; 	<ul style="list-style-type: none"> • davlat pensiyalarining barcha turlari; • dafn marosimi uchun nafaqalar; • 16 yoshgacha bo'lgan nogiron bolaning ota-onalaridan biriga (vasiyya, homiyga) bir oyda qo'shimcha dam olish kuni uchun to'lovlari; • qonun hujjatlariga muvofiq Jamg'arma mablag'laridan moliyalashtiriladigan kompensatsiya to'lovlari va boshqa to'lovlarni sarflanadi.

4.6-rasm. Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining mablag'larini sarflash yo'naliishlari

Ishlayotgan pensionerlarga davlat pensiyalarini to'lashning huquqiy-me'yoriy asosini O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2011-yil 30-aprelda 2222-sod bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan "Ishlovchi pensionerlarga pensiya to'lash tartibi to'g'risidagi Nizom"³⁵ tashkil qiladi.

Ushbu Nizomga ko'ra, quyidagi toifadagi ishlovchi pensionerlarga pensiyalar to'liq miqdorda to'lanadi:

- urush nogironlari va qatnashchilariga, shuningdek, ularga tenglashtirilgan shaxslar;
- Ikkinchi jahon urushi yillarda harbiy xizmatni o'tagan yoki front orqasida ishlagan shaxslar;
- I va II guruh nogironlari;
- Chernobil halokatidan ziyon ko'rgan fuqarolar;
- fuqarolar yig'inlari va mahallalarning raislari;
- fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarida diniy ma'rifikat va ma'naviy-axloqiy tarbiya bo'yicha maslahatchi lavozimlarida ishlovchi pensioner ayollarga – yoshga doir pensiyani olganda.

2014-yil 1-yanvaridan boshlab fuqarolik-huquqiy tarzidagi shartnomalar bo'yicha ishlaydigan va qonun hujjatlari bilan belgilangan yoshga doir pensiyalarning minimal miqdoridan past daromad (gonorar, mukofot va boshqalar) oladigan pensionerlarga ham pensiya to'liq miqdorda to'lanadi.

Shuningdek, 2018-yildan boshlab tibbiyot muassasalarida xizmat qilayotgan yoshga doir pensiya oluvchilar ham pensiyalarni to'liq miqdorda olishlari belgilandi.

Davlat pensiya ta'minoti tizimini isloh qilish Konsepsiysi loyihasida keltirilishicha 2019-yil 1-yanvardan boshlab barcha ishlovchi pensionerlar pensiyalarini to'liq miqdorda olishi taklif etilmoqda.

Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining tuman (shahar) bo'limlarida ro'yxatda turuvchi hamda tashkilotlarda ishlovchi pensionerlarga pensiyalar ish joyidan Pensiya jamg'armasi hisobidan

³⁵ O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2014 y., 7-son, 75-modda

amalga oshiriladi. O'rindoshlik asosida ishlovchi pensionerlarga, pensiya asosiy ish joyidan to'lanadi. Ish joyidan pensiya to'lovi o'tgan oy uchun oylik ish haqining ikkinchi qismi to'lovlar bilan bir vaqtida amalga oshiriladi. Pensiyalar alohida vedomostlar orqali to'lanadi.

Ishlovchi pensionerlarning pensiya to'lovlarini uchun tashkilotlarga ajratilgan Pensiya jamg'armasi mablag'larining maqsadli sarflanishi ustidan nazoratni O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining Davlat moliyaviy nazorati bosh boshqarmasi va uning hududiy boshqarmalari hamda davlat soliq xizmati organlari olib boradi.

Ishlovchi pensionerlarga pensiya to'lovini amalga oshiruvchi tashkilotlar byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi mablag'larini o'z vaqtida va maqsadli to'lanish javobgarligini o'z zimmasiga oladi.

Ishlovchi pensionerlarning pensiya to'lovlarini amalga oshirishda byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi mablag'larining to'g'ri hisoblanishi, to'lanishi va sarflanishi ustidan nazorat, tashkilotlarning rahbarlari va bosh hisobchilari tomonidan amalga oshiriladi.

Ishlamaydigan pensionerlarga davlat pensiyalarini to'lash O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Davlat pensiyalarini tayinlash va to'lash tartibini yanada takomillashtirishga yo'naltirilgan normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi qarori³⁶ bilan tasdiqlangan "Davlat pensiyalarini tayinlash va to'lash tartibi to'g'risidagi Nizom" asosida amalga oshiriladi. Ushbu nizom bilan quyidagilar belgilab berilgan:

- pensiya tayinlash uchun zarur bo'lgan hujjatlarni taqdim etish tartibi;
- pensiyalar tayinlash uchun ish stajini hisoblab chiqish va tasdiqlash tartibi;
- pensiyani hisoblash tartibi;
- pensiya tayinlash tartibi;


³⁶ O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2015 y., 1-son, 4-modda, 23-son, 303-modda, 26-son, 338-modda

- pensiyalarni bir turidan boshqa turiga o'tkazish tartibi;
- pensiyani qayta hisoblab chiqish tartibi;
- pensiyalarini to'lash tartibi;
- pensiyaga oid hujjatlar yig'majildini hisobga olish va saqlash tartibi va boshqalar.

Pensiya miqdori ish staji davriga bog'liq bo'ladi va:

- pensiyaning bazaviy miqdoridan;
- ish staji uchun pensiya oshirilishidan;
- pensiyaga ustama haqlardan shakllanadi.

Ushbu nizomga ko'ra, shuningdek, boshqa qonun hujjatlarida ham belgilanganidek, pensiya miqdori ish staji davriga bog'liq bo'ladi va pensiyaning bazaviy miqdoridan, ish staji uchun pensiya oshirilishidan hamda pensiyaga ustama haqlardan shakllanadi (4.7-rasm).



4.7-rasm. Pensiya miqdorining tarkibi

Pensiyanı hisoblash uchun pensiyalarning quyidagi bazaviy miqdorlari belgilanadi:

a) yoshga doir pensiyalar uchun – pensiyani hisoblash uchun qabul qilinadigan o'rtacha oylik ish haqining 55 foizi, biroq eng kam oylik ish haqining 100 foizidan kam emas;

b) I va II guruh nogironlariga nogironlik pensiyasi uchun - pensiyani hisoblash uchun qabul qilinadigan o'rtacha oylik ish haqining 55 foizi, biroq eng kam oylik ish haqining 100 foizidan kam emas;

d) boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi uchun oilaning har bir mehnatga layoqatsiz a'zosiga – pensiyani hisoblash uchun qabul qilinadigan o'rtacha oylik ish haqining 30 foizi miqdorida, biroq eng kam oylik ish haqining 50 foizidan kam emas;

e) har ikkala ota-onasini yo'qotgan bolalarga (chin yetimlarga) boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi uchun yoki vafot etgan yolg'iz onaning bolalariga har bir bola uchun – pensiyani hisoblash uchun qabul qilinadigan o'rtacha oylik ish haqining 30 foizi, biroq eng kam oylik ish haqining 100 foizidan kam emas.

Pensiya tayinlash uchun talab qilinadigandan ortiq ish stajining har bir to'liq yili uchun pensiyalarining bazaviy miqdorlari:

a) yoshga doir pensiyalar – pensiyani hisoblash uchun qabul qilinadigan o'rtacha oylik ish haqining 1 foiziga;

b) I va II guruhlar nogironlariga nogironlik pensiyalari – pensiyani hisoblash uchun qabul qilinadigan o'rtacha oylik ish haqining 1 foiziga;

d) boquvchisini yo'qotganlik pensiyalari oilaning har bir mehnatga layoqatsiz a'zosiga – boquvchi o'rtacha oylik ish haqining 0,5 foiziga oshiriladi.

Qonunga muvofiq, shaxslarning ayrim toifalari pensiyaga ustama haq olish huquqiga ega. Pensiyaga ustama haqlar quyidagi miqdorlarda belgilanadi:

– I guruh urush nogironlariga – eng kam oylik ish haqining 150 foizi;

– II guruh urush nogironlariga – eng kam oylik ish haqining 125 foizi;

– ko'rish bo'yicha I guruh nogironlariga – eng kam oylik ish haqining 100 foizi;

– I guruh nogironlariga – eng kam oylik ish haqining 75 foizi;

– II guruh yolg'iz nogironlariga – eng kam oylik ish haqining 50 foizi;

– urush qatnashchilariga va ularga tenglashtirilgan shaxslarga – eng kam oylik ish haqining 50 foizi;

– Ikkinchi jahon urushi davrida front orqasida ishlagan va harbiy majburiyatlarni bajargan shaxslarga – eng kam oylik ish haqining 30 foizi;

– o'limi harbiy xizmat majburiyatlarini bajarish yoki ichki ishlar organlarida xizmat qilish bilan bog'liq bo'lgan harbiy xizmatchilar va ichki ishlar organlari xodimlarining ota-onalariga va yangi nikohga kirmagan beva xotinlariga (beva erlariga) – eng kam oylik ish haqining 30 foizi;

– O'zbekiston Respublikasi oldida alohida xizmatlarga ega bo'lgan shaxslarga – xizmatlarga qarab eng kam oylik ish haqining 100 foizidan 150 foizigacha;

– O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekistonda teatr va musiqa san'atini yanada rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonni amalga oshirish masalalari haqida 1995-yil 28-oktyabrdagi 415-son qaroriga 1-ilovada ko'rsatilgan tashkilotlarda ishlagan imtiyozli pensiya olish huquqiga ega bo'lgan artistlarga yoshidan qat'iy nazar – eng kam oylik ish haqining 75 foizi va qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda.

Bundan tashqari, ishlamaydigan pensionerlarga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Faxriy unvonlar uchun to'lovlar miqdorini oshirish to'g'risida" 2007-yil 17-dekabrdagi PF-3942-son farmoniga muvofiq faxriy unvonlar uchun qo'shimcha haq, 100 yoshga to'lgan va undan oshgan fuqarolar pensiyasiga esa har oyda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Keksalarni ijtimoiy himoya qilish va moddiy qo'llab-quvvatlashni yanada kuchaytirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2015-yil 14-apreldagi PF-4715-son farmoniga muvofiq eng kam oylik ish haqining 100 foizi miqdorida qo'shimcha to'lov qo'shib hisoblanadi. Faxriy unvon uchun, shuningdek, 100 yoshga to'lgan va undan oshgan pensionerlarga qo'shimcha to'lov, pensiyaga ustama haqlarning soni va miqdorlaridan qat'iy nazar, amalga oshiriladi.

Dafn etish marosimi uchun beriladigan nafaqa – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil

14-iyundagi 174-son qarori bilan tasdiqlangan “Dafn etishga nafaqa tayinlash va to’lash tartibi to’g’risida Nizom” asosida beriladi. Dafn etish marosimi uchun nafaqa xodim yoki uning qaramog’ida bo’lgan quyidagi oila a’zolari vafot etganda beriladi:

- turmush o’rtog’i;
- 18 yoshga to’lmagan yoki vaqtinchalik mehnatga qobiliyatsiz (yoshidan qat’iy nazar) bolalari, aka-ukalari va opa-singillari;
- ota-onasi;
- bobosi yoki buvisi.

Xodim vafot etganda dafn etish marosimi uchun nafaqa oila a’zolariga yoki dafn o’tkazishni o’z zimmasiga olgan shaxslarga byudjetdan tashqari Pensiya jamg’armasining tuman (shahar) bo’limi tomonidan eng kam oylik ish haqining uch baravari miqdorida berilar edi.³⁷ Bugungi kunda pensionerlar va boshqa fuqarolar ham vafot etgan taqdirda ularning oilasiga yoki dafn marosimini o’tkazgan shaxsga eng kam oylik ish haqining to’rt barobari miqdorida dafn etish nafaqasi to’lanadi.³⁸

Agarda pensioner vafot etgan taqdirda pensioner olishi lozim bo’lgan va uning vafoti munosabati bilan olinmay qolgan pensiya puli meros tarkibiga kiritilmasdan boquvchisini yo’qotganlik pensiyasi bilan ta’milanadigan shaxslar doirasiga kiruvchi oila a’zolariga to’lanadi. Pensiya puli pensioner vafot etgandan keyin 60 kun ichida murojaat etgan taqdirda beriladi.

Amaliyotning ko’rsatishicha, olinmay qolgan pensiyani to’lash hollari har doim ham bir xil bo’lavermaydi. Masalan:

Birinchi holat. Pensioner joriy oy uchun pensiya olgandan keyin vafot etdi. Bu holda olinmay qolgan pensiya puli mavjud emas. Pensiya fondiga qaytariladigan pensiya puli ham mavjud emas.

³⁷ Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 14-iyundagi 174-son qarori bilan tasdiqlangan “Dafn etishga nafaqa tayinlash va to’lash tartibi to’g’risida Nizom”ning 89-bandiga ko’ra.

³⁸ “Fuqarolarning davlat pensiya ta’minoti to’g’risidag’gi qonunning 63-moddasiga ko’ra.

Ikkinchi holat. Pensioner joriy oy uchun pensiya pulini olguncha vafot etdi. Bu holda olinmay qolgan pensiya puli hisoblanishi quyidagicha:

– tayinlangan pensiya summasi tegishli oydag'i kalendar kunlari soniga bo'linadi va 1 kun uchun to'lov summasi aniqlanadi;

– 1 kun uchun to'lov summasi to'lanishi kerak bo'lgan oydag'i kalendar kunlarga (vafot etgan kunni ham qo'shgan holda) ko'paytiriladi va u bilan yashagan oila a'zolariga to'lab beriladi.

Uchinchi holat. Pensioner pensiyaning bir qismini bank plastik kartochkasida, bir qismini esa – naqd pulda olar edi. Bunda vafot etgan kun pensiyaning bir qismini bank kartochkasida olishga ulgurdi, naqd qismini olishga esa ulgurmadi. Olingan qismi birinchi holatda, olinmagan qismi esa ikkinchi holatda beriladi.

To'rtinchi holat. Davlat pensiyalarini tayinlash va to'lash tartibi to'g'risidagi nizomning 171, 172-bandlariga muvofiq, pensionerga pensiya to'lash to'xtatib turilgan edi. Pensiya jamg'armasiga tiklash uchun murojaat etmay vafot etgan. Olinishi kerak bo'lgan pensiya mavjud emas.

Beshinchi holat. Davlat pensiyalarini tayinlash va to'lash tartibi to'g'risidagi nizomning 171, 172-bandlariga muvofiq, pensionerga pensiya to'lash to'xtatib turilgan edi. Pensiya jamg'armasiga tiklash uchun murojaat etgan (biroq murojaat etilgandan oldingi 12 oydan oshmagan). Biroq olmasdan vafot etdi. Olinmay qolgan pensiya puli uning yaqinlariga to'lanadi.

Oltinchi holat. Pensioner joriy oy uchun pensiya pulini olgunga qadar vafot etdi, biroq noma'lum sabablarga ko'ra pensiya uning oila a'zolariga to'langan. Bu holda uning oila a'zolari ushbu mablag'larni Pensiya jamg'armasi bo'limlariga qaytarishlari shart. Bunda Pensiya jamg'armasi bo'limi ikkinchi holatda ko'rsatilgan tartibda olinmay qolgan summani to'laydi.

Shuningdek, ayolning homilasi tushgan hollarda dafn etish marosimi uchun nafaqa berilmaydi. Dafn etish

marosimi uchun nafaqa byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi mablag'lari hisobidan beriladi.

Bahs-munozara va nazorat uchun savollar

1. Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi faoliyatining asosiy maqsadi nimalardan iborat?
2. Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining vazifa va funksiyalarini izohlab bering.
3. Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining tashkiliy tuzilmasini tushuntirib bering.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009-yil 30-dekabrdagi "Fuqarolarning pensiya ta'minoti tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-4161-sonli farmonning mazmuni va ahamiyatini izohlab bering.
5. Hozirgi kunda mamlakatimizda pensiya va nafaqa oluvchilar sonini tarkibiy jihatdan aytib bera olasizmi?
6. Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining daromad manbalarini aytib bering.
7. Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasidan to'lanuvchi pensiya va nafaqalarni tushuntiring.
8. "Davlat pensiya ta'minoti tizimini isloh qilish konsepsiyasi" loyihasida qanday vazifalarни amalgalashirish nazarda tutilmoqda?
9. Pensiya jamg'armasi xarajatlari tarkibini tushuntirib bering.

5-BOB. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI BANDLIKKA KO'MAKLASHISH DAVLAT JAMG'ARMASI

Reja:

5.1. Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasining maqsadi, mohiyati va ahamiyati

5.2. Mamlakatda bandlikni ta'minlashda Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasining o'rni

5.3. Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasi mablag'larini shakllantirish va ulardan foydalanish

5.1. Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasining maqsadi, mohiyati va ahamiyati

"Har bir shaxs mehnat qilish, erkin kasb tanlash, adolatli mehnat sharoitlarida ishlash va qonunda ko'rsatilgan tartibda ishsizlikdan himoyalanish huquqiga egadir".³⁹

Darhaqiqat, har bir shaxs mehnat qilish huquqiga ega. Bu esa nafaqat ishlovchiga natija keltiradi, balki, iqtisodiyotning rivojlanishiga ham o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatadi.

Bandlik masalasida Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev Oliy Majlisga Murojaatnomasida ham alohida to'xtalib o'tgan, ya'ni "...biz aholi bandligini ta'minlashni o'z oldimizga ustuvor vazifa qilib qo'ygan ekanmiz, bu masalaga nafaqat son, balki sifat jihatidan ham alohida ahamiyat berishimiz zarur".⁴⁰

Davlat har bir ishchi va xizmatchini ma'lumotiga, malakasiga qarab ish bilan ta'minlab berishni o'z kafolatiga olmaydi. Shuning uchun davlat iqtisodiyotda va ijtimoiy hayotda nomutanosiblik bo'lmasligi va har bir shaxsni mehnat qilishga haqliligi va erkin kasb tanlash huquqi

³⁹ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 37-moddasi. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjalari to'plami, 2014-y., 16-son, 176-modda.

⁴⁰ Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. – T.: "O'zbekiston" NMIU, 2018 y. – 68 bet.

borligini hisobga olib davlat tomonidan maxsus moliyaviy muassasa tashkil etildi. Ushbu tadbirlarni hayotga tatbiq qilishni davlatning bandlik fondi amalga oshiradi. Vazirliklar, idoralar, uyushmalar, mulkchilikning barcha shakllaridagi korxonalar, muassasalar va tashkilotlar O'zbekiston Respublikasining Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasiga mablag'larning to'liq va o'z vaqtida ajratilishini ta'minlaydilar. O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi hamda Davlat soliq qo'mitasi O'zbekiston Respublikasining Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasiga mablag'larning to'liq tushishi ustidan qat'iy nazorat o'rnatadilar.

O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi Moliya vazirligi hamda Markaziy bank bilan kelishgan holda O'zbekiston Respublikasining Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasiga boshqa davlatlar tashkilotlar va fuqarolaridan tushadigan mablag'larni o'tkazish uchun xorijiy valyutada hisob raqami ochishga ruxsat etilgan. O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi ko'rsatib o'tilgan valyuta mablag'laridan aholini ish bilan ta'minlash bilan bog'liq maqsadlarda foydalanishi belgilab qo'yilgan.

O'zbekiston Respublikasining Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasi bandlik va mehnatni muhofaza qilish sohasidagi davlat siyosatini amalga oshirish, shuningdek, tuman (shahar) aholi bandligiga ko'maklashish markazlarining samarali faoliyat ko'rsatishi tadbirlarini moliyalashtirish uchun tashkil etilgan.

Bandlik jamg'armasi yuridik shaxs tashkil etmasdan respublika va mahalliy darajalarda tashkil etiladigan davlat maqsadli jamg'armasi hisoblanadi. Bandlik jamg'armasi mablag'lari uning mustaqil balansida aks ettiriladi.

Respublika va mahalliy darajada tashkil etilgan Bandlik jamg'armasi mablag'lari O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining g'aznachiligi, g'aznachilikning Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri boshqarmalari tomonidan ochiladigan Bandlik jamg'armasining g'aznachilik hisob raqamlarida jamlanadi.

5.1-jadval

O'zbekiston Respublikasi doimiy aholisi soni to'g'risida ma'lumot

	1991 y.		2017 y.		2017-yilning 1991 yilga nisbatan farqi	
	soni	ulushi, %	soni	ulushi, %	+,-	%
Jami aholi soni	20607,7	100,0	32120,5	100,0	11512,8	155,9
shu jumladan:						
erkaklar	10188,0	49,4	16121,0	50,2	5933,0	158,2
ayollar	10419,7	50,6	15999,5	49,8	5579,8	153,6

Manba: Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari

Bandlik jamg'armasining asosiy vazifalari quyidagilar hisoblanadi:

- mehnat bozorini barqaror va muvozanatli rivojlantirishni ta'minlash, aholi bandligi darajasini oshirish va mehnat resurslaridan oqilona foydalanishga maqsadli yo'naltirilgan kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirishni moliyalashtirish;

- ishsizlarni, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar, oliy ta'lim muassasalarini bitiruvchilarini, shuningdek ish qidirishda qiyinchiliklarga duch kelayotgan va mehnat bozorida teng sharoitlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish va moddiy qo'llab-quvvatlash bo'yicha qonun hujjalarda belgilangan kafolatlarni amalga oshirish;


- ishsizlarga va band bo'limgan aholiga, birinchi navbatda, yoshlar, ayollar va nogironlarga kasb-hunarga qayta tayyorlash va ishga joylashtirish bo'yicha sifatli xizmatlar ko'rsatilishini tashkillashtirishga hamda mehnat organlarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlashga doir xarajatlarni moliyalashtirish.

Bandlik jamg'armasining ijro etuvchi organlari quyidagilar hisoblanadi (5.1-rasm):

**Bandlik jamg'armasining ijro etuvchi organlari
quyidagilar hisoblanadi:**



respublika darajasida



Bandlikka ko'maklashish jamg'armasi
mablag'laridan samarali va maqsadli
foydalanish bo'limi

hududiy darajada



Bandlikka ko'maklashish jamg'armasi
mablag'laridan samarali va maqsadli
foydalanish sho"balari

5.1-rasm. Bandlik jamg'armasining ijro etuvchi organlarining tuzilishi

Ijro etuvchi organ esa quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:

- Bandlik jamg'armasining daromadlari va xarajatlari prognozini va hisobot balanslarini shakllantiradi;
- Bandlik jamg'armasining daromadlari va xarajatlarining bajarilishi hisobini va hisobotini yuritadi, Bandlik jamg'armasi mablag'larini tasarruf etuvchi tomonidan tasdiqlagandan so'ng tegishli moliya organlariga yuboradi;
- Bandlik jamg'armasi moliyaviy hisobotlarining haqqoniyligini ta'minlaydi;
- Bandlik jamg'armasi mablag'laridan maqsadli foydalanish bo'yicha auditni tashkil qiladi;
- Bandlik jamg'armasi mablag'laridan maqsadli va samarali foydalanish masalalari bo'yicha tushuntirishlar beradi.

5.2. Mamlakatda bandlikni ta'minlashda Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasining o'rni

O'zbekistonning ijtimoiy siyosatida ham, aholini ijtimoiy himoyalashning muhim sharti sifatida ham ish bilan

bandlik va ishsizlikdan himoyalash siyosatini davlat byudjetidan moliyalashtirish dunyodagi ko'pgina rivojlangan mamlakatlarning boy tajribasiga asoslangandir. Ammo, bu tajribalarning ko'pchiligi O'zbekiston ijtimoiy siyosatining tub mohiyatiga tatbiqan takomillashtirilishi kerak.

Eng avvalo, ish bilan bandlik siyosatini amalga oshirishga yo'naltirilgan moliyaviy mablag'larni muvofiq tarzda taqsimlab, mehnat bozorini tartibga solishning umumdavlat va mintaqaviy sohalarini belgilab olish kerak. Mahalliy mehnat bozorini tahlil qilish asosida ajratilgan mablag'larning har bir so'mini ish bilan bandlikning o'sishi ko'rinishidagi samara bilan qaytishi uni qayerga yo'llash kerakligini aniqlash kerak bo'ladi. Ish bilan bandlik siyosatini amalga oshirish usullari ham qayta ko'rib chiqilishi kerak.

5.2-jadval

O'zbekiston Respublikasi doimiy aholisining yosh tarkibi to'g'risida ma'lumot

	1991 y.		2011 y.		2017 y.	
	soni	ulushi, %	soni	ulushi, %	soni	ulushi, %
Jami aholi soni	20607,7	100,0	29123,4	100,0	32120,5	100,0
shu jumladan:						
mehnatga layoqatli yoshdan kichiklar	8883,7	43,1	9099,3	31,3	9665,7	30,1
mehnatga layoqatli yoshdagilar	10122,5	49,1	17804,7	61,1	19440,8	60,5
mehnatga layoqatli yoshdan kattalar	1601,5	7,8	2219,4	7,6	3014,0	9,4

Manba: Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari

Rivojlangan mamlakatlar tajribasining ko'rsatishicha, hukumat ishsizlarning ijtimoiy himoyasini ta'minlagandan keyingina, boshqa ishlarga kirishishi – dastlab ish bilan

bandlikni barqarorlashtirishga, so'ngra uning o'sishini rag'batlantirishga kirishishi mumkin. Bunda ish bilan bandlikning o'sishini rag'batlantirish uch yo'nalishda amalga oshiriladi:

- tadbirkorlar bilan ishslash, yangi ish joylari yaratilganda soliq imtiyozlarini berish, ishsizlarning ish izlashini faollashtirish;
- ishchi kuchi taklifini rag'batlantirish;
- yollanma ishchilar sinfini mehnat bozoridan chiqarish, o'z-o'zini band qilishni rag'batlantirish.

Ma'lumki, har qanday tartibga solish jarayoni, ma'muriy yoki iqtisodiy bo'lishi mumkin, shu jumladan, mehnat bozoriga ham taalluqlidir. Tartibga solishning bu usullari o'rtaqidagi chegara bozor mexanizmiga aralashuv darjasasi chizig'i bo'ylab o'tadi. Ma'muriy usullar mehnat bozori ishiga bevosita, ba'zida hatto bozor mexanizmini buzib aralashuvni nazarda tutadi. Tartibga solishning iqtisodiy usullari buyruq beradigan emas, tavsiyaviy, rag'batlantirish usullari asosida amalga oshadi.

IV. Ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari

aholining real pul daromadlarini va xarid qobiliyatini oshirish, kam ta'mirlangan oilalar sonini va aholining daromadlari bo'yicha farqlanish darajasini yanada kamaytirish;

-yangi ish o'rinnari yaratish hamda aholining, eng avvalo o'rta maxsus va oliv o'qiv yurti muassasalarini bitiruvchilari bandligini ta'minlash, mehnat bozori mutanosibligini va infratuzilmasi rivojlanishini ta'minlash, ishsizlik darajasini kamaytirish;

mehnatga fayqatli aholining mehnat va tadbirkorlik faoliygini to'liq amalga oshirish uchun sharoitlar yaratish, ish kuchi sifatini yaxshilash, ishga muhtoj shaxslarni kasbga tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini kengaytirish bandlik siyosatining asosiy yo'nalishlaridir.

5.2-rasm. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida bandlikni ta'minlash bo'yicha belgilangan vazifalar

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev tomonidan ishlab chiqilgan 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida⁴¹ bandlikni ta'minlash bo'yicha alohida vazifalar belgilab qo'yilgan.

Harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalarni amalga oshirishda umumiy nazorat Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi tomonidan amalga oshirilsada, belgilangan vazifalarni Bandlik jamg'armasi moliyalashtiradi.

5.3. Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasi mablag'larini shakllantirish va ulardan foydalanish

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 24-maydag'i "Bandlik sohasida davlat siyosatini yanada takomillashtirish va mehnat organlari faoliyati samaradorligini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5052-sonli farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 24-maydag'i "O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3001-sonli qarorini bajarish yuzasidan, shuningdek, mehnat organlari faoliyatini yanada takomillashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Mehnat organlari faoliyatini tashkil etishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2017-yil 10-iyuldag'i 482-sonli qarori asosida tasdiqlangan nizomga ko'ra, quyidagilar Bandlik jamg'armasi mablag'larini shakllantirish manbalari hisoblanadi:

- qonun hujjatlarida nazarda tutilgan talablar buzilganligi uchun davlat mehnat huquqi inspektorlari va davlat mehnat muhofazasi texnik inspektorlari,

⁴¹ "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldag'i PF-4947-sonli farmoni.

shuningdek, mehnat sharoitlari bo'yicha davlat ekspertizasining mansabdon shaxslari tomonidan belgilangan tartibda solinadigan ma'muriy jazolar summalari;

5.3-jadval

**Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasi
daromadlarining tarkibiy tahlili**

t/r	Ko'rsatkichlar	2012-yil	2013-yil	2014-yil	2015-yil	2016-yil	2017-yil
1	Yagona ijtimoiy to'lov summasidan 0,1 foizli majburiy ajratma	55,6	81,4	88,1	91,5	90,1	80,4
2	Boshqa daromadlar	44,4	18,6	11,9	8,5	9,9	19,6
Jami daromadlar		100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0

- O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining hududiy bo'linmalariga biriktirilgan binolar, inshootlar va xonalarni sotishdan tushadigan, O'zbekiston Respublikasi Xususiyashtirilgan korxonalarga ko'maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasi tomonidan, ularni baholash va sotish bilan bog'liq aniq xarajatlardan tashqari, to'liq hajmda Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasiga yo'naltiriladigan mablag'lар;

- fuqarolarni chet ellarda ishga joylashtirish sohasida faoliyatni amalga oshirayotgan nodavlat tashkilotlar tomonidan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi belgilaydigan stavka bo'yicha, har bir ishga yo'llangan fuqaro uchun aniq belgilangan miqdorda Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasiga o'tkaziladigan ajratmalar;

- O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi tasarrufidagi davlat unitar korxonalarida O'zbekiston Respublikasi davlat byudjetiga va davlat maqsadli jamg'armalariga barcha soliqlar va

boshqa majburiy to'lovlar to'langandan so'ng qoladigan sof foydaning muassis tomonidan belgilanadigan miqdordagi qismi;

- qonun hujjatlarida belgilangan tartibda mehnat daftarchalari blankalarini sotishdan tushadigan daromadlar;

- Bandlik jamg'armasining bo'sh turgan mablag'larini tijorat banklarida va boshqa moliyaviy tashkilotlarda joylashtirishdan olinadigan daromadlar;

- jismoniy va yuridik shaxslarning homiylik ehsonlari;
- qonun hujjatlariga muvofiq boshqa tushumlar.

O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahri bandlik bosh boshqarmalari, tegishli ravishda Bandlik jamg'armasi mablag'larini tasarruf etuvchilar hisoblanadilar.

5.4-jadval

Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasi xarajatlarining tarkibiy tahlili (foizda)

t/r	Xarajatlar yo'nalishlari	yillar					
		2012	2013	2014	2015	2016	2017
1	Ishsizlik nafaqalarini to'lash	1,30	1,98	2,16	2,66	4,00	5,21
2	Ishsizlarni haq to'lanadigan jamoat ishlariga jalb qilish xarajatlari	0,17	0,53	0,68	0,67	1,04	0,96
3	Muddatidan oldin pensiya xarajatlarini to'lash	0,17	0,12	0,11	0,10	0,41	0,31
4	Ishsizlarni kasbga tayyorlash va qayta tayyorlash va o'quv xarajatlari	1,94	7,43	8,31	8,58	8,71	9,39

	Bandlikka ko'maklashish markazlari byurolarni xarajatlari	hamda saqlash	87,94	83,66	76,12	81,01	71,08	73,40
5	Boshqa xarajatlar		8,49	6,27	12,63	6,98	14,76	10,73
	Jami xarajatlar		100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0

Bandlik jamg'armasi mablag'lardan quyidagilar uchun foydalaniladi:

- tuman (shahar) aholi bandligiga ko'maklashish markazlarida (keyingi o'rinnarda aholi bandligiga ko'maklashish markazlari deb ataladi) ish qidiruvchi va ishsiz maqomiga ega sifatida ro'yxatga olingan shaxslarni kasbga tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish ishlarini mablag' bilan ta'minlash;

- ishsizlik bo'yicha nafaqalar, aholi bandligiga ko'maklashish markazlarining taklifiiga binoan ishslash uchun boshqa joyga ixtiyoriy ravishda ko'chib o'tish munosabati bilan kompensatsiyalar to'lash, ishsizlarga moddiy yordam berish, shuningdek, qonun hujjaligiga muvofiq kasbga tayyorlash, qayta tayyorlash va malaka oshirish davrida aholi bandligiga ko'maklashish markazlari tomonidan beriladigan stipendiyalarni to'lash;

- ishsizlarga muddatidan oldin pensiya tayinlanganligi sababli O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi xarajatlarini qoplash;

- aholi bandligiga ko'maklashish markazlarining ayrim bo'limlari, vaqtinchalik bir martalik ish bilan ta'minlash markazlari, ishsizlarni va band bo'lмаган aholini kasbhunarga o'qitish mintaqaviy markazlari, ishsizlarni kasbhunarga tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish o'quv markazlarini qonunchilikka muvofiq saqlash va moddiy-texnik ta'minlash, shuningdek, mehnat organlarini joylashtirish uchun binolar, xonalar sotib olish, qurish, ularni rekonstruksiya qilish va mukammal ta'mirlash ishlarini mablag' bilan ta'minlash;

- haq to'lanadigan jamoat ishlarini qonun hujjatlarida belgilangan tartibda mablag' bilan ta'minlash;
- nogironligi bo'lgan shaxslar va fuqarolarning ijtimoiy himoyaga muhtoj bo'lgan boshqa toifalari mehnatidan foydalanish uchun ixtisoslashtirilgan ish o'rirlari tashkil etish tadbirlarini mablag' bilan qisman ta'minlash;
- axborot-ma'lumotnomalar chiqarish va reklama-noshirlik ishlarini amalga oshirish;
- ish bilan ta'minlash, mehnatni muhofaza qilish, mehnat munosabatlarini tartibga solish, mehnatni normalash va unga haq to'lash masalalari bo'yicha normativ-uslubiy va yo'riqnomalar materiallar ishlab chiqishni mablag' bilan ta'minlash;
- belgilangan tartibda respublika darajasida va hududiy darajada ijtimoiy kuzatuvlarni tashkil etish va o'tkazish, ish bilan ta'minlash masalalari bo'yicha aholining ayrim guruhlari o'rtasida anketa so'rovlari o'tkazish;
- ish bilan band bo'lмаган aholiga yordam ko'rsatish, shu jumladan maslahatlar berish va kasbga yo'naltirishni tashkillashtirish bilan bog'liq xarajatlarni qoplash;
- aholini ish bilan ta'minlash maqsadli hududiy dasturlarini ishlab chiqishni hamda mehnat bozorida vaziyat murakkab bo'lgan tuman va shaharlarda ish o'rirlari tashkil etishni, shu jumladan, alohida hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish konsepsiyanlari tayyorlashni, xizmatlar ko'rsatish, sanoat va qishloq xo'jaligi sohalarida obyektlar tashkil etish uchun muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlarini loyihalashtirishni va arxitektura-rejalashtirish topshiriqlarini ishlab chiqishni mablag' bilan ta'minlash;
- bandlik va mehnat muhofazasiga taalluqli masalalar bo'yicha maslahatlar, seminarlar, davra suhbatlari o'tkazish, maqolalar, broshyuralar, qo'llanmalar va boshqa axborot materiallarini tayyorlash va chop etish, shu jumladan, video-audioroliklar va filmlar, ilmiy-amaliy tadqiqotlar va boshqa tadbirlarni tayyorlash bilan bog'liq xarajatlarni qoplash;

- aholi bandligini ta'minlash va ishga joylashtirish, bo'sh ish o'rirlari va band bo'lмагan aholining hisobini yuritish sohalarida axborot-kompyuter tizimlari va texnologiyalarini yaratish, rivojlantirish va texnik jihatdan qo'llab-quvvatlash, shu jumladan, ularga oid dasturiy mahsulotlar ishlab chiqish va texnika vositalari sotib olish;
- mehnat organlarining moddiy-texnika bazasini rivojlantirishga yo'naltirilgan chora-tadbirlarni moliyalashtirish;
- aholi bandligi sohasida xalqaro hamkorlikni moliyalashtirish;
- O'zbekiston Respublikasining chet ellarga ishga yuborilgan fuqarolarini ishga joylashtirishni tashkil etish va ularning ijtimoiy himoyasini ta'minlash masalalari bo'yicha xalqaro loyiha va shartnomalarni amalga oshirish bilan bog'liq xarajatlarni moliyalashtirish;
- Bandlik jamg'armasining g'aznachilikdagi shaxsiy raqamiga tushadigan mablag'larning 5 foizini yo'naltirish orqali mehnat organlari xodimlarini moddiy rag'batlantirish va moddiy-texnik bazani mustahkamlash jamg'armasini shakllantirish;
- qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa chora-tadbirlarni moliyalashtirish.

Bahs-munozara va nazorat uchun savollar

1. O'zbekistonda doimiy aholi soni va unda ishsizlar sonining ulushi qanchani tashkil etadi?
2. Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasining tashkil etilishidan maqsad nima?
3. O'zbekistonda aholini ish bilan ta'minlashda Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasining o'rnini izohlab bering.
4. Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasining vazifa va funksiyalari nimalardan iborat?
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yilda Aholi bandligiga ko'maklashish davlat dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi qarori ijrosini

ta'minlashda Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasiga qanday vazifalar yuklatilgan?

6. Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasining daromad manbalarini aytib bering.

7. Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasining xarajatlarini tushuntirib bering.

8. Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasi tomonidan to'lanuvchi ishsizlik nafaqasini hisoblanish va to'lanish tartibini tushuntirib bering.

9. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida bandlikni ta'minlash bo'yicha qanday vazifalar belgilangan va unda Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasining o'rni qanchalik muhim.

6-BOB. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI HUZURIDAGI RESPUBLIKA YO'L JAMG'ARMASI

Reja:


**6.1. Respublika yo'l jamg'armasining ahamiyati,
maqsadi va vazifalari**

**6.2. Respublika yo'l jamg'armasi moliyaviy
resurslarining shakllanishi va xarajatlarini amalga
oshirish yo'nalishlari**

**6.3. Respublika yo'l jamg'armasi byudjetini tuzish,
ko'rib chiqish va tasdiqlash**

**6.1. Respublika yo'l jamg'armasining ahamiyati,
maqsadi va vazifalari**

Avvaldan yo'llar xalqlarni birlashtirib turadigan, o'zaro savdo-sotiq aloqalarini amalga oshiradigan muhim tizim hisoblangan. Yo'llarni rivojlantirmasdan, uning holatini yaxshilamasdan turib, iqtisodiyotni rivojlantirish mumkin emas. Buni inobatga olib, hukumatimiz tomonidan avtomobil yo'llarini qurish, ta'mirlash va saqlash ishlariga ustuvor yo'nalish sifatida qaralmoqda.



6.1-rasm. Dunyoda mavjud yo'llarning turlari

O'zbekistonda nafaqat avtomobil yo'llari, shuningdek, havo yo'llari, temir yo'llari, dengiz yo'li, hattoki, quvur yo'llari ham mavjud.

Davlatning byudjetdan tashqari jamg'armalari tarkibida Respublika yo'l jamg'armasi alohida o'rinni egallaydi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Respublika yo'l jamg'armasi konsolidatsiyalashgan byudjet tarkibidagi boshqa maqsadli jamg'armalar kabi samarali faoliyat olib bormoqda. Bu holat, ayniqsa, shakllanayotgan daromadlar tarkibi va mablag'lardan maqsadli foydalanishni kuchaytirishda bir qator ijobiy o'zgarishlar ko'rinishida sodir bo'lmoqda.

Rivojlangan mamlakatlarda ham davlat maqsadli jamg'armalari ko'plab uchraydi. Ular o'zining vazifasi doirasida ishlarni amalga oshiradi.⁴²

6.1-jadval

O'zbekistonda yo'l sohasida strategik ahamiyatga ega bo'lgan tashkilotlar

T/r	O'zbekistonda yo'l sohasida strategik ahamiyatga ega bo'lgan tashkilotlar	Qachon tashkil etilgan?	Qancha uzunlikdagi yo'llar mavjud? (Km)
	O'zbekiston Respublikasi Avtomobil yo'llari davlat qo'mitasi	2017-yil 14-fevral	+2695
	"O'zbekiston havo yo'llari" milliy aviakompaniyasi	1992-yil 28-yanvar	-
	"O'zbekiston temir yo'llari" aksiyadorlik jamiyati	1994-yil 7-noyabr	+303

⁴² Richard Allen and Dimitar Radev. Extrabudgetary Funds. International Monetary Fund. 4p. June. 2010

Mamlakatimizda Respublika yo'l jamg'armasi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaroriga muvofiq tashkil etilgan. jamg'arma umumiy foydalaniladigan avtomobil yo'llarini saqlash, ta'mirlash, rekonstruksiya qilish va qurish bilan bog'liq xarajatlarni moliyalashtirishga safarbar etilgan.

Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 21-avgustdag'i 361-son qarori bilan "O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Respublika yo'l jamg'armasi to'g'risida"gi nizom tasdiqlandi. Keyinchalik, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Avtomobil yo'llari davlat qo'mitasi va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Respublika yo'l jamg'armasi faoliyatlarini tashkil etish to'g'risida" 2017-yil 14-fevraldag'i PQ-2776-sonli qaroriga ko'ra Respublika yo'l jamg'armasi O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligidan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Hududlarni kompleks rivojlantirish va kommunal soha, transport, kapital qurilish, qurilish industriyasi masalalari kompleksiga bo'yusundirildi.

Yangi tasdiqlangan nizomga ko'ra jamg'arma yuridik shaxs hisoblanadi, mustaqil balansga, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining G'aznachiligidagi g'aznachilik hisob raqamlariga, tijorat banklarida hisob raqamlariga, O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankida xorijiy valyutadagi hisob raqamlariga va boshqa rekvizitlariga ega.

Jamg'armaning daromadlari va xarajatlari mablag'larni shakllantirish va sarflashning maqsadli yo'naltirilganligi saqlanib qolgan holda O'zbekiston Respublikasining konsolidatsiyalashgan byudjeti tarkibiga kiradi, shuningdek, Jamg'armaning maxsus yig'ma balansida aks ettiriladi.

Respublika yo'l jamg'armasining asosiy maqsadi – umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llari tarmog'ini rivojlantirish va takomillashtirish dasturlarini (loyihalarini) hamda ularning zarur tarzdagi texnik holatiga va o'tkazish qobiliyatiga erishishga yo'naltirilgan tadbirlarni

moliyalashtirish uchun mablag'larni jamlash va ulardan samarali foydalanish hisoblanadi.

Respublika yo'l jamg'armasi mablag'lari tushumi hamda sarfining yillik va choraklik hisobotlarini shakllantirish;

yo'l xo'jaligi obyektlarini qurish, rekonstruksiya qilish, ta'mirlash va jihozlashning nomma-nom ro'yxatlarini belgilangan tartibda kelishish;

umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llaridan foydalanish va ularni saqlash xarajatlari smetasini ro'yxatdan o'tkazish;

umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llarini qurish, rekonstruksiya qilish, ta'mirlash, jihozlash hamda ulardan foydalanish borasidagi tadbirlarni tasdiqlangan xarajatlarga muvofiq moliyalashtirish.

6.2-rasm. Respublika yo'l jamg'armasining vazifalari

Yevropa mamlakatlarida jamg'armalar hukumat zimmasida bo'limgan vazifalarni bajarish uchun tashkil etilgan.⁴³

Jamg'arma o'ziga yuklangan vazifalardan kelib chiqib, quyidagi funksiyalarni bajaradi:

1. Respublika yo'l jamg'armasi mablag'lari tushumi hamda sarfining yillik va choraklik hisobotlarini shakllantirish sohasida:

— jamg'arma daromadlari va xarajatlarining har yillik balanslari loyihibarini O'zbekiston Respublikasining konsolidatsiyalashgan byudjeti loyihasiga kiritish uchun ishlab chiqadi va belgilangan muddatlarda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga taqdim etadi;

— xarajatlarning tasdiqlangan parametrlarini O'zbekiston Respublikasi Avtomobil yo'llari davlat qo'mitasiga, Yo'l-qurilish ishlari sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasiga yetkazadi;

⁴³ Richard Allen and Dimitar Radev. Extrabudgetary Funds. International Monetary Fund. 12p. June. 2010

– bo'lajak yilga jamg'arma daromadlari parametrlarini O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan kelishgan holda yillar va oylarga bo'lib chiqib, O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasiga va Davlat bojxona qo'mitasiga yetkazadi;

– tushish manbalari va respublika mintaqalari bo'yicha jamg'arma daromadlari, shuningdek, jamg'arma xarajatlarining asosiy yo'nalishlari bo'yicha hisobini yuritadi;

– O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi, Davlat bojxona qo'mitasi va Ichki ishlar vazirligi bilan bиргаликда jamg'armaga mablag'larni yig'ish va tushumlarning to'liqligini nazorat qilish ishlarini olib boradi;

– daromadlar tushumi prognozi bajarilishini tahlil qiladi hamda O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi va Davlat bojxona qo'mitasi bilan bиргаликда daromadlar tushumi prognozi bajarilishiga salbiy ta'sir ko'rsatgan omillarni bartaraf etish choralarini ko'radi;

– jamg'armaning daromadlari va xarajatlari bo'yicha normativ-huquqiy hujjatlar loyihamalarini ishlab chiqadi va tegishli organlarga kiritadi;

– jamg'arma daromadlari shakllantirilishi tartibini takomillashtirish va samaradorligini oshirish bo'yicha aniq maqsadga yo'naltirilgan ishlarni amalga oshiradi.

2. Yo'l xo'jaligi obyektlarini qurish, rekonstruksiya qilish, ta'mirlash va jihozlashning nomma-nom ro'yxatlarini belgilangan tartibda kelishish sohasida:

– loyiha-qidiruv ishlari, umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llarini qurish, rekonstruksiya qilish va mukammal ta'mirlashning manzilli ro'yxatlarini kelishadi;

– umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llarini saqlash va joriy ta'mirlash uchun xarid qilinadigan texnologik asbob-uskunalar, texnika va mashina-mexanizmlar ro'yxatini kelishadi.

3. Umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llaridan foydalanish va ularni saqlash xarajatlari smetasini ro'yxatdan o'tkazish sohasida:

– O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Yo'l-qurilish ishlari sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasini, O'zbekiston Respublikasi Avtomobil yo'llari davlat qo'mitasining markaziy apparatini, Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlar avtomobil yo'llari hududiy bosh boshqarmalarini saqlashga xarajatlar smetasini ro'yxatdan o'tkazadi;

– umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llarini saqlashga va joriy ta'mirlashga, shu jumladan Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlar avtomobil yo'llari hududiy bosh boshqarmalari bo'yicha tuman yo'llardan foydalanish korxonalarini, yo'llardan muntazam foydalanish korxonalarini va ko'priklardan foydalanish korxonalarini saqlashga xarajatlarning yig'ma smetalarini ro'yxatdan o'tkazadi.

4. Umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llarini qurish, rekonstruksiya qilish, ta'mirlash, jihozlash hamda ulardan foydalanish borasidagi tadbirlarni tasdiqlangan xarajatlarga muvofiq moliyalashtirish sohasida:

– umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llarini qurish, rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlashning belgilangan tartibda tasdiqlangan manzilli ro'yxatlari asosida jamg'arma xarajatlarini, shuningdek umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llarini saqlash va joriy ta'mirlashga xarajatlarning yig'ma smetalarini moliyalashtiradi;

– O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining xalqaro va xorijiy moliya institutlarining qarzlarini jalb etish bo'yicha qarorlariga muvofiq amaldagi investitsiya loyihalari bo'yicha ijro etuvchi organ sifatida ish ko'radi.

Jamg'arma shuningdek quyidagi huquqlarga ham ega:

– qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tashqi iqtisodiy faoliyatni amalgaga oshirish;

– jamg'armani boshqarish kengashi tomonidan belgilanadigan milliy valyutadagi bo'sh mablag'larni O'zbekiston Respublikasi tijorat banklaridagi depozitlarga joylashtirish;

- O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki bilan tuzilgan bosh bitim asosida xorijiy valyutadagi bo‘sh mablag‘larni xorijiy banklardagi depozitlarda joylashtirish;
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlariga muvofiq xalqaro va xorijiy moliya institutlarining qarzlarini jalg etgan holda amaldagi investitsiya loyihamalarini amalga oshirish bo‘yicha Jamg‘arma huzuridagi bo‘linmalar faoliyatini tashkil etish;
- jamg‘arma faoliyati bilan bog‘liq shartnomalar tuzish;
- O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi va Davlat bojxona qo‘mitasidan – ajratmalar hisoblanganligi va tushumi, ortiqcha to‘langan summalar qaytarilishi summasi, Jamg‘armaga to‘lovlar bo‘yicha nedoimkalar miqdori to‘g‘risidagi tezkor hisobotni, har oylik hisobotlarni, ma‘lumotlarni va boshqa ma‘lumotlarni olish;
- tijorat banklaridan – belgilangan tartibda Jamg‘arma depozitlari harakatlari to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni;
- O‘zbekiston Respublikasi Avtomobil yo‘llari davlat qo‘mitasi va Jamg‘arma mablag‘lari sarfi bo‘yicha buyurtmachilardan – jamg‘arma mablag‘laridan foydalanish yuzasidan buxgalteriya va statistika axborotini olish va boshqalar.

6.2. Respublika yo‘l jamg‘armasi moliyaviy resurslarining shakllanishi va xarajatlarini amalga oshirish yo‘nalishlari

Yuqorida keltirilgan vazifa va funksiyalarni amalga oshirishda Respublika yo‘l jamg‘armasi tegishli mablag‘larga ega bo‘lishi kerak. Jamg‘arma moliyaviy resurslarini shakllantirish mobaynida O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi va Davlat bojxona qo‘mitasi bilan birgalikda tushumlar turlari va respublika mintaqalari bo‘yicha jamg‘armaning daromadlari prognozi bajarilishining holatini tahlil qiladi va daromadlarning normal tushishiga salbiy ta’sir ko‘rsatayotgan omillarni bartaraf etish yuzasidan birgalikda choralar ko‘radi.

2018-yilda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Respublika yo'1 jamg'armasiga yig'imlar va ajratmalar stavkaları⁴⁴

No	Yig'imlar va ajratmalar turlari	Yig'imlar stavkaları
1	Xorijiy davlatlar avtotransport vositalarini O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish va tranzit qilishdan yig'imlar	AQSh dollarida
1	O'zbekiston Respublikasi hududiga xorijiy davlatlardan avtotransport vositalarini olib kirganlik va tranzit qilish uchun yig'im, bir avtotashuvchini olib kirganlik uchun (2 - 5-bandlarda ko'satilgan mamlakatlar bundan mustasno)	400
2	O'zbekiston Respublikasi hududi orqali Tojikiston Respublikasining har bir yuk avtotransport vositasi va avtobusini olib kirganlik va tranzit qilganlik uchun yig'imlar:	70-130
3	O'zbekiston Respublikasi hududiga Qozog'iston Respublikasi yuk avtotransport vositalari va avtobuslarini olib kirganlik uchun yig'imlar, O'zbekiston Respublikasi hududi orqali tranzit qilish bundan mustasno, bir yuk avtotransport vositasini olib kirganlik uchun	300
4	O'zbekiston Respublikasi hududi orqali Qirg'iziston Respublikasining yuk avtotransport vositalari va avtobuslarini olib kirish va tranzit qilish uchun yig'imlar	300
5	O'zbekiston Respublikasi hududi bo'ylab Turkmaniston Respublikasi avtotransport vositalarini olib kirish va tranzit qilish uchun yig'imlar, avtotransport vositalari turлari bo'yicha:	15-150

⁴⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 29-dekabrdagi PQ-3454-soni qarori 22-ilova.
99

	Avtotransport vositalari olinganligi va (yoki) O'zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kirilganligi uchun ushbu vositalarning egalari (foydalanuvchilar) tomonidan O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi organlarida ro'yxatdan o'tkazish chog'ida tolanadigan yig'im (har bir ot kuchi uchun eng kam ish haqiga nisbatan)	% da
II	foydalanish muddati 3 yilgacha	11
	foydalanish muddati 3 yildan 7 yilgacha	9
	foydalanish muddati 7 yildan ortiq	6
III	"O'zavtoyo!" AK korxonalariga tashkilotlari mol-mulkini sotib olishdan tushgan mablag'larning byudjetga tushishi lozim bo'lgan umumiyligi summasidan ajratmalar (%)	50

Jamg'arma daromadlari quyidagi manbalar hisobiga shakllantiriladi:

- O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga muvofiq jamg'armaga to'lanadigan majburiy ajratmalar va yig'imlar;
- xalqaro moliya institutlari va boshqa xorijiy donorlarning grantlari;
- xayriya ehsonlari;
- jamg'armaning milliy valyutadagi vaqtincha bo'sh mablag'larini O'zbekiston Respublikasining tijorat banklaridagi depozitlarda va xorijiy valyutani xorijiy banklarning depozitlarida joylashtirishdan tushgan daromadlar, shuningdek, qonun hujjatlarida taqilanganboshqa tushumlar.

Eng muhim shundaki, jamg'armaning vaqtincha bo'sh mablag'larini tijorat banklarida joylashtirishdan foizlar tarzida olinadigan daromadlarga soliq solinmaydi.

6.3-jadval

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Respublika yo'l jamg'armasi daromadlari

	Daromadlar ko'rsatkichlari	2015-yil	2016-yil	2017-yil
		mlrd. so'm	mlrd. so'm	mlrd. so'm
1.	Daromadlar ko'rsatkichlari	2782,6	2669,4	3059,2
1.1.	Tovar (ish, xizmat)lar realizatsiyasi hajmidan majburiy ajratma	1684,4	1718,6	1863
1.2.	Avtotransport vositalarini olganlik va (yoki) O'zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kirganlik uchun yig'im	448,6	530	550
1.3.	Chet davlatlar avtotransport vositalarining O'zbekiston Respublikasi hududiga kirganligi va uning hududi orqali tranzit tarzida o'tganligi uchun yig'im	54	56,2	67,5
1.4.	Xalqaro moliya institutlari zayomlari	584,6	352,6	536,7
1.5.	Boshqa tushumlar	11	12	42
2.	Yil boshiga qoldiq	0	389,6	365,7
	Jami daromadlar	2782,6	3059	3424,9

Jamg'armaga majburiy ajratmalar va yig'implarni to'lash tartibi va ularning stavkalari miqdorlari har yili davlat byudjeti tasdiqlanishi bilan bir vaqtida belgilanadi va O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi tomonidan to'lovchilarga yetkaziladi.

Jamg'armaga tushumlar O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining axborot tizimida ochilgan jamg'arma daromadlari bo'yicha tegishli g'aznachilik hisob raqamlari (2003 g'aznachilik hisob raqami) orqali O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining Toshkent shahar bosh boshqarmasining Hisob-kitob-kassa markazida ochilgan yagona g'aznachilik hisob raqamiga o'tkaziladi.

Jamg'armaga mablag'larni yig'ish va tushumlarning to'liqligini nazorat qilishni ta'minlash O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi, Davlat bojxona qo'mitasi va Ichki ishlar vazirligi tomonidan amalga oshiriladi.

Jamg'arma mablag'larini sarflash tegishli shaxsiy g'aznachilik hisob raqamlari orqali amalga oshiriladi. Jumladan, umumiyligi foydalanishdagi avtomobil yo'llarini qurish, loyihalash, rekonstruksiya qilish, ta'mirlash, saqlashga, shu jumladan, jihozlashga (qurish, rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash uchun texnologik asbob-uskunalar, texnika va mashina-mexanizmlar xarid qilish), jamg'armaning Ijro etuvchi direksiyasini, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasini huzuridagi Yo'l-qurilish ishlari sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasini, O'zbekiston Respublikasi Avtomobil yo'llari davlat qo'mitasining markaziy apparatini, Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlar hududiy avtomobil yo'llari bosh boshqarmalarini, tuman yo'llardan foydalanish korxonalarini, yo'llardan muntazam foydalanish korxonalarini va ko'priklardan foydalanish korxonalarini saqlashga sarflanadi.

Xorij tajribasida jamg'armalar mustaqil hisoblanib, ular asosiy daromadlarni qo'shimcha faoliyatdan, ya'ni fond birjalaridan topishadi.⁴⁵

Jamg'armaning tegishli valyuta ko'rinishidagi mablag'lari:

- umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llarini qurish, rekonstruksiya qilish va ta'mirlash uchun import bo'yicha yo'l texnikasi, asbob-uskunalar, texnologiyalar va materiallar xarid qilish bo'yicha Avtomobil yo'llari davlat qo'mitasi va hududiy bosh boshqarmalarning xarajatlarini moliyalashtirishga;

- O'zbekiston Respublikasi Avtomobil yo'llari davlat qo'mitasi, uning bo'linmalari, Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Yo'l-qurilish ishlari sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi va jamg'armaning malakali kadrlarini chet elda yoki xorijiy mutaxassislarni respublikaga taklif qilib tayyorlashgga;

- umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llarini qurish, rekonstruksiya qilish va ta'mirlash uchun jamg'arma tomonidan jalg etilgan xorijiy qarzlarni qaytarishga;

- O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan kelishgan holda xorijiy valyutani milliy valyutaga konvertatsiya qilish yo'li bilan umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llarini qurish, rekonstruksiya qilish va ta'mirlashni moliyalashtirishga sarflanadi.

6.4-jadval

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Respublika yo'l jamg'armasi xarajatlari

№	Xarajatlar ko'rsatkichlari	2015	2016	2017
		mlrd. so'm	mlrd. so'm	mlrd. so'm
1.	Umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llarini loyihalashtirishga xarajatlar	15	20	20
2.	Avtomobil yo'llarini qurish va rekonstruksiya qilishga xarajatlar	1467,9	1632,6	2006,7

⁴⁵ Richard Allen and Dimitar Radev. Extrabudgetary Funds. International Monetary Fund. 16p. June. 2010

	<i>shu jumladan: xalqaro moliya institutlari mablag'lari hisobiga</i>	584,6	352,6	536,7
3.	Umumiyl foydalanishdagi avtomobil yo'llarini saqlash va ta'mirlashga xarajatlar	838,9	853,6	752,4
4.	Umumiyl foydalanishdagi avtomobil yo'llarini ekspluatatsiya qilish uchun mashina va mexanizmlarni sotib olish uchun xarajatlar	120	100	80
5.	Respublika Yo'l jamg'armasi boshqaruv apparatini saqlash xarajatlari	5,6	6,6	7,3
6.	"O'zavtoyo'l" DAK markaziy boshqaruv apparatini saqlash xarajatlar	2,3	2,5	3,3
7.	"O'zavtoyo'l" DAKning hududiy yo'llarni ta'mirlash tashkiloti boshqarmasi apparatini saqlash xarajatlari	12,5	13,5	17,6
8.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 25-oktyabrdagi PQ-499 sonli qaroriga binoan tabiiy ofatlar oqibatlarini bartaraf etish zaxirasi	110	100	100
9.	Umumiyl foydalanishdagi yo'llarni qurish, saqlash, ta'mirlash bilan bog'liq bo'limgan xarajatlar	100	0	0
10.	Bojxona postlarida undiriladigan yig'imlar va valyuta tushumlarini nazorat qilish bo'yicha Yo'l jamg'armasi, DBQ va xizmat ko'rsatuvchi banklar o'rtaсидagi o'zaro hamkorlik shartnomalarini bajarish	1,2	1,4	1,4
11.	Boshqa xarajatlar	109,2	109	141,8
12.	Yil oxiriga qoldiq	0	219,8	294,4
Jami xarajatlar		2782,6	3059	3424,9

Avtomobil yo'llarini joriy ta'mirlash va saqlash bilan bog'liq xarajatlarni moliyalashtirishga jamg'armaning maxsus g'aznachilik hisob raqamidan tushayotgan pul mablag'larini o'tkazish va ulardan maqsadli foydalanish uchun tegishli foydalanish korxonalari tomonidan xizmat

ko'rsatiladigan banklarda 22626 – “Korxonalar va tashkilotlarning maqsadli mablag'lari” maxsus moliyalashtirish hisob raqamlari ochiladi. Umumiyl foydalanishdagi avtomobil yo'llarini joriy ta'mirlash va saqlash bilan bog'liq xarajatlarni moliyalashtirish rejalashtirilgan choraklik hajmining 15 foizi miqdorida avans berish yo'li bilan amalga oshiriladi, keyinchalik tasdiqlangan xarajatlar smetasi doirasida ajratilgan avans to'lovlari har oyda chegirib tashlangan holda amalda bajarilgan ishlar oyma-oy moliyalashtiriladi.

6.3. Respublika yo'1 jamg'armasi byudjetini tuzish, ko'rib chiqish va tasdiqlash

Jamg'armaning daromadlari va xarajatlari prognozi O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi bilan kelishgan holda Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlangan jamg'armaning daromadlari va xarajatlari tasnifi asosida ishlab chiqiladi.

O'zbekiston Respublikasi Avtomobil yo'llari davlat qo'mitasi va Jamg'arma mablag'lari sarfi bo'yicha buyurtmachilar har yili 1-iyundan kech bo'lмаган muddatda jamg'armaga zarur ma'lumotlarni taqdim etadilar, ular asosida jamg'armaning ijro etuvchi direksiyasi har yili 15-iyundan kech bo'lмаган muddatda jamg'armani boshqarish kengashi bilan kelishgan holda joriy yilga kutilayotgan ijroni va kelgusi yilga jamg'arma xarajatlari prognozini belgilaydi.

Kelgusi yilga tushumlar manbalari bo'yicha daromadlar prognozi:

– Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri bo'yicha oldingi yilda jamg'armaga mablag'larning amaldagi tushumi va daromadlar manbalari bo'yicha joriy yilda kutilayotgan tushumlar;

– Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri bo'yicha jamg'armaga ajratmalar va yig'imlar bo'yicha hisobot moliya yili oxirida yuridik shaxslarning kreditorlik qarzlari hisobga olingan holda O'zbekiston

Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi bilan kelishgan holda O'zbekiston Respublikasining maqroiqtisodiy ko'sratkichlari asosida bevosita jamg'arma tomonidan ishlab chiqiladi.

Foydalanishning asosiy yo'nalishlari va respublika hududlari bo'yicha kelgusi yilga taqdim etiladigan xarajatlar prognozi oldingi yilda haqiqatda foydalanilgan mablag'lari va asosiy yo'nalishlar (avtomobil yo'llarini loyihalashtirish, qurish, rekonstruksiya qilish, ta'mirlash va saqlash) hududlar bo'yicha joriy yilga tasdiqlangan prognozlar bilan taqqoslanib, joriy yilning birinchi choragida kutilayotgan mablag'lardan foydalanish hisobga olingan holda jamg'arma tomonidan O'zbekiston Respublikasi Avtomobil yo'llari davlat qo'mitasi va jamg'arma mablag'lari sarfi bo'yicha buyurtmachilar bilan birlgilikda belgilanadi. Bunda umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llarida favqulorra vaziyatlarning oldini olish va oqibatlarini tugatish bo'yicha ishlarni moliyalashtirish uchun zaxira (xarajatlar yillik hajmining kamida 3 foizi miqdorida) hosil bo'lishi nazarda tutiladi.

Jamg'arma ishlab chiqilgan kelgusi yilga daromadlar va xarajatlarning prognozini O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga joriy yilning 1-iyulidan kechikmay qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda taqdim etadi.

Jamg'arma daromadlari va xarajatlarining aniqlashtirilgan prognozi Moliya vazirligi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga kelgusi yilga O'zbekiston Respublikasi davlat byudjetining asosiy parametrlari prognozi bilan bir vaqtda kiritiladi.

O'zbekiston Respublikasining davlat byudjeti O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari tomonidan tasdiqlangandan, shuningdek, kelgusi yilga O'zbekiston Respublikasi davlat byudjeti parametrlari to'g'risidagi tegishli qaror qabul qilingandan keyin jamg'arma besh kun muddatda:

- yil choraklari va hududlar bo'yicha bo'lib chiqqan holda kelgusi yilga Jamg'arma daromadlarining tasdiqlangan asosiy parametrlarini - O'zbekiston

Respublikasi Davlat soliq qo'mitasiga va Davlat bojxona qo'mitasiga;

– yil choraklari va oylar bo'yicha bo'lib chiqqan holda kelgusi yilga jamg'arma xarajatlarining tasdiqlangan asosiy parametrlarini (yo'nalishlar) yetkazadi.

Jamg'arma O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi bilan birgalikda daromadlarning tasdiqlangan parametrlari olingen kundan boshlab bir hafta muddatda chorakma-chorak bo'lib chiqib va respublika mintaqalari bo'yicha manbalar bo'yicha daromadlarning yillik prognozini belgilaydi va uni O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan kelishgan holda Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri davlat soliq boshqarmalariga yetkazadi.

Jamg'arma xarajatlari prognozi olingen kundan boshlab bir oy muddatda kelgusi yilga belgilangan tartibda:

a) Jamg'arma mablag'larini sarflash bo'yicha buyurtmachilar:

– O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi, Moliya vazirligi va Jamg'arma bilan kelishilgan avtomobil yo'llarini qurish va rekonstruksiya qilishning manzilli ro'yxatlarini va umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llarini saqlash va joriy ta'mirlash uchun xarid qilinadigan texnologik asbob-uskunalar, texnika va mashina-mexanizmlar ro'yxatini;

– O'zbekiston Respublikasi Avtomobil yo'llari davlat qo'mitasi va Jamg'arma bilan kelishilgan umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llarini mukammal ta'mirlash bo'yicha manzilli ro'yxatlarni;

– O'zbekiston Respublikasi Avtomobil yo'llari davlat qo'mitasi va Jamg'arma bilan kelishilgan umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llarida favqulodda vaziyatlarning oldini olish va oqibatlarini tugatish bo'yicha ishlarni amalga oshirishning manzilli ro'yxatlarini;

– avtomobil yo'llarini qurish, rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash hamda umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llarini saqlash va joriy ta'mirlash uchun xarid qilinadigan texnologik asbob-uskunalar, texnika va mashina-mexanizmlar bo'yicha xarajatlar smetasini;

– umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llarini saqlash va joriy ta'mirlashga, shu jumladan Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlar avtomobil yo'llari bosh boshqarmalari bo'yicha tuman yo'llardan foydalanish korxonalarini, yo'llardan muntazam foydalanish korxonalarini va ko'priklardan foydalanish korxonalarini saqlashga xarajatlarning yig'ma smetalarini tasdiqlaydi;

b) O'zbekiston Respublikasi Avtomobil yo'llari davlat qo'mitasi O'zbekiston Respublikasi Avtomobil yo'llari davlat qo'mitasining markaziy apparatini, Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlar hududiy avtomobil yo'llari bosh boshqarmalarini, tuman yo'llardan foydalanish korxonalarini, yo'llardan muntazam foydalanish korxonalarini va ko'priklardan foydalanish korxonalarini saqlashga xarajatlarsmetalarini tasdiqlaydi;

d) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Yo'l-qurilish ishlari sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi Davlat inspeksiyasini saqlashga xarajatlarsmetasini tasdiqlaydi;

e) Jamg'arma xarajatlarsmetalarini kelishadi va ro'yxatdan o'tkazadi, shuningdek, ularni tegishli shaxsiy g'aznachilik hisob raqamiga kiritadi.

Umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llarini saqlashga xarajatlarning tasdiqlangan yig'ma smetasi asosida O'zbekiston Respublikasi Avtomobil yo'llari davlat qo'mitasi va uning hududiy bosh boshqarmalari normativ mezonlarni qo'llash yo'li bilan va avtomobil yo'llarining toifasi, ahamiyati va masofasiga qarab tegishli foydalanish korxonalari bo'yicha Jamg'armaning xarajatlari prognozini taqsimlaydi va ularga xizmat ko'rsatishga kontraktlar tuzadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2019-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va davlat byudjeti parametrlari hamda 2020-2021-yillarga byudjet mo'ljallari to'g'risida" gi 26-dekabr 2018-yilda qabul qilingan PQ-4086-son qaroriga ko'ra 2019-yil 1-yanvardan boshlab O'zbekiston Respublikasining Avtomobil yo'llari davlat Qo'mitasi tasarrufiga o'tkazildi va uning asosiy

funksiyalarini bajarish maqsadidagi manzilli dasturlarni kelishish va moliyalashtirish O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi funksiyasiga o'tkazildi. Yo'l xo'jaligi sohasidagi qurilish, rekonstruksiya qilish, ta'mirlash va jihozlash bo'yicha manzilli dasturlarni moliyalashtirish va kelishish, shuningdek, avtomobil yo'llaridan foydalanish va saqlash bo'yicha xarajatlarni moliyalashtirish, O'zbekiston Respublikasi Avtomobil yo'llari davlat qo'mitasi, uning hududiy bosh boshqarmalari, tuman yo'llardan foydalanish korxonalari, yo'llardan muntazam foydalanish korxonalari, ko'priklardan foydalanish korxonalari, Respublika yo'l jamg'armasi va Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Yo'l-qurilish ishlari sifatini nazorat qilish Davlat inspeksiyasini saqlash funksiyalarini Moliya vazirligi zimmasiga yuklandi hamda boshqaruв xodimlarining cheklangan sonini 9 birlikdan iborat etib belgilagan holda Respublika yo'l jamg'armasini yo'l xo'jaligi sohasida xalqaro moliyaviy institutlar, xorijiy hukumat moliya tashkilotlari ishtirokidagi investitsiya loyihalalarini amalga oshirish bo'yicha ijrochi organ sifatida belgilandi.

Respublika yo'l jamg'armasiga 2019-yil 1-yanvardan keyin tushadigan majburiy ajratmalar summasi to'liq miqdorda Pensiya jamg'armasiga o'tkaziladigan bo'ldi hamda ushbu to'lovlar bo'yicha ortiqcha to'langan summalar Pensiya jamg'armasidan to'lanilishi belgilandi. Respublika yo'l jamg'armasining (xodimlarni moddiy rag'batlantirish maxsus hisobraqamidan tashqari) 2018-yil yakuni bo'yicha qoldiq mablag'lari O'zbekiston Respublikasi respublika byudjetiga o'tkaziladi hamda yakunlanmagan qurilish-ta'mirlash va jihozlash ishlari keyinchalik O'zbekiston Respublikasi respublika byudjetining qo'shimcha manbalari hisobidan moliyalashtirilishi qayd etildi. Shuningdek, 2019-yilning 1-yanvaridan tugatilayotgan davlat maqsadli jamg'armalarining 2019-yil 1-martgacha bo'lgan davr uchun xodimlariga to'lanadigan ish haqi, kompensatsiya to'lovlari va boshqa xarajatlarni moliyalashtirish O'zbekiston Respublikasi respublika byudjetining

qo'shimcha manbalari hisobidan amalga oshirilishi, shuningdek, Respublika yo'l jamg'armasi tomonidan avval jalb qilingan xorijiy kreditlarni O'zbekiston Respublikasi davlat byudjeti hisobidan qaytarilishi qayd etildi.

Bahs-munozara va nazorat uchun savollar

1. Respublika yo'l jamg'armasining vazifalarini tushuntirib bering.
2. Respublika yo'l jamg'armasining funksiyalarini aytib bering.
3. Respublika yo'l jamg'armasining tashkiliy tuzilmasini aytib bering.
4. Mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida jamg'armaning tutgan o'rnini tushuntirib bering.
5. Respublika yo'l jamg'armasi moliyaviy resurslarining shakllanishi qanday manbalaridan tashkil topgan?
6. Respublika yo'l jamg'armasi xarajatlarini amalga oshirish yo'nalishlarini izohlab bering.
7. Respublika yo'l jamg'armasi byudjetini tuzish tartibini tushuntirib bering.

**7-BOB: O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MOLIYA
VAZIRLIGI HUZURIDAGI BYUDJETDAN TASHQARI
TA'LIM VA TIBBIYOT MUASSASALARINING MODDIY-
TEXNIKA BAZASINI RIVOJLANTIRISH JAMG'ARMASI**

Reja:

7.1. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Ta'lism va tibbiyot muassasalarining moddiy-texnika bazasini rivojlantirish jamg'armasining asosiy vazifalari va mablag'laridan foydalanish yo'nalishlari

7.2. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Ta'lism va tibbiyot muassasalarining moddiy-texnika bazasini rivojlantirish jamg'armasi daromadlarini shakllantirish manbalari va tartibi

7.3. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Ta'lism va tibbiyot muassasalarining moddiy-texnika bazasini rivojlantirish jamg'armasi mablag'larini sarflash tartibi

7.1. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Ta'lism va tibbiyot muassasalarining moddiy-texnika bazasini rivojlantirish jamg'armasining asosiy vazifalari va mablag'laridan foydalanish yo'nalishlari

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 24-avgustdagи "O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzurida byudjetdan tashqari Ta'lism va tibbiyot muassasalarining moddiy-texnika bazasini rivojlantirish jamg'armasini tashkil etish to'g'risida"gi PQ-3242-sonli qarorini bajarish yuzasidan Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 18-sentyabrdagi №740-sonli "O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari ta'lism va tibbiyot muassasalarining moddiy-texnika bazasini

rivojlantirish jamg'armasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilindi.

Jamg'arma respublika ta'lim va tibbiyot muassasalarining moddiy-texnika bazasini zamonaviy talablarni va xalqaro standartlarni hisobga olgan holda tizimli asosda rivojlantirish va mustahkamlash, ularni eng ilg'or o'quv, tashxis va davolash asbob-uskunalarini, axborot-kompyuter texnikasi bilan jihozlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 18-martdagi "Moliya organlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-2847-son qaroriga muvofiq Moliya vazirligi huzuridagi Umumta'lim maktablari, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar va tibbiyot muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg'armasi hamda Oliy ta'lim muassasalarining moddiy-texnika bazasini rivojlantirish jamg'armasi negizida tashkil etilgan. Jamg'arma yuridik shaxs tuzilmasidan tashkil etilgan.

Quyidagilar Jamg'armaning asosiy vazifalari va mablag'laridan foydalanish yo'naliishlari hisoblanadi:

- Jamg'armaga kelib tushayotgan mablag'larni keyinchalik ulardan qonunchilikka muvofiq maktabgacha ta'lim muassasalari, umumta'lim maktablari, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar, bolalar musiqa va san'at maktablari, oliy ta'lim muassasalari (keyingi o'rinnarda ta'lim muassasalari deb ataladi), shuningdek, tibbiyot muassasalarini qurish, rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash (to'liq jihozlash) maqsadida foydalanish uchun jamlash;

- tasdiqlangan manzilli dasturlarga muvofiq maktabgacha ta'lim muassasalarini, shu jumladan bolalar suhbatlashish joylarini, o'yin maydonchalarini qurish, rekonstruksiya qilish va mukammal ta'mirlash hamda hududlarni o'rash ishlarini moliyalashtirish;

- umumta'lim maktablari, kasb-hunar kollejlari va akademik litseylarni, shu jumladan idoraviy bo'y sunuvdagilarni, qurish, rekonstruksiya qilish va mukammal ta'mirlash, shu jumladan, zarur holatlarda

o'quv korpuslarini o'quv ustaxonalari va laboratoriylar bilan kengaytirish, sport zallari va maydonchalarini hamda boshqa infratuzilma obyektlarini barpo etish bo'yicha ishlarni moliyalashtirish;

– tasdiqlangan manzilli dasturlarga muvofiq bolalar musiqa va san'at maktablarini qurish va rekonstruksiya qilish bo'yicha ishlarni moliyalashtirish;

– tasdiqlangan manzilli dasturlarga muvofiq oliy ta'lim muassasalarining o'quv-laboratoriya korpuslari, sport zallari va talabalar turar joylarini hamda boshqa infratuzilma obyektlarini qurish, rekonstruksiya qilish va mukammal ta'mirlash ishlarini moliyalashtirish;

– tasdiqlangan manzilli dasturlarga muvofiq sog'liqni saqlash muassasalarini qurish, rekonstruksiya qilish va mukammal ta'mirlash bo'yicha ishlarni moliyalashtirish;

– zamonaviy talablarni hisobga olgan holda, tasdiqlangan normativlardan kelib chiqib, ta'lim muassasalarini eng yangi o'quv-laboratoriya, ilmiy va ishlab chiqarish uskunalarini, musiqa cholg'u asboblari, kompyuter texnikasi hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining boshqa elementlari bilan, shuningdek, o'quv mebellari va asbob-anjomlari bilan jihozlashni (to'liq jihozlashni) moliyalashtirish;

– zamonaviy talablar va belgilangan normativlardan kelib chiqqan holda, sog'liqni saqlash muassasalarini eng yangi laboratoriya, diagnostika va davolash uskunalarini, kompyuter texnikasi hamda boshqa tibbiy apparatlar, maxsus mebel va anjomlar bilan jihozlashni hamda doimiy ravishda tizimli qayta jihozlashni moliyalashtirish;

– zamonaviy talablar va belgilangan normativlardan kelib chiqib, bolalar musiqa va san'at maktablarini eng yangi musiqa va cholg'u asboblari va maxsus uskunalar, o'qitishning texnik vositalari, o'quv mebellari va anjomlari bilan jihozlashni moliyalashtirish.

Jahon amaliyotida ta'lim muassasalarini moliyalashtirishning mablag'lardan samarali foydalanish va ta'lim sifatini oshirishni rag'batlantiruvchi yangi yo'llarini qidirib topish ta'lim tizimini rivojlantirish yo'lidagi

harakatlarning o'ziga xos xususiyati hisoblanadi. Bu harakatlar ta'limga sohasidagi birinchi darajali vazifalarni hisobga olgan holda quyidagi *tamoyillarni* ta'minlashga qaratilgan⁴⁶:

- ta'limga hammabopligi (ham jismoniy, ham moliyaviy jihatdan);
- ta'limga sifati va natijalari;
- tenglik – bir xil ehtiyojli o'quvchilar mablag'lar bilan bir xil darajada ta'minlanadilar; muhtojroq o'quvchilar ko'proq mablag' oladilar;
- samaradorlik: tashqi samaradorlik – ta'limga tizimi jamiyatga ishchi kuchini tayyorlaydi, shundan kelib chiqqan holda bu sohaga qilinayotgan xarajatlarning samaradorligini hisobga olib mablag'lar safarbar etiladi; ichki samaradorlik – eng kam xarajat qilib, ko'proq natijalarga erishish.

Ta'limga tizimini moliyalashtirish usullari haqida gap borar ekan, u yoki bu usulni qo'llashda har bir mamlakat o'z ijtimoiy siyosatining ustivorliklari, shuningdek, byudjet tizimining o'ziga xosligi va ta'limga tizimini boshqarish xususiyatlariga asoslanadi. Shunga qaramay, o'tmishda mashhur bo'lgan va hozirgi kunda maktab ta'limga tizimini ko'plab tizimlarida amalda qo'llanilayotgan ta'limga muassasalariga moliyaviy mablag'larni ajratishning bir qancha yo'llari va usullarini ta'kidlash mumkin:

- o'tgan davr ko'rsatkichlari asosida moliyalashtirish, bunda muassasa byudjeti u moliyalashtiriladigan tegishli byudjet imkoniyatlaridan chiqib ketmagan holda o'tgan moliyaviy yil xarajatlari darajasida (infiyatsiyani hisobga oluvchi ayrim tuzatishlar bilan) aniqlanadi va uning hajmi doirasida mablag' ajratiladi;
- alohida shartnomalar asosida moliyalashtirish (kelishuv bo'yicha) – bunda har bir maktab davlatga o'zining muayyan miqdordagi ajratmalarga ehtiyojini asoslab berishi lozim, agar maktabning mablag' ajratish bo'yicha so'rovi muayyan talablarga mos kelsa, davlatdan o'ziga kerakli mablag'larni olish imkoniyatiga ega bo'ladi;


⁴⁶ Roe Lyell Jons "The economics and financing of education" 2015 y. p. 24

– xarajatlarga asoslangan moliyalashtirish, bunda mablag'lar maktablarga ular faoliyatini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan xarajatlar, ya'ni bino va inshootlarni saqlash, joriy remont, xodimlar mehnatiga haq to'lash kabilarga sarflangan resurslar hajmi doirasida ajratiladi (“xarajatli” deb ataluvchi bu usul bugungi kunga qadar mamlakatdagi davlatga qarashli ijtimoiy soha muassasalarini budgetdan moliyalashtirish amaliyotida ustuvor darajada qo'llanib kelinmoqda);

– formula asosida moliyalashtirish, bunda moliyaviy resurslar har bir maktab uchun belgilangan va to'g'ri qo'llaniladigan mezonlar tizimiga muvofiq ajratiladi. Moliyalashtirish formulasi⁴⁷:


- har bir maktabga ajratiladigan resurslar miqdorini;
- maktabga ajratiladigan resurslar miqdorini aniqlashda hisobga olinishi lozim bo'lgan omillarni aniqlash imkonini beradi.

Ma'lumki, uzluksiz ta'limning boshlang'ich qismi hisoblanadigan maktabgacha ta'lim bolalarning sog'lom o'sishi va tizimli o'qitishga tayyorlanishida muhim o'rinn tutadi. O'zbekiston Respublikasida 3-6 yoshli bolalarni maktabgacha ta'lim muassasalariga qamrab olish darjasи 2016-yilda shu yoshdagi aholining 23,8 foizini tashkil etdi. 2017-yil 1-yanvar holatiga respublikada maktabgacha ta'lim muassasalari soni 5138 tani tashkil etib, shundan 3065 tasi shahar, 2050 tasi qishloq joylarda joylashgan. Ularda tarbiyalanayotgan 690975 nafar bolalardan 53 foizini o'g'il bolalar, 47 foizini qizlar tashkil etadi .




7.1-rasm. Bolalarning maktabgacha ta'lim muassasalariga qamrab olinishi (foizda)

⁴⁷ Roe Lyell Jons “The economics and financing of education” 2015 y. p. 36



7.2-rasm. Maktabgacha ta'lim muassasalarini sonining qishloq va shahar joylar bo'yicha taqsimlanishi, hududlar kesimida (birlik) (2017-yil).


Maktabgacha ta'lim muassasalarida mavjud o'rirlardan foydalanish samaradorligi ortib borayotganligi 3-rasmida tasvirlangan. 2010-yilda Respublika bo'yicha har 100 ta o'ringa o'rtacha 76 nafar bola to'g'ri kelgan bo'ssa, 2017-yilga kelib ushbu ko'satkich 96 nafarga yetdi. Bu esa maktabgacha ta'lim muassasalariga nisbatan talab oshib borayotganligini ifoda etadi.



7.3-rasm. Maktabgacha ta'lim muassasalaridagi jami bolalar soni va 100 ta o'ringa nisbatan hisoblangan bolalar soni dinamikasi (2010-2016-yillar)


Har 100 ta o'ringa nisbatan hisoblangan bolalar sonini hududlar kesimida tahlil qilinganda Andijon, Qashqadaryo,

Samarqand viloyatlari va Toshkent shahrida o'rirlar yetishmasligi kuzatildi. Maktabgacha ta'lim muassasalaridagi o'rirlar tanqisligi Jizzax viloyatining qishloq joylarida, Navoiy viloyatining shahar joylarida ham kuzatiladi.




7.4-rasm. 2016-yilda hududlar bo'yicha taqsimlangan holda, 100 ta o'ringa nisbatan hisoblangan bolalarning o'rtacha soni.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan jami pedagog xodimlar soni 59688 nafarni tashkil etib, ulardan 21,9 foizi oily ma'lumotli, 76,4 foizi o'rta maxsus pedagogik ma'lumotlilardan iborat. Pedagog xodimlar umumiylar sonidan 15 yil va undan ortiq ish stajiga ega bo'lganlar 30,6 foizni, shu jumladan qishloq joylarda 30,2 foizni tashkil etadi.




7.5-rasm. Ayrim mamlakatlarda oliy ta'lim tizimida har bir o'qituvchiga to'g'ri keladigan talabalalar soni.⁴⁸

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlardan respublikada oily ta'limga katta e'tibor qaratilayotganligi kuzatiladi. Yillar davomida hududlarda mamlakatdagi va xorijiy yetakchi oliy ta'lim muassasalarining filiallari ochilib, yangi mutaxassisliklar joriy etilmoqda. 2017-yil 1-yanvar holatiga O'zbekiston Respublikasida 6542 ta ambulatoriya-poliklinika muassasalari mavjud bo'lib, ularning soni 1991-yilga (3027 ta) nisbatan ikki barobardan ko'proqqa oshdi. Shifoxona muassasalari soni esa aksincha, 1991-yilda 1388 ta shifoxona muassasasi faoliyat yuritgan bolsa, 2016-yilga kelib 20 foizga kamaydi, ya'ni 1106 tani tashkil etdi.



7.6-rasm. Davolash profilaktika muassasalari soni (1991-2016 y.)

⁴⁸ O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi (2016y.) va YUNESKO statistika instituti



7.7-rasm. Viloyatlar kesimida davolash profilaktika muassasalarini soni (2016 y.)

2016-yilda ambulatoriya-poliklinika muassasalarining bir smenadagi quvvati 1991-yilga nisbatan 46 foizga oshdi. 1991-yilda Ambulatoriya-poliklinika muassasalari bir smenada 282,2 ming kishini qabul qilish imkoniyatiga ega bo'lgan bolsa, 2016-yilga kelib ushbu ko'rsatkich 411,9 ming kishiga yetdi. Bir yilda bir kishiga to'g'ri keladigan ambulatoriya-poliklinika muassasalariga qatnovlar soni 2000-yilda o'rtacha 7 martaga to'g'ri kelgan bo'lsa, ushbu ko'rsatkich 2016-yilga kelib 10 martadan oshdi.

Biron-bir mahsulot ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatish xususida gap borar ekan, korxona rahbari uchun kam xarajat qilib, eng yaxshi natijaga ega bo'lishi va to'g'ri tanlov qilishi mumkin bo'lgan eng samarali mexanizmi bu bozor hisoblanadi. Ko'pgina mustaqil ishlab chiqaruvchi va iste'molchilar bo'lgan bozorga o'z mahsuloti yoki xizmatini sotish uchun tayyorlar ekan, u iloji boricha resurslarini tejamli ishlatib, ko'proq foyda olishga intiladi. Bozor ishlab chiqaruvchiga moddiy resurslarini tejash uchun texnologik jarayonlarini qanday takomillashtirishi, kadrlardan samarali foydalanish uchun-xodimlar boshqaruvini qay tariqa yaxshilashi, shuningdek, pul

mablag'larini yaxshiroq ishlatishi lozimligini o'rnatadi. Bu borada sog'liqni saqlash sohasida batamom o'zgachadir: tibbiy xizmatlarning o'ziga xos xususiyatlari borki, ular tufayli har qanday boshqa mahsulotlar kabi erkin bozorda sotish va sotib olish mumkin emasdir.⁴⁹

Sog'liqni saqlash tizimini isloh qilish – bugungi kunda jahonning juda ko'p davlatlari kun tartibidagi masala. Jahon Sog'liqni saqlash Tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra, dunyoning 67 ta (ham rivojlangan, ham rivojlanayotgan) mamlakatlarida sog'liqni saqlash tizimini isloh qilish jarayonlari kechmoqda. Bu islohotlar quyidagi maqsadlarni ko'zlab amalga oshirilmoqda⁵⁰:

- sog'liqni saqlash tizimi faoliyatining samaradorligini oshirish;
- tarmoqqa qo'shimcha moliyaviy mablag'lar jalb qilish imkoniyatlarini topish;
- tarmoqning mehnat, moddiy va moliyaviy resurslaridan ratsional foydalanish asosida sifatli tibbiy xizmatlardan foydalanishni kafolatlash;
- aholining qarib borishi, kasallanish tarkibi va tuzilishining o'zgarishi, yangi tibbiy texnologiyalarning paydo bo'lishi, sog'liqni saqlashga xarajatlarning oshib borishi bilan bog'liq muammolarni hal qilish va boshqalar.

Aholi salomatligi holatini aniqlashtiruvchi asosiy omillardan biri sog'liqni saqlashni tashkil etish tizimi va uning moddiy-texnik ta'minoti hisoblanadi. Mamlakatimizda fuqarolar sog'lig'ini saqlashning asosiy prinsiplari sifatida quyidagilar belgilab berildi⁵¹:

- sog'liqni saqlash sohasida inson huquqlariga rioya qilinishi;
- aholining barcha qatlamlari tibbiy yordamdan bahramand bo'la olishi;
- profilaktika chora-tadbirlarining ustunligi;

⁴⁹ William O.Cleverly, Paula H.Song, James O. Cleverly "Essentials of Health care financing" 2016 y. p. 38

⁵⁰ William O.Cleverly, Paula H.Song, James O. Cleverly "Essentials of Health care financing" 2016 y. p. 49

⁵¹ William O.Cleverly, Paula H.Song, James O. Cleverly "Essentials of Health care financing" 2016 y. p. 59

- sog'lig'ini yo'qotgan taqdirda fuqarolarning ijtimoiy himoya qilinishi;
- tibbiyot fanining amaliyot bilan birligi.

**7.2. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi
huzuridagi byudjetdan tashqari Ta'lim va tibbiyot
muassasalarining moddiy-texnika bazasini
rivojlantirish jamg'armasi daromadlarini shakllantirish
manbalari va tartibi**

Quyidagilar *Jamg'arma daromadlarini shakllantirish manbalari* hisoblanadi:

- xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan Jamg'armaga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda majburiy ajratmalardan tushadigan mablag'lar;
- ta'lim va sog'liqni saqlash sohasi moddalari bo'yicha alohida satr bilan ajratiladigan O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti mablag'lari;
- Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahrining mahalliy byudjetlari mablag'lari;
- xalqaro moliya institutlari hamda boshqa xorijiy donorlarning imtiyozli kreditlari (qarzlari) va grantlari;
- xayriya qiluvchilar — yuridik va jismoniy shaxslar, shu jumladan O'zbekiston Respublikasi norezidentlarining mablag'lari;
- Jamg'armaning vaqtincha bo'sh mablag'larini joylashtirishdan olinadigan daromadlar va qonun hujjatlarida taqiqilanmagan boshqa tushumlar.

Xo'jalik yurituvchi subyektlar (to'lovchilar) Jamg'arma majburiy ajratmalarni har yili O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan belgilanadigan to'lov obyekti va stavkalaridan kelib chiqqan holda yo'naltiradilar. Jamg'arma mablag'lari O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining Axborot tizimida ochiladigan g'aznachilik hisob raqamlarida jamlanadi.

Tarkibi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlanadigan Jamg'armani boshqarish kengashi Jamg'armani boshqarishning yuqori organi hisoblanadi.

Jamg'armani boshqarish kengashi:

– umumiy rahbarlikni amalga oshiradi va Jamg'armaga yuklangan vazifalarning bajarilishini tashkil qiladi;

– Jamg'arma daromadlari barqaror shakllantirilishi, o'z vaqtida moliyalashtirilishi va Jamg'arma mablag'laridan maqsadli foydalaniishi ta'minlanishini doimiy nazorat qiladi;

– O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, Sog'liqni saqlash vazirligi, Madaniyat vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, tasarrufida oliy ta'lim muassasalari bo'lgan vazirlik va idoralar, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi, O'zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport davlat qo'mitasi tomonidan ta'lim va tibbiyot muassasalari moddiy-texnika bazasining holati muntazam ravishda o'rganilishini, keyinchalik ularning O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi, "Davarxitektqurilish" qo'mitasi va Moliya vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklari bilan birgalikda ta'lim va tibbiyot muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash (to'liq jihozlash)ning har yillik dasturlari shakllantirilishini tashkil etadi;

– ta'lim va tibbiyot muassasalarini qurish, rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash (to'liq jihozlash)ning har yillik dasturlarini tasdiqlaydi;

– umumiy tasdiqlangan parametrlar doirasida, zarurat bo'lganda, Jamg'arma daromadlari (manbalar bo'yicha) va xarajatlarining prognoz parametrlariga o'zgartirish va aniqliklar kiritadi;

– Jamg'arma Ijro etuvchi direksiyasi faoliyatini nazorat qiladi;

– Jamg'arma oldiga qo'yilgan vazifalarni hal etish uchun manfaatdor vazirliklar, idoralar, xo'jalik yurituvchi subyektlarni va notijorat tashkilotlarni jalb qiladi, shuningdek, xayriya qiluvchilar, shu jumladan O'zbekiston Respublikasi norezidentlarining mablag'larini jalb etishda Jamg'armaga ko'maklashadi.

Jamg'armani boshqarish kengashi majlislari zaruratga ko'ra o'tkaziladi. Jamg'armani boshqarish kengashi qarorlari majlisda qatnashayotgan Jamg'armani boshqarish kengashi a'zolarining oddiy ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. Ovozlar teng bo'lib qolganda Jamg'armani boshqarish kengashi raisining ovozi hal qiluvchi hisoblanadi. Jamg'armani boshqarish kengashining o'z vakolatlari doirasida qabul qilgan qarorlari O'zbekiston Respublikasining vazirliklari, idoralari va boshqa tashkilotlari tomonidan bajarilishi majburiydir. Jamg'arma mablag'larini boshqarish Jamg'armaning Ijro etuvchi direksiyasi tomonidan amalga oshiriladi.

Quyidagilar Jamg'arma ijro etuvchi direksiyasining *asosiy vazifalari* hisoblanadi:

– Jamg'arma daromadlari va xarajatlari prognozini hamda ularning bajarilishi to'g'risidagi hisobotni tayyorlash;

– Jamg'armani boshqarish kengashiga daromadlar manbalari bilan bog'lagan holda Jamg'arma mablag'laridan asosiy yo'nalishlar (ta'lim va tibbiyot muassasalarini qurish, rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash (to'liq jihozlash) bo'yicha foydalanish yuzasidan takliflar kiritish;

– ta'lim va tibbiyot muassasalarini qurish, rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash (to'liq jihozlash)ning aniq manzilli ro'yxatlarining bajarilishini tahlil qilish va monitoring olib borish hamda tegishli materiallarni Jamg'armani boshqarish kengashiga kiritish;

– zarurat bo'lganda, joylarga chiqqan holda, ta'lim va tibbiyot muassasalarini qurish, rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash (to'liq jihozlash)ning har yillik dasturlarini shakllantirishda ishtirok etish;

– Jamg'arma daromadlari va xarajatlarini oyma-oy tasdiqlash, shuningdek, daromadlar parametrlarini mintaqalar bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Davlat soliq qo'mitasining tegishli bo'linmalariga

hamda xarajatlar parametrlarini Jamg'arma mablag'lari dan foydalanish yo'nalishlari bo'yicha Moliya vazirligining tegishli bo'linmalariga va hududiy moliya organlariga yetkazish,

- ta'llim va tibbiyot muassasalarini qurish, rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash (to'liq jihozlash)ning har yilgi dasturlarini moliyalashtirish nazarda tutilgan Jamg'arma mablag'larining hisobga olinishini ta'minlash.

Jamg'armaning ijro etuvchi direktori vazifalari O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining mutasaddi o'rnbosariga yuklanadi.

Jamg'arma daromadlari va xarajatlari prognozini tayyorlash, ko'rib chiqish va tasdiqlash O'zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksiga muvofiq kelgusi yil uchun O'zbekiston Respublikasi Investitsiya dasturi va O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti loyihalarini tayyorlash bilan bog'liq holda amalga oshiriladi. Jamg'armaning ijro etuvchi direksiyasi har yili navbatdag'i yil uchun O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi bilan birgalikda Jamg'armaga majburiy ajratmalar tushumlari prognozini tayyorlaydi. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Madaniyat vazirligi, Sog'liqni saqlash vazirligi, Jismoniy tarbiya va sport qo'mitasi hamda Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi va "Davarxitektqurilish" qo'mitasi bilan birgalikda joriy yil 15 iyungacha keyingi yil uchun Jamg'armaning Ijro etuvchi direksiyasiga barcha yo'nalishlar bo'yicha Jamg'arma xarajatlari prognozlarini, Jamg'arma xarajatlari bo'yicha byudjet so'rovini hamda keyingi yil uchun Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va tumanlar (shaharlar) bo'yicha ta'lim va tibbiyot muassasalarini qurish, rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash (to'liq jihozlash)ning har yilgi dasturlarini taqdim etadilar.

Jamg'armaning Ijro etuvchi direksiyasi Jamg'armaga tushayotgan mablag'lar doirasida, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Iqtisodiyot vazirligi bilan birgalikda:

– ta'lim va tibbiyot muassasalarini qurish, rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash (to'liq jihozlash) dasturining uzil-kesil parametrlarini tegishli vazirlik va idoralar tomonidan taqdim etilgan ta'lim va tibbiyot muassasalarini qurish, rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash manzilli dasturlari loyihalari asosida shakllantiradi;

– keyinchalik O'zbekiston Respublikasi Investitsiya dasturiga kiritish uchun kelgusi yil ta'lim va tibbiyot muassasalarini qurish, rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash manzilli dasturi loyihasini Jamg'armani boshqarish kengashiga ko'rib chiqish va tasdiqlash uchun kiritadi.

7.3. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Ta'lim va tibbiyot muassasalarining moddiy-texnika bazasini rivojlantirish jamg'armasi mablag'larini sarflash tartibi

Jamg'arma daromadlari va xarajatlarining yillik parametrlari tasdiqlangandan keyin Jamg'armaning ijro etuvchi direksiyasi 10 kun mobaynida Jamg'arma mablag'larini oluvchilarni (Xalq ta'limi vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi, Madaniyat vazirligi, Sog'liqni saqlash vazirligi, tasarrufida oliy ta'lif muassasalari bo'lgan vazirlik va idoralarga, Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligining O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markaziga hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklari huzuridagi «Yagona buyurtmachi xizmati» injiniring kompaniyalariga ular uchun belgilangan xarajatlar hajmlarini ma'lum qiladi.

Jamg'arma mablag'ları:

a) Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri g'aznachilik boshqarmalaridagi (keyingi o'rnlarda

g'aznachilikning hududiy boshqarmalari deb ataladi) xizmat ko'rsatiladigan shaxsiy g'azna hisobvaraqlari orqali:

– ta'lif muassasalarini qurish, rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash (to'liq jihozlash) xarajatlari, shuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahri mahalliy byudjetlari mablag'lari hisobiga ta'minlanadigan tibbiyot muassasalarini qurish, rekonstruksiya qilish va mukammal ta'mirlash xarajatlariga sarflanadi;

– O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumatining alohida qarorlariga asosan buyurtmachi sifatida Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklari huzuridagi "Yagona buyurtmachi xizmati" injiniring kompaniyalari, shuningdek, tasarrufida oliy ta'lif muassasalarini bo'lgan tegishli vazirliklar va idoralar belgilangan oliy ta'lif muassasalarini qurish, rekonstruksiya qilish va mukammal ta'mirlash xarajatlariga sarflanadi;

b) O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining G'aznachiligidagi xizmat ko'rsatiladigan shaxsiy g'azna hisobvaraqlari orqali:

– O'zbekiston Respublikasi respublika byudjeti mablag'lari hisobidan ta'minlanadigan tibbiyot muassasalarini qurish, rekonstruksiya qilish va mukammal ta'mirlash xarajatlariga sarflanadi;

– O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti mablag'lari hisobidan ta'minlanadigan tibbiyot muassasalarini jihozlash (to'liq jihozlash) xarajatlariga sarflanadi;

– buyurtmachi sifatida O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi huzuridagi "Yagona buyurtmachi xizmati" injiniring kompaniyasi, belgilangan oliy ta'lif muassasalarini qurish, rekonstruksiya qilish va mukammal ta'mirlash xarajatlariga sarflanadi;

– buyurtmachi sifatida O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi, tasarrufida oliy ta'lif muassasalari bo'lgan vazirlik va idoralar belgilangan oliy ta'lif muassasalarini jihozlash xarajatlariga sarflanadi.

Jamg'arma mablag'laridan foydalanish:

a) O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligida ro'yxatdan o'tkazilgan xarajatlar smetalari asosida:

– O'zbekiston Respublikasi respublika byudjeti mablag'lari hisobiga ta'minlanadigan tibbiyot muassasalarini qurish, rekonstruksiya qilish va mukammal ta'mirlash bo'yicha

– tender (tanlod) savdolari asosida va kapital qurilish sohasidagi qonun hujjatlari bilan belgilangan tartibga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining Qurilish bo'yicha birlashgan direksiyasi tomonidan;

– O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti mablag'lari hisobiga ta'minlanadigan tibbiyot muassasalarini jihozlash (to'liq jihozlash) bo'yicha — qonun hujjatlarida belgilangan tartibda o'tkazilgan tender (tanlod) savdolari asosida O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan;

– oliy ta'lim muassasalarini qurish, rekonstruksiya qilish va mukammal ta'mirlash bo'yicha — tender (tanlod) savdolari asosida va kapital qurilish sohasidagi qonun hujjatlari bilan belgilangan tartibga muvofiq Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi huzuridagi "Yagona buyurtmachi xizmati" injiniring kompaniyasi, tasarrufida oliy ta'lim muassasalari bo'lgan vazirlik va idoralar tomonidan;

– oliy ta'lim muassasalarini jihozlash bo'yicha — O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, tasarrufida oliy ta'lim muassasalari bo'lgan vazirliklar va idoralar tomonidan amalga oshiriladi;

b) Qoraqalpog'iston Respublikasi Moliya vazirligida, viloyatlar va Toshkent shahri moliya boshqarmalarida ro'yxatdan o'tkazilgan smeta xarajatlari asosida:

– ta'lim muassasalarini qurish, rekonstruksiya qilish va mukammal ta'mirlash, shuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahri mahalliy byudjetlar mablag'lari hisobiga ta'minlanadigan tibbiyot muassasalarini qurish, rekonstruksiya qilish va mukammal ta'mirlash bo'yicha — tender (tanlod) savdolari asosida va kapital qurilish sohasida qonun hujjatlarida

belgilangan tartibga muvofiq Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklari huzuridagi "Yagona buyurtmachi xizmati" injiniring kompaniyalari tomonidan;

- ta'lim muassasalarini jihozlash (to'liq jihozlash) bo'yicha — qonun hujjatlarida belgilangan tartibda o'tkazilgan tender (tanlod) savdolari asosida Qoraqalpog'iston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahri xalq ta'limi boshqarmalari, Qoraqalpog'iston Respublikasi Madaniyat vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahri madaniyat boshqarmalari, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi hududiy boshqarmalari tomonidan amalga oshiriladi.

Ta'lim va tibbiyot muassasalarini jihozlash (to'liq jihozlash)ning maqsadga muvofiqligi, shuningdek, miqdor, sifat va yetkazib berish muddatlari bo'yicha shartnomalari majburiyatlar bajarilishi monitoringi yuzasidan javobgarlik tender (tanlod) savdolari buyurtmachilarini — O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, Sog'liqni saqlash vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, tasarrufida oliy ta'lim muassasalarini bo'lgan tegishli vazirlik va idoralarga, O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi hamda Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markaziga, shuningdek, ularning hududiy bo'linmalariga yuklanadi.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligi va uning hududiy boshqarmalari ta'lim va tibbiyot muassasalarini qurish, rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash (to'liq jihozlash) bo'yicha shartnomalarni belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazishni hamda ular bo'yicha qat'yan xarajatlar smetalarida nazarda tutilgan mablag'lar doirasida hamda ta'lim va tibbiyot muassasalarini qurish, rekonstruksiya qilish va mukammal ta'mirlashning belgilangan tartibda tasdiqlangan aniq manzilli ro'yxatlariga muvofiq xarajatlar to'lovini amalga oshiradilar.

Qurish, rekonstruksiya qilish va mukammal ta'mirlash bo'yicha xarajatlarni to'lash:

– ta'lif muassasalari, shuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahri mahalliy byudjetlari mablag'lari hisobiga ta'minlanadigan tibbiyot muassasalari bo'yicha — viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklari huzuridagi "Yagona buyurtmachi xizmati" injiniring kompaniyalarining to'lov topshiriqnomalari asosida G'aznachilikning hududiy boshqarmalari tomonidan;

– O'zbekiston Respublikasi respublika byudjeti mablag'lari hisobiga ta'minlanadigan tibbiyot muassasalari bo'yicha — ta'lif va tibbiyot muassasalarini qurish, rekonstruksiya qilish va mukammal ta'mirlashning aniq manzilli ro'yxatlari bo'yicha belgilangan limitlar doirasida hamda tender (tanlod) savdolari natijalarini hisobga olgan holda tuzilgan shartnomalar bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining Qurilish bo'yicha birlashgan direksiyasining to'lov topshiriqnomalari asosida O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining G'aznachiligi tomonidan amalga oshiriladi.

– oliy ta'lif muassasalari bo'yicha — ta'lif va tibbiyot muassasalarini qurish, rekonstruksiya qilish va mukammal ta'mirlashning aniq manzilli ro'yxatlari bo'yicha belgilangan limitlar doirasida hamda tender (tanlod) savdolari natijalarini hisobga olgan holda tuzilgan shartnomalar bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi huzuridagi "Yagona buyurtmachi xizmati" injiniring kompaniyasi, tasarrufida oliy ta'lif muassasalari bo'lgan vazirlik va idoralarning to'lov topshiriqnomalari asosida O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining G'aznachiligi tomonidan amalga oshiriladi.

Shartnomalarda:

– qurish, rekonstruksiya qilish va mukammal ta'mirlashning dastlabki ikki oyi mobaynida teng ulushlar bilan, qurilishning prognoz qilinayotgan yili uchun tender (tanlod) savdolari natijalari bo'yicha aniqlangan ishlar

qiymatining 30 foizigacha miqdorda avans to'lovlarini amalga oshirish;

– har oyda, ajratilgan avansni mutanosib ravishda ushlab qolishni hisobga olgan holda, bajarilgan ishlar qiymatining 95 foizi miqdorida joriy moliyalashtirishni amalga oshirish;

– shartnomada ko'rsatilgan kafolat muddati tugagach qolgan 5 foizni pudratchiga to'lash majburiy shartlari nazarda tutiladi.

Jihozlash (to'liq jihozlash) bo'yicha xarajatlarni to'lash:

– ta'lim muassasalari bo'yicha — Qoraqalpog'iston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahri xalq ta'limi boshqarmalarining, Qoraqalpog'iston Respublikasi Madaniyat vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahri madaniyat boshqarmalarining, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi hududiy boshqarmalarining to'lov topshiriqnomalari asosida G'aznachilikning hududiy boshqarmalari tomonidan;

– O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti mablag'lari hisobiga ta'minlanadigan tibbiyot muassasalari bo'yicha — O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining to'lov topshiriqnomalari asosida O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligi tomonidan;

– oliy ta'lim muassasalari bo'yicha — O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, tasarrufida oliy ta'lim muassasalari bo'lgan tegishli vazirlik va idoralarning to'lov to'pshiriqnomalari asosida O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligi tomonidan amalga oshiriladi.

Shartnomalarda:

– shartnomaga umumiy summasining kamida 30 foizi miqdorida avans to'lovini amalga oshirish;

– har oyda, ajratilgan avans to'lovlarini ushlab qolgan holda, yetkazib berilgan tovarlarning amaldagi hajmidan kelib chiqib joriy moliyalashtirishni amalga oshirish majburiy shartlari nazarda tutiladi.

Mablag'larni (shu jumladan, tovarlarni yetkazib beruvchilar, ishlar va xizmatlarni bajaruvchilar tomonidan shartnoma majburiyatlarining bajarilmaganligi uchun jarima sanksiyalarini qo'llashdan olingen mablag'larni) xarajatlarning tasdiqlanmagan smetasisiz, shuningdek, Jamg'arma xarajatlari prognozida nazarda tutilmagan tadbirlarga yoki ham umuman xarajatlar smetalari bo'yicha va ham xarajatlarning alohida turlari bo'yicha smetalarda belgilanganidan ortiqcha sarflash taqilanganadi. Pudrat tashkilotlari, tovarlar (ishlar va xizmatlar) yetkazib beruvchilar tomonidan shartnoma majburiyatlarini bajarilmaganligi uchun jarima sanksiyalarini qo'llashdan tushgan mablag'lar Jamg'armaning shaxsiy g'azna hisobvarag'iga o'tkaziladi.

Joriy moliya yili yakunlari, shu jumladan, oldingi yillarda Jamg'arma mablag'lari oluvchilarining majburiyatlarini bo'yicha qurish, rekonstruksiya qilish va mukammal ta'mirlashning aniq manzilli ro'yxatlarida hamda ta'lim va tibbiyot muassasalarini jihozlash (to'liq jihozlash) bo'yicha xarajatlar smetalarida nazarda tutilgan to'liq moliyalashtirilmagan mablag'lar Jamg'armaning daromadlari va xarajatlari balanslanganligi ta'minlanishini hisobga olgan holda kelgusi moliya yilda to'lanadi. Jamg'armaning hisob raqamlaridan mablag'larni ushbu nizomda nazarda tutilmagan maqsadlarga o'tkazish va vaqtinchalik olib qo'yish taqilanganadi.

Jamg'armaning ijro etuvchi direksiyasi Jamg'armaning daromadlari va xarajatlari ijrosi to'g'risidagi hisobotlarning tuzilishi va hisobini qonunchilikda belgilangan tartibda yuritadi. Jamg'armaning ijro etuvchi direksiyasi har oyda, hisobot oyidan keyingi oyning 15-kunidan kechikmay O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan shakl bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga Jamg'arma daromadlari va xarajatlari ijrosi to'g'risida hisobot taqdim etadi. O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi va davlat soliq xizmatining hududiy organlari:

- Jamg'armaga majburiy ajratmalarning to'g'ri hisoblanishi, to'liq va o'z vaqtida to'laniishi yuzasidan nazoratni;
- to'lovchilar bo'yicha Jamg'armaga majburiy ajratmalar hisobi yuritilishini;
- xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan Jamg'armaga majburiy ajratmalarning to'g'ri hisoblanishi va to'laniishi bo'yicha tekshirishlarning amalga oshirilishini ta'minlaydilar.

O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi har oyda, hisobot oyidan keyingi oyning 10-kunidan kechikmay Jamg'armaning ijro etuvchi direksiyasiga hisobot davridan keyingi oyning 1-kunidagi holati bo'yicha Jamg'armaga majburiy ajratmalarning hisoblangan va tushgan summalar, shuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri, shuningdek, vazirliliklar va idoralar bo'yicha mazkur ajratmalar yuzasidan qarzlar to'g'risida tezkor hisobot taqdim etadi. Jamg'armaning ijro etuvchi direksiyasi O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasidan Jamg'armaga majburiy ajratmalar to'lovlaridan mablag'lar tushishiga taalluqli qo'shimcha ma'lumotlarni so'rab olish huquqiga ega. Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklari huzuridagi "Yagona buyurtmachi xizmati" injiniring kompaniyalari tomonidan ta'lim va tibbiyot muassasalarini qurish, rekonstruksiya qilish va mukammal ta'mirlashga ajratilgan Jamg'arma mablag'laridan foydalanilishi bo'yicha hisobotlar har oyda, hisobot davridan keyingi oyning 5-kunidan kechikmay Qoraqalpog'iston Respublikasi Moliya vazirligiga, viloyatlar va Toshkent shahri moliya boshqarmalariga taqdim etiladi. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining Qurilish bo'yicha birlashgan direksiyasi tomonidan O'zbekiston Respublikasi respublika byudjeti mablag'ları hisobiga ta'minlanadigan tibbiyot muassasalarini qurish, rekonstruksiya qilish va mukammal ta'mirlash uchun ajratiladigan Jamg'arma mablag'laridan foydalanish bo'yicha hisobotlar har oyda, hisobot davridan keyingi

oyning 5-kunidan kechikmay Jamg'armaning Ijro etuvchi direksiyasiga taqdim etiladi. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqi saqlash vazirligi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti mablag'lari hisobiga ta'minlanadigan tibbiyot muassasalarini jihozlash (to'liq jihozlash)ga ajratiladigan Jamg'arma mablag'laridan foydalanish bo'yicha hisobotlar har oyda, hisobot davridan keyingi oyning 5-kunidan kechikmay Jamg'armaning Ijro etuvchi direksiyasiga taqdim etiladi. Qoraqalpog'iston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahri xalq ta'limi boshqarmalari, Qoraqalpog'iston Respublikasi Madaniyat vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahri madaniyat boshqarmalari hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi hududiy boshqarmalari tomonidan ta'lim muassasalarini jihozlashga (to'liq jihozlashga) ajratilgan Jamg'arma mablag'laridan foydalanishi bo'yicha hisobotlar har oyda, hisobot davridan keyingi oyning 5-kunidan kechikmay Qoraqalpog'iston Respublikasi Moliya vazirligiga, viloyatlar va Toshkent shahri moliya boshqarmalariga taqdim etiladi. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'limi vazirligi huzuridagi "Yagona buyurtmachi xizmati" injiniring kompaniyasi hamda tasarrufida oliy ta'lim muassasalarini bo'lgan tegishli vazirlik va idoralar tomonidan oliy ta'lim muassasalarini qurish, rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash (to'liq jihozlash)ga ajratilgan Jamg'arma mablag'laridan foydalanishi bo'yicha hisobotlar har oyda, hisobot davridan keyingi oyining 5-kunidan kechikmay Jamg'armaning Ijro etuvchi direksiyasiga taqdim etiladi. Qoraqalpog'iston Respublikasi Moliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahri moliya boshqarmalari — amalga oshirilgan xarajatlar yuzasidan har oyda, hisobot oyidan keyingi oyning 8-kunidan kechikmay Jamg'armaning ijro etuvchi direksiyasiga O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan shakl bo'yicha hisobot taqdim etadilar. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi

Davlat soliq qo'mitasi bilan birqalikda respublika mintaqalari bo'yicha Jamg'armaga majburiy ajratmalar tushumlaridan Jamg'arma daromadlar prognozining bajarilishi holatini tahlil qiladi hamda daromadlarning o'z vaqtida va to'liq tushishiga salbiy ta'sir ko'rsatgan aniqlangan omillar asosida ularni bartaraf etishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar ko'radi.

Jamg'arma mablag'laridan maqsadli foydalanilishi yuzasidan nazorat O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining Davlat moliyaviy nazorati bosh boshqarmasi va uning hududiy bo'limalari tomonidan amalga oshiriladi. Jamg'armaning ijro etuvchi direksiyasi:

– Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklari huzuridagi "Yagona buyurtmachi xizmati" injiniring kompaniyalari, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining Qurilish bo'yicha birlashgan direksiyasining, Oliy va o'rta maxsus ta'limi vazirligining "Yagona buyurtmachi xizmati" injiniring kompaniyasi, tasarrufida oliy ta'lim muassasalarini bo'lgan vazirlilik va idoralarning — ta'lim va tibbiyot muassasalarini qurish, rekonstruksiya qilish va mukammal ta'mirlash bo'yicha bajarilgan ishlar hamda to'langan mablag'lar to'g'risidagi hisobot ma'lumotlari asosida;

– Qoraqalpog'iston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahri xalq ta'limi boshqarmalari, Qoraqalpog'iston Respublikasi Madaniyat vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahri madaniyat boshqarmalarining, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi hududiy boshqarmalarining — ta'lim va tibbiyot muassasalariga o'quv-laboratoriya asbob-uskunalarini, kompyuter texnikasi, mebellar va boshqa anjomlarning amalda yetkazib berilganligi hamda to'langan mablag'lar, shuningdek, ularning boshlang'ich hujjatlarga (schyot-fakturalarga) va amalda bajarilgan ishlarga (xizmatlarga) muvofiqligi to'g'risidagi hisobot ma'lumotlari

asosida Jamg'arma mablag'laridan maqsadli va oqilona foydalanilganligi yuzasidan monitoringni amalga oshiradi.

Jamg'arma mablag'laridan tasdiqlangan xarajatlar smetalariga muvofiq qat'yan maqsadli va samarali foydalanilishi yuzasidan javobgarlik Jamg'arma mablag'larini oluvchilar — Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklari huzuridagi "Yagona buyurtmachi xizmati" tegishli injiniring kompaniyalari, Qoraqalpog'iston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahri xalq ta'limi boshqarmalari, Qoraqalpog'iston Respublikasi Madaniyat vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar madaniyat boshqarmalari, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining Qurilish bo'yicha birlashgan direksiyasi, Oliy va o'rta maxsus ta'limi vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'limi vazirligining "Yagona buyurtmachi xizmati" injiniring kompaniyasi, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi hududiy boshqarmalari rahbarlari zimmasiga yuklanadi.

Jamg'armani qayta tashkil etish va tugatish O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2019-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va davlat byudjeti parametrlari hamda 2020-2021-yillarga byudjet mo'ljallari to'g'risida"gi 26-dekabr 2018-yilda qabul qilingan PQ-4086-son qaroriga ko'ra 2019-yil 1-yanvardan boshlab ushbu jamg'armaning faoliyati to'xtatildi.

Bahs-munozara va nazorat uchun savollar

1. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Ta'lim va tibbiyot muassasalarining moddiy-texnika bazasini rivojlantirish jamg'armasining asosiy vazifalarini sanab o'ting;

2. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Ta'lim va tibbiyot muassasalarining moddiy-texnika bazasini rivojlantirish jamg'armasining mablag'laridan foydalanish yo'nalishlarini izohlang;
3. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Ta'lim va tibbiyot muassasalarining moddiy-texnika bazasini rivojlantirish jamg'armasi daromadlarini shakllantirish manbalarini sanab o'ting;
4. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Ta'lim va tibbiyot muassasalarining moddiy-texnika bazasini rivojlantirish jamg'armasi mablag'larini sarflash tartibini izohlang.

8-BOB: O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING TIKLANISH VA TARAQQIYOT JAMG'ARMASI

Reja

8.1. O'zbekiston Respublikasining Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi faoliyati va uning tashkiliy-huquqiy asoslari

8.2. O'zbekiston Respublikasining Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi mablag'larini shakllantirish manbalari va tartibi

8.3. O'zbekiston Respublikasining Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi mablag'laridan foydalanish tartibi

8.4. O'zbekiston Respublikasining Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasiga mablag'lar kelib tushishi va ulardan foydalanish prognozini tayyorlash, ko'rib chiqish hamda tasdiqlash

8.1. O'zbekiston Respublikasining Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi faoliyati va uning tashkiliy-huquqiy asoslari

O'zbekiston Respublikasining Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi moliyaviy muassasadir va u ustuvor investitsiya loyihamalarini hamda iqtisodiyotning bazaviy tarmoqlarini modernizatsiya qilish va texnik jihatdan qayta jihozlashga, mamlakatni muttasil, barqaror va mutanosib ravishda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga erishilishiga, shuningdek, samarali tarkibiy va investitsiya siyosati amalga oshirilishiga doir loyihamarni moliyalashtirish uchun qonunda belgilangan mablag'larni jamlaydi.⁵²

Iqtisodiyotning yetakchi, eng avvalo, bazaviy tarmoqlarini modernizatsiyalash va texnikaviy qayta qurollantirish loyihamari amalga oshirilishini ta'minlash, mamlakatni muttasil, barqaror va mutanosib ravishda

⁵² O'zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksi 47-modda. 2013-yil 26-dekabr.

ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga erishish, shuningdek, samarali tarkibiy va investitsiyaviy siyosatni amalga oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Iqtisodiyot vazirligi hamda Markaziy bankining ustav sarmoyasi 1,0 mlrd AQSh dollari miqdorida bo'lgan O'zbekiston Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasini tashkil etish to'g'risidagi taklifi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 11-maydagi PF-3751-son farmoni bilan qabul qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 11-maydagi "O'zbekiston Respublikasining Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasini tashkil etish to'g'risida"gi PF-3751-sonli farmoniga muvofiq hamda ustuvor investitsiya loyihalarini samarali moliyalashtirishni ta'minlash maqsadida 2006-yil 16-mayda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-350-sonli qarori qabul qilindi va unga muvofiq:

- Jamg'armaning ijro etuvchi direksiyasi Jamg'arma ijroiya organi va uning mablag'larini tasarruf etuvchi hisoblandi;
- Jamg'armaning ijro etuvchi direksiyasi tarkibida tegishli loyihalarini moliyalashtirish bo'yicha tavsiyanomalar berilishi uchun mas'ul bo'lgan ekspert guruhi tashkil qilinadigan bo'ldi;
- Jamg'armaning ijro etuvchi direktori O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan lavozimga tayinlanadi va undan ozod qilinadi, maqomi bo'yicha esa Vazir o'rinnbosariga tenglashtiriladi;
- Jamg'armaning ijro etuvchi direksiyasi faoliyati Jamg'armani boshqarish bo'yicha Kengash tomonidan tasdiqlanadigan xarajatlar smetasi asosida Jamg'arma mablag'lari hisobidan ta'minlanadi deb e'tirof etildi.

O'zbekiston Respublikasining Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida tashkil etilib, yuridik shaxs huquqlariga, o'zining mustaqil balansiga, O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankida hisobvaraq, shu jumladan, xorijiy valyutadagi hisobvarag'iga, O'zbekiston Respublikasi Davlat gerbi

tushirilgan muhriga ega. O'zbekiston Respublikasi Hukumati O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi timsolida Jamg'arma muassisi hisoblanadi. Jamg'arma mablag'lari O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining Toshkent shahar Bosh boshqarmasida Jamg'armaning maxsus hisobvaraqlarida jamlanadi.

2008-yil 5-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-811-sonli "O'zbekiston Respublikasining Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi faoliyatini yanada kengaytirish hamda resurs bazasini mustahkamlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilinib, unga muvofiq, mamlakat iqtisodiyotini barqaror, jadal va mutanosib rivojlantirish uchun moliyaviy bazani yanada mustahkamlash, samarali tarkibiy va investitsiya siyosatini olib borish hamda O'zbekiston Respublikasining Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi funksiyalari va vakolatlarini kengaytirish maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Iqtisodiyot vazirligi hamda Markaziy bankining 2008–2010 yillar mobaynida O'zbekiston Respublikasining Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi ustav kapitalini bosqichma-bosqich 5,0 mlrd AQSh dollariga yetkazish to'g'risidagi taklifi qabul qilindi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 11-maydagi "O'zbekiston Respublikasining Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasini tashkil etish to'g'risida"gi PF-3751-sonli farmonida nazarda tutilgan asosiy faoliyat yo'nalishlariga qo'shimcha ravishda Jamg'arma mablag'lari quyidagilar uchun ishlatalishi mumkinligi ta'kidlab o'tildi:

- kelajakda, birinchi navbatda qishloq hududlarida, yangi sanoat ishlab chiqarishlarini joylashtirish uchun ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish va tiklash loyihalarini moliyalash maqsadida, shu jumladan Davlat byudjeti mablag'lari hisobidan qoplanadigan imtiyozli kreditlar berish;

- iqtisodiyot tarmoqlarini modernizatsiyalash, texnikaviy va texnologik qayta jihozlash bo'yicha Hukumat tomonidan tasdiqlangan dasturlar doirasida, tijorat banklarga xorijiy valyutada ochiladigan kredit liniyalar

orqali investitsiya loyihalarini jadal moliyalashtirish va amalga oshirishni ta'minlash;

– yangi zamонавиу xorijiy texnologiyalar, texnika va uskunalar hamda strategik ahamiyatga ega bo'lgan boshqa tovarlarni tasdiqlangan davlat dasturlariga muvofiq xarid qilish uchun Hukumat qarorlari bo'yicha imtiyozli kreditlar berish;

– yangi tashkil etilayotgan moliyaviy institutlar hamda iqtisodiyotning bazaviy tarmoqlarida xorijiy investitsiyalar ishtirokida strategik ahamiyatga ega bo'lgan korxonalarning ustav kapitaliga investitsiya kiritish;

– davlatning tashqi qarzlari bo'yicha xalqaro moliya institutlari va xorijiy kreditorlar oldidagi majburiyatlarni muddatidan oldin to'lash.

Shu jumladan, O'zbekiston Respublikasining Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi mablag'larining bo'sh qoldiqlari umumiy hajmi uning jami aktivlarining kamida qirq foizini tashkil etishi lozimligi ham ta'kidlab o'tildi.

2009-yilning 10-martida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 61-sonli "O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi tomonidan investitsiya loyihalarini moliyalashtirish uchun tijorat banklari kredit liniyalari ochish tartibi haqidagi nizomni tasdiqlash to'g'risida"gi qarori qabul qilindi.

2012-yil 9-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-1725-sonli "O'zbekiston Respublikasining Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilinib, unga muvofiq, korxonalarni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash jarayonlarini amalga oshirishda O'zbekiston Respublikasining Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi rolini oshirish hamda ishtiroki ko'lамини kengaytirish, mamlakat sanoatining yetakchi tarmoqlarida va ishlab chiqarish infratuzilmasidagi strategik investitsiya loyihalarini birgalikda moliyalash hajmlarini ko'paytirish uchun Jamg'armaning resurs bazasini mustahkamlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining

Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi resurs bazasini yanada mustahkamlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2010-yil 11-avgustdagি PQ-1387-sон qaroriga muvofiq Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasining ustav kapitali belgilangan 10 mlrd AQSh dollari miqdorida shakllantirildi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Markaziy banki, Iqtisodiyot vazirligi, Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligining 2012-2016-yillar mobaynida O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasining ustav kapitalini bosqichma-bosqich 15 mlrd AQSh dollariga yetkazish to'g'risidagi taklifiga rozilik berildi hamda O'zbekiston Respublikasining Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi ijro etuvchi direksiyasining boshqaruv xodimlari cheklangan soni 32 nafar kishidan iborat yangi tuzilmasi tasdiqlandi.

O'zbekiston Respublikasining Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasining ijro etuvchi direksiyasi Jamg'arma mablag'larini tasarruf etuvchi hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasining *asosiy vazifalari* quyidagilardan iborat:

- davlatning Jamg'armaga yo'naltiriladigan moliyaviy mablag'larini jamlash;
- iqtisodiyotni rivojlantirish hamda ishlab chiqarishni tarkibiy jihatdan o'zgartirish va modernizatsiya qilishdagi ustuvor vazifalarni amalga oshirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan g'oyat muhim loyihalarni moliyalashtirish;
- strategik jihatdan muhim ahamiyatga ega bo'lgan korxonalarini, birinchi navbatda iqtisodiyotning bazaviy tarmoqlarini yangilash va texnik jihatdan qayta qurollantirish dasturlarini kreditlash;
- yoqilg'i-energetika kompleksi, kimyo sanoati, mashinasozlik va rangli metallurgiya tarmoqlarini texnik jihatdan qayta qurollantirishga hamda ishlab chiqarish sur'at va hajmlarini oshirishga yo'naltirilgan loyihalarni moliyalashtirilishini ta'minlash;
- yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya qilish uchun muhim ustuvor ahamiyatga ega investitsiya loyihalarni

birgalikda moliyalashtirish, eksportga mo'ljallangan va import o'mini bosadigan ishlab chiqarishlar uchun xorijiy texnologiyalar va uskunalarni sotib olishga mablag'larni maqsadli yo'naltirgan holda respublikaning tijorat banklariga Jamg'armani boshqarish bo'yicha Kengash qarori bilan belgilangan tartibda kredit liniyalarini ochish;

– birinchi navbatda istiqbolli, ammo yetarlicha rivojlanmagan hududlarda ishlab chiqarish va noishlab chiqarish infratuzulmasini shakllantirish bo'yicha ijtimoiy jihatdan ahamiyatli milliy davlat dasturlari va loyihalarning amalga oshirilishini moliyalashtirish;

– kelajakda, birinchi navbatda, qishloq hududlarida, yangi sanoat ishlab chiqarishlarini joylashtirish uchun ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish va tiklash loyihalarini imtiyozli asosda, shu jumladan, keyinchalik Davlat byudjeti mablag'lari hisobidan qoplash yo'li bilan moliyalashtirish;

– respublikaning xalqaro kommunikatsiyalar tarmog'iga integratsiyalashuvi uchun shart-sharoitlar yaratadigan, xalqaro transport yo'laklari va jahon bozorlariga eng qisqa yo'l bilan chiqishni ta'minlaydigan transport hamda telekommunikatsiyalar infratuzilmasini modernizatsiyalash va rivojlantirishni moliyalashtirish;

– davlatning tashqi qarzlarini bo'yicha xalqaro moliya institutlari va xorijiy kreditorlar oldidagi majburiyatlarni muddatidan oldin to'lashni moliyalashtirish;

– xalqaro moliya institutlari, respublika va xorijiy mamlakatlarning kredit muassasalari bilan loyihalarning qo'shma moliyalashtirilishini tashkil etishni ta'minlash.

O'zbekiston Respublikasining Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi quyidagi funksiyalami bajaradi:

– navbatdagi yil uchun mo'ljallangan makroiqtisodiy va pul-kredit ko'rsatkichlari, Davlat byudjeti hamda Davlat investitsiya dasturining asosiy parametrlari bilan bog'liq holda Jamg'arma mablag'larining kelib tushish va ulardan foydalananish prognozlarini ishlab chiqadi va belgilangan muddatlarda Jamg'armani boshqarish bo'yicha Kengashga taqdim etadi;

- kelajakda, birinchi navbatda, qishloq hududlarida, yangi sanoat ishlab chiqarishlarini joylashtirish uchun ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish va tiklash loyihalarini tuziladigan shartnomalar asosida kreditlaydi;
- davlatning tashqi qarzlar bo'yicha xalqaro moliya institutlari va xorijiy kreditorlar oldidagi majburiyatlarni muddatidan oldin to'lash uchun O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga qaytarib bermaslik asosida mablag'larni beradi;
- yangi tashkil etilayotgan moliyaviy institutlar hamda iqtisodiyotning bazaviy tarmoqlarida xorijiy investitsiyalar ishtirokida strategik ahamiyatga ega bo'lgan korxonalar ning ustav kapitaliga investitsiya kiritadi (korxona yoki tashkilot ustav kapitali (fondi)ning 25 foizidan ko'p bo'lмаган miqdorda);
- Vazirlar Mahkamasining qarorlari bo'yicha va Iqtisodiyot vazirligi buyurtmanomalariga binoan ayrim investitsiya loyihalarining dastlabki yoki yakuniy texnik-iqtisodiy asoslarini ishlab chiqish uchun grantlar hamda foizsiz kreditlar beradi, ajratilgan kreditlar miqdori keyinchalik loyihaning umumiy qiymatiga va loyiha Jamg'arma kreditini jalb qilish yo'li bilan amalga oshirilgan taqdirda, ajratilayotgan kreditning umumiy qiymatiga qo'shiladi;
- yangi zamonaliviy xorijiy texnologiyalar, texnika va uskunalar hamda strategik ahamiyatga ega bo'lgan boshqa tovarlarni tasdiqlangan davlat dasturlariga muvofiq xarid qilish uchun Hukumat qarorlari bo'yicha imtiyozli kreditlar beradi;
- moliyalashtirish shartlari va Jamg'arma mablag'larini qaytarish mexanizmi to'g'risida imzolanadigan bosh bitimlar asosida, har bir tijorat banki uchun har yili belgilanadigan limitlar doirasida tijorat banklarini moliyalashtirishni amalga oshiradi;
- Jamg'arma mablag'laridan maqsadli va samarali foydalanilishi va tijorat banklariga berilgan mablag'larning o'z vaqtida qaytarilishi ustidan doimiy ravishda monitoring olib boradi hamda kelib tushish manbalari va ulardan

foydalanishning asosiy yo'nalishlari bo'yicha Jamg'arma mablag'larining hisobini yuritadi;

- tijorat banklarida ochilgan hisobvaraqlar va ular bo'yicha amalga oshirilayotgan operatsiyalar to'g'risidagi har qanday ma'lumotni olish huquqiga ega bo'lgan holda, tijorat banklari va qarz oluvchi korxonalar zimmasiga yuklatilgan majburiyatlarning bajarilishi yuzasidan ularning faoliyatini o'rganadi.

Yevropa tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi mamlakatlarda samarali bozor iqtisodiyotini yaratish uchun sarmoya kiritadi. Uch qit'ada, u odamlarning hayotiga ijobjiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Xususiy sektor investitsiyalariga va siyosat islohotlarini qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor qaratib, Yevropa tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi hududlardagi iqtisodiyotning raqobatbardoshligini ta'minlashga, inkluyuziv, yaxshi boshqariladigan, barqaror, moslashuvchan va integrallashgan holda harakat qilmoqda.

Zimbabve Rekonstruksiya Jamg'armasi (ZIMREF) 2014-yil may oyida Jahon Bankining Ijrochi Direktorlar Kengashi tomonidan tasdiqlangan va 2019-yilning dekabrigacha ishga tushishi rejalashtirilgan, mamlakatga xos bo'lgan ko'p donorlar uchun ishonch fondi. ZIMREFning maqsadi – Zimbabve tizimlarini tiklash va rivojlantirish uchun barqarorlik va islohotlar, rivojlanish va qashshoqlikni kamaytirishga qaratilgan kuchlarni mustahkamlash. ZIMREF Zimbabve uchun Jahon Bankining uchinchi davr strategiyasini amalga oshirish va hukumat tomonidan boshqariladigan barqaror ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar (ZIMASSET) uchun Zimbabvening kun tartibidagi dasturini amalga oshirishni qo'llab-quvvatlash uchun asosiy vositadir. ZIMREFga Donorlar, Daniya, Yevropa Ittifoqi, Germaniya, Norvegiya, Davlat va Tinchlik Qurilish Fondi, Shvetsiya, Shveytsariya va Buyuk Britaniya kiradi. ZIMREF dasturning to'rtta dasturli derazasi ostida: (1) Xususiy sektorning mahsuldarligi va raqobatbardoshligi bo'yicha qabul qiluvchi, ijro etilgan, Bank tomonidan bajarilgan va Hybrid loyihalari qo'llab-quvvatlaydi; (2) davlat

xarajatlarini boshqarish, samaradorligi va samaradorligi; (3) turmush darajasini va turmush darajasini oshirish; va (4) analitik va maslahat ishlari. 2015-yil 31-dekabr holatiga 60 mln Dollarlik sakkizta loyiha ma'qullandi. Bugungi kunda ZIMREF jami 40 mln AQSh dollari miqdoridagi yordam va dasturlashtirilgan tadbirlarni amalga oshirdi va moliyalashtirishning 20 mln ZIMREF uchun hozirda faoliyat yuritayotgan sakkizta loyiha quyidagilardir⁵³:

- Milliy suv loyihasi qabul qilingan (20 mln AQSh dollari, qabul qilingan-bajarilgan);
- Davlat moliyasini boshqarish tizimini takomillashtirish loyihasi (20 mln AQSh dollari, qabul qilib oluvchi);
- Davlat xaridlarini modernizatsiya qilish loyihasi (4 mln Dollar, gibriddastur);
- Ishbilarmonlik muhiti, moliya sektori va investitsiya siyosati TA (\$ 3.2 mln, Bank ijrosi);
- Natijalarga asoslangan byudjetlashtirish TA (2.1 mln AQSh dollari, Bank ijrosi);
- Sarmoyaviy byudjetlashtirish TA (4,3 mln AQSh dollari, Bank ijrosi);
- Qashshoqlik monitoringi va ZIMASSET M & E TA (2,5 mln AQSh dollari, Bank tomonidan ijro etilgan) va Iqlim o'zgarishi TA (1,5 mln AQSh dollari, Bank ijrosi). Ushbu loyihalarning oltitasi 2016-yil boshida boshlanishi kutilayotgan qolgan ikkita loyiha bilan amalga oshirilmoqda.⁵⁴

O'zbekiston Respublikasining Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi mablag'larini shakllantirish va ulardan foydalanish tartibini takomillashtirish bo'yicha aniq maqsadli ishlarni amalga oshiradi. O'zbekiston Respublikasining Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi faoliyatini takomillashtirish yuzasidan o'z vakolatlari doirasida choralar ko'radi yoki belgilangan tartibda takliflar kiritadi. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki bilan Jamg'arma mablag'larining bo'sh qoldiqlarini ishonchli

⁵³ Mahmoud Mohiedin "Atlas of Sustainable Development Goals 2017 " 22-23 p.

⁵⁴ Mahmoud Mohiedin "Atlas of Sustainable Development Goals 2017 " 24-25 p.

boshqarish to‘g‘risida shartnomalar tuzadi. Jamg‘arma zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish bilan bog‘liq bo‘lgan boshqa funksiyalarni amalga oshiradi.

O‘zbekiston Respublikasining Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasini boshqarish bo‘yicha Kengash Jamg‘armaning yuqori boshqaruv organi hisoblanadi, uning tarkibi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlanadi. O‘zbekiston Respublikasining Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasini boshqarish bo‘yicha Kengash:

- Jamg‘arma faoliyatining asosiy yo‘nalishlarini ishlab chiqadi;
- Jamg‘armaning e‘lon qilingan ustav kapitalini qayta ko‘rib chiqish to‘g‘risida qaror qabul qiladi, biroq u O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 11-maydagи “O‘zbekiston Respublikasining Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasini tashkil etish to‘g‘risida” PF-3751-son farmonida belgilangan darajadan past bo‘lmasligi kerak;
- Jamg‘armaga mablag‘lar kelib tushishi va ulardan foydalanish prognozlarini ko‘rib chiqadi hamda ularni navbatdagi yilga mo‘jallangan makroiqtisodiy va pul-kredit ko‘rsatkichlarining asosiy parametrlari, Davlat byudjeti hamda Davlat investitsiya dasturi bilan bog‘liq holda belgilangan tartibda tasdiqlash
 - uchun kiritadi;
 - qarz olgan korxonalarni qayta moliyalashtirish (qo‘shma moliyalashtirish) uchun tijorat banklariga Jamg‘arma mablag‘larini berish muddatlari va shartlari bo‘yicha qarorlar qabul qiladi, xalqaro sarmoya bozorlarida amal qilayotgan foiz stavkalaridan kelib chiqib Jamg‘arma tomonidan berilayotgan mablag‘lar bo‘yicha foiz stavkalarining aniq miqdorlarini tasdiqlaydi;
 - kelajakda, birinchi navbatda qishloq hududlarida, yangi sanoat ishlab chiqarishlarini joylashtirish uchun ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish va tiklash loyihibalarini moliyalashtirish uchun imtiyozli kreditlarni

berish muddatlari va shartlari bo'yicha qarorlar qabul qiladi;

– davlatning tashqi qarzlarini bo'yicha xalqaro moliya institutlari va xorijiy kreditorlar oldidagi majburiyatlarni muddatidan oldin to'lash uchun O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga mablag'lari ajratib berish to'g'risida qarorlar qabul qiladi;

– yangi tashkil etilayotgan moliyaviy institutlar hamda iqtisodiyotning bazaviy tarmoqlarida xorijiy investitsiyalar ishtirokida strategik ahamiyatga ega bo'lgan korxonalarning ustav kapitaliga Jamg'arma mablag'lardan investitsiya kiritish bo'yicha qarorlar qabul qiladi;

– ayrim loyihalarning dastlabki yoki yakuniy texnik-iqtisodiy asoslarini ishlab chiqish uchun grantlar va foizsiz kreditlarni ajratish to'g'risida qarorlar qabul qiladi;

– yangi zamonaviy xorijiy texnologiyalar, texnika va uskunalar hamda strategik ahamiyatga ega bo'lgan boshqa tovarlarni tasdiqlangan davlat dasturlariga muvofiq xarid qilish uchun Hukumat qarorlari bo'yicha imtiyozli kreditlar berish to'g'risida qaror qabul qiladi;

– Jamg'armaning ijro etuvchi direksiysi faoliyati, ayniqsa Jamg'arma mablag'larning maqsadli yo'naltirilganligi, tijorat banklariga moliyalashtirishni o'z vaqtida ochish hamda ularga berilgan mablag'larning qaytarilishini ta'minlash ustidan nazoratni amalga oshiradi;

– Jamg'arma mablag'larning ishlatilishi to'g'risida Jamg'arma ijro etuvchi direktorining hamda qarz olgan korxonalar tomonidan Jamg'arma mablag'lardan samarali foydalaniishini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar to'g'risida manfaatdor vazirliklar, idoralar va tashkilotlar rahbarlarining hisobotlarini muntazam ravishda eshitib boradi;

– Jamg'armaga aktivlarni boshqarish, ekspertiza qilish va investitsiya loyihalarini moliyalashtirish sohasidagi yuqori malakali mutaxassislarni jalb qiladi.

Ijro etuvchi direksiya O'zbekiston Respublikasining Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasining ijroiya organi

hisoblanadi, uning tarkibi va soni o'rnatalgan tartibda belgilanadi. Jamg'armaning ijro etuvchi direksiyasi faoliyati bilan bog'liq xarajatlar Jamg'armani boshqarish bo'yicha Kengash tomonidan tasdiqlangan xarajatlar smetasi asosida Jamg'arma mablag'lari hisobidan qoplanadi. Ijro etuvchi direksiya:

- Jamg'armaga mablag'larning kelib tushish va ulardan foydalanish prognozlarini ishlab chiqadi;
- qarz oluvchi korxonalarni qayta moliyalashtirish uchun muddatli, to'lovli va qaytarish shartlari asosida tijorat banklariga moliyaviy mablag'larni taqdim etadi;
- kelajakda, birinchi navbatda qishloq hududlarida, yangi sanoat ishlab chiqarishlarini joylashtirish uchun ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish va tiklash loyihalarini moliyalashtirish uchun imtiyozli kreditlar berish to'grisida shartnomalar tuzadi;
- davlatning tashqi qarzları bo'yicha xalqaro moliya institutlari va xorijiy kreditorlar oldidagi majburiyatlarni muddatidan oldin to'lash uchun Moliya vazirligiga mablag'lar ajratadi;
- yangi tashkil etilayotgan moliyaviy institutlar hamda iqtisodiyotning bazaviy tarmoqlarida xorijiy investitsiyalar ishtirokida strategik ahamiyatga ega bo'lgan korxonalarning ustav kapitaliga Jamg'arma mablag'laridan investitsiya kiritadi;
- ayrim investitsiya loyihalarining dastlabki yoki yakuniy texnik-iqtisodiy asoslarini ishlab chiqish uchun loyiha tashabbuskorlariga grantlar va foizsiz kreditlarni, ajratilgan kreditlar miqdorini keyinchalik loyihaning umumiy qiymatiga va loyiha Jamg'arma kreditini jalb qilish yo'li bilan amalga oshirilgan taqdirda ajratilayotgan kreditning umumiy qiymatiga qo'shish sharti bilan berish to'grisida bitimlar tuzadi;
- yangi zamонавиј xorijiy texnologiyalar, texnika va uskunalar hamda strategik ahamiyatga ega bo'lgan boshqa tovarlarni tasdiqlangan davlat dasturlariga muvofiq Hukumat qarorlari bo'yicha xarid qilish uchun imtiyozli kreditlar beradi;

– Jamg’arma mablag’laridan maqsadli va samarali foydalanilishi, tijorat banklariga berilgan mablag’larning o’z vaqtida qaytarilishi ustidan tizimli ravishda monitoring olib boradi;

– tijorat banklarida ochilgan hisobvaraqlar holati va ular bo'yicha amalga oshirilayotgan operatsiyalar to'g'risidagi har qanday ma'lumotni olish huquqiga ega bo'lgan holda, qarz oluvchi korxonalar tomonidan Jamg’arma kreditlari bo'yicha majburiyatlarining bajarilishi masalalari yuzasidan ular faoliyatining monitoringini olib boradi;

– O'zbekiston Respublikasining Tiklanish va taraqqiyot jamg’armasi daromadlari va xaratjatlarining ijrosi to'g'risidagi hisobotni ishlab chiqadi va Jamg’armani boshqarish bo'yicha Kengash tomonidan ma'qullangandan so'ng uni belgilangan muddatlarda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Iqtisodiyot vazirligi va Hisob palatasiga taqdim etadi.

O'zbekiston Respublikasining Tiklanish va taraqqiyot jamg’armasining ijro etuvchi direktori O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimidan ozod etiladi, maqomi bo'yicha vazir o'rincosariga tenglashtiriladi. O'zbekiston Respublikasining Tiklanish va taraqqiyot jamg’armasining ijro etuvchi direktori:

– Jamg’armaga yuklatilgan vazifa va funksiyalarga binoan ijrochi direksiyaning faoliyatini tashkil etadi va shaxsan mas'ul bo'ladı, xodimlarning belgilangan cheklangan umumiyligi soni doirasida ijrochi direksiyaning shtat jadvalini shakllantiradi, Jamg’arma nomidan kredit, xo'jalik va mehnat shartnomalarini imzolaydi;

– Jamg’armani boshqarish bo'yicha Kengash bilan kelishgan holda Jamg’arma mablag’laridan maqsadli va samarali foydalanilishi ustidan belgilangan tartibda tekshiruvlar tashkil qiladi, ularning natijalarini ko'rib chiqadi va ular bo'yicha qarorlar qabul qiladi hamda aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan zarur choralarini ko'radi;

- qonun hujjatlarida ko'zda tutilgan boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasining Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi apparati tarkibida tegishli loyihalarini moliyalashtirish bo'yicha xulosa yoki tavsiyalar berishga mas'ul bo'lgan yuqori malakali ekspertlar guruhi tashkil qilinadi.

O'zbekiston Respublikasining Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasining huquqlari:

- tijorat banklari hamda qarz olgan tashkilotlarda Jamg'arma mablag'lardan maqsadli va samarali foydalanish ustidan tekshiruvlar o'tkazish;

- Jamg'arma mablag'larining maqsadli foydalaniishi monitoringini olib borish uchun zarur bo'ladigan ma'lumotlarni, jumladan, Jamg'arma tomonidan ajratilgan mablag'lar ishlatalishining holati va prognozi to'g'risidagi hamda boshqa ma'lumotlarni tijorat banklaridan olish;

- loyihalarning birlamchi texnik-iqtisodiy asoslanganligini ko'rib chiqish, shu jumladan Jamg'arma mablag'larining maqsadli va samarali foydalaniishi monitoringi hamda tekshiruvini olib borish maqsadida yuqori malakali mustaqil ekspertlar va soha mutaxassislarini jalg qilish.

O'zbekiston Respublikasining Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasining majburiyatları:

- Jamg'arma mablag'larini jalg etish va jamlashga qaratilgan ishlarning olib borilishini;

- Jamg'arma mablag'larining aniq belgilangan maqsadlarga yo'naltirilishini ta'minlash.

- Jamg'armani boshqarish bo'yicha Kengashga choraklik va yillik hisobotlarni belgilangan tartibda va muddatlarda taqdim etish.

8.2. O'zbekiston Respublikasining Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi mablag'larini shakllantirish manbalari va tartibi

O'zbekiston Respublikasining Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi mablag'larini shakllantirish manbalari quyidagilardan iborat:

- O'zbekiston Respublikasining asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognози va Davlat byudjeti parametrlarini tasdiqlash vaqtida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari bilan strategik resurslarga belgilanadigan chegara narxdan jahon narxining oshishi natijasida tushadigan mablag'lar;
- davlat mulkini xorijiy investorlarga chet el valyutasiga sotishda O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti daromadlarini shakllantirish chog'ida hisobga olingan hajmlardan ortiqcha tushadigan mablag'lar;
- Jamg'armaning aktivlarini boshqarishdan, shu jumladan Jamg'arma mablag'larining bo'sh qoldiqlarini joylashtirishdan keladigan daromadlar;
- qonun hujjatlariga muvofiq boshqa manbalar.

O'zbekiston Respublikasining Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasining mablag'lari uning O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankida ochilgan hisobvaraqlarida xorijiy valyutada shakllantiriladi. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki O'zbekiston Respublikasining Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi hisobvaraqlariga tushgan mablag'larni ular tushgan kuni amalda bo'lgan Markaziy bankning al mashuv kursi bo'yicha chet el valyutasiga konvertatsiya qiladi va O'zbekiston Respublikasining Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasining valyuta hisobvarag'iga o'tkazadi. Soliq va to'lovlarning ayrim turlari bo'yicha mablag'larni O'zbekiston Respublikasining Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi hisobvarag'iga o'tkazish belgilangan tartibda amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasining Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi mablag'lari tushumi manbalari va ulardan foydalanish yo'nalishlari har yili belgilangan tartibda

O'zbekiston Respublikasi Investitsiya dasturiga kiritiladi va Jamg'arma balansida aks ettiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasining ijro etuvchi direksiyasi O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasi va O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga:

- har yili 1 iyulgacha O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasining kelgusi yil uchun daromadlari va xarajatlari loyihasini;

- yilning har choragida hisobot choragidan keyingi oyning 25-kunigacha O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi daromadlari va xarajatlarining ijrosi to'g'risidagi hisobotni taqdim etadi.

8.3. O'zbekiston Respublikasining Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi mablag'laridan foydalanish tartibi

O'zbekiston Respublikasining Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi loyihalarni moliyalashtirish (qo'shma moliyalashtirish) quyidagi yo'llar bilan amalgalashiriladi:

- Jamg'armani boshqarish bo'yicha Kengash qarori bilan tasdiqlanadigan ro'yxatga kiritilgan vakolatlari banklarning (keyingi o'rnlarda — tijorat banklari) buyurtmanomalariga binoan — muddatli, to'lovli va qaytarish asosida kreditlar berish va kredit liniyalarini ochish;

- Vazirlar Mahkamasining qarorlari bo'yicha ayrim investitsiya loyihalarining dastlabki yoki yakuniy texnik-iqtisodiy asoslarini ishlab chiqish uchun Iqtisodiyot vazirligi buyurtmanomalariga binoan — grantlar yoki foizsiz kreditlar berish (yiliga Jamg'armaning o'tgan yildagi foydasining 5 foizidan ko'p bo'lмаган miqdorda);

- O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan kelishilgan tijorat banklari va qarz oluvchining buyurtmanomalari bo'yicha hamda Hukumat qarorlari asosida — Davlat byudjeti mablag'lari hisobidan qoplanadigan imtiyozli kreditlar berish;

– tashkil etilayotgan korxona va tashkilotlarning ta’sis hujjatlariga va ularni tashkil etish to‘g‘risidagi Hukumat qarorlariga muvofiq — yangi tashkil etilayotgan moliyaviy institutlar hamda iqtisodiyotning bazaviy tarmoqlarida xorijiy investitsiyalar ishtirokida strategik ahamiyatga ega bo‘lgan korxonalarining ustav kapitaliga investitsiya kiritish (korxona yoki tashkilot ustav kapitali (fondi)ning 25 foizidan ko‘p bo‘lmagan miqdorda).

Shuningdek, Jamg‘arma mablag‘lari quyidagi larda ishlatalishi mumkin:

- Moliya vazirligining buyurtmanomalari bo‘yicha va tegishli Hukumat qarorlariga asosan — davlatning tashqi qarzları bo‘yicha xalqaro moliya institutlari va xorijiy kreditorlar oldidagi majburiyatlarni muddatidan oldin to‘lash;

- tasdiqlangan davlat dasturlariga muvofiq Hukumat qarorları bo‘yicha — yangi zamonaviy xorijiy texnologiyalar, texnika va uskunalar hamda strategik ahamiyatga ega bo‘lgan boshqa tovarlarni xarid qilish uchun imtiyozli kreditlar berish.

O‘zbekiston Respublikasining Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi mablag‘lari quyidagi maqsadlar uchun foydalaniadi:

- avvalo yoqilg‘i-energetika kompleksi, kimyo sanoati, mashinasozlik, rangli metallurgiya va iqtisodiyotning boshqa bazaviy tarmoqlarida, shuningdek, transport va telekommunikatsiya sohasida Davlat investitsiya dasturiga kiritilgan g‘oyat muhim loyihalarni moliyalashtirish, shu jumladan xalqaro va xorijiy moliyaviy institutlar ishtirokidagi loyihalarda O‘zbekiston Respublikasi ulushini qo‘shma moliyalashtirish;

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti yoki O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan modernizatsiyalash, texnik va texnologik qayta jihozlash dasturlari doirasida tijorat banklariga xorijiy valyutada ochilayotgan kredit liniyalari orqali investitsiya loyihalarini jadal moliyalashtirish hamda amalga oshirish;

- ayrim loyihalarning dastlabki yoki yakuniy texnik-iqtisodiy asoslarini ishlab chiqishni grant asosida yoki foizsiz kreditlar ajratish yo'li bilan moliyalashtirish;
- tijorat banklari bilan birgalikda qarz oluvchi korxonalarning investitsiya dasturi (biznes-rejalari)ni, shu jumladan ishlab chiqarishni texnik jihatdan qayta jihozlash, ishlab chiqarish quvvatlarining ishlatilishini ko'paytirish, raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish va uni eksport qilish hajmlarini oshirish hamda qo'shilgan qiymat o'sishini ta'minlashga imkoniyat beruvchi loyihalarni qo'shma moliyalashtirish;
- Jamg'arma boshqaruvi va ijro etuvchi apparatining ta'minoti bilan bog'liq bo'lgan xarajatlarni qoplashga.

Mablag'larni berish muddati va shartlari O'zbekiston Respublikasining Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasini boshqarish bo'yicha Kengash qarori bilan belgilanadi. Jamg'arma tomonidan beriladigan kredit resurslari bo'yicha foiz stavkasi yiliga 6 foizgacha tabaqaqlashtirilgan miqdorlarda belgilanadi. Jamg'armaning kredit resurslari shartnomada belgilangan chet el valyutasida ajratiladi. Tijorat banki marjasining eng yuqori chegarasi Jamg'arma va tijorat banki o'rtaida tuziladigan kredit shartnomasida har bir loyiha bo'yicha alohida belgilanadi. Ajratilgan mablag'larning qaytarilishi tijorat banklari tomonidan kechiktirilgan holatlarda har bir kechiktirilgan kun uchun muddati kechiktirilgan to'lovlar bo'yicha qarzdorlik summasining 0,01 foizi miqdorida (qarzga olingan mablag'lar hajmining 10 foizidan oshmagan holda) penya undiriladi.

O'zbekiston Respublikasining Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi mablag'lari hisobidan birgalikda moliyalashtiriladigan import kontraktlari bo'yicha avans to'lovlarini to'lash, qoidaga ko'ra, yetkazib beruvchi tomonidan qayta moliyalashtiruvchi tijorat bankiga birinchi darajali xorijiy bank tomonidan, avans to'lovini qaytarishga berilgan kafolatnomani taqdim etgan holda amalga oshiriladi. Tijorat banklariga ajratiladigan kredit mablag'larning hajmi ularning buyurtmanomalari asosida

belgilanadi va ushbu buyurtmanomalarda qarz oluvchi korxonalarining kredit olish uchun tijorat banki tomonidan ma'qullangan loyihalar mablag'larining umumiy miqdori aks ettiriladi. Tijorat banklariga har bir loyiha (modernizatsiya, qayta qurish yoki ishlab chiqarishni texnik jihatdan qayta qurollantirish) uchun beriladigan kredit hajmi loyiha qiymati umumiy miqdorining 75 foizidan oshmasligi kerak.

Qarz oluvchi korxonalar (tashkilotlar)ga kredit berish O'zbekiston Respublikasining Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasini boshqarish bo'yicha Kengash tomonidan tasdiqlanadigan O'zbekiston Respublikasining Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi mablag'lari hisobidan moliyalashtirish uchun investitsiya loyihalarini tanlab olish shartlari, ko'rib chiqish tartibi va ekspertizasi to'g'risidagi nizom va O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankning hujjatlari va boshqa qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshirib boriladi. O'zbekiston Respublikasining Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasini boshqarish bo'yicha Kengash tomonidan tijorat banklarining buyurtmanomalarini ko'rib chiqish muddati ariza olingan kundan boshlab 30 kundan oshmasligi lozim. Ushbu muddatda Jamg'armani boshqarish bo'yicha Kengash tijorat banki tomonidan taklif qilingan loyihani moliyalashtirish to'g'risida ijobiy qaror chiqaradi yoki tijorat bankiga yozma ravishda asoslangan raddiyanoma beradi. Jamg'armani boshqarish bo'yicha Kengashning ijobiy xulosasi qabul qilinganidan so'ng Jamg'armaning ijro etuvchi direksiyasi 5 ish kuni mobaynida tijorat banki bilan kredit shartnomasini tuzadi. Kredit shartnomasida tijorat bankiga berilayotgan kredit resurslarining miqdori, foiz stavkasi va maqsadi (yo'naltirish manzili), muddati va shartlari, shuningdek, tomonlarning qonun hujjatlari talablariga muvofiq huquq va burchlari hamda boshqa masalalar aks ettiriladi. Jamg'armani boshqarish bo'yicha Kengash tomonidan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Iqtisodiyot vazirligining buyurtmanomalarini ko'rib chiqish muddati buyurtmanoma olingan sanadan boshlab 15 kundan

oshmasligi lozim. Jamg'armani boshqarish bo'yicha Kengashning ijobili qarori qabul qilinganidan so'ng Jamg'armaning ijro etuvchi direksiyasi 5 ish kuni mobaynida taqdim etilgan buyurtmanoma va Kengash qaroriga binoan:

1) Moliya vazirligi bilan — qaytarib bermaslik asosida buyurtmanomada va ushbu nizomda belgilangan maqsadlar uchun mablag' ajratish to'g'risida bitim;

2) Iqtisodiyot vazirligi va tegishli loyihaning tashabbuskori bilan — buyurtmanomada va ushbu nizomda belgilangan maqsadlar uchun grant asosida mablag' ajratish yoki foizsiz kredit berish to'g'risida bitim tuzadi.

O'zbekiston Respublikasining Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasining vaqtincha bo'sh mablag'lari ularni birinchi darajali xalqaro moliya vositalariga joylashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankiga ishonchli boshqaruvi uchun belgilangan tartibda o'tkaziladi. Jamg'arma mablag'lari bo'sh qoldiqlarining umumiy hajmi uning jami aktivlarining kamida qirq foizini tashkil etishi lozim. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki har chorakda Jamg'armani boshqarish bo'yicha Kengashga Jamg'arma mablag'larini ishonchli boshqarish natijalari, jumladan operatsiyalar bo'yicha daromadlilik, hisobot davrida olingan daromad miqdori, joylashtirilgan Jamg'arma mablag'lari portfeli tarkibi, foiz stavkalarining joriy holati to'g'risidagi ma'lumotlarni taqdim etadi.

8.4. O'zbekiston Respublikasining Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasiga mablag'lar kelib tushishi va ulardan foydalanish proqnozini tayyorlash, ko'rib chiqish hamda tasdiqlash

O'zbekiston Respublikasining Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasining ijro etuvchi direksiyasi har yili O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Iqtisodiyot vazirligi, Markaziy banki, tijorat banklari va boshqa idoralardan olingan dastlabki ma'lumotlar hamda hisobot

davrida o'tkazilgan tizimli monitoring asosida keyingi kalendar yil uchun Jamg'armaga mablag'lар kelib tushishi va ulardan foydalanish proqnozi loyihasini ishlab chiqadi hamda uni Jamg'armani boshqarish bo'yicha Kengash tasdiqlashi uchun taqdim etadi. Jamg'arma mablag'lарining kelib tushishi va ulardan foydalanishning proqnoz loyihalarini tayyorlash, ko'rib chiqish va tasdiqlashda O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti va Investitsiya dasturining kelgusi yil parametrlarini ishlab chiqish va tasdiqlash bilan uzviy bog'liq holda amalga oshiriladi. Respublikaning strategik resurslari bo'yicha jahon bozorlaridagi qulay narxlar natijasida hosil bo'ladigan proqnozdan yuqori tushumlarning pul massasi hajmiga va infliyatsiya darajasiga ta'sirini bartaraf qilish maqsadida Jamg'arma mablag'lарidan foydalanishning yuqori chegarasi assosiy makroiqtisodiy va pul-kredit ko'rsatkichlarining proqnoz parametrlaridan kelib chiqqan holda ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi. Jamg'arma mablag'lari kelib tushishi va ulardan foydalanish proqnozlarida umuman proqnoz qilinayotgan yil uchun, shu jumladan choraklar bo'yicha quyidagilar aks ettiriladi:

– har bir manba bo'yicha mablag' tushumlarining umumiyligi hajmi;

– ustuvor investitsiyaviy va ijtimoiy yo'naltirilgan loyihalarni, qarz oluvchi korxonalarining investitsiya dasturlarini moliyalashtirish, olinayotgan uzoq muddatli kredit va investitsiyalarga xizmat ko'rsatish hamda Jamg'armaning ijro etuvchi direksiysi faoliyatini moliyaviy ta'minlash bilan bog'liq xarajatlarni qoplashga mablag'lар ajratib berish bo'yicha sarf-xarajatlar.

O'zbekiston Respublikasining Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasining ijro etuvchi direksiysi zimmasiga Jamg'arma mablag'lарining qat'yan maqsadli va qonuniy yo'naltirilishi, shuningdek, buxgalterlik hisobining yuritilishi va Jamg'arma faoliyati bo'yicha hisobotlarning tuzilishi uchun javobgarlik yuklanadi. Tijorat banklari Jamg'arma mablag'lарidan to'g'ri va maqsadli foydalanish hamda ularni o'z vaqtida qaytarish uchun mas'uldirlar.

Jamg'armaning ijro etuvchi direksiyasi Jamg'arma mablag'larning maqsadli yo'naltirilishi monitoringini doimiy ravishda belgilangan tartibda o'tkazib boradi. Tijorat banklari tomonidan Jamg'arma mablag'larning maqsadga muvofiq bo'lмаган holda foydalanish holatlari aniqlanganda, maqsadga nomuvofiq foydalaniлган mablag'larning umumiy hajmi muddatidan oldin undirib olinib, Jamg'arma hisobvarag'iga o'tkaziladi hamda Jamg'arma va tijorat banki o'rтasida tuzilgan shartnomada belgilangan jarima sanksiyalari qo'llaniladi. Jamg'arma mablag'larning Jamg'arma ijro etuvchi direksiyasi tomonidan qonuniy va qat'yan maqsadli yo'naltirilishi ustidan nazorat Jamg'armani boshqarish bo'yicha Kengash tomonidan amalga oshiriladi. Jamg'armaning har yilgi audit mustaqil xalqaro auditor tomonidan amalga oshiriladi, Jamg'arma mablag'larning shakllantirilishi va foydalaniлши O'zbekiston Respublikasi hisob palatasi tomonidan tekshirib turiladi. Tijorat banklari tomonidan o'z vaqtida qaytarilmagan Jamg'arma mablag'lari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda undiriladi.

Bahs-munozara va nazorat uchun savollar

1. O'zbekiston Respublikasining Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasining asosiy vazifalarini sanab o'ting.
2. O'zbekiston Respublikasining Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasining mablag'lardan foydalanish yo'nalishlarini izohlang.
3. O'zbekiston Respublikasining Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi daromadlarini shakllantirish manbalarini sanab o'ting.
4. O'zbekiston Respublikasining Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi mablag'larni sarflash tartibini izohlang.

**9-BOB. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR
MAHKAMASI HUZURIDAGI SUG'ORILADIGAN
YERLARNING MELIORATIV HOLATINI YAXSHILASH
JAMG'ARMASI**

Reja:

9.1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash jamg'armasining zarurligi, vazifa va funksiyalari

9.2. Sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash jamg'armasining moliyaviy manbalari va xarajat yo'naliishlari

9.3. Sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash jamg'armasi faoliyatini boshqarish

9.1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash jamg'armasining zarurligi, vazifa va funksiyalari.

Respublikamiz sharoitida sug'oriladigan maydonlardan samarali foydalanish, sug'oriladigan yerlarning unumdorligini yaxshilash va qishloq xo'jaligi ekinlarining hosili va sifatini oshirish – yerlarning meliorativ holatiga bevosita bog'liqdir. Hozirgi davrda respublikamizdagi mavjud 4,3 million hektar sug'oriladigan maydonlarning qariyb 2,0 million hektari (46,7%) turli darajada sho'rangan. Jumladan, 1 million 324 ming hektar (30,9 %) kam, 570 ming hektari (13,3%) o'rta va 105,5 ming hektari (2,5%) kuchli sho'rangan yerlardir. Ushbu sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilab borish va yerosti sizot suvlari sathini me'yor darajasida ushlab turish uchun 140 ming kilometr uzunlikdagi kollektor-drenaj tarmoqlari, 3475 dona vertikal drenaj quduqlari, 301 dona meliorativ nasos stansiyalar hamda 24839 dona meliorativ kuzatuv

quduqlari xizmat ko'rsatib kelmoqda. Muhtaram O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yilning 29-oktyabrdagi "Yerlarning meliorativ holatini yaxshilash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni qabul qilindi. Mazkur farmon ijrosini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzurida Sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash jamg'armasi, "O'zmeliomashlizing" davlat lizing kompaniyasi, "Melioratsiya va boshqa suv xo'jaligi ishlarini bajarishga ixtisoslashtirilgan 48 dona davlat unitar korxonalarining tashkil etilishi bu boradagi ishlar ko'lamini yanada oshirish imkoniyatini yaratdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yerlarning meliorativ holatini yaxshilash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2007-yil 29-oktyabrdagi PF-3932-son farmonini bajarish yuzasidan hamda melioratsiya ishlarini moliyalashtirishning prinsipial yangi mexanizmini joriy etish maqsadida 2007-yil 31-oktyabrdagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-718-sonli qarori qabul qilindi va unga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash jamg'armasini boshqarish departamenti tashkil etildi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008-yil 28- noyabrdagi 261-son "Sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash dasturlarini shakllantirish va amalga oshirishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga asosan Sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash quyidagi prinsipial qoidalar asosida amalga oshiriladi:

- meliorativ tarmoqlarning samarali ishslashini ta'minlovchi mexanizmni sifat jihatidan takomillashtirish hamda kollektor-drenaj tarmoqlari orqali drenaj va tashlama suvlarni normativ miqdorda chiqarib tashlash;

- sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash muammosi umuman kompleks holda, irrigatsiya-drenaj tizimi bilan birqalikda, eng kam ekologik oqibatlar bilan yuqori hosil olishga qaratilgan sug'orishning

yuvish rejimi va sug'oriladigan yerlarning qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish tizimi yaratilishi sifatida qaralishi zarur;

– sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini hamda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish tizimini yaxshilash bo'yicha barcha chora-tadbirlar tashkiliy-texnologik, iqtisodiy va qurilish-texnik choralarни ko'zda tutgan holda, suvni tejash orqali, shuningdek, aniq tabiiy-texnik tizimlarda maqbul meliorativ rejimlarni barpo etish yo'li bilan iqtisodiy maqsadga muvofiqlikni hisobga olgan holda asoslanishi kerak;

– sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash tizimi har xil tabiiy shart-sharoitlar uchun talab qilinadigan tuproqqa ishlov berish texnologiyalarini ta'minlovchi agrotexnik usullarni — takroriy va oraliq ekinlar ekishni joriy qilib almashlab ekishni tashkil qilish, tuproq unumdarligini oshiruvchi dukkakli don ekinlari ekishni rag'batlantirish, aralash ekinlarni madaniylashtirib, tuproqni mulchalashni o'z ichiga olishi kerak;

– sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilashga va unumdarligini oshirishga yo'naltirilgan ekinlarni almashlab ekishning yuqorida ko'rsatib o'tilgan tizimini amalgalash, suvni hisobga olish, rejalashtirish hamda suvni sug'orish va kollektor drenaj tarmog'ida taqsimlashning mukammal tizimini yaratish, kollektor-drenaj suvlaridan konturlar ichida sug'orishga ishlashda foydalanish, sho'rangan yerlarning sho'rini yuvishni takomillashtirish yo'li bilan ta'minlanishi kerak;

– meliorativ va tabiiy-xo'jalik shart-sharoitlari o'zgarishlarini hisobga olgan holda qo'llaniladigan meliorativ chora-tadbirlar kompleksiga tuzatish kiritish;

– irrigatsiya-melioratsiya tizimining ishonchli ishlashini hisobga olish va baholash, ularni ta'mirlash, tiklash, qurish va rekonstruksiya qilish zaruriyatini aniqlash sug'oriladigan yerlarning maqbul meliorativ holatini ta'minlash va saqlash nuqtayi nazaridan amalga oshirilishi kerak.

Meliorativ chora-tadbirlarni amalga oshirishning ustuvorligi va navbatliligi hududning meliorativ, ekologik va boshqa tabiiy-xo'jalik shart-sharoitlari hisobga olingan holda belgilanadi. Sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash Davlat dasturining tasdiqlangan parametrlari asosida har yili:

- meliorativ obyektlarni qurish, rekonstruksiya qilish, ta'mirlash va tiklash loyihibarining;
- loyiha-qidiruv va ilmiy-tadqiqot ishlarining;
- meliorativ va boshqa texnika, mashinalar, uskunalar va boshqa mexanizatsiya vositalari sotib olishning;
- kelgusi yildagi boshqa meliorativ chora-tadbirlarning hududiy aniq dasturlari ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi.

Davlat dasturi:

- meliorativ obyektlarni qurish va rekonstruksiya qilish;
- meliorativ obyektlarda ta'mirlash-tiklash ishlari (joriy va mukammal ta'mirlash);
- meliorativ va boshqa suv xo'jaligi ishlarini bajarishga ixtisoslashtirilgan qurilish tashkilotlari, suv xo'jaligi ekspluatatsiya tashkilotlari, suv iste'molchilar uyushmalari va fermer xo'jaliklari, shuningdek, boshqa tashkilotlarning meliorativ va boshqa texnika, mashinalar, uskunalar va boshqa mexanizatsiya vositalari parkini mustahkamlash;
- sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash bo'yicha boshqa chora-tadbirlar proqnoz parametrlarini o'z ichiga oladi.

Davlat dasturi sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash vazifalarini hal etishga kompleks va tizimli yondashish asosida ishlab chiqilgan hududiy dasturlar asosida shakllantiriladi va Hukumatning yoki O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan tasdiqlanadi. Hududlarning meliorativ, ekologik va boshqa tabiiy-xo'jalik shart-sharoitlarining o'zgarishi mumkinligi, meliorativ obyektlarning asoslashlari va ustuvorligi hisobga olingan holda Jamg'arma Kengashining qarori bilan Davlat dasturiga tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilishi mumkin. Davlat dasturining tasdiqlangan maqsadli

parametrlari asosida, aniq hududlardagi real meliorativ shart-sharoitlar, shuningdek, meliorativ ishlarni moliyaviy ta'minlash proqnozi hisobga olingan holda, kelgusi yil uchun sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash chora-tadbirlarining obyektlar bo'yicha ro'yxatini o'z ichiga oladigan loyihalarning hududiy aniq dasturlari ishlab chiqiladi. Meliorativ obyektlarni qurish, rekonstruksiya qilish, ta'mirlash va tiklash, loyiha-qidiruv hujjatlarini va ilmiy-tadqiqot ishlarini ishlab chiqish, shuningdek, kelgusi yilda meliorativ va boshqa texnika, mashinalar, uskunalar va boshqa mexanizatsiya vositalari sotib olish loyihalarining hududiy aniq dasturlari Jamg'arma Kengashi tomonidan tasdiqlanadi.

Hududiy aniq dasturlarni shakllantirish. Joylarda haqiqiy meliorativ shart-sharoitlarni o'rganish, meliorativ obyektlarni qurish, rekonstruksiya qilish, ta'mirlash va tiklash, meliorativ va boshqa texnika, mashinalar, uskunalar va boshqa mexanizatsiya vositalari xarid qilish va boshqa meliorativ chora-tadbirlar bo'yicha loyihalarning aniq dasturlarini shakllantirish bo'yicha takliflarni tayyorlash uchun har yili Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va viloyatlar hokimliklarining qarorlari bilan maxsus ishchi guruhlar tashkil etiladi. Ishchi guruhlar alohida meliorativ tizimlar bo'yicha tuziladi.

Kelgusi yil uchun sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilashning hududiy aniq dasturi har yili 25 maygacha bo'lgan muddatda havza boshqarmasi tomonidan rasmiy ravishda belgilangan tartibda ko'rib chiqish uchun O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligiga yuboriladi. O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligiga taqdim etiladigan hujjatlar ro'yxati:

– kelgusi yil uchun Qoraqalpog'iston Respublikasi va tegishli viloyat sug'oriladigan yerlarining meliorativ holatini yaxshilash bo'yicha hududiy aniq dastur, shu jumladan tumanlarning takliflari;

– sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash dasturlarini muhokama qilish bo'yicha majlislarning tasdiqlangan bayonnomalarini;

– har bir tumanning asosiy meliorativ tizimlari, meliorativ obyektlarni qurish, rekonstruksiya qilish, ta'mirlash va tiklash bo'yicha tizimli loyihalarga kiradigan meliorativ nasos stansiyalar (agregatlar), vertikal drenaj quduqlar, kuzatish tarmoqlari ko'rsatilgan sxematik xaritasini;

– hududdagi sug'oriladigan yerlarning meliorativ holati to'g'risidagi tahliliy ma'lumotnoma, har bir loyihaning ustuvorligini asoslash, ularning dastlabki texnik ko'rsatkichlari hamda amalga oshirishdan kutilayotgan natijalarni o'z ichiga oladi.

O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi har yili:

1 iyungacha bo'lgan muddatda – mulohazalar va tavsiyalari hisobga olingan holda qayta ishlangan kelgusi yil uchun sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilashning hududiy aniq dasturlarini umumlashtiradi;

5 iyungacha bo'lgan muddatda — O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Iqtisodiyot vazirligi, Investitsiyalar bo'yicha davlat qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash jamg'armasini boshqarish departamenti (keyingi o'rnlarda Departament deb ataladi), "O'zmeliomashlizing" davlat unitar korxonasiga (keyingi o'rnlarda "O'zmeliomashlizing" DUK deb ataladi) kelgusi yil uchun respublikaning sug'oriladigan yerlari meliorativ holatini yaxshilash bo'yicha takliflar kiritadi.

O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi tomonidan kiritilgan kelgusi yil uchun respublikaning sug'oriladigan yerlari meliorativ holatini yaxshilash bo'yicha takliflar:

– meliorativ obyektlarni qurish va rekonstruksiya qilish bo'yicha loyihalarning aniq dasturini;

- meliorativ obyektlarni ta'mirlash va tiklash loyihibalarining aniq dasturini;
- loyiha-qidiruv va ilmiy-tadqiqot ishlarining aniq dasturini;
- istisno tariqasida, avval qabul qilingan davlat dasturiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish bo'yicha asoslangan takliflarni;
- meliorativ obyektlardagi avariya-tiklash ishlari va oldindan ko'rish mumkin bo'lмаган ishlarning xarajatlari smetalari bo'yicha takliflar;
- meliorativ va boshqa texnika, mashinalar, uskunalar va boshqa mexanizatsiya vositalarini "O'zmeliomashlizing" DUK bilan kelishilgan holda, viloyatlar va texnika turlari bo'yicha taqsimlash takliflari.

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi, Moliya vazirligi va Investitsiyalar bo'yicha davlat qo'mitasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligining kelgusi yil uchun sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash yuzasidan takliflari bo'yicha o'z xulosalarini har yili 15 iyungacha Departamentga yuboradi. "O'zmeliomashlizing" DUK meliorativ va boshqa texnika, mashinalar, uskunalar va boshqa mexanizatsiya vositalarini lizingga oluvchilarning manzili dasturi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi takliflari asosida har bir tashkilotning buyurtmanomasi va moliyaviy ahvolini, ularning lizing mablag'larini qaytarish qobiliyatini o'rganadi hamda ularga meliorativ va boshqa texnika, mashinalar, uskunalar va boshqa mexanizatsiya vositalarini lizing asosida yetkazib berishning maqsadga muvofiqligini aniqlaydi.

Departament 20 iyungacha bo'lgan muddatda kelgusi yil uchun sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligining takliflarini, Iqtisodiyot vazirligi, Moliya vazirligi, Investitsiyalar bo'yicha davlat qo'mitasi, "O'zmeliomashlizing" DUKning xulosalarini o'rganadi va umumlashtirilgan takliflar tayyorlaydi.

Departament:

– O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan kelishgan holda Iqtisodiyot vazirligiga — kelgusi yil va keyingi yillar uchun Investitsiya dasturini shakllantirish maqsadida melioratsiya obyektlarini qurish va rekonstruksiya qilish loyihamining manzilli dasturi bo‘yicha takliflar kiritadi;

– Jamg‘arma Kengashiga — 1 iyulgacha bo‘lgan muddatda kelgusi yil uchun umumlashtirilgan takliflar kiritadi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash jamg‘armasi (keyingi o‘rinlarda Jamg‘arma deb ataladi) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 29-oktyabrdagi “Yerlarning meliorativ holatini yaxshilash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-3932-son farmoni bilan tashkil etilgan hamda sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilashga va meliorativ texnikani sotib olishga ajratiladigan maqsadli moliyaviy resurslarni jamlovchi davlat organi hisoblanadi.

Sug‘oriladigan yerlarni meliorativ jihatdan yaxshilash dasturlari (loyihalari)ni hamda meliorativ obyektlarning zarur darajadagi texnik holatini ta‘minlashga yo‘naltirilgan tadbirlarni, moliyalashtirish, shuningdek, meliorativ texnikani sotib olish uchun mablag‘larni jamlash va ulardan samarali foydalanish jamg‘arma faoliyatining maqsadi hisoblanadi.

Quyidagilar mazkur Jamg‘armaning asosiy *vazifalari* deb hisoblanadi:

– byudjet va byudjetdan tashqari manbalar hisobidan melioratsiya ishlarini o‘tkazish uchun mo‘jallangan mablag‘larni to‘la hajmda Jamg‘arma hisobvarag‘ida jamlash;

– O‘zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo‘jaligi vazirligi, Iqtisodiyot vazirligi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar hokimliklari hamda ixtisoslashtirilgan tashkilotlar bilan birgalikda sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilashning

uzoq muddatli va o'rta muddatli Davlat dasturlarini ishlab chiqish;

– tasdiqlangan dasturlarga muvofiq, melioratsiya ishlarini, magistral (viloyatlararo), tumanlararo va xo'jaliklararo kollektor-drenaj tarmoqlarini mukammal ta'mirlash va tiklash maqsadida joriy ta'mirlash ishlarini tashkil qilish hamda tizimli asosda aniq, maqsadli moliyalashtirish;

– yerlarning meliorativ holatini yaxshilash hisobiga ularning unumdorligini oshirish borasidagi ishlarni moliyalashtirish yo'li bilan qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilariga davlat madadini ko'rsatish;

– melioratsiya texnikasini, jumladan, lizing shartlari asosida sotib olish uchun qaytarib berish asosida mablag'lar ajratish yo'li bilan suv xo'jaligi tashkilotlarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish;

– Jamg'armaning ajratib berilgan moliyaviy mablag'laridan maqsadli, manzilli va samarali foydalanilishi ustidan doimiy asosda monitoringni amalga oshirish.

○ Jamg'arma o'z zimmasiga yuklatilgan vazifalardan kelib chiqqan holda quyidagi *funksiyalarni* bajaradi:

– konsolidatsiya qilingan Davlat byudjeti loyihasiga kiritish uchun daromadlar va xarajatlarning har yilgi balanslari loyihalarini ishlab chiqib, belgilangan tartibda va muddatlarda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga taqdim etadi;

– Jamg'arma bo'yicha kelgusi yilning har bir choraklariga taqsimlangan xarajatlarning tasdiqlangan parametrini O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligiga, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashiga va viloyat hokimliklariga yetkazadi;

– Jamg'arma daromadlari va xarajatlari hisobini yuritadi;

– meliorativ obyektlarini qurish va rekonstruksiya qilish uchun loyihalash hujjatlarini ishlab chiqish, investitsiya loyihalarini, jumladan, xorijiy investitsiyalarni jalb etgan

holda amalga oshirish yuzasidan texnik topshiriqlarni beradi va tasdiqlaydi;

– meliorativ obyektlarni loyihalash, qurilish, rekonstruksiya qilish, shuningdek, magistral kollektorlarni ta'mirlash va tiklash bo'yicha loyihalash va tender hujjatlarini belgilangan tartibda ekspertizadan o'tkazishni tashkil etadi;

– meliorativ obyektlarni qurish va rekonstruksiya qilish, shuningdek, magistral kollektorlarni ta'mirlash va tiklash bo'yicha aniq manzilli ro'yxatlarni tuzadi va belgilangan tartibda tegishli idoralarga tasdiqlash uchun kiritadi;

– meliorativ obyektlarni rekonstruksiya qilish va qurish bo'yicha loyiha-qidiruv ishlari, shuningdek, tegishli ilmiytadqiqot ishlarining aniq manzilli ro'yxatlarini belgilangan tartibda tasdiqlaydi;

– O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligining Qurilayotgan korxonalar birlashgan direksiyalari (QKBD) taqdimnomasi bo'yicha meliorativ obyektlarda ta'mirlash-tiklash ishlarining xarajatlar smetasi va manzilli dasturlarini kelishib oladi;

– QKBD taqdimnomasi bo'yicha avariya-tiklash ishlari uchun, shuningdek, meliorativ obyektlarni ko'zda tutilmagan holda ta'mirlash va tiklash ishlari uchun zaxira xarajatlari smetalarini tasdiqlaydi;

– meliorativ obyektlarni rekonstruksiya qilish va qurish, magistral (viloyatlararo) kollektorlarni ta'mirlash-tiklash bo'yicha buyurtmachi vazifasini bajaradi;

– QKBD buyurtmachi bo'lgan meliorativ obyektlarning ta'mirlash-tiklash ishlarini moliyalashtiradi, shuningdek, qaytarib berish sharti bilan melioratsiya texnikasi, mashina va mexanizmlarni sotib oladi;

– ta'mirlash-tiklash, loyiha-qidiruv ishlarini o'tkazish bo'yicha QKBD buyurtmachi vazifasini bajarishi ustidan nazorat olib boradi;

– meliorativ obyektlarni rekonstruksiya qilish va qurish, shuningdek, magistral kollektorlarda ta'mirlash-tiklash ishlarini amalga oshirish bo'yicha tender (tanlod)

savdolarini belgilangan tartibda o'tkazadi, tanlov savdolari g'oliblari bilan belgilangan tartibda shartnomalar tuzadi;

– tumanlararo va xo'jaliklararo meliorativ obyektlarda ta'mirlash-tiklash ishlari bo'yicha QKBD tomonidan tashkil etiladigan tender (tanlod) savdolarida belgilangan tartibda qatnashadi;

– rekonstruksiya qilish va qurish, ta'mirlash va tiklash, melioratsiya texnikasini sotib olish ustidan moliyaviy nazoratni amalga oshiradi;

– magistral (viloyatlararo) meliorativ obyektlarni rekonstruksiya qilish, qurish va ta'mirlash-tiklash ishlari ustidan texnik nazoratni amalga oshiradi, shuningdek, ularning belgilangan tartibda qabul qilib olishlarini ta'minlaydi;

– tumanlararo va xo'jaliklararo meliorativ obyektlarni ta'mirlash va tiklash, shuningdek, ularni qabul qilib olish ishlari ustidan texnik nazoratni amalga oshirishda qatnashadi;

– Jamg'arma mablag'larining maqsadli va samarali sarflanishi ustidan belgilangan tartibda nazoratni amalga oshiradi;

– Jamg'arma mablag'laridan maqsadli va samarali foydalanishi masalalari bo'yicha muntazam ravishda nazorat o'lchovlarini amalga oshiradi;

– Jamg'arma mablag'laridan foydalanish bo'yicha aniqlangan qonun buzilishlari va kamchiliklarni bartaraf etish, shuningdek, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tegishli sanksiyalarini o'rnatilgan tartibda belgilash bo'yicha takliflar kiritadi;

– Jamg'arma daromadlari va xarajatlari bo'yicha normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqadi va tegishli organlarga tasdiqlash uchun kiritadi;

– aniq manzilli ro'yxatlarga kiritilgan meliorativ obyektlarda bajarilgan ishlarni belgilangan tartibda moliyalashtiradi.

Jamg'arma quyidagi *huquqlarga* ega:

- bajarilgan meliorativ ishlar va boshqa holatlarni nazorat tartibida o'lchashda vazirlik va idoralarning mutaxassislarini belgilangan tartibda jalb etish;
- quyidagilardan:
 - Davlat soliq qo'mitasidan — hisoblangan ajratmalar va ularning tushishi to'g'risidagi ma'lumotlarni;
 - xizmat ko'rsatuvchi banklardan — Jamg'arma mablag'lari harakati to'g'risidagi ma'lumotlarni;
 - O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi va uning bo'linmalaridan — Jamg'arma mablag'laridan foydalanilishi bo'yicha yillik buxgalteriya va statistik hisobotni so'rash va olish;
 - "O'zmeliomashlizing" Davlat lizing kompaniyasidan — melioratsiya texnikasi, mashina va mexanizmlarni xarid qilishga ajratilgan mablag'lardan maqsadli foydalanish bo'yicha ma'lumotlarni;
 - loyiha-qurilish hujjatlarini tegishli ekspertizadan o'tkazmasdan Jamg'arma mablag'lari hisobiga amalga oshirilayotgan har qanday ishlarni yoki Jamg'arma mablag'laridan belgilanmagan maqsadda foydalanilganligi aniqlangan taqdirda to'xtatib qo'yish.
 - Jamg'arma qonun hujjatlariga muvofiq zimmasiga yuklangan funksiyalarni amalga oshirish doirasida boshqa huquqlardan ham foydalanadi.
- Jamg'arma quyidagilarga *majbur*.
 - meliorativ obyektlarni qurish va rekonstruksiya qilish dasturlari (loyihalari)ning oqilona shakllantirilishini ta'minlash;
 - Jamg'arma mablag'laridan qat'iy maqsadli va samarali foydalanilishini ta'minlash;
 - O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi bilan birgalikda Jamg'arma daromadlari prognozi bajarilishining ahvolini tahlil qilish va daromadlarning normal tushishiga salbiy ta'sir qilgan aniqlangan omillar asosida ularni bartaraf etish bo'yicha birgalikda choralar ko'rish;
 - O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi meliorativ obyektlarning zarur darajadagi texnik

holatini ta'minlashda va sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilashda ko'maklashish.

Jamg'arma Kengashi Jamg'armaning yuqori organi hisoblanadi. Jamg'arma Kengashining shaxsiy tarkibi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan tasdiqlanadi.

Jamg'arma Kengashi:

– Jamg'arma faoliyatining asosiy yo'nalishlarini belgilaydi;

– Jamg'armaning ijro etuvchi organi, O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi, Iqtisodiyot vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va viloyatlar hokimliklarining belgilangan tartibda tasdiqlangan sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash davlat dasturlari (loyihalari)dan kelib chiqib, Jamg'arma mablag'larini sarflashning asosiy yo'nalishlar to'g'risidagi takliflarini ko'rib chiqadi, qarorlar qabul qiladi va ularni tasdiqlash uchun Vazirlar Mahkamasiga kiritadi;

– Jamg'armaning ijro etuvchi organi, O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va viloyatlar hokimliklarining amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risidagi hisobotlarini eshitadi;

– O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi, Davlat soliq qo'mitasi va "Davarxitektqurilish" qo'mitasi ishtirokida O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi hamda uning Qurilayotgan korxonalar birlashgan direksiyalari», boshqa manfaatdor vazirliklar va idoralar, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va viloyatlar hokimliklarining Sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash davlat dasturi amalga oshirilishi uchun ajratilgan Jamg'arma mablag'laridan maqsadli foydalanishi to'g'risidagi hisobotlarni eshitadi;

– investitsiya dasturiga kiritilgan obyektlarning ustuvorligi va loyiha-smeta hujjatlarining tayyorligidan kelib chiqqan holda, tasdiqlangan limitlar doirasida, irrigatsiya-melioratsiya obyektlarining ro'yxati va prognoz parametrlariga o'zgartishlar kiritadi;

- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga Jamg'armaning daromadlari va xarajatlarini shakllantirish tartibini takomillashtirishga doir takliflar kiritadi;
- Jamg'armaning daromadlari va xarajatlari ijrosi, shuningdek, Jamg'arma tomonidan buyurtmachi funksiyalari bajarilishi, meliorativ obyektlarni loyihalashtirish, rekonstruksiya qilish, ta'mirlash va tiklash ustidan moliyaviy nazoratni amalga oshirish bilan bog'liq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yerlarning meliorativ holatini yaxshilash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2007-yil 29-oktyabrdagi PF-3932-son farmoni asosida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash jamg'armasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida" 2007-yil 31-oktyabrdagi PQ-718-son qarori qabul qilindi hamda Moliya vazirligi huzurida Sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash jamg'armasi tashkil etildi. 2018-yildan boshlab esa jamg'arma faoliyatini takomillashtirish borasida nizomga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi. Shuningdek, jamg'arma Moliya vazirligi tarkibidan Vazirlar Mahkamasi tarkibiga o'tkazildi.

Jamg'arma sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilashga va meliorativ texnikani sotib olishga ajratiladigan maqsadli moliyaviy resurslarni jamlovchi davlat organi ham hisoblanadi.

Rivojlangan mamlakatlarda qishloq xo'jaligi bo'yicha alohida davlatning fondlari mavjud bo'lib, ular aynan shu ish bilan shug'ullanadi.⁵⁵

Jamg'armaning asosiy maqsadi – sug'oriladigan yerlarni meliorativ jihatdan yaxshilash dasturlari (loyihalari)ni hamda meliorativ obyektlarning zarur darajadagi texnik holatini ta'minlashga yo'naltirilgan tadbirlarni, moliyalashtirish, shuningdek, meliorativ texnikani sotib

⁵⁵ Richard Allen and Dimitar Radev. Extrabudgetary Funds. International Monetary Fund. 7p. June. 2010

olish uchun mablag'larni jamlash va ulardan samarali foydalanish hisoblanadi.

Jamg'arma o'z faoliyati davomida quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:

- byudjet va byudjetdan tashqari manbalar hisobidan melioratsiya ishlarini o'tkazish uchun mo'ljallangan mablag'larni to'la hajmda jamg'arma hisobvarag'ida jamlash;

- O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi, Iqtisodiyot vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar hokimliklari hamda ixtisoslashtilgan tashkilotlar bilan birqalikda sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilashning uzoq muddatli va o'rta muddatli davlat dasturlarini ishlab chiqish;

- tasdiqlangan dasturlarga muvofiq, melioratsiya ishlarini, magistral (viloyatlararo), tumanlararo va xo'jaliklararo kollektor-drenaj tarmoqlarini mukammal ta'mirlash va tiklash maqsadida joriy ta'mirlash ishlarini tashkil qilish hamda tizimli asosda aniq, maqsadli moliyalashtirish;

- yerlarning meliorativ holatini yaxshilash hisobiga ularning unumдорligini oshirish borasidagi ishlarni moliyalashtirish yo'li bilan qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilariga davlat madadini ko'rsatish;

- melioratsiya texnikasini, jumladan, lizing shartlari asosida sotib olish uchun qaytarib berish asosida mablag'lar ajratish yo'li bilan suv xo'jaligi tashkilotlarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish;

- jamg'armaning ajratib berilgan moliyaviy mablag'laridan maqsadli, manzilli va samarali foydalanilishi ustidan doimiy asosda monitoringni amalga oshirish.

Jamg'arma o'z zimmasiga yuklatilgan vazifalardan kelib chiqqan holda quyidagi funksiyalarni bajaradi:

- konsolidatsiya qilingan davlat byudjeti loyihasiga kiritish uchun daromadlar va xarajatlarning har yilgi

balanslari loyihalarini ishlab chiqib, belgilangan tartibda va muddatlarda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga taqdim etadi;

- jamg'arma bo'yicha kelgusi yilning har bir choraklariga taqsimlangan xarajatlarining tasdiqlangan parametrini O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligiga, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashiga va viloyat hokimliklariga yetkazadi;
- jamg'arma daromadlari va xarajatlari hisobini yuritadi;
- meliorativ obyektlarini qurish va rekonstruksiya qilish uchun loyihalash hujjatlarini ishlab chiqish, investitsiya loyihalarini, jumladan, xorijiy investitsiyalarni jalb etgan holda amalga oshirish yuzasidan texnik topshiriqlarni beradi va tasdiqlaydi;
- meliorativ obyektlarni loyihalash, qurilish, rekonstruksiya qilish, shuningdek, magistral kollektorlarni ta'mirlash va tiklash bo'yicha loyihalash va tender hujjatlarini belgilangan tartibda ekspertizadan o'tkazishni tashkil etadi;
- meliorativ obyektlarni qurish va rekonstruksiya qilish, shuningdek, magistral kollektorlarni ta'mirlash va tiklash bo'yicha aniq manzilli ro'yxatlarni tuzadi va belgilangan tartibda tegishli idoralarga tasdiqlash uchun kiritadi;
- meliorativ obyektlarni rekonstruksiya qilish va qurish bo'yicha loyiha-qidiruv ishlari, shuningdek, tegishli ilmiytadqiqot ishlarining aniq manzilli ro'yxatlarini belgilangan tartibda tasdiqlaydi;
- O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligining Qurilayotgan korxonalar birlashgan direksiyalari (QKBD) taqdimnomasi bo'yicha meliorativ obyektlarda ta'mirlash-tiklash ishlarining xarajatlar smetasi va manzilli dasturlarini kelishib oladi;
- QKBD taqdimnomasi bo'yicha avariya-tiklash ishlari uchun, shuningdek, meliorativ obyektlarni ko'zda tutilmagan holda ta'mirlash va tiklash ishlari uchun zaxira xarajatlari smetalarini tasdiqlaydi;

- meliorativ obyektlarni rekonstruksiya qilish va qurish, magistral (vilojatlararo) kollektorlarni ta'mirlash-tiklash bo'yicha buyurtmachi vazifasini bajaradi;
- QKBD buyurtmachi bo'lgan meliorativ obyektlarning ta'mirlash-tiklash ishlarini moliyalashtiradi, shuningdek, qaytarib berish sharti bilan melioratsiya texnikasi, mashina va mexanizmlarni sotib oladi;
- tumanlararo va xo'jaliklararo meliorativ obyektlarda ta'mirlash-tiklash, loyiha-qidiruv ishlarini o'tkazish bo'yicha QKBD buyurtmachi vazifasini bajarishi ustidan nazorat olib boradi;
- meliorativ obyektlarni rekonstruksiya qilish va qurish, shuningdek, magistral kollektorlarda ta'mirlash-tiklash ishlarini amalga oshirish bo'yicha tender (tanlod) savdolarini belgilangan tartibda o'tkazadi, tanlov savdolari g'oliblari bilan belgilangan tartibda sharhnomalar tuzadi;
- tumanlararo va xo'jaliklararo meliorativ obyektlarda ta'mirlash-tiklash ishlari bo'yicha QKBD tomonidan tashkil etiladigan tender (tanlod) savdolarida belgilangan tartibda qatnashadi;
- meliorativ obyektlarni rekonstruksiya qilish va qurish, ta'mirlash va tiklash, melioratsiya texnikasini sotib olish ustidan moliyaviy nazoratni amalga oshiradi;
- magistral (vilojatlararo) meliorativ obyektlarni rekonstruksiya qilish, qurish va ta'mirlash-tiklash ishlari ustidan texnik nazoratni amalga oshiradi, shuningdek, ularning belgilangan tartibda qabul qilib olishlarini ta'minlaydi;
- tumanlararo va xo'jaliklararo meliorativ obyektlarni ta'mirlash va tiklash, shuningdek, ularni qabul qilib olish ishlari ustidan texnik nazoratni amalga oshirishda qatnashadi;
- jamg'arma mablag'larining maqsadli va samarali sarflanishi ustidan belgilangan tartibda nazoratni amalga oshiradi;
- jamg'arma mablag'laridan maqsadli va samarali foydalaniishi masalalari bo'yicha muntazam ravishda nazorat o'lchovlarini amalga oshiradi;

- jamg'arma mablag'lardan foydalanish bo'yicha aniqlangan qonun buzilishlari va kamchiliklarni bartaraf etish, shuningdek, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tegishli sanksiyalarini o'rnatilgan tartibda belgilash bo'yicha takliflar kiritadi;
- jamg'arma daromadlari va xarajatlari bo'yicha normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqadi va tegishli organlarga tasdiqlash uchun kiritadi;
- aniq manzilli ro'yxatlarga kiritilgan meliorativ obyektlarda bajarilgan ishlarni belgilangan tartibda moliyalashtiradi.

9.2. Sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash jamg'armasining moliyaviy manbalari va xarajat yo'nalishlari.

Barcha maqsadli jamg'armalar singari mazkur jamg'arma ham o'zining daromad va xarajatlariga ega.

Jamg'arma daromadlarini shakllantirish uchun asosan davlat subsidiyalari ajratiladi.⁵⁶

9.1-jadval

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash jamg'armasi daromadlari

	Daromadlar ko'rsatkichlari	2015-yil	2016-yil	2017-yil
		mlrd. so'm	mlrd. so'm	mlrd. so'm
1	Yagona yer solig'idan tushumlar	180	185	197,8
2	Maqsadli byudjet ajratmalari	154	218,9	232,5
3	"O'zmeliomashlizing" davlat lizing kompaniyasidan ajratilgan qarz mablag'larini qaytarish	16,4	18,1	24,7
	Jami daromadlar	350,4	422	455

⁵⁶ Richard Allen and Dimitar Radev. Extrabudgetary Funds. International Monetary Fund, 11 p. June. 2010

Sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash jamg'armasi to'g'risidagi nizomga ko'ra jamg'arma daromadlarini shakllantirish manbalari etib quyidagilar belgilangan:

- qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari tomonidan to'lanadigan yagona yer solig'i bo'yicha tushgan mablag'larga teng miqdorda Davlat byudjetidan ajratmalar;
- maqsadli byudjet mablag'lari;
- xalqaro moliya institutlari va xorijiy banklarning imtiyozli kreditlari;
- mahalliy va xorijiy grantlar.

O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa mablag' manbalari va daromadlar.

9.2-jadval

**O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi
huzuridagi Sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini
yaxshilash jamg'armasi xarajatlari**

	Xarajatlar ko'rsatkichlari	2015-yil	2016-yil	2017-yil
		mlrd. so'm	mlrd. so'm	mlrd. so'm
1	Melioratsiya tizimi ishlarini qurish va qayta tiklash	302,4	371	412
1.1.	Qurilish va rekonstruksiya qilish	146,4	176	203
1.2.	Ta'mirlash va qayta ta'mirlash ishlari	156	195	209
2.	Meliorativ texnika parklarini yangilash	35	35	37
3.	Tomchilatib sug'orish tizimini joriy etish	10	12	2
4.	Moliya vazirligi huzuridagi sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash jamg'armasini boshqarish Departamentini saqlash	3	4	4
	Jami xarajatalar	350,4	422	455

Jamg'arma faoliyati davomida quyidagi xarajatlarni amalga oshiradi:

- sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash davlat dasturlari doirasida magistral

(viloyatlararo), tumanlararo, xo'jaliklararo ochiq kollektorlar va ulardag'i inshootlarni, yopiq gorizontal drenaj shoxobchalarini, vertikal drenaj quduqlarini, meliorativ nasos stansiyalari hamda kuzatish tarmoqlarini qurish, rekonstruksiya qilish, ta'mirlash va tozalash ishlarini o'tkazishga;

- ixtisoslashtirilgan loyiha tashkilotlari tomonidan sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash davlat dasturlariga kiritiladigan loyihalarning amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan loyiha-qidiruv hujjatlarini ishlab chiqishga ixtisoslashtirilgan qurilish va ekspluatatsiya tashkilotlari, suv iste'molchilar uyushmalarini melioratsiya texnikasi saroyini yaxshilashga mablag'ni qaytarib berish asosida, shu jumladan uzoq muddatli imtiyozli lizing shartlarida moliyalashtirish tadbirlariga;
- sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash davlat dasturlarida nazarda tutilgan boshqa ishlarga yo'naltirilgan holda foydalaniladi.

9.3. Sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash jamg'armasi faoliyatini boshqarish.

Jamg'arma vazifa va funksiyalarini amalga oshirish davomida tegishli huquq va majburiyatlarga ham ega hisoblanadi. Bular:

- bajarilgan meliorativ ishlar va boshqa holatlarni nazorat tartibida o'lchashda vazirlik va idoralarning mutaxassislarini belgilangan tartibda jalg'etish;
- Davlat soliq qo'mitasidan — hisoblangan ajratmalar va ularning tushishi to'g'risidagi ma'lumotlarni;
- xizmat ko'rsatuvchi banklardan — jamg'arma mablag'lari harakati to'g'risidagi ma'lumotlarni;
- O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi va uning bo'linmalaridan — jamg'arma mablag'laridan foydalanilishi bo'yicha yillik buxgalteriya va statistik hisobotni so'rash va olish;

• “O’zmeliomashlizing” Davlat lizing kompaniyasidan — melioratsiya texnikasi, mashina va mexanizmlarni xarid qilishga ajratilgan mablag'lardan maqsadli foydalanish bo'yicha ma'lumotlarni;

• loyiha-qurilish hujjatlarini tegishli ekspertizadan o'tkazmasdan jamg'arma mablag'lari hisobiga amalga oshirilayotgan har qanday ishlarni yoki jamg'arma mablag'laridan belgilanmagan maqsadda foydalanilganligi aniqlangan taqdirda to'xtatib qo'yish;

• jamg'arma qonun hujjatlariga muvofiq zimmasiga yuklangan funksiyalarni amalga oshirish doirasida boshqa huquqlardan ham foydalanadi.

Shuningdek:

• meliorativ obyektlarni qurish va rekonstruksiya qilish dasturlari (loyihalari)ning oqilona shakllantirilishini ta'minlash;

• jamg'arma mablag'laridan qat'iy maqsadli va samarali foydalanishini ta'minlash;

• O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi bilan birgalikda jamg'arma daromadlari prognozi bajarilishining ahvolini tahlil qilish va daromadlarning normal tushishiga salbiy ta'sir qilgan aniqlangan omillar asosida ularni bartaraf etish bo'yicha birgalikda choralar ko'rish;

• O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi meliorativ obyektlarning zarur darajadagi texnik holatini ta'minlashda va sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilashda ko'maklashishga majbur hisoblanadi.

Jamg'arma Kengashi jamg'armaning yuqori organi hisoblanadi. Jamg'arma Kengashining shaxsiy tarkibi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan tasdiqlanadi.

Jamg'arma Kengashi:

• Jamg'arma faoliyatining asosiy yo'nalishlarini belgilaydi;

• Jamg'armaning ijro etuvchi organi, O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi, Iqtisodiyot vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi

va viloyatlar hokimliklarining belgilangan tartibda tasdiqlangan sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash davlat dasturlari (loyihalari)dan kelib chiqib, Jamg'arma mablag'larini sarflashning asosiy yo'nalishlar to'g'risidagi takliflarini ko'rib chiqadi, qarorlar qabul qiladi va ularni tasdiqlash uchun Vazirlar Mahkamasiga kiritadi;

- Jamg'armaning ijro etuvchi organi, O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va viloyatlar hokimliklarining amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risidagi hisobotlarini eshitadi;

- O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi, Davlat soliq qo'mitasi va "Davarxitektqurilish" qo'mitasi ishtirokida O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi hamda uning Qurilayotgan korxonalar birlashgan direksiyalari, boshqa manfaatdor vazirliklar va idoralar, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va viloyatlar hokimliklarining Sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash davlat dasturi amalga oshirishi uchun ajratilgan Jamg'arma mablag'laridan maqsadli foydalanimishi to'g'risidagi hisobotlarni eshitadi;

- investitsiya dasturiga kiritilgan obyektlarning ustuvorligi va loyiha-smeta hujjatlarining tayyorligidan kelib chiqqan holda, tasdiqlangan limitlar doirasida, irrigatsiya-melioratsiya obyektlarining ro'yxati va prognoz parametrlariga o'zgartishlar kiritadi;

- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga Jamg'armaning daromadlari va xarajatlarini shakllantirish tartibini takomillashtirishga doir takliflar kiritadi;

- Jamg'armaning daromadlari va xarajatlari ijrosi, shuningdek, Jamg'arma tomonidan buyurtmachi funksiyalari bajarilishi, meliorativ obyektlarni loyihalashtirish, rekonstruksiya qilish, ta'mirlash va tiklash ustidan moliyaviy nazoratni amalga oshirish bilan bog'liq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

Jamg'armani boshqarish departamenti (keyingi o'rnlarda Departament deb ataladi) jamg'armaning ijro etuvchi organi hisoblanadi. Departamentning tashkiliy

tuzilmasi va shtatdagi xodimlar soni qonun hujjatlarida o'rnatilgan tartibda belgilanadi. Departamentning ta'minoti Jamg'arma Kengashi tomonidan tasdiqlangan xarajatlар smetasi asosida "O'zmeliomashlizing" DLK tomonidan berilgan qarz mablag'lari bo'yicha marja tarzida olinadigan Jamg'arma daromadlari hisobidan amalga oshiriladi.

Departament Jamg'armaning daromadlari va xarajatlari ijrosi to'g'risidagi buxgalteriya hisobotini tuzadi va Jamg'arma Kengashi tomonidan tasdiqlangandan keyin belgilangan tartibda va muddatlarda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga taqdim etadi.

Departamentga Vazirlar Mahkamasi qishloq va suv xo'jaligi, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash hamda iste'mol tovarlari masalalari kompleksi rahbarining taqdimnomasiga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan lavozimga tayinlanadigan va lavozimdan ozod etiladigan hamda moddiy ta'minoti, ijtimoiy va transport xizmati ko'rsatish sharoitlari bo'yicha vazir o'rnbosariga tenglashtiriladigan direktor boshchilik qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2019-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va davlat byudjeti parametrlari hamda 2020-2021-yillarga byudjet mo'ljallari to'g'risida"gi 26-dekabr 2018-yilda qabul qilingan PQ-4086 son qaroriga ko'ra 2019-yil 1- yanvardan boshlab ushbu jamg'armaning faoliyati to'xtatildi.

Bahs-munozara va nazorat uchun savollar

1. O'zbekiston Respublikasi Sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash jamg'armasini tashkil etishdan maqsad nima?
2. Sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash jamg'armasini maqsad va vazifalarini aytib bering.
3. Jamg'armaning tashkiliy tuzilmasini tushuntiring.
4. Jamg'arma Kuzatuv Kengashining asosiy faoliyati nimalardan iborat?

5. Sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash jamg'armasining asosiy daromadlari qanday manbalardan shakllanadi?
6. Sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash jamg'armasining xarajatlari tarkibini aytib bering.
7. Sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash jamg'armasi faoliyatini takomillashtirish bo'yicha qanday ishlar amalga oshirilmoqda?

10-BOB. O'ZBEKISTON FAXRIYLARNI IJTIMOIY QO'LLAB-QUVVATLASH "NURONIY" JAMG'ARMASI

Reja:

10.1. O'zbekiston faxriylarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash "Nuroniy" jamg'armasining ijtimoiy mohiyati

10.2. "Nuroniy" jamg'armasining asosiy vazifalari

10.1. O'zbekiston faxriylarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash "Nuroniy" jamg'armasining ijtimoiy mohiyati

Mamlakatimizda keksalarga hurmat-ehtirom, mehr-oqibat ko'rsatish ma'naviy hayotimizning ajralmas qismiga aylangan. Nuroniylarning hayot darajasi va sifati yanada yaxshilanayotgani ularga ko'rsatilayotgan ijtimoiy xizmatlar, xususan, aniq maqsadli davolash va sog'lomlashtirish, tibbiy-ijtimoiy reabilitatsiya choralar yo'nga qo'yilgani samarasidir.

O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.Karimov tashabbusi bilan tashkil etilgan "Nuroniy" jamg'armasi mamlakatimizda kuchli ijtimoiy siyosatni amalga oshirishga hissa qo'shib kelmoqda. Uning faoliyatida urush va mehnat faxriylarini e'zozlash, ularga zarur moddiy, ma'naviy, tibbiy ko'mak ko'rsatish, milliy an'ana va qadriyatlarimizning bardavomligini ta'minlash ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Jamg'arma o'tkazayotgan ma'rifiy tadbirlar, ijtimoiy loyihalar mustaqilligimizni, tinch va farovon hayotimizni ko'z qorachig'idek asrab-avaylash, yanada mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Yevropa mamlakatlarida keksalarni ijtimoiy himoya qilish bo'yicha bir qancha nodavlat tashkilotlar faoliyat ko'rsatadi.⁵⁷

⁵⁷ Richard Allen and Dimitar Radev. Extrabudgetary Funds. International Monetary Fund. 17p. June. 2010

O'zbekiston Respublikasida o'tkazilayotgan mamlakat iqtisodini barqaror va dinamik ravishda rivojlantirishga tayangan kuchli ijtimoiy siyosat natijasida aholi farovonligi jiddiy ravishda o'sdi, odamlarning turmush sifati yaxshilandi va bu o'z navbatida o'rtacha umr ko'rish davomiyligining va aholi tarkibida keksa yoshdagi odamlar ulushining oshishiga asos bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining ilk kunlaridanoq yolg'iz pensionerlar va nogironlarning ijtimoiy himoyasi bilan bog'liq masalalar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1991-yil 27-maydagi "O'zgalar parvarishiga muhtoj yolg'iz pensionerlarni ijtimoiy himoyalash yuzasidan qo'shimcha tadbirlar to'g'risida"gi PF-212-son farmoni va "O'zbekiston Respublikasida nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunida o'z aksini topdi.

So'nggi yillar mobaynida respublikada yolg'iz keksalar, pensionerlar va nogironlarga ko'rsatiladigan tibbiy-ijtimoiy yordamni kuchaytirish bo'yicha ulkan ishlar amalga oshirildi. Misol tariqasida, faqatgina 2010-2015 yillar mobaynida keksalar va pensionerlar uchun mo'ljallangan 12 ta Saxovat va Muruvvat internat uylari moddiy-texnika bazalari, 14,6 ming yolg'iz keksalar, pensioner, nogironlarning turar joy sharoitlari yaxshilandi, 5,4 ming odam reabilitatsiya texnik vositalari va protez-ortopediya mahsulotlari bilan ta'minlandi, 6,4 ming nogiron va pensioner sanatoriyalarda sog'liqlarini tiklashdi. Ko'rsatilgan tibbiy-ijtimoiy yordamning umumiy hajmi 132,2 milliard so'mni tashkil etdi.

Shu bilan birga, o'tkazilgan o'rganish ishlari "Nuroniy" jamg'armasi davlat tomonidan qollab-quvvatlanishi, yolg'iz keksalar, pensionerlar va nogironlarni muhofaza qilish tizimini yanada takomillashtirish, uning manzillilagini ta'minlash, keksa yoshdagilar, imkoniyati cheklangan odamlar va yolg'iz keksalarga ko'rsatiladigan tibbiy-ijtimoiy yordam darajasi va sifatini ko'tarishni, shuningdek, joylarda tuman va shaharlar aholisining zamonaviy diagnostika va davolanish uslublaridan foydalanish

imkonlarini ta'minlaydigan tubdan yangi yondashuvlar ishlab chiqish zarurligini ko'rsatdi.

10.2. “Nuroniy” jamg‘armasining asosiy vazifalari.

Izchilllik bilan amalga oshirilayotgan kuchli ijtimoiy siyosat natijasida aholining farovonligi oshdi va kishilarning turmush sifati yaxshilandi, bu esa keyingi 25 yil mobaynida o‘rtacha umr ko‘rish davomiyligi 67 yoshdan 73,5 yoshga, shu jumladan erkaklar – 66 yoshdan 71 yoshgacha, ayollarning o‘rtacha umr ko‘rish davomiyligi esa 70 yoshdan 75,8 yoshgacha ortishiga imkoniyat yaratdi.

Bugungi tezkor va globallashuv davri yoshlar tarbiyasiga yanada hushyorlik va ogohlik bilan yondashishni, ma’naviy-ma’rifiy jarayonlarda tabarruk yoshdagi insonlarning tajribasi, yo‘l-yo‘riqlari, nasihatlaridan unumli foydalanishni taqozo etmoqda.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2016-yil 28-dekabrdagi “O‘zbekiston faxriylarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash “Nuroniy” jamg‘armasi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni va “Keksalar va nogironlarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori bu boradagi ishlarni yangi bosqichga ko‘tarishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

“O‘zbekiston faxriylarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash “Nuroniy” jamg‘armasi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Prezident farmoniga ko‘ra O‘zbekiston faxriylarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash “Nuroniy” jamg‘armasi O‘zbekiston faxriylarining ijtimoiy faoliyatini qo‘llab-quvvatlash jamoat birlashmasi shaklidagi “Nuroniy” jamg‘armasi etib o‘zgartirildi.

2017-yil 1-yanvardan boshlab “Nuroniy” jamg‘armasining barcha xodimlari – pensionerlarga pensiyalar O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi

mablag'lari hisobidan 100 foiz miqdorda to'langan holda "Nuroniy" jamg'armasi markaziy apparati va uning Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri, tumanlar (shaharlar) bo'limlarining shtatdagi xodimlari davlat byudjeti hisobidan ta'minlanadi va moddiy rag'batlantiriladi.

Farmonga asosan har bir tuman va shaharda "Nuroniylar maskani" majmualari faoliyati yo'lda qo'yildi, majmualarni qurishda boy kitob fondiga ega bo'lgan kitobxonlar zallari, shaxmat, shashka o'ynash uchun dam olish xonalari, keksalar uchun maxsus trenajyerlar bilan jihozlangan davolash-jismoniy tarbiya zallari, shuningdek, oshxona va tibbiy xona tashkil etilishi, ularni zarur mebel, kompyuter texnikasi va aloqa vositalari bilan jihozlanishi ta'minlandi.

Shuningdek, hujjatga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Mehnat faxriysi" ko'krak nishonini ta'sis etish to'g'risida"gi 2017-yil 14-iyuldag'i PQ-3133-sonli qarori tasdiqlandi va I-II-III-darajali ko'krak nishoni ta'sis etildi, haftalik "Nuroniy" gazetasi va har oyda bir chiqadigan "Keksalik gashti" jurnali nashr etish boshlandi, "Mahalla" xayriya fondiga Navro'z va Mustaqillik umumxalq bayramlariga bag'ishlab o'tkaziladigan hasharlardan tushadigan mablag'larning 10 foizini har yili "Nuroniy" jamg'armasiga o'tkazish, 2017-yilda "Nuroniy" jamg'armasi markaziy apparati, uning bo'linmalari va nashriyot bo'limi moddiy-texnika bazasini mustahkamlashga 1,5 milliard so'm ajratish kabi vazifalar belgilab qo'yildi.

Umuman olganda "Nuroniy" jamg'armasining asosiy vazifalari quyidagilar hisoblanadi:

- faxriylarning O'zbekistonni yangilash va rivojlantirishning ma'naviy-axloqiy negizlarini mustahkamlashda mamlakatning ijtimoiy-siyosiy hayotida faol ishtirok etishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish va ularni ijtimoiy faoliyatga jalb etish;

- keksalar hayoti darajasini oshirish, ular uchun nazarda tutilgan pensiyalar va imtiyozlar bo'yicha qonun hujjatlari qoidalari ijrosi ustidan jamoatchilik nazoratini

ta'minlash, ehtiyojmand keksalarni va aholining boshqa qatlamlarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va tibbiy yordam bilan ta'minlash, ushbu maqsadlarda ishlab chiqarish, tijorat, noshirlik, xayriya tadbirdalarini va boshqa tadbirdarni amalga oshirish;

- fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari bilan birgalikda oilalarda tinchlik va xotirjamlikni ta'minlash;
- keksalar uchun ularning yoshini hisobga olgan holda turli ijtimoiy-madaniy tadbirdar, telemarafonlar, maxsus sport musobaqalari, keksa yozuvchilar, artistlar, xonandalar, rassomlarni va ijodiy ziylolarning boshqa vakillarini taklif etgan holda ijodiy kechalar tashkil etish;
- yosh oilalar o'rtasida ajralishlar, yoshlarni turli oqimlarga kirib ketishi va huquqbuzarliklarning oldini olish, o'quvchilarning davomati masalasi, xorijga ketgan yoshlarni yurtimizga qaytarish va ularni ish bilan ta'minlashda jamoatchilik nazoratini o'rnatish kabi masalalar ham "Nuroniy" jamg'armasi vazifalari sirasiga kiradi.

Bahs-munozara va nazorat uchun savollar

1. O'zbekiston faxriylarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash "Nuroniy" jamg'armasining ijtimoiy mohiyatini aytib bering.
2. "Nuroniy" jamg'armasining vazifalarini sanab bering.
3. O'zbekistonda yolg'iz pensionerlar va nogironlarning ijtimoiy himoyasi bilan bog'liq masalalarni tartibga soluvchi me'yoriy-huquqiy hujjatlarni aytib bering.
4. "Nuroniy" jamg'armasining tashkiliy-huquqiy asoslarini tushuntirib bering.
5. "Nuroniy" jamg'armaning daromad manbalarini aytинг.
6. "Nuroniy" jamg'armaning xarajat yo'nalishlarini tushuntiring.

11-BOB. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI "MAHALLA" XAYRIYA JAMG'ARMASI

Reja:

11.1. Respublika "Mahalla" xayriya jamg'armasining ijtimoiy mohiyati

11.2. Respublika "Mahalla" xayriya jamg'armasining tashkiliy tuzilishi

11.1. Respublika "Mahalla" xayriya jamg'armasining ijtimoiy mohiyati

Yurtimizda azal-azaldan mahalla tarbiya o'chog'i hisoblanadi. Avloddan-avlodga o'tib kelayotgan milliy qadriyatlarimiz, xalqimizning turmush va tafakkur tarzini ko'z qorachig'idek asrab-avaylashda uning o'rni va ahamiyati beqiyos.

Mustaqillik yillarida mahalla institutining nufuzini oshirish, nafaqat, ijtimoiy-iqtisodiy, balki siyosiy, tarbiyaviy va ulkan ma'naviy ahamiyatga ega bo'lgan ustuvor vazifa sifatida belgilanib, mamlakatimizda fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda uning ishonchli tayanch va ta'sirchan kuch bo'lib xizmat qilishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish borasida keng ko'lamli chora-tadbirlar bosqichma-bosqich amalga oshirildi.

Xususan, milliy davlatchiligimiz tarixida ilk bor shaharcha, qishloq, ovul va mahalla fuqarolar yig'inlari o'zini o'zi boshqarishning hududiy birliklari sifatida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 105-moddasida mustahkamlab qo'yildi. Yuzdan ortiq normativ-huquqiy hujjatlarda fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining jamiyat hayotining muayyan sohasidagi ishtiroki o'z aksini topdi.

Birgina so'nggi besh yilda yangi tahrirdagi "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi hamda "Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) va uning

maslahatchilari saylovi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining qonunlari, mahallalar hamda ulardagi jamoatchilik tuzilmalari faoliyatiga oid 20 ga yaqin nizom qabul qilinib, ijtimoiy hayotga tatbiq etildi. Shuningdek, tizimda faoliyat ko‘rsatayotgan xodimlarning malakasini oshirish bo‘yicha o‘quv kurslari hamda “Mahalla” ma‘rifiy teleradiokanalni tashkil etildi.

Ko‘plab mamlakatlarda o‘z-o‘zini boshqarish organlari mavjud bo‘lmasada, ammo shunga o‘xshagan tashkiliy tuzilmalar mavjud.⁵⁸

Hozirgi kunda yurtimizda 10 mingga yaqin fuqarolar yig‘inlari tomonidan ilgari mahalliy davlat hokimiyati organlariga taalluqli bo‘lgan 30 dan ziyod ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatga molik vazifalar muvaffaqiyatli bajarib kelinmoqda.

Fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash maqsadida oxirgi besh yil mobaynida fuqarolar yig‘inlarining 1600 ga yaqin xizmat binolari joriy ta‘mirlandi, 367 tasi kapital ta‘mirlandi va 350 dan ziyodi rekonstruksiya qilindi, namunaviy loyihibalar asosida 216 ta bino yangidan qurilib, foydalanishga topshirildi.

Amalga oshirilgan keng ko‘lamli tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlar natijasida mahalla noyob, dunyoda o‘xhashi bo‘lmagan tuzilmaga aylandi, fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlarining ijtimoiy-siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish jarayonida faol ishtirok etishi uchun mustahkam zamin yaratildi.

Shu bilan birga, mamlakatimizda fuqarolik jamiyatini shakllantirishning zamonaviy talablari fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari zimmasiga yuklatilgan vazifalarning samarali ijrosini ta‘minlash tizimini yanada takomillashtirishni taqozo etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mahalla institutini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish

⁵⁸ Richard Allen and Dimitar Radev. Extrabudgetary Funds. International Monetary Fund. 13p. June. 2010


organlarining mahalliy ahamiyatga molik masalalarini samarali hal qilishdagi rolini oshirish, fuqarolar yig'inarining mushtarak manfaatlarini ifoda etadigan uyushmaga birlashish huquqini ro'yobga chiqarish, ularning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash hamda davlat organlari va fuqarolik jamiyatni institutlari bilan o'zaro hamkorligini yanada rivojlantirishga qaratilgan tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlarni belgilab berdi.

Xususan, farmonda mahalla institutini yanada takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari etib quyidagilar belgilandi:

- fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining jamiyatdagi o'rni va rolini yanada kuchaytirish, ularni joylarda xalqning chinakam maslakdoshi va ko'makdoshiga aylantirish;
- jamiyatimizda o'zaro hurmat, mehr-oqibat va hamjihatlik muhitini shakllantirishda, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni asrab-avaylash hamda rivojlantirishda mahallalarning ahamiyati va nufuzini yanada oshirish;
- yoshlarni ma'naviy boy va jismonan sog'lom etib tarbiyalash, ularning bandligini ta'minlash, yosh avlodni maskuraviy tahdidlardan himoya qilish, aholining ehtiyojmand qatlamlarini, keksa avlod vakillarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash borasida fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining davlat va nodavlat tashkilotlari bilan o'zaro hamkorligini mustahkamlash;
- jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlashda, huquqbazarliklarning barvaqt oldini olishda, fuqarolarda qonunga hurmat hissini kuchaytirishda mahallalarning bevosita ishtirokini kengaytirish;
- fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilishning hamda ular faoliyatini muvofiqlashtirishning samarali mexanizmlarini joriy etish, mahalla tizimida yagona huquqni qo'llash amaliyotini ta'minlash.

11.2. Respublika “Mahalla” xayriya jamg‘armasining tashkiliy tuzilishi.

Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo‘yicha respublika kengashiga yuridik shaxs maqomini bergan holda uni fuqarolar yig‘inlarining uyushmasi shaklida tashkil etish nazarda tutilmoqda.




11.1-rasm. Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo‘yicha respublika kengashining tashkiliy tuzilmasi

Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar va shaharlarda tuzilgan kengashlarni esa Respublika kengashining tarkibiy tuzilmalari sifatida tashkil etish belgilandi.

Kengashlarning nufuzi va maqomini oshirish, joylarda aholi tomonidan ko'tarilayotgan masalalarni ijro hokimiyati organlarining rahbarlari e'tiboriga yetkazish va mazkur masalalarni hal etish bo'yicha ularning bevosita ishtirokini yanada kengaytirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi raisi, viloyatlar, Toshkent shahar hamda tumanlar va shaharlar hokimlari zimmasiga tegishincha Respublika kengashi, hududiy kengashlarga jamoatchilik asosida raislik qilish vazifasi yuklatildi.

Kengashlar zimmasiga yuklatilgan vazifalar ijrosini samarali ta'minlash, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, sohada amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy dasturlarni moliyalashtirish bo'yicha ishlarning samaradorligini oshirish maqsadida Respublika kengashi va hududiy kengashlar raislarining birinchi o'rinnbosarlari bir vaqtning o'zida "Mahalla" fondining tegishincha respublika boshqaruvi hamda hududiy bo'lim va bo'linmalariga raislik qilishlari haqidagi tashabbus qo'llab-quvvatlandi.

Shuningdek, farmonda yoshlarni ona Vatanga muhabbat, xalqimizning ko'p asrlik an'analariga hurmat ruhida tarbiyalash, mahallalarda tinchlik va osoyishtalikni ta'minlash, keksa avlod vakillarining ijtimoiy faolligini qo'llab-quvvatlash borasida joylarda amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning samaradorligini yanada oshirish maqsadida Respublika kengashida tashkiliy ishlar va uslubiy masalalar bo'yicha rais o'rinnbosari, shuningdek, Respublika kengashi hamda hududiy kengashlarda yoshlar ishlari, diniy-ma'rifiy masalalar, keksalar va faxriylar ishlari bo'yicha rais o'rinnbosarlari lavozimlarini, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarida esa jamoatchilik asosida faoliyat yuritadigan mahalla fuqarolar yig'ini raisining o'rinnbosari – yoshlar masalalari bo'yicha maslahatchi lavozimini joriy etish nazarda tutildi.



**11.2-rasm. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish
bo'yicha respublika kengashi ijro apparatining tuzilmasi**

Bundan tashqari, ijtimoiy muhim masalalarni hal etishda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari hamda davlat va jamoat tashkilotlari o'rtasida o'zaro hamkorlikni kuchaytirish maqsadida kengashlar kollegial organlari tarkibiga tegishinchada davlat hokimiyati vakillik organlari vakillari, moliya, ichki ishlari, mehnat, xalq ta'limi, sog'liqni saqlash vazirliklari, Yoshlar ittifoqi, "Nuroniy" jamg'armasi, Xotin-qizlar qo'mitasi, boshqa davlat va nodavlat tashkilotlar hamda ularning hududiy tuzilmalari rahbar xodimlari jalg qilinmoqda.

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari zimmasiga yuklatilgan vazifalarning samarali ijrosini ta'minlash maqsadida mahalla fuqarolar yig'ini Kengashi tarkibiga fuqarolar yig'ini raisining o'rinnbosarlarini (fuqarolar yig'ini raisining keksalar va faxriylar ishlari hamda yoshlar masalalari bo'yicha maslahatchilarini), hududdagi profilaktika inspektorlarini, ta'lim muassasalari va qishloq vrachlik punktlari (oilaviy poliklinikalar) rahbarlarini kiritish va ularning o'z faoliyati yuzasidan yilning har choragida fuqarolar yig'ini (fuqarolar vakillarining yig'ilishi)ga hisobot taqdim qilishlari amaliyotini joriy etish belgilab qo'yildi.

Qayd etilgan asosiy vazifalar va yangi normalarni hayotga tatbiq etish uchun farmon bilan kengashlar faoliyatini yanada takomillashtirish hamda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarini qo'llab-quvvatlash borasida 37 ta aniq tadbirlarni amalga oshirishni nazarda tutadigan Kompleks chora-tadbirlar dasturi tasdiqlandi.

Farmonni ijro etish doirasida "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi, "Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilari saylovi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining qonunlari va bir qator boshqa qonun hujjatlariga zarur o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi.

Shuningdek, mutasaddi vazirlik, idora va tashkilotlar zimmasiga fuqarolar yig'inlarining bandlikka ko'maklashuvchi tuman (shahar) markazlari, huquqni muhofaza qiluvchi organlar, ta'lim muassasalari hamda

moliya va sog'liqni saqlash organlari bilan o'zaro hamkorligini nazarda tutadigan tegishli normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish vazifasi yuklandi.

Bundan tashqari, mahalla fuqarolar yig'inlarining mahalliy ahamiyatga molik masalalarni hal etish bo'yicha mustaqilligini ta'minlash, o'zini o'zi boshqarish tizimida ortiqcha bo'g'nlardan voz kechish maqsadida tarkibida mahallalar tuzilgan shaharcha, qishloq va ovul fuqarolar yig'inlarini mahalla fuqarolar yig'inlariga birlashtirish va bo'lish yo'li bilan qayta tashkil etishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshiriladi.

Bahs-munozara va nazorat uchun savollar

1. Mahalla deganda nimani tushunasiz va u jamiyatda qanday vazifalarni amalga oshiradi?
2. "Mahalla" xayriya jamg'armasining ijtimoiy mohiyatini tushuntiring.
3. "Mahalla" xayriya jamg'armasining vazifa va funksiyalarini aytib bering.
4. Mamlakatimizda hozirgi kunda qancha mahalla faoliyat ko'rsatadi?
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Mahalla institutini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonining mazmun-mohiyatini tushuntiring.
6. "Mahalla" xayriya jamg'armasining tashkiliy tuzilmasini tushuntiring.
7. "Mahalla" xayriya jamg'armasining daromad va xarajatlarini aytib bering.

12-BOB: O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MOLIYA VAZIRLIGI HUZURIDAGI RESPUBLIKA MAQSADLI KITOB JAMG'ARMASI

Reja:

12.1. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Respublika maqsadli kitob jamg'armasi faoliyatining maqsadi va asosiy vazifalari

12.2. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Respublika maqsadli kitob jamg'armasi mablag'lari manbaalarining shakllanishi va jamlanish tartibi

12.3. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Respublika maqsadli kitob jamg'armasi mablag'larini sarf qilish tartibi

12.1. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Respublika maqsadli kitob jamg'armasi faoliyatining maqsadi va asosiy vazifalari

2006-yil 1-iyunda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzurida Respublika maqsadli kitob jamg'armasini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 363-son qarori qabul qilindi.

Umumta'lim maktablari uchun darsliklar va o'quv-metodik qo'llanmalarni moliyaviy mablag'larni birlashtirish yo'li bilan byudjet va byudjetdan tashqari mablag'lar hisobidan chop etish va yetkazib berish, barqaror hamda uzlusiz moliyalashtirilishini ta'minlash, shuningdek, ulardan maqsadli foydalanishni samarali boshqarish va amalda nazorat qilish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, Moliya vazirligi, O'zbekiston Yoshlar ittifoqi, Respublika "Mahalla" xayriya jamg'armasi,

Umumta'lim maktablarining pedagoglar jamoatchiligi va o'quvchilarning ota-onalari qo'mitalarining yuridik shaxs maqomi bilan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzurida byudjetdan tashqari Respublika maqsadli kitob jamg'armasi tashkil etish to'g'risidagi taklifi qabul qilindi. Jamg'arma respublika umumta'lim maktablari, shuningdek, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarining kutubxona fondlari uchun chet tillari bo'yicha darsliklar va o'quv-metodik qo'llanmalar, kutubxona jamg'armalarini darsliklar va o'quv-metodik qo'llanmalar bilan ta'minlashga yo'naltirilgan maqsadli moliya resurslarini jamlaydi.

Quyidagilar jamg'armaning asosiy vazifalari etib belgilandi:

- umumta'lim maktablari o'quvchilarini va o'qituvchilarini darsliklar hamda o'quv-metodik qo'llanmalar, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari o'quvchilarini va o'qituvchilarini chet tillari bo'yicha darsliklar va o'quv-metodik qo'llanmalar bilan ta'minlash uchun mo'ljallangan byudjet va homiylik mablag'lari, xalqaro moliya institutlarining kredit va grant mablag'lari, darsliklarning ijara to'lovlarini jamlash, ushbu mablag'lardan samarali foydalanishni tashkil etish;

- umumta'lim maktablari kutubxona fondlari, shu jumladan, ijara tizimi asosida darsliklar bilan o'quvchilarini ta'minlash uchun darsliklar va o'quv-metodik qo'llanmalarni sotib olish va yetkazib berishni moliyalashtirish;

- umumiyl o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarining o'quvchilarini va o'qituvchilarini ta'minlash uchun chet tillari bo'yicha darsliklar va o'quv-metodik qo'llanmalarni sotib olish va yetkazib berishni bepul asosda moliyalashtirish;

- nashriyotlar, bosmaxonalar va kitob savdosi bilan shug'ullanuvchi korxonalarga qisqa muddatli maqsadli ssuda ajratish yo'li bilan ko'maklashish;

– jamg‘arma mablag‘lari tushumi, ulardan maqsadli va samarali foydalanish ustidan monitoringni amalga oshirish.

Respublika maqsadli kitob jamg‘armasi Vasiylik kengashining asosiy vazifa va funksiyalari quyidagilardan iborat:

– O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi hamda Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi markazi tomonidan keyingi o‘quv yili uchun taqdim etilgan darsliklar va o‘quv-metodik qo’llanmalarni nashrdan chiqarish va sotish kvotalarini tasdiqlash;

– jamg‘armaning foydalanish manba va yo‘nalishlari bo‘yicha daromad va xarajatlarning prognoz parametrlari, shuningdek, Jamg‘arma ijroiya direksiyasi tomonidan kiritiladigan Jamg‘arma tushumlari va mablag‘laridan foydalanish to‘g‘risidagi hisobotlarni tasdiqlash;

– jamg‘arma oldiga qo‘yilgan masalalarni hal etishga manfaatdor vazirliklar, idoralar, jamoatchilik va boshqa nodavlat tashkilotlarni jalb etish;

– jamg‘arma ijroiya direksiyasi faoliyatini Jamg‘arma mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanish qismida nazorat qilish.

Jamg‘armaning ijroiya direksiyasi jamg‘arma mablag‘larini tasarruf etuvchi hisoblanadi. Respublika maqsadli kitob jamg‘armasi ijroiya direksiyasining tashkiliy tuzilmasi boshqaruva xodimlari cheklangan soni 11 nafar va uning hududiy bo‘linmalarida, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Moliya vazirligi, viloyatlar moliya boshqarmalarida va Toshkent shahrida xodimlarning chegaralangan soniga yana qo‘srimcha 1 kishi. Jamg‘arma yuridik shaxs hisoblanadi, mustaqil balansga, O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G‘aznachiligidagi shaxsiy g‘azna hisobvaraqlariga, O‘zbekiston Respublikasining tijorat banklarida xorijiy valyutada talab qilib olinadigan depozit hisobvarag‘iga, shuningdek, o‘z nomi yozilgan O‘zbekiston Respublikasi Davlat gerbining tasviri tushirilgan muhrga ega.

Jamg'armaning ijrochi direktori O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan Jamg'armaning Vasiylik kengashi tavsiyasi bilan lavozimiga tayinlanadi va undan ozod etiladi. Zarur hollarda, jamg'armaning Vasiylik kengashiga O'zbekiston Respublikasi moliya vaziri bilan kelishib, Jamg'arma ijroiya direksiyasining tashkiliy tuzilmasiga, tasdiqlangan umumiy xodimlari soni doirasida o'zgartirish kiritish huquqi berilsin.

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi ijara tizimini tatbiq etish bo'yicha tajriba doirasida O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tomonidan ochilgan maktablarning maxsus depozit hisob raqamlarida to'plangan mablag'larni belgilangan tartibda jamg'armaga o'tkazildi.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi 2006-yildan boshlab davlat byudjeti parametrlarini shakllantirishda birinchi sinf o'quvchilarini, "Mehribonlik" uylari, ixtisoslashtirilgan maktablar va muktab internatlarining tarbiyalanuvchilarini, kam ta'minlangan oilalarning bolalarini mazkur xarajatlarni Jamg'arma hisobidan moliyalashtirish orqali darsliklar bilan bepul ta'minlash, shuningdek, ijara asosida darsliklar bilan birlamchi ta'minlash tizimiga mablag'lar ajratishni nazarda tutdi.

Jamg'arma yagona ijtimoiy to'lov hamda bojxona to'lovlarini hisobga olmagan holda byudjetga tushadigan barcha turdag'i soliqlar va yig'imlar, shuningdek, davlat maqsadli fondlariga majburiy to'lovlardan ozod etildi.

Jamg'armani boshqarishning yuqori organi Jamg'arma Vasiylik kengashi hisoblanadi. Vasiylik kengashining shaxsiy tarkibi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan tasdiqlanadi. Jamg'arma Vasiylik kengashining yig'ilishlari zaruriyat tug'ilganda, ammo yiliga kamida ikki marotaba o'tkaziladi. Jamg'armada kredit va grantlari jamlangan Osiyo taraqqiyot banki hamda boshqa xalqaro moliya institutlari vakili Vasiylik kengashi yig'ilishlarida kuzatuvchi sifatida ishtiroy etish huquqiga ega.

Jamg'arma Vasiylik kengashining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

– tegishli vazirliklar tomonidan keyingi o‘quv yili uchun taqdim etilgan darsliklar va o‘quv-metodik qo’llanmalarni nashrdan chiqarish va sotish kvotalarini tasdiqlash. Bunda, O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi markazi tomonidan chet tillari bo‘yicha darsliklar va o‘quv-metodik qo’llanmalarni nashrdan chiqarish va sotish kvotalari taqdim etiladi;

– jamg‘arma kirim va chiqimlarining manbalar va foydalinish yo‘nalishlari bo‘yicha taxminiy parametrlarini, shuningdek, Jamg‘arma ijroiya direksiyasi kiritgan Jamg‘armaga mablag‘ning tushishi va sarflanishi yuzasidan hisobotini tasdiqlash;

– jamg‘arma ijroiya direksiyasi faoliyatini, jumladan, Jamg‘arma mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanimishini nazorat qilish;

– darsliklar uchun ijara to‘lovlarini hisoblash va to‘lash tartibini belgilash;

– darsliklar uchun yillik ijara to‘lovi hajmini belgilash;

– jamg‘armaga xorijiy kredit va grantlarni jalb qilishda ko‘maklashish;

– jamg‘arma mablag‘larini shakllantirish va undan foydalinish bilan bog‘liq boshqa vakolatlarni amalga oshirish.

Jamg‘arma ijroiya direksiyasi jamg‘armaning ijrochi organi bo‘lib, joriy rahbarlikni amalga oshiradi hamda jamg‘arma faoliyati uchun javobgarlikni o‘z zimmasiga oladi. Jamg‘arma ijroiya direksiyasi xarajatlari byudjet tashkilotlari uchun o‘rnatilgan tartibda Vasiylik kengashi tasdiqlagan smeta xarajatlariga asosan, jamg‘arma mablag‘lari hisobidan amalga oshiriladi.

Jamg‘arma ijroiya direksiyasining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

– O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi bilan birgalikda umumta’lim maktablari kutubxona jamg‘armasining Darslik va o‘quv-metodik qo’llanmalari yillik balansini tuzish;

- jamg'arma kirim va chiqimlarining taxminiy parametrlarini, shuningdek, Jamg'arma Vasiylik kengashiga belgilangan muddatda taqdim etish uchun ularning bajarilishi yuzasidan hisobot tayyorlash;
- umumta'lim maktablarining ayrim toifadagi o'quvchilarini bepul ta'minlash uchun darsliklar sotib olish va yetkazib berish, shuningdek, ijara ga berishga mo'ljallangan darsliklarni yangilash xarajatlarini byudjet va ijara mablag'lari hisobidan moliyalashtirish;
- umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarining o'quvchilari va o'qituvchilarini bepul ta'minlash uchun chet tillari bo'yicha darsliklar va o'quv-metodik qo'llanmalarini sotib olish va yetkazib berish xarajatlarini Jamg'armaning aylanma mablag'lari hisobidan moliyalashtirish;
- umumta'lim maktablari hisobiga darslik ijarasi uchun ota-onalardan kelib tushgan mablag'larni yuqori qimmatli va ishonchli aktivlarga aylantirish yo'li bilan umumlashtirib boshqarish;
- umumta'lim maktablari kutubxona jamg'armalarini Jamg'arma mablag'lari hisobidan darsliklar va o'quv-metodik qo'llanmalar bilan ta'minlash bo'yicha moliya va xalq ta'limi organlari faoliyatini muvofiqlashtirish;
- nashriyot, bosmaxona va kitob savdo korxonalarining moliyaviy ahvolini o'rganish asosida ularning aylanma mablag'larni vaqtinchalik to'ldirish uchun qisqa muddatli maqsadli ssudalar ajratish;
- darsliklar va o'quv metodik qo'llanmalarini xarid etilishi va yetkazib berilishi moliyalashtirilgan Jamg'arma mablag'lardan maqsadli foydalanish ustidan nazorat o'rnatish;
- nashriyot, bosmaxona va kitob savdo korxonalariga ajratilgan ssudalardan samarali foydalanish va qaytarilishini ta'minlash bo'yicha monitoring olib borish.

Jamg'armaning ijrochi direktori Jamg'armaning Vasiylik kengashi tavsiyasiga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan lavozimga tayinlanadi va ozod etiladi.

12.2. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Respublika maqsadli kitob jamg‘armasi mablag‘lari manbalarining shakllanishi va jamlanish tartibi

Jamg‘arma mablag‘lari quyidagi manbalar orqali shakllantiriladi:

- byudjet mablag‘lari;
- darsliklarning ijara to‘lovleri;
- grantlar, kreditlar hamda O‘zbekiston Respublikasi rezidentlari va nerezidentlari – yuridik va jismoniy shaxslar, xalqaro tashkilotlar va moliyaviy instittlarning homiylik yordamlari;
- jamg‘armaning erkin mablag‘larini vaqtinchalik joylashtirilishidan olinadigan daromadlar;
- keyinchalik foydalanishga yaroqsiz bo‘lgan darsliklarni utilizatsiya qilishdan tushgan tushumlar, ya’ni ularni makalatura qabul qilish punktlariga topshirishdan olinadigan daromadlar va boshqa qonunda ta’qilanganmagan tushumlar.

Jamg‘arma mablag‘lari O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining Toshkent shahri bo‘yicha Bosh boshqarmasi hisob-kassa markazidagi yagona g‘azna hisobvarag‘ida mablag‘larni jamg‘armaning shaxsiy g‘azna hisobvarag‘i hisobiga qo‘sish orqali to‘planadi.

Istiqlol tushumlar loyihasini tayyorlash, ko‘rib chiqish va tasdiqlash hamda Jamg‘arma mablag‘laridan foydalanish keyingi yilga davlat byudjeti parametrlarini ishlab chiqish va tasdiqlash bilan bog‘liq holda amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligining O‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi markazi (chet tillari bo‘yicha darsliklar va o‘quv-metodik qo’llanmalarga tegishli qismida) hamda Xalq ta‘limi vazirligi zarur darsliklar va o‘quv-metodik qo’llanmalar bilan ta‘minlanganligi bo‘yicha umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi muassasalari kutubxona fondlarini har yili inventarizatsiya qilish hamda umumiy o‘rta va o‘rta

maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari o'quvchilari va o'qituvchilarining darsliklar bilan ta'minlanganligini o'rganish asosida keyingi kalendor yili uchun darsliklar va o'quv-metodik qo'llanmalarga bo'lgan ehtiyojning prognoz ko'rsatkichlarini chakana savdo tarmog'i orqali, kutubxona fondi hisobidan bepul ta'minlanish va ijara asosida ta'minlanish kesimida har yili 1-iyunga qadar Jamg'armaning ijroiya direksiyasiga taqdim etish. Bunda keyingi kalendor yili uchun o'quvchilarning istiqbol kontingenti O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi bilan kelishilgan holda aniqlanadi.

Yakuniy ehtiyoj O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi hamda Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi tomonidan aniqlanadi va keyingi o'quv yili uchun predmetlar bo'yicha ta'lim tili, nomi, sinflar va kurslar kesimida darsliklar hamda o'quv-metodik qo'llanmalarini ishlab chiqarish va sotishga proqnoz kvotalar shakllantirilgandan so'ng Jamg'armaga taqdim etiladi.

Ijroiya direksiya O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi hamda Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi bilan hamkorlikda har yili 1-iyulga qadar keyingi kalendor yil uchun jamg'armaning daromadlari va xarajatlari istiqbol parametrlarini ishlab chiqadilar va jamg'armaning Vasiylik kengashiga ko'rib chiqishi uchun taqdim etadi.

Jamg'arma daromadi va xarajatlarining proqnoz parametrlari keyingi yil uchun davlat byudjeti parametrlari tasdiqlangandan so'ng 5 kun ichida jamg'armaning vasiylik kengashi tomonidan tasdiqlanadi.

Darsliklar va o'quv-metodik qo'llanmalar bo'yicha buxgalterlik hisobi va hisoboti umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari tomonidan olib boriladi. Umumta'lim maktablari tomonidan darsliklarning ijara haqi to'lovlari va boshqa tushumlar bo'yicha ham hisob va hisobot olib boriladi. Ijroiya direksiyaning hududiy vakillari talabnomalari bo'yicha g'aznachilik bo'linmalari umumta'lim maktablari yoki xalq ta'limi muassasalari

faoliyatini metodik ta'minlash va tashkil etish tuman va shahar bo'limlarining mos hisob raqamlaridan ko'chirmalar taqdim etadi. Ijroiya direksiyaning hududiy vakillari:

– hududdagi tuman va shahar maktablari bo'yicha ijara tizimining yuritilishi ustidan ishlarni muvofiqlashtiradi va nazorat qiladi;

– ijara to'lovlari tushumlarining monitoringini olib boradi, hisobotlarni ro'yxatga oladi va yig'adi hamda xalq ta'limi hududiy organlari bilan hamkorlikda umumta'lim maktablari uchun darsliklar va o'quv-metodik qo'llanmalarga buyurtmalarni umumlashtiradi;

– o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi boshqarmalari bilan birgalikda o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarini uchun chet tili bo'yicha darsliklar va o'quv-metodik qo'llanmalarga buyurtmalarni umumlashtiradi;

– ijara tizimida foydalanish masalalari bo'yicha g'aznachilik bo'linmalari bilan o'zaro hamkorlik qiladi, ulardan hududlar va maktablar kesimida ijara to'lovlari tushumlari bo'yicha aniq hisobotlarni muntazam olib turadi;

– o'z faoliyati yuzasidan jamg'arma ijroiya direksiyasiga doimiy ravishda hisobot berib boradi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, hududiy xalq ta'limi boshqarmalari va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi boshqarmalari, Jamg'arma ijroiya direksiyasining hududiy vakillari har yarim yilda bir marotaba tegishli hududlar bo'yicha darsliklar harakati va saqlanishi to'g'risida umumlashtirilgan hisobotlarni, hisobotdan keyin keluvchi oyning 15-sanasidan kechiktirmasdan O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi hamda Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi hamda Jamg'armaning ijroiya direksiyasiga taqdim etishadi. Jamg'arma ijroiya direksiyasi buxgalterlik hisobini yuritadi va Jamg'arma hisob raqamlari bo'yicha pul mablag'lari harakatlari haqida hisobotlar tuzadi. Jamg'arma har yili jamg'armaning hisob raqamlarini mustaqil auditorlik

tekshiruvidan o'tkazadi va hisobotlarni ommaviy axborot vositalarida chop etadi.

Darsliklar va o'quv-metodik qo'llanmalarni xarid qilish uchun jamg'arma tomonidan moliyalashtirilgan mablag'lardan maqsadli va samarali foydalanish uchun javobgarlik O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi hamda Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi zimmasiga yuklatiladi. Ijara haqlarini to'liq hisoblanishi va to'lovlarining yig'ilishi, o'z vaqtida naqd pul tushumlarini O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki o'rnatgan tartiblar asosida bank muassasalariga topshirish bo'yicha javobgarlik umumta'lim maktablari hamda xalq ta'limining joylardagi boshqaruvi idoralari rahbarlari zimmasiga yuklatiladi. Xalq ta'limining hududiy boshqaruvi idoralari hamda o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi boshqarmalari darsliklar va o'quv-metodik qo'llanmalarning o'z vaqtida va talab darajasida yetkazilishi bo'yicha nazorat olib boradilar.

Ijara haqi to'lovlarini tushumlarini, darsliklarning o'rnatilgan tartibda saqlanishi va foydalanilishini ta'minlash, shuningdek, maktablar tomonidan darsliklar va ijara haqlari bo'yicha dastlabki hisob-kitob hujjatlarining yuritilishini nazorat qilish tegishli hududiy xalq ta'limi va moliya organlari hamda jamg'armaning ijroiya direksiyasi hududiy vakillari tomonidan amalga oshiriladi. Chet tillari bo'yicha darsliklarning o'rnatilgan tartibda saqlanishi va foydalanilishini ta'minlash, shuningdek, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari tomonidan ularning hisobini yuritishga oid dastlabki hujjatlarni nazorat qilish o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining tegishli hududiy boshqarmalari va moliya organlari tomonidan amalga oshiriladi.

**O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi
Respublika maqsadli kitob jamg'armasining 2017-yil
daromadlari ijrosi bo'yicha ma'lumot**

No	Ko'rsatkichlar	Mln. so'm
	JAMI DAROMADLAR	259 080,3
1	Yil boshiga mablag'larning qoldig'i	114 888,6
	DAROMADLAR	144 191,7
	<i>shu jumladan:</i>	
1.1	Respublika byudjetidan tushadigan tushumlar	93 698,1
1.2	Darsliklar ijariasi uchun to'lov tushumlari	40 609,3
1.3	Boshqa tushumlar va daromadlar	9 884,3

2017-yilda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Respublika maqsadli kitob jamg'armasining 2017-yil uchun daromadlari 259080,3 mln so'mni tashkil etdi. Yil boshida 114888,6 mln so'm miqdorida qoldiq mavjud bo'lgan holda jamg'arma daromadining asosiy daromadlari respublika byudjetidan tushumlarni tashkil etgan.

**12.3. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi
huzuridagi byudjetdan tashqari Respublika maqsadli
kitob jamg'armasi mablag'larini sarf qilish tartibi**

Jamg'arma mablag'lari faqat quyidagi maqsadlarda foydalilaniladi:

- o'rnatilgan tartibda shakllantirilgan va tasdiqlangan kvotalarga asosan byudjet mablag'lari hisobidan chop etilishi va qayta chop etilishi mo'jallangan darsliklar va o'quv metodik qo'llanmalarni xarid etish va yetkazish bo'yicha xarajatlarni moliyalashtirishga;

- har bir umumta'lim maktabi bo'yicha shakllantirilgan kvota asosida va ijara to'lovlaridan tushgan mablag'lar doirasida ijara tizimi uchun darsliklarni xarid qilish va yetkazib berish shartnomalariga to'lovlarni amalga oshirishga;

- jamg'armaning aylanma mablag'lari hisobidan umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari o'quvchilari hamda o'qituvchilarini bepul ta'minlash uchun chet tillari bo'yicha darsliklar va o'quv-metodik qo'llanmalarni sotib olish hamda yetkazib berish xarajatlarini moliyalashga;
- nashriyotlar, bosmaxonalar va kitob savdo korxonalari uchun ularning aylanma mablag'larini to'ldirishga maqsadli ssudalar ajratishga;
- jamg'armaning vasiylik kengashi tomonidan tasdiqlangan smeta xarajatlariga ko'ra amalga oshirilgan boshqa operatsion xarajatlarni qoplashga.

Jamg'arma:

a) O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligiga quyidagi yo'nalishlar bo'yicha maktab kutubxonalarini darslik va o'quv-metodik qo'llanmalar bilan ta'minlash xarajatlarini qoplashga mablag'lar ajratadi:

- birinchi sinf o'quvchilari uchun;
- "Mehribonlik" uylari, maxsus maktab va maktab-internatlarning tarbiyalanuvchilari bo'lgan o'quvchilar uchun;
- ijtimoiy yordamga muhtoj bo'lgan oilalardagi o'quvchilar uchun;
- ijara tizimi uchun;

b) O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi hamda Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markaziga chet tillari bo'yicha darsliklar va o'quv-metodik qo'llanmalarni sotib olish va yetkazib berish xarajatlarini to'lash uchun.

12.2-jadval

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Respublika maqsadli kitob jamg'armasining 2017-yil xarajatlari ijrosi bo'yicha ma'lumot

№	Ko'rsatkichlar	Mln so'm
	JAMI XARAJATLAR	144 338,8
1	Darsliklar va o'quv-uslubiy qo'llanmalarni byudjet mablag'lari hisobidan sotib olish va yetkazish xarajatlari	93 698,1

	<i>shu jumladan:</i>	
1.1	Birinchi sinf o'quvchilarini darsliklar bilan bepul ta'minlash xarajatlari	12 517,4
1.2	Mehribonlik uylari, maxsus məktəb və məktəb-internatlar tərbiyələnəuvchiləri və ijtimoiy yordamga muhtoj bolğan oilalardagi o'quvchilarını darsliklar bilan bepul ta'minlash xarajatlari	25 458,1
1.3	Umumiyyət o'rta təlim müəssisələrinin darsliklar, bədiiy adabiyotlar və o'quv-uslubiy qo'llanmalar bilan bepul ta'minlash bo'yicha boshqa xarajatlari	55 722,6
2	Darsliklar və o'quv-uslubiy qo'llanmalarını jamg'armanın aylanma məbləğləri hisobidan sotib olish və yetkazish xarajatlari	48 709,0
	<i>shu jumladan:</i>	
2.1	Umumiyyət o'rta təlim müəssisələri üçün iżara tizimində darsliklərinin yangilash bo'yicha xarajatlari	26 224,5
2.2	Umumiyyət o'rta və o'rta maxsus, kasb-hunar təlimi müəssisələrinin chet tillar bo'yicha darsliklar, daftarlari, o'quv-uslubiy qo'llanmalar hamda ularning multimedya ilovasi bilan ta'minlash xarajatlari	16 405,1
2.3	Umumtəlim məktəblər kutubxona fondini lotin grafikası asosidən bədiiy adabiyotlar bilan boyitish xarajatlari	6 079,4
3	Respublika məqsədli kitob jamg'arması İjroiya direktoriyası və uning hududiy vəkillərinin saqlash xarajatlari	1 931,7
	Yıl oxiridagi məbləğlarning qoldığı	114 741,4

2017-yilda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Respublika məqsədli kitob jamg'arması xarajatlarının asosiy ulushi darsliklar və o'quv-uslubiy qo'llanmalarını byudjet məbləğləri hisobidan sotib olish və yetkazish xarajatlari hissasiga to'g'ri kelgan, ya'ni, ushbu məqsədlər üçün 93698,1 mln so'm məbləğ sarflangan.

O'zbekiston Respublikasi Xalq təlimi vazirligi hamda Oliy və o'rta maxsus təlim vazirlığının O'rta maxsus, kasb-hunar təlimi markazi tomonidan xarajatlari

smetasida nazarda tutilmagan mablag'larni (shu jumladan, nashriyotlar, bosmaxonalar va kitob savdosi korxonalari, shuningdek darsliklar va o'quv-metodik qo'llanmalarni yetkazib berishni amalga oshiruvchi tashkilotlar tomonidan shartnomma majburiyatlari bajarilmagani uchun jarimalar va/yoki penyalarni qo'llashdan olingan mablag'lar)ni sarflash taqiqlanadi va mazkur mablag'lar Jamg'armaga qaytarilishi lozim.

Xaridlar bo'yicha tasdiqlangan kvotalariga muvofiq:

- O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi darsliklar va o'quv-metodik qo'llanmalarni xarid qilish uchun buyurtmalarni tanlov asosida joylashtiradi. Bunda darslik va o'quv-metodik qo'llanmalarni umumta'lim maktablariga yetkazib berish "O'quv ta'lim-ta'minot" davlat unitar korxonasi tomonidan amalga oshiriladi;

- O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi chet tillari bo'yicha darsliklar va o'quv-metodik qo'llanmalarni xarid qilish va yetkazib berish uchun buyurtmalarni tanlov asosida joylashtirishni amalga oshiradi.

Umumta'lim maktablari uchun darsliklar va o'quv-metodik qo'llanmalarni, shuningdek, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari uchun chet tillari bo'yicha darsliklar va o'quv-metodik qo'llanmalarni xarid qilish va yetkazib berish borasida O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi hamda Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi bilan tuzilgan shartnomalar bo'yicha xarajatlarni jamg'arma hisobidan moliyalashtirish O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan belgilanadigan tartibga muvofiq amalga oshiriladi.

Chakana savdo tarmog'i orqali sotiladigan darsliklarni ishlab chiqarish uchun taqsimlangan ham kvotalariga ega bo'lgan nashriyotlar, bosmaxonalar va kitobsavdo korxonalariga aylanma jamg'armalari yetmay qolgan taqdirda O'zbekiston Matbuot va axborot agentligining taklifiga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi

belgilab beradigan tartib asosida jamg'arma mablag'lari hisobidan ssudalar ajratilishi mumkin.

Bahs-munozara va nazorat uchun savollar

1. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Respublika maqsadli kitob jamg'armasining asosiy vazifalarini sanab o'ting.
2. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Respublika maqsadli kitob jamg'armasining mablag'laridan foydalanish yo'nalishlarini izohlang.
3. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Respublika maqsadli kitob jamg'armasi daromadlarini shakllantirish manbalarini sanab o'ting.
4. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Respublika maqsadli kitob jamg'armasi mablag'larini sarflash tartibini izohlang.

**13-BOB: O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR
MAHKAMASI HUZURIDAGI QISHLOQ XO'JALIGI
MAHSULOTLARINING DAVLAT XARIDI VA QISHLOQ
XO'JALIGINI TEXNIKA BILAN JIHOZLASHNI MAQSADLI
MOLIYALASHTIRISH JAMG'ARMASI**

Reja:

- 13.1 Jamg'arma faoliyatining tashkiliy-huquqiy asoslari**
- 13.2. Jamg'armaning daromadlari va xarajatlari tizimi**
- 13.3. Jamg'arma mablag'laridan foydalanishni nazorat qilish**

13.1. Jamg'arma faoliyatining tashkiliy-huquqiy asoslari

Qishloq xo'jalik tovar ishlab chiqaruvchilari tomonidan davlat ehtiyojlari uchun yetkazib berilgan mahsulotlarga o'z vaqtida hisob-kitob qilinishini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998-yil 31-dekabr kuni PF-2165-sonli farmoni qabul qilindi va ushbu farmonga asosan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzurida davlat ehtiyojlari uchun xarid qilinadigan qishloq xo'jalik mahsulotlarining hisob-kitob Jamg'armasi tashkil etildi.

Mazkur farmon O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 27-iyundagi PF-5095-sonli "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Qishloq xo'jaligi mahsulotlarining davlat xaridi va qishloq xo'jaliginini texnika bilan jihozlashni maqsadli moliyalashtirish jamg'armasini tashkil etish to'g'risida"gi farmoniga asosan o'z kuchini yo'qotdi. Bugungi kunda Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini barqaror rivojlantirish, qishloq xo'jaligi ekinlari hosildorligini oshirish va davlat xaridi uchun qishloq

xo'jaligi mahsulotlari yetishtirishning barcha tashkiliy bo'g'lnlari va bosqichlarida moliyalashtirishning uzviy va samarali yagona tizimini yanada takomillashtirish, shuningdek, agrosanoat majmuasi tovar ishlab chiqaruvchilari texnika parkini zamонавиу, yuqori samarali qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish texnikasi bilan tubdan yangilash va jihozlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat ehtiyojlari uchun xarid qilinadigan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining hisob-kitob jamg'armasi negizida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Qishloq xo'jaligi mahsulotlarining davlat xaridi va qishloq xo'jaligini texnika bilan jihozlashni maqsadli moliyalashtirish jamg'armasi tashkil etildi.

2017-yil 27-iyunda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 3096-sonli "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Qishloq xo'jaligi mahsulotlarining davlat xaridi va qishloq xo'jaligini texnika bilan jihozlashni maqsadli moliyalashtirish jamg'armasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi qarori qabul qilindi va unga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat xaridi uchun qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish va qishloq xo'jaligini texnika bilan jihozlashni maqsadli moliyalashtirish jamg'armasini tashkil etish to'g'risida" 2017-yil 27-iyundagi PF-5095-sonli farmonini ijro etish hamda qishloq xo'jaligi mahsulotlarining davlat xaridi va zamонавиу, yuqori ishlab chiqarish quvvatiga ega qishloq xo'jaligi texnikasini yetkazib berishni maqsadli moliyalashtirishning prinsipial yangi mexanizmini joriy etish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi qishloq xo'jaligi mahsulotlarining davlat xaridi va qishloq xo'jaligini texnika bilan jihozlashni maqsadli moliyalashtirish jamg'armasini boshqarish departamenti tashkil etildi.

Jamg'arma o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga va qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari qarorlariga, O'zbekiston Respublikasi

Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, shuningdek, boshqa qonun hujjatlariga amal qiladi.

Jamg'arma o'z faoliyatini davlat boshqaruvi boshqa organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari va boshqa tashkilotlar bilan hamkorlikda amalga oshiradi. Jamg'arma rivojlanayotgan va rivojlangan davlatlarning agrar sohasini moliyalashtirish bo'yicha tajribasini o'rganish va keyinchalik uning ijobjiy tomonini respublikada tatbiq etishda tegishli xalqaro tashkilotlar va moliyaviy institutlar bilan hamkorlik qiladi.

Quyidagilar Jamg'armaning agentlari etib belgilandi:

– paxta va g'alla yetishtirish, xarid qilish, shuningdek, zamonaviy, yuqori ishlab chiqarish quvvatiga ega qishloq xo'jaligi texnikasini imtiyozli lizing shartlarida yetkazib berishni moliyalashtirish bo'yicha moliya agenti — "Agrobank" aksiyadorlik tijorat banki;

– paxta xomashyosini xarid qilish, saqlash, qayta ishlash va paxta mahsulotlarini sotish bo'yicha tijorat agenti — "O'zpaxtasanoat" aksiyadorlik jamiyati;

– g'allani xarid qilish, saqlash, qayta ishlash va sotish bo'yicha tijorat agenti — "O'zdonmahsulot" aksiyadorlik kompaniyasi;

– zamonaviy, yuqori ishlab chiqarish quvvatiga ega qishloq xo'jaligi texnikasini imtiyozli lizing shartlarida yetkazib berish bo'yicha tijorat agenti — "O'zagrolizing" aksiyadorlik jamiyati.

– moliya agenti "Agrobank" ATBga — maxsus ochiladigan maqsadli hisobvaraqlar orqali davlat xaridi uchun yetkazib beriladigan mahsulotlarga, shu jumladan zamonaviy, yuqori ishlab chiqarish quvvatiga ega qishloqxo'jaligi texnikasini lizing shartlarida yetkazib berishga ajratiladigan mablag'lardan maqsadli foydalаниishi va hisob-kitoblarning o'z vaqtida amalga oshirilishi, shuningdek, Jamg'armaning maqsadli mablag'larini va tegishli komissiya to'lovlarini belgilangan muddatlarda qaytarilishi yuzasidan nazorat o'rnatish;

- Jamg'armaga — davlat xaridi uchun paxta va g'allaning umumiy hajmi bo'yicha, shuningdek, zamonaviy, yuqori unumli qishloq xo'jaligi texnikasini imtiyozli lizing shartlarida yetkazib berish bo'yicha tijorat agentlari bilan Bosh bitim tuzish;

- tijorat agentlariga — Jamg'arma nomidan hamda u bilan kelishilgan holda, mahsulot xarid qilishda, kontraktatsiya shartnomalarini o'z vaqtida tuzish, xarid qilinadigan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hisob-kitobini qilish, ularni xarid qilish, saqlash va qayta ishslashda belgilangan standartlarga rioya etilishi, shuningdek, zamonaviy, yuqori ishlab chiqarish quvvatiga ega qishloq xo'jaligi texnikasining imtiyozli lizing shartlarida yetkazib berilishi doirasida nazoratni ta'minlash yuklansin.

Jamg'arma O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat ehtiyojlari uchun xarid qilinadigan qishloq xo'jalik mahsulotlarining hisob-kitob jamg'armasining barcha huquqlari, majburiyatlari va shartnomalari bo'yicha huquqiy vorisi hisoblanadi.

Quyidagilar Jamg'armaning asosiy vazifalari hisoblanadi:

- davlat xaridi uchun yetishtiriladigan paxta va g'alla hosili hisob-kitobini o'z vaqtida moliyalashtirish;

- davlat xaridi uchun qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishda ishtirok etadigan fermer xo'jaliklari va boshqa qishloq xo'jaligi tashkilotlariga zamonaviy, yuqori unumli qishloq xo'jaligi texnikasini imtiyozli lizing shartlarida yetkazib berishni rag'batlantirish uchun qaytarib berish asosida qarz mablag'lari ajratish;

- maqsadli ajratiladigan mablag'lardan aniq va samarali foydalanilishini tizimli nazorat qilishni ta'minlash;

- xarid qilinadigan mahsulot uchun hisob-kitoblarni ta'minlaydigan barcha bo'g'inlar — O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, banklar, tayyorlov, ta'minotchi, xizmat ko'rsatuvchi, yetkazib beruvchi va lizing tashkilotlari, ta'minotchilar, shuningdek, qishloq xo'jaligi mahsuloti ishlab chiqaruvchilari faoliyatini muvofiqlashtirish;

– zamonaviy axborot va kompyuter texnologiyalaridan foydalanish asosida hisob-kitob tizimini yanada takomillashtirish va joriy etishni moliyalashtirish;

– rivojlanayotgan va rivojlangan davlatlarning agrar sohani moliyalashtirish bo'yicha tajribasini keyinchalik uning ijobiylari natijalarini respublikada joriy etish maqsadida o'rganish.

○ *Jamg'arma o'ziga yuklangan vazifalarni bajarish uchun quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi:*

– Jamg'armaning daromadlari va xarajatlarning har yilgi balanslari loyihibalarini ishlab chiqadi, belgilangan tartibda va muddatlarda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga taqdim etadi;

– Jamg'arma mablag'lari tushishini tahlil qiladi va o'z vaqtida tushishini ta'minlaydi;

– Departamentni saqlash xarajatlari smetasini ishlab chiqadi va tasdiqlash uchun Jamg'arma kengashiga kiritadi;

Jamg'arma daromadlari va xarajatlari hisobini yuritadi va uning ijrosi yuzasidan har oyda Vazirlar Mahkamasiga axborot taqdim etadi

Oldingi tahririga qarang.

– davlat ehtiyoji uchun xarid qilinadigan paxtaning umumiy hajmi bo'yicha — «O'zpaxtasanoat» aksiyadorlik jamiyati bilan, g'alla xarid qilish umumiy hajmi bo'yicha — “O'zdonmahsulot” aksiyadorlik kompaniyasi bilan, zamonaviy, yuqori unumli qishloq xo'jaligi texnikasini imtiyozli lizing shartlarida yetkazib berish bo'yicha — “O'zagrolizing” aksiyadorlik jamiyati bilan bosh bitim tuzadi;

– O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi bilan birgalikda har yilgi hosil uchun agrotexnologik xaritalardan kelib chiqqan holda paxta xomashyosi va g'alla hosilini yetishtirish xarajatlarning har bir turini moliyalashtirish uchun ajratiladigan kreditlarning eng ko'n miqdori yuzasidan tavsiyalarni ishlab chiqadi va tasdiqlaydi;

– davlat xaridi uchun yetishtiriladigan paxta xomashyosi va g’alla hosili uchun yakuniy hisob-kitoblarni o’z vaqtida, shuningdek, Jamg’arma mablag’laridan maqsadli va samarali foydalanilishi yuzasidan belgilangan tartibda nazoratni amalga oshiradi;

– Jamg’arma kengashiga jamg’arma mablag’laridan maqsadli foydalanishni tekshirishlar jarayonida aniqlangan qonun buzilishlar va kamchiliklar to‘g’risidagi axborotni, shuningdek ularni bartaraf etish, Jamg’arma agentlariga bosh kelishuv va qonun hujjatlarida nazarda tutilgan moliyaviy sanksiyalarini (jarimalar va penyalar) qo’llash bo‘yicha belgilangan tartibda takliflar kiritadi;

– Jamg’arma daromadlari va xarajatlari to‘g’risida Hukumat qarori loyihasini ishlab chiqadi va belgilangan tartibda O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga kiritadi.

○ *Jamg’arma o’ziga yuklangan vazifa va funksiyalarini bajarish doirasida quyidagi huquqlarga ega:*

– davlat xaridi uchun yetishtiriladigan paxta va g’alla hosili va zamonaviy yuqori unumli qishloq xo’jaligi texnikasini imtiyozli lizing shartlarida yetkazib berishni moliyalashtirishga ajratilgan mablag’lardan maqsadli foydalanish bo‘yicha taftish va tekshirishlarni o’tkazish uchun O’zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining Nazorat-taftish Bosh boshqarmasi va uning hududiy boshqarmalarini jalb etish;

– xizmat ko’rsatuvchi tijorat banklaridan Jamg’arma mablag’larining harakati to‘g’risidagi ma’lumotlarni olish;

– jamg’armaning moliya («Agrobank» aksiyadorlik tijorat banki) va tijorat (“O’zpaxtasanoat” aksiyadorlik jamiyati, “O’zdonmahsulot” aksiyadorlik kompaniyasi) agentlaridan

— Jamg’arma mablag’laridan foydalanish bo‘yicha yillik buxgalteriya va statistika hisobotlarini olish;

— “O’zagrolizing” aksiyadorlik jamiyatidan har yilgi buxgalteriya va statistika hisobotlarini, davlat xaridi uchun qishloq xo’jalik mahsulotlarini yetishtirishda ishtirok etadigan fermer xo’jaliklari va boshqa qishloq xo’jaligi tashkilotlariga zamonaviy, yuqori unumli qishloq xo’jaligi

texnikasini imtiyozli lizing shartlarida yetkazib berish uchun qaytarish asosida ajratilgan qarz mablag'laridan maqsadli foydalanilishi to'g'risidagi ma'lumotlarni olish;

– Jamg'arma mablag'laridan maqsadsiz foydalanilganligi aniqlanganda va ilgari ajratilgan mablag'lar va ularga hisoblangan foizlar o'z vaqtida qaytarilmaganda moliyalashtirishni to'xtatish;

– moliya va tijorat agentlari maqsadli mablag'larni qaytarish bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmaganda, Jamg'armaga qarzdorlarning barcha hisobvaraqlaridagi mablag' qoldiqlarini ko'chirib olish hisobiga o'z talablarini to'la qondiradi.

– Jamg'arma qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

◦ *Jamg'arma quyidagilarga majbur:*

– Davlat xaridi uchun yetishtiriladigan paxta va g'alla hosili xarajatlari va yakuniy hisob-kitoblarni o'z vaqtida moliyalashtirishni ta'minlash;

– Jamg'arma mablag'laridan maqsadli va samarali foydalanishini doimiy nazorat qilish;

– Jamg'arma daromadlarining istiqboldagi ko'rsatkichlari bajarilishini tahlil qilish va mablag'larning kelib tushishiga salbiy ta'sir qilgan aniqlangan omillar asosida ularni bartaraf etish bo'yicha tegishli choralar ko'rish.

13.2. Jamg'armaning daromadlari va xarajatlari tizimi

Quyidagilar Jamg'armani shakllantirishning asosiy manbalari hisoblanadi:

1. Paxta tolasini eksport qilish va ichki iste'molchilarga sotishdan tushadigan avans mablag'lar, shuningdek, ular yuzasidan yakuniy hisob-kitob qilishdan tushadigan mablag'lar;

2. Tasdiqlangan preyskurantdagi ulgurji narxlardan yuqori bo'lgan mablag'lar, paxta tolasini sotish yakunlari bo'yicha tegishli yil hosili — ijobiy tafovutining to'liq miqdordagi yakuniy summasi;

3. Don, un va un mahsulotlarini sotish va qayta baholashdan, shuningdek, mahsulotlar eksportidan tushgan valyuta mablag'larini erkin birja savdolari orqali sotishdan tushadigan mablag'lar;

4. Maqsadli ajratilgan mablag'larni qaytarishdan tushadigan tushumlar va ularga hisoblangan foizlar;

5. Byudjet tizimining byudjet mablag'lari;

6. Jalb etiladigan kreditlar;

7. Xalqaro moliya institutlari grantlari va donor tashkilotlar mablag'lari;

8. Jamg'armaning bo'sh qoldiq mablag'larini joylashtirishdan tushadigan daromadlar;

9. Qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar.

Jamg'arma mablag'laridan quyidagi maqsadlarda foydalaniladi:

– davlat xaridi uchun yetishtiriladigan paxta va g'alla hosilini moliyalashtirish;

– davlat xaridi uchun qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishda ishtirok etadigan fermer xo'jaliklari va boshqa qishloq xo'jaligi tashkilotlariga zamonaviy, yuqori ishlab chiqarish quvvatiga ega qishloq xo'jaligi texnikasini imtiyozli lizing shartlarida yetkazib berishni moliyalashtirish;

– paxta tolasi, don va don mahsulotlarining tasdiqlangan preyskuranndagi ulgurji narxlardan past bo'lgan jahon narxlari amalda bo'lgan davrdagi salbiy tafovutni zarurat bo'lganda qoplash;

– urug'lik paxta yetishtiruvchi xo'jaliklar, nav originatorlari bo'lgan ilmiy muassasalarga, shuningdek, urug'lik chigitni tayyorlashda ishtirok etgan boshqa subyektlarga to'lanadigan ustama mablag'lari xarajatlarini qoplash;

– paxta xomashyosi yetishtirishda fermer xo'jaliklari uchun zarur bo'lgan moddiy-texnika resurslari xaridi uchun tayyorlov korxonalarining xarajatlarini qoplash;

– jalb qilingan kredit va unga hisoblangan foizlarni qaytarish;

- rivojlanayotgan va rivojlangan davlatlarning agrar sohasini moliyalashtirish bo'yicha tajribasini keyinchalik uning ijobjiy natijalarini respublikada joriy qilish maqsadida o'rganish;
- Departament faoliyatini ta'minlash xarajatlarini moliyalashtirish.

Jamg'arma barcha turdag'i soliqlardan va davlat maqsadli jamg'armalariga majburiy ajratmalardan ozod qilingan. Jamg'armaning barcha hisob raqamlariga, shu jumladan, Jamg'arma aylanma mablag'lari bo'yicha operatsiyalar o'tkaziladigan tegishli bank hisob raqamlariga nisbatan cheklovchi choralar qo'llanilmaydi.

Jamg'arma mablag'lardan maqsadli foydalanishni, to'lovlarning o'z vaqtida o'tishi va hisob-kitoblarning o'z vaqtida amalga oshirilishini nazorat qilish yilning har choragida yoppasiga va tanlab tekshirishlar o'tkazish yo'li orqali O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining Davlat moliyaviy nazorati boshqarmasiga yuklandi.

Jamg'arma mablag'lari Jamg'arma moliya agentiga Jamg'arma bilan moliya va tijorat agentlari o'rtaida tuzilgan Bosh bitimga asosan maxsus ochilgan maqsadli hisobvaraqlar orqali ajratiladi.

Tuzilgan Bosh bitimga muvofiq va maxsus ochiladigan maqsadli hisobvaraqlarni qo'llash orqali qilingan hisob-kitoblarga asosan:

- tijorat agentlari moliya agenti orqali olingan Jamg'armaning maqsadli mablag'larni xizmat ko'rsatuvchi banklar orqali tayyorlov tashkilotlariga yuboradilar;
- tayyorlov tashkilotlari tushgan mablag'larni qishloq xo'jaligi tashkilotlаридан давлат ehtiyojlari uchun xarid qilinayotgan mahsulotlar uchun hisob-kitob qilishga ishlata dilar.

- "O'zagrolizing" aksiyadorlik jamiyati tushgan mablag'larni zamonaviy, yuqori unumli qishloq xo'jaligi texnikasi ishlab chiqarishni rag'batlantirishga ishlatadi. Tayyorlov tashkilotlari qishloq xo'jaligi tashkilotlari bilan tuzilgan kontraktatsiya shartnomalariga muvofiq, sug'urta tashkilotlari bilan sug'urtalash shartnomalarini tuzgan

holda mablag'larni quyidagi maqsadlarga sarflanishini ta'minlaydilar.

– amalda yetkazib berilgan g'alla qiymatining 100 foizi miqdorida hisob-kitob qilish;

– O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumati qarorlarida belgilangan miqdorlarda paxta xomashyosi uchun hisob-kitob qilish;

– davlat xaridi uchun yetishtiriladigan mahsulotlarning qo'shimcha hajmi uchun hisob-kitob qilish.

Yetkazib beriladigan mahsulot va qishloq xo'jaligi texnikasi hisob-kitobi uchun Jamg'arma mablag'larini hisobga kiritish va hisobi O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Toshkent shahar Bosh boshqarmasida ochiladigan maxsus hisobvaraqlarda quyidagilarni moliyalashtirish uchun yuritiladi:

- shartnomalarda ko'rsatilgan hajmda paxta xomashyosi va g'alla yetishtirish;

- zamonaviy, yuqori unumli qishloq xo'jaligi texnikasini imtiyozli lizing shartlarida yetkazib berish.

Kreditlarni qaytarish uchun Jamg'arma mablag'larini jamlash va ularning hisobi mahsulotlar va qishloq xo'jaligi texnikalarining turlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Toshkent shahar Bosh boshqarmasida ochiladigan maxsus hisobvaraqlarda yuritiladi.

Xalqaro moliyaviy institutlar grantlari va donor tashkilotlar mablag'lari O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Toshkent shahar Bosh boshqarmasida ochiladigan maxsus valyuta hisobvaraqlarida yuritiladi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotib olish bo'yicha tuzilgan kontraktatsiya shartnomalaridagi hajmlarni xarid qilishni moliyalashtirish uchun Jamg'armaning maxsus hisobvaraqlariga quyidagi mablag'lar kirim qilinadi:

a) paxta tolasi bo'yicha:

- paxta tolasini eksport va ichki iste'molchilarga sotishdan tushadigan bo'nak va yakuniy hisob-kitob mablag'lari «O'zpaxtasanoat» aksiyadorlik jamiyatining maxsus hisobvaraqlariga;

– “O’zpaxtasanoat” AJ tomonidan olingan kredit mablag’lari bo'yicha qarzlarini qoplash hisobiga, qarzdorlik mayjud bo'lmaganda — Jamg’armaning aylanma mablag’larini to’ldirishga yo’naltiriladigan, tasdiqlangan ulgurji preyskurst narxlardan ortiq bo’lgan mablag’lar, tegishli yil hosili paxta tolasini sotish yakunlari bo'yicha — ijobiy tafovutning to’liq miqdordagi yakuniy summasi;

– maqsadli mablag’larni qaytarish uchun maxsus hisobvaraqa qamida jamlangan vaqtincha bo’sh mablag’lar;

– qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa mablag’lar.

b) g’alla bo'yicha:

– don, un va un mahsulotlarini sotish va qayta baholashdan, shuningdek, ushbu mahsulotlar eksportidan tushgan valyuta mablag’larini erkin birja savdolari orqali sotishdan tushadigan mablag’lar;

– maqsadli mablag’larni qaytarish uchun maxsus hisobvaraqa qamida jamlangan vaqtincha bo’sh mablag’lar;

– qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa mablag’lar kirim qilinadi.

“O’zagrolizing” aksiyadorlik jamiyati tomonidan davlat xaridi uchun yetishtiriladigan qishloq xo’jaligi mahsulotlarini yetishtirishda ishtirok etadigan fermer xo’jaliklari va boshqa qishloq xo’jaligi tashkilotlariga zamonaviy, yuqori unumli qishloq xo’jalik texnikasini imtiyozli lizing shartlarida yetkazib berishni moliyalashtirishga ajratilgan qarz mablag’lari va unga hisoblangan foizlarni jamlash Jamg’armaning maxsus hisobvaraqlarida yuritiladi.

Jamg’armaning maqsadli mablag’larini qaytarish Jamg’armaning maqsadli mablag’larni qaytarish hisobvaraqlariga moliya agentidan davlat xaridi uchun tijorat agentlari tomonidan xarid qilinadigan qishloq xo’jaligi mahsulotlarini hisob-kitob qilishdan va yetkazib berilgan zamonaviy, yuqori ishlab chiqarish quvvatiga ega qishloq xo’jaligi texnikasi uchun tushadigan mablag’lar hisobidan Jamg’armaning maxsus hisobiga tushiriladi.

Moliya agenti va uning filiallari tomonidan Jamg’armaning maqsadli mablag’larini qaytarish “O’zdonmahsulot” aksiyadorlik kompaniyasining don, un

va un mahsulotlarini sotishdan tushgan mablag'lari, shuningdek, "O'zagrolizing" aksiyadorlik jamiyatining zamonaviy yuqori unumli qishloq xo'jaligi texnikasini imtiyozli lizing shartlarida yetkazib berishdan olgan daromadlari (asosiy qarz va foizlari bilan) hisobiga amalga oshiriladi.

"O'zpaxtasanoat" aksiyadorlik jamiyatni Jamg'armaning mablag'larini paxta tolasini sotishdan tushgan mablag'lar hisobidan tijorat banklari orqali qaytaradi.

"O'zpaxtasanoat" aksiyadorlik jamiyatining tayyorlov tashkilotlarining, "O'zdonmahsulot" aksiyadorlik kompaniyasining paxta tolasi, don, un va un mahsulotlarini sotishdan, "O'zagrolizing" aksiyadorlik jamiyatining esa lizing xizmatidan tushgan mablag'larini jamlash maqsadida "Jamg'arma bilan maqsadli hisob-kitob qilish uchun maxsus hisobvaraqlar" hisobvaraqlari ochiladi.

Paxta tolasi, don va un sotishdan, shuningdek, zamonaviy yuqori unumli qishloqxo'jaligi texnikasini imtiyozli lizing shartlarida etkazib berishdan va unga hisoblangan foizlardan tushgan barcha pul tushumlari ushbu hisobvaraqlariga kirim qilinadi hamda Jamg'arma mablag'laridan avval ajratilgan maqsadli mablag'larni moliya agentiga qaytarish va ular bo'yicha hisoblangan foizlarni to'lash uchun ishlatiladi.

Moliya va tijorat agentlari belgilangan jadvallarga muvofiq Jamg'armaning maqsadli mablag'larini qaytarish bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmasa yoki to'la bajarmasa, Jamg'armaga qarzdorlarning barcha hisobvaraqlaridagi mablag' qoldiqlarini ko'chirib olish hisobiga o'z talablarini to'la qondirish huquqi beriladi.

Jamg'armadan ajratiladigan mablag'larni maqsadga muvofiq ishlatish, qishloqxo'jaligi tashkilotlari tomonidan etkazib berilgan mahsulotlarga, etkazib berilgan moddiy-teknika resurslari va ko'rsatilgan xizmatlar, bajarilgan ishlar uchun to'liq hisob-kitob qilishni o'z vaqtida amalga oshirish javobgarligi kontraktatsiya shartnomalarini

bajarishda ishtirok etayotgan tijorat banklari va qishloqxo‘jaligi tashkilotlari rahbarlariga yuklanadi.

Tijorat banklari, “O‘zpaxtasanoat” aksiyadorlik jamiyati, “O‘zdonmahsulot” aksiyadorlik kompaniyasi, “O‘zagrolizing” aksiyadorlik jamiyati va ularning hududiy filiallari va tashkilotlari rahbarlari, shuningdek, qishloq xo‘jalik tashkilotlarining rahbarlari va bosh buxgaltyerlari Jamg‘arma mablag‘larini maqsadga muvofiq ishlatmaganligi, hisob-kitob qilish tartibini buzganligi uchun qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javobgarlikka tortiladilar.

13.3. Jamg‘arma mablag‘laridan foydalanishni nazorat qilish

Jamg‘arma mablag‘larining maqsadli sarflanishi, to‘lovlar va hisoblarni to‘liq hamda o‘z vaqtida amalga oshirish ustidan nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining Davlat moliyaviy nazorati bosh boshqarmasi va uning hududiy bo‘linmalari tomonidan amalga oshiriladi.

Davlat xaridi uchun etishtiriladigan mahsulotlarni sotib olish, saqlash va qayta ishlash, shuningdek qishloqxo‘jaligi texnikalarini etkazib berish sifatini nazorat qilish:

- paxta xomashyosi va paxta tolasi bo‘yicha — «O‘zstandart» agentligining O‘zbekiston paxta mahsulotlarini sertifikatlash «Sifat» markazi davlat korxonasi tomonidan;

- g‘alla bo‘yicha — O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat don inspeksiyasi tomonidan;

- qishloqxo‘jaligi texnikasi bo‘yicha — O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O‘zbekiston qishloqxo‘jaligi texnikasi va texnologiyalarini sertifikatlash va sinash davlat markazi tomonidan amalga oshiriladi.

- Jamg‘arma kengashi Jamg‘armaning yuqori organi hisoblanadi. Jamg‘arma kengashining shaxsiy tarkibi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan tasdiqlanadi.

Jamg'arma Kengashi:

– Jamg'arma faoliyatining asosiy yo'nalishlarini belgilaydi;

– Departament tomonidan taqdim etilgan Jamg'arma balansini ko'rib chiqadi, qaror qabul qiladi va ularni tasdiqlash uchun belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga kiritadi;

– Departamentning, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi, "O'zpaxtasanoat" aksiyadorlik jamiyatni, "O'zdonmahsulot" aksiyadorlik kompaniyasi va "O'zagrolizing" aksiyadorlik jamiyatining davlat xaridi uchun paxta va g'alla hosili etishtirish, zamonaviy, yuqori unumli qishloqxo'jaligi texnikalarini imtiyozli lizing shartlarida etkazib berish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlari, ajratilgan mablag'lardan maqsadli foydalanishi to'g'risidagi hisobotlarini eshitadi;

– O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga Jamg'armaning daromadlari va xarajatlarini shakllantirish tartibini takomillashtirishga doir takliflar kiritadi;

– mehnatga haq to'lash fondini shakllantirish, xodimlarni taqdirlash va moddiy rag'batlantirish, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va Departamentning ko'zda tutilmagan boshqa xarajatlarini moliyalashtirish tartibini tasdiqlaydi;

– O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining Nazorat-taftish Bosh boshqarmasiga aniqlangan holatlar bo'yicha tekshirish va taftishlar o'tkazish bo'yicha ko'rsatma beradi, ularning natijasini ko'rib chiqadi, ko'rib chiqish yakuni bo'yicha tegishli qaror qabul qiladi va Departamentga bajarish uchun yuboradi.

Departament Jamg'armaning ijro etuvchi organi, Jamg'armani boshqarish bo'yicha funksiyasini bajaruvchi hisoblanadi. Departamentning tuzilmasi va shtatdagi xodimlari soni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan tasdiqlanadi. Departamenti saqlash xarajatlari Jamg'arma mablag'lari va qonun hujjatlarida taqiqilanmagan boshqa manbalar hisobidan amalga oshiriladi. Departament davlat muassasasi shaklidagi

yuridik shaxs hisoblanadi, mustaqil balansga, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Toshkent shahar Bosh boshqarmasi Hisob-kitob kassa markazida milliy va chet el valyutasida tegishli maxsus hisobvaraqlarga, O'zbekiston Respublikasi Davlat gerbi tasviri tushirilgan va o'z nomi davlat tilida yozilgan muhr va blankalarga ega bo'ladi. Departament Jamg'armaning daromadlari va xarajatlari ijrosi to'g'risidagi buxgalteriya hisobotini tuzadi va uni belgilangan tartibda Jamg'arma kengashiga taqdim etadi.

Departamentga Jamg'arma kengashi tomonidan saylanadigan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan lavozimga tasdiqlanadigan va lavozimdan ozod etiladigan direktor boshchilik qiladi. Departament direktori maqomiga, moddiy ta'minot, ijtimoiy va transport xizmati ko'rsatish bo'yicha shart-sharoitlariga ko'ra vazir o'rnbosariga tenglashtiriladi.

Departament direktori:

– Departament faoliyatiga umumiy rahbarlik qiladi va Jamg'armaga yuklangan vazifa va funksiyalarining bajarilishi uchun shaxsan javob beradi.

– Davlat xaridi uchun etishtiriladigan paxta va g'alla hosili hisob-kitobini moliyalashtirishga ajratilgan, Jamg'armaning mablag'laridan foydalanishda, shuningdek, zamonaviy, yuqori ishlab chiqarish quvvatiga ega qishloqxo'jaligi texnikasini imtiyozli lizing shartlarida etkazib berishni rag'batlantirish uchun qaytarib berish asosida ajratilgan qarz mablag'laridan foydalanilishda vakolatlari bo'limgan mansabdor shaxslarning aralashuviga yo'llidagi urinishlari to'g'risida tegishli axborotni qonun hujjatlariga muvofiq Jamg'arma kengashiga kiritadi;

– o'tkazilgan tekshirish va taftishda aniqlangan holatlar bo'yicha Jamg'arma kengashi qarorini ijrosini ta'minlaydi;

– Departament tuzilmasiga xodimlarning cheklangan soni doirasida o'zgartirishlar kiritadi;

– Departamentning xarajatlar smetasi va shtatlar jadvalini tasdiqlaydi;

– Departament xodimlarini belgilangan tartibda lavozimga tayinlaydi va lavozimdan ozod qiladi, shuningdek Departament xodimlarini rag'batlantirish bo'yicha qarorlar qabul qiladi;

– Jamg'arma mablag'larini shakllantirish va sarflash masalalariga oid tushuntirishlar beradi;

– boshqa qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

Departament xodimlarining ish haqi qonun hujjatlarida belgilangan lavozim maoshi, mukofot, qushimcha va ustamalardan iborat.

Departament xodimlariga har yili bir marotaba rag'batlantirish yo'li bilan ko'p yillik xizmat uchun ustamalar to'lanadi. Ko'p yillik xizmat uchun ustamalar lavozim maoshiga koeffitsientlarda, rag'batlantirish koeffitsientini hisobga olgan holda hisoblanadi.

Ish stoji Jamg'arma kengashi tomonidan tasdiqlanadigan tartibga muvofiq rag'batlantiriladigan ko'p yillik xizmat uchun ustamalar belgilash huquqini beradi.

Jamg'armaning mintaqaviy inspektorlari "O'zpaxtasanoat" AJning mintaqaviy paxta terminallariga biriktirib qo'yiladi va bevosita Departament shtatlarida turadi.

"O'zpaxtasanoat" aksiyadorlik jamiyatining mintaqaviy paxta terminallari mintaqaviy inspektorlarni alohida xona, ofis jihozlari, "Agromarkaz" monitoring axborot bazasiga ulangan kompyuter va axborot-kommunikatsiya texnikalari bilan ta'minlaydi.

Mintaqaviy inspektorlarga Jamg'arma mablag'laridan belgilangan maqsadda foydalanilishi, to'lovning o'z vaqtida o'tishi, hisob-kitoblarining to'liq amalga oshirilishi yuzasidan davlat moliyaviy nazoratini ta'minlash vazifasi yuklanadi.

Mintaqaviy inspektorlar quyidagi huquqlarga ega:

– moliya va tijorat agentlaridan tegishli malumot va axborotlarni olish;

– moliya va tijorat agentlarining mansabdor va mas'ul shaxslaridan nazorat davomida paydo bo'ladigan masalalar bo'yicha tushuntirishlar berishni, shuningdek nazorat

natijalari bo'yicha rasmiylashtiriladigan hujjatlarni imzolashni talab qilish;

- moliya va tijorat agentlari mansabdor va mas'ul shaxslarining tushuntirishlar berish va nazorat natijalari bo'yicha rasmiylashtiriladigan hujjatlarni imzolashdan bosh tortganliklari to'g'risida dalolatnoma tuzish va tegishli axborotni Departamentga taqdim etish.

"Agrobank" aksiyadorlik tijorat banki paxta va g'alla etishtirish, xarid qilish, shuningdek zamonaviy, yuqori unumli qishloqxo'jaligi texnikasini imtiyozli lizing shartlarida etkazib berishni moliyalashtirish bo'yicha Jamg'armaning moliya agenti hisoblanadi.

Jamg'armaning moliya agentiga maxsus ochiladigan maqsadli hisobvaraqlar orqali davlat xaridi uchun etkazib beriladigan mahsulotlarga, shu jumladan zamonaviy, yuqori ishlab chiqarish quvvatiga ega qishloqxo'jaligi texnikasini lizing shartlarida etkazib berishga ajratiladigan mablag'lardan maqsadli foydalanilishi va hisobkitoblarning o'z vaqtida amalga oshirilishi, shuningdek Jamg'armaning tegishli mablag'larini va tegishli komissiya to'lovlarining belgilangan muddatlarda qaytarilishi yuzasidan nazorat o'rnatish vazifasi yukланади.

"Agrobank" aksiyadorlik tijorat banki va uning filiallarida davlat xaridi uchun etishtiriladigan paxta va g'alla hosiliga, zamonaviy, yuqori unumli qishloqxo'jaligi texnikasini imtiyozli lizing shartlarida etkazib berishga Jamg'armadan ajratilgan mablag'lardan maqsadli, samarali foydalanishini, to'lovlarining o'z vaqtida o'tishini ta'minlaydigan va doimiy nazoratini olib boradigan bo'limlar tashkil etiladi.

Ushbu bo'limlarga "Agrobank" aksiyadorlik tijorat banki viloyat boshqarmalari boshliq o'rinnbosarlari, filiallarda boshqaruvchi o'rinnbosarlari bevosita rahbarlik qiladi, ular to'lovlarining o'z vaqtida o'tishi, mablag'larning aniq maqsadli sarflanishi uchun shaxsan javob beradi.

Quyidagilar Jamg'armaning tijorat agentlari hisoblanadi:

- “O‘zpaxtasanoat” aksiyadorlik jamiyati — paxta xomashyosini xarid qilish, saqlash, qayta ishlash va paxta mahsulotlarini sotish bo‘yicha;
- “O‘zdonmahsulot” aksiyadorlik kompaniyasi — g‘allani xarid qilish, saqlash, qayta ishlash va sotish bo‘yicha;
- “O‘zagrolizing” aksiyadorlik jamiyati — zamonaviy, yuqori unumli qishloqxo‘jaligi texnikasini imtiyozli lizing shartlarida etkazib berish bo‘yicha.

Jamg‘arma davlat xaridi uchun paxtaning umumiyligi bo‘yicha — “O‘zpaxtasanoat” aksiyadorlik jamiyati bilan, g‘allaning umumiyligi bo‘yicha esa — “O‘zdonmahsulot” aksiyadorlik kompaniyasi bilan, zamonaviy yuqori unumli qishloq xo‘jalik texnikasini imtiyozli lizing shartlarida etkazib berish bo‘yicha — “O‘zagrolizing” aksiyadorlik jamiyati bilan Bosh bitim tuzadi. Tijorat agentlari Jamg‘arma nomidan hamda u bilan kelishilgan holda mahsulot xarid qilish, kontraktatsiya shartnomalarining o‘z vaqtida tuzilishi, xarid qilinadigan qishloqxo‘jaligi mahsulotlari hisob-kitobini qilish, ularni xarid qilish, saqlash va qayta ishlashning belgilangan standartlariga rioya etilishi, shuningdek zamonaviy, yuqori unumli qishloqxo‘jaligi texnikasini imtiyozli lizing shartlarida etkazib berish yuzasidan nazoratni ta’minlaydilar.

Tijorat agentlari tuzilgan Bosh bitimga asosan Jamg‘arma nomidan “Agrobank” aksiyadorlik tijorat banki ishtirokida o‘zining tayyorlov tashkilotlari orqali qishloqxo‘jaligi tashkilotlari bilan mahsulotni sotib olish yuzasidan o‘z vaqtida va asoslangan konfaktatsiya shartnomalari tuzilishini, maqsadli mablag‘lar va ularga hisoblangan foizlarni o‘z vaqtida qaytarilishini ta’minlaydilar, sotib olinayotgan mahsulot uchun to‘liq hisob-kitob qiladilar, mahsulotni sotib olishda, saqlash va qayta ishlashda belgilangan standartlarga rioya etilishi yuzasidan nazoratni ta’minlaydilar.

Davlat xaridi uchun qishloqxo‘jaligi mahsulotlarini etishtirishda ishtirok etadigan fermer xo‘jaliklari va boshqa qishloqxo‘jaligi tashkilotlariga zamonaviy, yuqori ishlab

chiqarish quvvatiga ega qishloqxo‘jaligi texnikasini imtiyozli lizing shartlarida etkazib berish uchun Jamg‘armaning qaytarib berish asosida ajratilgan qarz mablag‘lari va ularga hisoblangan foizlarni o‘z vaqtida qaytarilishini ta’minlaydi.

Bahs-munozara va nazorat uchun savollar

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining davlat xaridi va qishloq xo‘jaligini texnika bilan jihozlashni maqsadli moliyalashtirish jamg‘armasining asosiy vazifalarini sanab o‘ting;
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining davlat xaridi va qishloq xo‘jaligini texnika bilan jihozlashni maqsadli moliyalashtirish jamg‘armasining mablag‘laridan foydalananish yo‘nalishlarini izohlang;
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining davlat xaridi va qishloq xo‘jaligini texnika bilan jihozlashni maqsadli moliyalashtirish jamg‘armaси daromadlarini shakllantirish manbalarini sanab o‘ting;
4. Jamg‘arma mablag‘larini sarflash tartibini izohlang.

14-BOB: O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VAZIRLIGI HUZURIDAGI MADANIYAT VA SAN'ATNI RIVOJLANTIRISH JAMG'ARMASI

Reja:

14.1. O'zbekiston Respublikasida madaniyat va san'at sohasini rivojlantirishning zarurligi va ahamiyati

14.2. O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi huzuridagi Madaniyat va san'atni rivojlantirish jamg'armasining vazifalari va funksiyalari

14.3. O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi huzuridagi Madaniyat va san'atni rivojlantirish jamg'armasi faoliyatini tashkil etish, uning moliyaviy manbalari va ularni sarflashning asosiy yo'nalishlari

14.1. O'zbekiston Respublikasida madaniyat va san'at sohasini rivojlantirishning zarurligi va ahamiyati.

O'zbekiston xalqiga mehnatsevar va ma'rifatparvar ajdodlarimizdan badiiy ijodkorlik, me'morchilik va hunarmandchilikning qadimiyligi maktablari va an'analariga ega noyob va o'ziga xos madaniy meros qolgan. Bizgacha etib kelgan va nafaqat milliy, balki jahon madaniy merosining ajralmas qismi bo'lgan bebahoh badiiy, tasviriy, amaliy, me'moriy san'at asarlari va yodgorliklari, xalq qo'shiqlari, raqslari, sport o'yinlari va turlari buning yorqin tasdig'i idir.

Mustaqillik yillarda erkin demokratik rivojlanish yo'lini tanlagan mamlakatimiz oldida milliy madaniyat va san'atimizni tiklash, asrab-avaylash va yanada rivojlantirish, uni zamонавија jahon tsivilizatsiyasi yutuqlari hisobidan boyitish, o'sib kelayotgan avlodni ko'p asrlik an'ana va ma'naviy-axloqiy qadriyatlarga sadoqat ruhida tarbiyalash bo'yicha mas'uliyatli va murakkab vazifalar turgan edi.

Madaniyat va sport sohasida amalga oshirilayotgan davlat siyosati xalqimizning ulkan intellektual va ijodiy salohiyatini ro'yobga chiqarish, barqaror rivojlangan, jismonan baquvvat va ma'nан etuk shaxslar jamiyatini barpo etish, aholining o'sib borayotgan ma'naviy va estetik ehtiyojlarini ta'minlash, madaniyat va sport muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash uchun zarur shart-sharoitlar yaratdi.

Hozirgi paytda mamlakatimizda 39 teatr, 175 muzey, mingdan ziyod aholi dam olish va madaniyat markazlari, istirohat bog'lari, 301 bolalar musiqa va san'at maktabi, 296 bolalar va o'smirlar hamda respublika darajasidagi sport maktabi, 51 mingga yaqin sport majmuasi, stadionlar va inshootlar faoliyat ko'rsatmoqda, 2,7 milliondan ortiq bola sport, musiqa va san'at bilan muntazam shug'ullanmoqda. Madaniyat va san'at, sport va jismoniy tarbiya sohasida 69 ming xodim mehnat qilmoqda.

Shu bilan birga, madaniyat va sport sohasida davlat boshqaruvi samaradorligining tanqidiy tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, Madaniyat va sport ishlari vazirligi tomonidan mutasaddi organ sifatida o'z oldiga qo'yilgan keng ko'lamli masalalarning to'liq ijrosi ta'minlanmagan, ayniqsa, davlat boshqaruvi va joylardagi ijro hokimiyati organlari faoliyatini mazkur sohada muvofiqlashtirish, madaniy-ma'rifat va sport-sog'lomlashtirish muassasalarini moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, ularni malakali kadrlar bilan ta'minlash bo'yicha ishlar etarli darajada olib borilmagan.

Bundan tashqari, hayotiy tajriba shuni ko'rsatmoqdaki, bitta vazirlikda madaniyat va sport kabi ikkita ko'p qirrali va murakkab sohalarning birlashtirilishi ommaviy jismoniy tarbiyani rivojlantirish, istiqbolli sportchilarni saralash tizimini takomillashtirish, hududlarda teatr, mumtoz musiqa va boshqa san'at turlarini keng ommalashtirish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar samaradorligini yuksaltirish imkonini bermayapti.

Natijada Madaniyat va sport ishlari vazirligi o'z ish faoliyatida ko'p hollarda barcha mavjud resurs va

imkoniyatlarini bayramlar madaniy tadbirlarini o'tkazishga va muhim xalqaro sport musobaqalariga tayyorgarlik ko'rishga yo'naltirish bilan chegaralanib qolgan. Yuzaga kelgan salbiy holatlarni bartaraf etish uchun vazirlik faoliyatini tubdan isloh qilish zarurati paydo bo'ldi.

Byudjetdan tashqari mablag'lар tushunchasi o'z-o'zidan tushunarli bo'sada, amalda u turli xil va tez-tez murakkab masalalar majmuasiga ishora qiladi. Mantiqiy ta'rif va tipologiyani taqdim etish, byudjetdan tashqari jamg'armalarning kontseptsiyasini tushuntirish va ularning turli xil turlarini ajratib olishda yordam beradi. "Byudjetdan tashqari" atamasi muammoning turli jihatlariga urg'u beradigan bir necha usullar bilan ishlatalishi mumkin. Byudjetdan tashqari operatsiyalar eng keng tushunchadir va byudjetdan chiqarib tashlangan barcha daromadlarni, xarajatlarni va moliyalashni o'z ichiga oladi. Shuningdek, byudjet tashqari hisob qaydnomalari, tashqarida byudjetli daromad va xarajatlar to'langan va to'langan bank shartnomalari ham shular jumlasidandir. Byudjetdan tashqari jamg'armalar byudjetdan tashqari hisobvaraqlardan foydalanishi mumkin, o'zlarining boshqaruв tuzilmalariga ega bo'lishi va ko'pincha davlat vazirliklari va idoralaridan mustaqil bo'lgan huquqiy maqom bo'lishi mumkin. Byudjetdan tashqari jamg'armalar umuman davlat (federal) byudjet qonuniga va submilliy hukumatlar byudjetiga kiritilmagan ayrim bank va institutsional tuzilmalar bilan umumiy hukumat operatsiyalarini ifodalaydi.

Alovida davlat organlari sifatida tashkil etilgan byudjetdan tashqari fondlarning institutsional tuzilmalariga alovida e'tibor qaratadi. Biroq, bunday subyektlar barcha byudjetdan tashqari bitimlarni ushlab turishi mumkin emas⁵⁹.

2017 yilning 31 may kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirish va takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida" gi PQ-3022 sonli qarori qabul qilindi.

⁵⁹ Dimitar Radev, Richard Allen «Extrabudgetary Funds» 2010 y. p.1-2

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Madaniyat va sport sohasida boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmoni madaniyat va sport sohasida boshqaruv tizimini tubdan takomillashtirish, ushbu sohada davlat siyosatini amalga oshirish samaradorligini keskin oshirish, O'zbekiston xalqining boy va o'ziga xos madaniyati, san'ati va ijodini yanada rivojlantirishni ta'minlash, aholining keng qatlam o'tasida ma'nан va axloqan komil inson bo'lishga va sog'lom turmush tarzini yuritishga intilishni rag'batlantirishga yo'naltirilgan.

farmonga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi tugatiladi va uning negizida O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi hamda O'zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport davlat qo'mitasi tashkil etiladi.

Alovida ta'kidlash joizki, farmonga ko'ra, Madaniyat vazirligi hamda Jismoniy tarbiya va sport davlat qo'mitasining ushbu sohalarda davlat siyosatini amalga oshirish bo'yicha barcha jabhalarini qamrab oluvchi quyidagi asosiy vazifa va faoliyat yo'nalishlari belgilangan:

- milliy madaniy va ma'naviy merosimizni asrab-avaylash va boyitish, san'at va badiiy ijodni har tomonlama rivojlantirish, aholining ma'naviy-axloqiy va madaniy darajasini yanada oshirishni rag'batlantirish, uni milliy va jahon madaniyatining eng yaxshi namunalari bilan tanishtirish bo'yicha tizimli choralarini amalga oshirish;

- aholining keng qatlami, ayniqsa, yoshlar ongi va qalbida mustaqillik g'oyasiga, yuqori ma'naviyat va insonparvarlik an'analariga sadoqat tuyg'ulari yanada chuqur ildiz otishi, radikalizm va ekstremizmdek yot g'oyalarga qarshi immunitetni mustahkamlash, jamiyatning o'sib kelayotgan intellektual, estetik va madaniy ehtiyojlarini ta'minlashga yo'naltirilgan madaniy-ommaviy tadbirlar o'tkazish bo'yicha ishlarni tashkil etish;

- badiiy ijodning rivojlanishini yanada rag'batlantirish, ijodiy jamoalarga, ayniqsa, ijodkor yoshlarga har tomonlama ko'maklashish, madaniyat muassasalarining

moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va faoliyati samaradorligini oshirish, ularning imkoniyatlaridan ma'nан etuk, intellektual rivojlangan va yuqori madaniyatli shaxslarni tarbiyalash ishlarida yanada to'laroq foydalanish;

– aholining keng qatlamlari o'rtaida sport va jismoniy tarbiya bilan shug'ullanishni ommalashtirish bo'yicha keng ko'lamli ishlarni tashkillashtirish, jismoniy tarbiya va sog'lomlashtirish, sport tashkilotlarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, mamlakatimiz korxonalarida sport jihozlari va inventarlari ishlab chiqarishni yo'nga qo'yish va kengaytirish bo'yicha takliflar ishlab chiqishda ishtirok etish;

– bolalar, ayniqsa, qizlarni sport bilan muntazam shug'ullanishga keng jalb etish, bolalar sportini har tomonlama rivojlantirish, bolalar sport ta'limi sifatini oshirish orqali barcha hududlarda bolalar sport obyektlari tarmog'ini yanada kengaytirish, shu asosda bolalar sog'lig'ini mustahkamlash va ularning barqaror jismoniy rivojlanishini ta'minlash;

– iqtidorli va istiqbolli sportchilarni saralash, tayyorlash va mahoratini oshirishning uzuksiz tizimini takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish, sport tayyorgarligi jarayoniga zamонавиу texnologiyalarni joriy etish, Olimpiya va Osiyo o'yinlarida, jahon va Osiyo championatlarida hamda boshqa nufuzli xalqaro musobaqalarda muvaffaqiyatli qatnashishni ta'minlash uchun mamlakat terma jamoalarining asosiy tarkibi va sifatli sport zaxirasini shakllantirish;

– zamонавиу texnologiya va ilg'or xalqaro tajribadan foydalangan holda, kadrlar tayyorlash va malakasini oshirish jarayonini takomillashtirish, madaniyat va sport sohasida muassasalar va o'quv yurtlarini yuqori malakali kadrlar bilan ta'minlash, davlatlararo va xalqaro aloqalarni kengaytirish va mustahkamlash.

Farmonga binoan O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri A. Aripov rahbarligida Madaniyat vazirligi hamda Jismoniy tarbiya va sport davlat qo'mitasi faoliyatini tashkil etish

bo'yicha Komissiya tuzildi. Komissiyaga bir oy muddatda Madaniyat va sport ishlari vazirligini qayta tashkil etish bo'yicha barcha masalalarni hal etish, Madaniyat vazirligi hamda Jismoniy tarbiya va sport davlat qo'mitasining markaziy apparatiga malakali mutaxassislarni har tomonlama saralash va kadrlar bilan to'ldirishni ta'minlash topshirig'i berilgan.

Ta'kidlash joizki, farmonga binoan, «O'zbeknavo» estrada birlashmasi va "O'zbekraqs" milliy raqs birlashmasi negizida Madaniyat vazirligi huzurida "O'zbekkontsert" davlat muassasasi tashkil etilgan. Ushbu muassasa o'zida 2,5 ming ijodiy jamoa va ijrochilarни birlashtiradi hamda musiqa, xoreografiya va estrada san'atini rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish samaradorligini kuchaytirish, O'zbekiston xalqining ma'naviyati, yorqin va o'ziga xos madaniyatini yorituvchi yuksak badiiy va sifatli asarlar yaratishga har tomonlama ko'maklashish imkonini beradi.

Farmonga binoan "O'zbekkontsert" davlat muassasasi faoliyatini moliyalashtirish, madaniyat muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, shu jumladan, ularni jihozlash va ta'mirlash, madaniyat va san'at arboblarining xalqaro festivallar va konkurslarda ishtirok etishini ta'minlash, Madaniyat vazirligi muassasalari kadrlari malakasini oshirish va moddiy rag'batlantirish uchun byudjetdan tashqari Madaniyat va san'atni rivojlantirish jamg'armasini tuzish nazarda tutilgan.

Musiqiy ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish maqsadida Xalq ta'limi vazirligiga qarashli R. Glier va V. Uspenskiy nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan akademik musiqa litseylari, Respublika ixtisoslashtirilgan musiqa va san'at akademik litseyi, 301 bolalar musiqa va san'at maktabi Madaniyat vazirligi tizimiga o'tkazildi.

Madaniy-ommaviy tadbirlarni yuqori darajada o'tkazishni kengaytirish maqsadida "Istiqlol" va "Turkiston" san'at saroylari Toshkent shahar hokimiyati ixtiyoridan Madaniyat vazirligi tasarrufiga o'tkazildi, ularning o'z daromadlari bilan qoplanmaydigan qismidagi

xarajatlarini moliyalashtirish uchun respublika byudjetidan mablag' ajratilishi belgilandi.

Bolalar sportini rivojlantirish va ommavylashtirish bo'yicha olib borilayotgan ishlarni sifat jihatidan kuchaytirish, bolalar sporti obyektlarining moddiy-texnik bazasini yanada mustahkamlash, sport ta'limi va sport zaxiralarini tayyorlash tizimini takomillashtirish maqsadida O'zbekiston Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi ijro apparati, sport yo'nalishi bo'yicha 256 sport maktabi va sport yo'nalishidagi maktab-internatlari Xalq ta'limi vazirligi ixtiyoridan Jismoniy tarbiya va sport davlat qo'mitasi tasarrufiga o'tkazildi.

Madaniyat vazirligi, Moliya vazirligi, Mehnat vazirligiga boshqa tegishli vazirlik va tashkilotlar bilan birgalikda 2017 yilning 1 iyuliga qadar madaniyat xodimlariga ish haqini to'lash va ularning mehnatini moddiy rag'batlantirish tizimini takomillashtirish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori loyihasini kiritish topshirig'i berildi.

farmonni amalgaloshish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Madaniyat vazirligi hamda Jismoniy tarbiya va sport davlat qo'mitasi faoliyatini tashkil etish to'g'risidagi qarorlari qabul qilingan, ushbu qarorlarda ularning tashkiliy tuzilmalari, markaziy apparati tuzilmalari, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahri, tumanlar va shaharlardagi hududiy boshqarmalari tuzilmalari tasdiqlangan.

Madaniyat vazirligi tizimida madaniy-ommaviy tadbirlarni tashkillashtirish, madaniy-ma'rifiy muassasalar va nomoddiy merosni rivojlantirish, sohadagi ta'lim muassasalarini metodik ta'minlash, Jismoniy tarbiya va sport davlat qo'mitasi tizimida esa sport va sport ta'limi muassasalarini ilmiy-metodik ta'minlash, sport turlari bo'yicha milliy terma jamoalarni shakllantirish va tayyorlash bo'yicha yangi bo'linmalar va shtat birliklari nazarda tutilgan, ikki davlat boshqaruvi organi tuzilmasiga jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishslash bo'yicha mutaxassislar lavozimi kiritilgan.

Sport tashkilotlari, ta'lim va sport ta'limi muassasalarini yuqori malakali murabbiylar va sport mutaxassislari bilan ta'minlashni kengaytirish maqsadida Xalq ta'limi vazirligi huzuridagi Bolalar va o'smirlar sport mактаблari xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish markazini qayta tashkil etish va uning O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya instituti qoshidagi jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni ilmiy-metodik ta'minlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish markaziga qo'shilishi nazarda tutilgan.

Madaniyat vazirligiga tegishli vazirlik va tashkilotlar bilan birgalikda ikki oy muddatda o'zbek raqsining boy tarixiy an'analarini qayta tiklash va asrab-avaylashga yo'naltirilgan O'zbekiston milliy raqsini yanada rivojlantirish bo'yicha o'rta muddatli chora-tadbirlar dasturini, shuningdek, madaniyat muassasalari moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, jumladan, barcha madaniyat va aholi dam olish markazlarida kutubxonalar tashkil etish bo'yicha takliflar ishlab chiqish yuzasidan berilgan topshiriq milliy madaniyatimizning kelgusi rivoji uchun muhim ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qabul qilingan farmon va qarorlar bajarilishi madaniyat va sport sohasida davlat siyosati amalga oshirilishini yangi sifat darajasiga ko'tarish, jamiyatda yuqori ma'naviy va axloqiy muhitni ta'minlash, xalqimizning jismoniy va ijodiy faolligini oshirish, yosh avlodni barkamol etib tarbiyalash uchun zarur sharoitlar yaratish, O'zbekistonni san'at va sport dunyosida yuksak natijalarga erishishga qodir iste'dodli aholi yashaydigan va yuqori darajada rivojlangan madaniyatga ega mamlakat sifatida nufuzini mustahkamlash uchun imkoniyat yaratadi.

Mustaqillik yillarda mamlakatimizda madaniyat va san'at sohasini rivojlantirish, jahon miqyosidagi ilg'or tajribalar asosida zamonaviy madaniyat va san'at muassasalari barpo etish, ularning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, ijodkor ziylolilarni har

tomonlama qo'llab-quvvatlash masalalariga davlatimiz tomonidan ustuvor ahamiyat qaratib kelinmoqda.

Aholi, xususan, yoshlarning madaniy saviyasini yuksaltirish, ularni milliy va umumbashariy madaniyatning eng yaxshi namunalaridan bahramand etish, shu asosda ma'naviy etuk, barkamol shaxslarni tarbiyalash, yosh iste'dod egalarining qobiliyati va salohiyatini ro'yobga chiqarish borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi.

Shu bilan birga, madaniyat va san'at sohasini boshqarishda eskicha usullar saqlanib qolayotgani, mavjud muammolarni hal etish bo'yicha kompleks yondashuvning etishmasligi, madaniyat muassasalarining faoliyatini tashkil etish, aholiga madaniy xizmat ko'rsatishda oqsoqlikka yo'l qo'yilayotgani, aksariyat joylarda madaniyat va san'at maskanlarining moddiy-texnika bazasi bugungi kun talablariga javob bermasligini qayd etish zarur. Ayniqsa, soha uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlashda mavjud talab va ehtiyojlarni hisobga olmaslik, ularni qayta tayyorlash, malakasini oshirish borasida puxta tizim yaratilmagani madaniyat sohasida yagona davlat siyosatini samarali amalga oshirish, bu yo'nalishdagi ustuvor vazifalarni to'liq bajarish imkonini bermayapti.

Mamlakatimizni yangilash va modernizatsiya qilishning bugungi yangi bosqichida madaniyat va san'atning hayotimizdagi o'rni va ahamiyatini oshirish, yosh avlodimizni milliy va umuminsoniy qadriyatlar, ona-yurtga mehr va sadoqat ruhida tarbiyalash maqsadida:

O'zbekiston Respublikasida madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirish va takomillashtirish bo'yicha 2017 - 2021 yillarga mo'ljallangan chora-tadbirlar dasturi tasdiqlandi.

Dasturning asosiy yo'nalishlari etib belgilangan quyidagi vazifalar ijro uchun qabul qilindi:

- madaniyat va san'at muassasalari faoliyatini tashkil etish va samaradorligini oshirish borasidagi qonunchilikni takomillashtirish. Jumladan, muzeylar va teatrlar faoliyatini takomillashtirish hamda moddiy-texnika

bazasini mustahkamlashga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar ishlab chiqish. Moddiy madaniy meros va arxeologiya obyektlarini muhofaza qilish va ulardan samarali foydalanish mexanizmlarini yanada takomillashtirish;

– madaniyat va san'at muassasalari, teatrlar, muzeylar, badiiy jamoalar, madaniyat va aholi dam olish maskanlari, madaniyat va istirohat bog'lari faoliyati, moddiy-texnika bazasi holatini atroficha o'rganish, ularni ta'mirlash va zarur jihozlar, musiqa asboblari bilan ta'minlash, samarali ijodiy faoliyat uchun qulay shart-sharoitlar yaratish. O'zbek milliy raqs va xoreografiya san'atini yanada rivojlantirish, madaniyat va san'at rivojiga katta hissa qo'shgan taniqli san'atkorlar, jahon miqyosidagi nufuzli ko'rik-tanlovlarda yuqori o'rinnlarni egallagan yoshlarni moddiy qo'llab-quvvatlash;

– yoshlarni san'at maskanlariga, xususan, teatr va muzeylar, kontsert tomoshalariga muntazam jalb etish, o'zbek va jahon madaniyatining eng sara namunalaridan bahramand etish orqali ularning ma'naviy-axloqiy, estetik didi va madaniy darajasini yanada yuksaltirish. Madaniyat va istirohat bog'lari hududida "Nuroniylar maskan"larini tashkil etib, faxriylarning madaniy dam olishlari uchun zarur sharoitlar yaratish;

– "Seni kuylaymiz, zamondosh!", "Debyut" kabi teatr san'ati ko'rik-festivallari samaradorligini oshirish orqali buyuk siymolar, zamonamiz qahramonlari obrazi, bugungi kunda yurtimizda amalga oshirilayotgan ulkan bunyodkorlik ishlarini aks ettirgan, badiiy yuksak sahma asarlarini yaratish. "Bahor nafasi" xalqaro san'at festivali, "Boysun bahori" xalqaro folklor festivali, "Yoshlik bahori" respublika yosh opera ijrochilar festivali singari tadbirlar, turli xalqsayillarini tashkil etib, ularga xorijiy sayyoohlarni keng jalb etish;

– madaniyat va san'at yo'nalishidagi ta'lim muassasalarining malakali kadrlar va mutaxassislarga bo'lgan talab va ehtiyojlarini o'rganish, bu borada kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini

oshirishning samarali tizimini yaratish, zamonaviy ilg'or tajribalardan foydalanish, dunyoning mashhur musiqachilari, bastakorlari ishtirokida ijodiy uchrashuvlar, mahorat darslari tashkil etish, madaniyat va san'at yo'nalishidagi ta'lim muassasalarini o'quv dasturlari va notalar, o'quv qo'llanma va darsliklar, ilmiy-metodik adabiyotlar bilan ta'minlash;

– O'zbekistonning yuksak madaniyati va san'atini xalqaro maydonda yanada keng targ'ib etish, xalqaro ko'rik-tanlov va festivallarda mamlakatimiz vakillarining ishtirokini kuchaytirish, Samarqand shahrida o'tkaziladigan "Sharq taronalari" xalqaro musiqa festivali nufuzini yanada oshirish, boshqa turli tadbirlarda chet ellik madaniyat va san'at namoyandalari keng qatnashishlarini ta'minlash, xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlar tashkil etish, sohaga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va ulardan samarali foydalanish.

O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi 2017 yilning 1 oktyabriga qadar:

– muzeylar va teatrlar faoliyatini takomillashtirish hamda ularning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash kompleks chora-tadbirlarini;

– yoshlarni teatr va muzeylarga, kontsert-tomosha tadbirlariga tizimli ravishda jalb etish orqali ularning ma'naviy-axloqiy, estetik va madaniy darajasini yanada yuksaltirishga qaratilgan chora-tadbirlar dasturini;

– O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar bo'yicha davlat qo'mitasi va Iqtisodiyot vazirligi bilan birgalikda mamlakatimizdagi kontsert-tomosha va teatr muassasalarining ijodiy xodimlari uchun grim va postijor mahsulotlari, oyoq kiyimlar, maxsus liboslar, jumladan, balet san'ati uchun liboslar, yuksak darajada ishlangan sahna dekoratsiyalari va konstruktсиyalari, parda va sahna liboslarini tayyorlashga ixtisoslashtirilgan qo'shma korxona tashkil etish yuzasidan takliflarini Vazirlar Mahkamasiga kiritilishi belgilandi.

O'zbekiston Respublikasi Xususiy lashtirilgan korxonalarga ko'maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasi Madaniyat vazirligi va Toshkent shahri hokimligi bilan bирgalikda bir oy muddatda Toshkent shahri, Buxoro ko'chasi, 10-uyda joylashgan binoni "O'zbekkontsert" davlat muassasasi tasarrufiga o'tkazish va ushbu binoda jahon andozalariga to'liq mos keladigan, akademik jamoalarning badiiy dasturlari namoyish etiladigan, jonli ijroga mo'ljallangan zamonaviy kontsert zalini barpo etish bo'yicha Vazirlar Mahkamasiga taklif kiritildi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi va Moliya vazirligi 2018/2019 o'quv yilidan boshlab O'zbekiston davlat konservatoriyasida madaniyat va san'at yo'nalishidagi oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalari, shuningdek, mактабдан tashqari ta'lim muassasalari uchun malakali musiqa pedagoglarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishga ixtisoslashtirilgan fakultet tashkil etish yuzasidan zarur choralarни amalga oshirishi belglandi.

Davlat byudjetdan tashqari jamg'armalar halqaro doirada quyidagicha farqlanadi:

- Rivojlanish mablag'lari: odatda donorlik hissasini qo'shadigan va ba'zan ichki manbalar (masalan, xususiy lashtirish tushumlari), masalan, ijtimoiy fondlar, atrof-muhit fondlari va tarmoq fondlari kabi rivojlanish dasturlarini qo'llab-quvvatlash uchun yaratilgan mablag'lar.

- Investitsiya jamg'armalari: muayyan investitsiya maqsadlari bilan tashkil etilgan va qimmatbaho qog'ozlar, obligatsiyalar, mol-mulk, qimmatbaho metallar yoki suveren fondlar kabi boshqa moliyaviy aktivlardan tashkil topgan mablag'lar.

- Shartli (zaxira) mablag'lar: favqulodda vaziyatlar uchun kutilgan mablag'lar yoki kutilmagan xarajatlar.

- barqarorlik jamg'armalari: uchuvchi daromadlarni hukumat va iqtisodiyotga ta'sirini kamaytirish maqsadida

tashkil etilgan mablag'lar, masalan, neftni barqarorlashtirish fondi.

– Jamg'arma mablag'lari: kelajak avlodlar uchun, masalan, neftni tejash jamg'armalari kabi boylik do'konini yaratishga intiladigan mablag'lari.

– Moliyalashtirishni moliyalashtirish: neftni moliyalashtirish jamg'armalari kabi neft va boshqa resurslardan olinadigan daromadlardan foydalangan holda muntazam xarajatlarni emas, balki umumiy byudjet balansini moliyalash uchun foydalaniladigan mablag'lari.

– Konventsianing mablag'lari: donorlar yordamining (shu jumladan noqonuniy) oqimlari bilan bog'liq mablag'lari, tegishli donorlar talablarini inobatga olgan holda muayyan tartib-qoidalar asosida boshqariladi.

– Qaytariladigan mablag'lari: tovarlar va xizmatlar uchun ajratilgan mablag'lari va kreditlash operatsiyalari bilan to'ldirilgan mablag'lari va uning daromadi uning davom ettiradigan operatsiyalarini moliyalashtirish uchun mavjud bo'lib qoladi, aks holda byudjet mablag'lari to'lashni talab qiladigan byudjet qoidalari bilan xavf tug'diradi. yilning oxiri.

– Savdoni moliyalashtirish: o'z-o'zini moliyalashtirish tamoyili bo'yicha hukumatning savdo faoliyatini moliyaviy mexanizmni ta'minlash uchun tashkil etilgan mablag'lari.

– mablag'larni cho'ktirish: davlat yoki hukumat tomonidan to'plangan mablag'lari, odatda qarzni to'lash uchun soliq, majburiyat yoki majburiyatlardan kelib chiqadi.

– Har xil byudjetdan tashqari hisobotlar, shu jumladan maxfiy mablag'lari: vazirlik va idoralar tomonidan olib boriladigan, ko'pincha vazirlar va tayinlangan mansabdor shaxslardan foydalanish uchun⁶⁰.

⁶⁰ Dimitar Radev, Richard Allen «Extrabudgetary Funds» 2010 y. p.4

14.2. O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi huzuridagi Madaniyat va san'atni rivojlantirish jamg'armasining vazifalari va funksiyalari

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi huzurida Madaniyat va san'atni rivojlantirish jamg'armasini tashkil etish to'g'risida» 2017 yil 16 oktyabrdagi PQ-3325-son qarorini bajarish yuzasidan, O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi tizimi muassasalarining byudjetdan tashqari mablag'lari va daromadlari jamg'arilishini ta'minlash, Madaniyat vazirligi tizimi muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va xodimlarini moddiy rag'batlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 1 noyabrdagi 886-son qarori qabul qilindi.

Quyidagilar Jamg'armaning asosiy vazifalari hisoblanadi:

- “O'zbekkontsert” davlat muassasasining ta'minotini amalga oshirish;
- moliyaviy, tashkiliy va ijodiy tadbirlar majmuasini amalga oshirish asosida madaniyat va san'at sohasining yanada rivojlanishiga ko'maklashish, shuningdek, madaniyat arboblari va ular tomonidan tashabbus ko'rsatilayotgan tasviri san'at, adabiyot, teatr, musiqa va xoreografiya sohasidagi tadbirlarning o'tkazilishi uchun har tomonlama ko'maklashish;
- xalqaro va davlatlararo madaniy aloqalarni kengaytirish, madaniyat va san'at sohasidagi xalqaro madaniyat tashkilotlari va xayriya jamg'armalari bilan hamkorlikni rivojlantirish, xorijiy investitsiyalar va grantlarni jalb etish, mamlakatimizda homiylikning rivojlanishiga ko'maklashish;
- O'zbekiston san'atining jahon adabiy va madaniy muhitiga integratsiyasi va madaniyatlararo ijodiy muloqotni yo'nga qo'yish, shuningdek, mamlakatning raqobatbardoshligini va ilmiy-texnik salohiyatini namoyish qilishga ko'maklashish;

- O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi tizimidagi muassasalarning madaniyat va san'at sohasidagi kadrlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini takomillashtirish, shuningdek, ularni zarur adabiyotlar va davriy nashrlar bilan ta'minlash;
- xorijiy tajribani e'tiborga olgan holda, mamlakatimizning muzey va boshqa madaniy muassasalari faoliyati samaradorligini oshirish tizimini takomillashtirishga ko'maklashish;
- moliyalashtirish, shuningdek, xalqaro standartlarga muvofiq holda yangi madaniyat muassasalarining qurilishida ko'maklashish;
- O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi tizimidagi muassasalarning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va ularning mukammal va joriy ta'mirlanishini amalga oshirish;
- xalqaro institutlar, hukumatlar, homiylar va xorijiy donorlar bilan hamkorlikda loyihalarning birgalikda moliyalashtirilishini tashkil etishni ta'minlash;
- ijobjiy xalqaro tajribani respublikada joriy qilishga doir takliflarni tayyorlash maqsadida madaniyat va san'at sohasini moliyalashtirish bo'yicha rivojlanayotgan va rivojlangan davlatlarning tajribasini o'rganish;
- aholiga pulli xizmatlar ko'rsatish hajmini va O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi tizimidagi byudjet muassasalari va tashkilotlarini rivojlantirish jamg'armalariga mablag'lар tushumini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar majmuini ishlab chiqish va amalga oshirish;
- qonunchilikda belgilangan manbalardan kelib tushuvchi mablag'lar jamg'arilishini ta'minlash;
- ajratilayotgan mablag'lardan samarali va maqsadli foydalanilishi yuzasidan tizimli nazoratni ta'minlash;
- O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi tizimidagi xodimlarni moddiy rag'batlantirish va ijtimoiy muhofaza qilish bo'yicha tadbirlarga mablag'larni maqsadli ajratish.

Jamg'arma o'ziga yuklangan vazifalarni bajarish uchun quyidagi *funksiyalarni* amalga oshiradi:

– daromad va xarajatlar smetasini tasdiqlash, shuningdek, tasdiqlangan daromad va xarajatlar smetasiga muvofiq holda «O'zbekkontsert» davlat muassasasining hisobraqamiga mablag'larning doimiy o'tkazilishini ta'minlash;

– milliy va xorijiy madaniyat va san'at namoyondalarining ijodi bilan tanishishga doir tadbirlarni tashkillashtirish;

– madaniyat va san'atning turli sohalarini ommalashtirish, shuningdek, madaniyat arboblarini qo'llab-quvvatlash tadbirlarini o'tkazish;

– Jamg'arma homiyligida o'tkaziladigan tadbirlarning kalendar rejasini tuzish va tasdiqlash;

– xorijiy sheriklar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish va o'zaro tadbirlar, shu jumladan ularning investitsiya loyihalarida, grantlarni ajratishdagi ishtirokini tashkillashtirish va O'zbekiston Respublikasi madaniyati va san'atini rivojlantirishga yo'naltirilgan boshqa yordamlar ko'rsatish;

– madaniyat va san'atni rivojlantirish sohasidagi me'yoriy-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqishda ishtirok etish;

– O'zbekiston madaniyat va san'at arboblarini jahon madaniy hamjamiyatiga keng jalg etish, shu jumladan ularning xalqaro ko'rgazmalar, konferentsiyalar, festivallar va shu kabilardagi ishtirokini ta'minlashga doir tadbirlarni tashkillashtirish va o'tkazish;

– madaniyat va san'atni ommalashtirish va O'zbekiston Respublikasining xalqaro maydonidagi nufuzini mustahkamlashga qaratilgan O'zbekiston Respublikasida xalqaro madaniy tadbirlarning o'tkazilishini tashkil qilish;

– O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi tizimidagi muassasalarning madaniyat va san'at sohasidagi kadrlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishga doir tadbirlarni tashkillashtirish;

- O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi tizimidagi ta'lim muassasalarining o'quvchi va talabalarini moddiy rag'batlantirish tadbirlarini moliyalashtirish;
- xorijiy tajribani o'rganish va muzeylar hamda boshqa madaniyat muassasalarining faoliyati samaradorligini oshirishda ko'maklashish;
- xorijiy tajribani hisobga olgan holda yangi madaniyat muassasalari qurilishini moliyalashtirish va ko'maklashish;
- madaniyat muassasalarini loyihalash, rekonstruksiya qilish va qurish uchun yetakchi xalqaro ekspertlarni jalg'etish;
- O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi tizimidagi muassasalarning moddiy-texnika bazasini mustahkamlashga ko'maklashish bo'yicha tadbirlar rejasini tuzish va ularning mukammal va joriy ta'mirlanishini amalga oshirish;
- O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi tizimidagi muassasalarning moddiy-texnika bazasini mustahkamlashga ko'maklashish va tasdiqlangan tadbirlar rejasiga muvofiq ta'mirlash ishlarini amalga oshirish;
- madaniyat va san'at sohasini moliyalashtirish bo'yicha xorijiy mamlakatlar tajribasini o'rganish va ularni joriy qilish bo'yicha takliflar tayyorlash;
- joriy holatni o'rganish, shuningdek Madaniyat vazirligi tizimidagi tashkilotlar tomonidan aholiga ko'rsatilayotgan pulli xizmatlar hajmini oshirish bo'yicha takliflar tayyorlash va ularning amalga oshirilishini nazorat qilish;
- tahlil o'tkazish va Jamg'armaga mablag'larning o'z vaqtida tushishini ta'minlash;
- Jamg'arma mablag'larning tushishi va sarflanishini prognoz qilish;
- ajratilayotgan mablag'lardan maqsadli foydalanilishini monitoring qilish;
- Jamg'armaning daromad va xarajatlari smetalarini ishlab chiqish va ularni Jamg'arma Kengashiga tasdiqlash uchun kiritish;

– Jamg‘arma daromadlari va xarajatlarining hisobini yuritish va ularning bajarilishi bo‘yicha Jamg‘arma Kengashiga har choraklik hisobotni taqdim etish.

14.3. O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi huzuridagi Madaniyat va san’atni rivojlantirish jamg‘armasi faoliyatini tashkil etish, uning moliyaviy manbalari va ularni sarflashning asosiy yo‘nalishlari

Jamg‘arma Kengashi Jamg‘armaning yuqori organi hisoblanadi. Jamg‘arma Kengashining shaxsiy tarkibi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi. Jamg‘arma Kengashi:

- Jamg‘armaning rejalashtirilgan loyihalar bo‘yicha keyingi yil uchun daromad va xarajatlar smetasini har yili 25 dekabrgacha tasdiqlaydi;
- Jamg‘armaning chorak yakuni bo‘yicha daromadlari va mablag‘larining xarajatlari to‘g‘risidagi hisobotlarini ko‘rib chiqadi va tasdiqlaydi;
- Jamg‘arma mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanilishini nazorat qiladi;
- xorijiy investitsiyalar va grantlarni jalb etishda Jamg‘armani qo‘llab-quvvatlaydi;
- Jamg‘arma mablag‘larini shakllantirish va ulardan foydalanish bilan bog‘liq bo‘lgan boshqa vakolatlarni amalga oshiradi;
- Jamg‘armaning tuzilmasini, shtatlar sonini va Jamg‘armani ta’minlash mablag‘larining cheklangan umumiy miqdorini belgilaydi.

Jamg‘arma Kengashi Kengash Raisining taklifiga binoan bilan Jamg‘armaning daromad va xarajatlar smetasiga o‘zgartirishlar kiritishi mumkin. Jamg‘arma faoliyatini boshqarishni Jamg‘armaning ijrochi direktori amalga oshiradi. Jamg‘armaning ijrochi direktori O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vaziri tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi bilan kelishilgan holda lavozimga tayinlanadi va lavozimdan ozod qilinadi. Jamg‘armaning ijrochi direktori:

– Jamg’arma daromadlari va xarajatlari smetasini tayyorlaydi va tasdiqlash uchun Jamg’arma Kengashiga taqdim etadi;

– Jamg’armaga yuklangan asosiy vazifalar va funksiyalarga muvofiq Jamg’arma faoliyatini tashkillashtiradi, xodimlarning cheklangan umumiy soni doirasida ijro organining shtatlar jadvalini shakllantiradi, xo’jalik, mehnat va boshqa shartnoma va hujjatlarni Jamg’arma nomidan imzolaydi;

– O’zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligining Iqtisodiy tahlil va moliya boshqarmasi bilan birgalikda, belgilangan tartibda Jamg’arma mablag’laridan maqsadli va samarali foydalanilishini tekshirishni tashkillashtiradi, aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish bo’yicha zarur choralar ko’radi;

– har yarim yilda kamida bir marta Jamg’arma Kengashiga Jamg’arma mablag’laridan foydalanilishi haqidagi hisobotni taqdim etadi;

– Jamg’arma mablag’lari tushumlarini ko’paytirish va ulardan samarali foydalanilishi, shu jumladan xorijiy investitsiya va homiylarni jalb etish bo’yicha takliflar tayyorlaydi;

– mazkur Nizomga va boshqa qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshiradi.

Jamg’arma ijrochi direktori taklifiga binoan Jamg’armaning Vasiylik kengashi tuzilishi mumkin, uning tarkibi O’zbekiston Respublikasi madaniyat vaziri tomonidan O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi bilan kelishilgan holda tasdiqlanadi. Jamg’arma huzurida madaniyat va san’at arboblaridan Ekspert kengash tuzilishi mumkin, uning tarkibi Jamg’armaning ijrochi direktori tomonidan tasdiqlanadi.

Quyidagilar Jamg’arma mablag’larini shakllantirish manbalari hisoblanadi:

– kontsert-tomosha faoliyatini amalga oshirish huquqiga litsenziya berilganligi uchun undiriladigan davlat bojidan tushgan mablag’larning 70 foizi miqdoridagi ajratmalar;

– O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan miqdorda davlat foydasiga undirilgan mulkning sotilishidan O‘zbekiston Respublikasi byudjetiga kelib tushgan mablag‘larning bir qismi;

– O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston Badiiy akademiyasi faoliyatini rivojlantirish va yanada takomillashtirishga doir qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida» 2017 yil 16 avgustdagi PQ-3219-son qaroriga muvofiq, «O‘zvinosanoat-xolding» AJ tomonidan o‘zining shaxsiy tashabbusi tartibida har yili ajratiladigan mablag‘lar;

– Jamg‘armaning vaqtinchalik bo‘s sh mablag‘larini moliya tashkilotlariga joylashtirishdan olinadigan daromadlar;

– juridik va jismoniy shaxslar, xalqaro tashkilotlarning xayriya ehsonlari, grantlari;

– qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar.

Jamg‘arma ijrochi direktori Jamg‘arma mablag‘larining tasarrufchisi hisoblanadi.

“O‘zbekkontsert” davlat muassasasini va Jamg‘armaning ijrochi direksiyasini ta‘minlash xarajatlari qoplangandan so‘ng Jamg‘arma mablag‘lari Jamg‘arma Kengashi tomonidan tasdiqlangan Jamg‘arma daromad va xarajatlari smetasiga muvofiq quyidagi maqsadlar uchun yo‘naltiriladi:

– 75 foizdan kam bo‘lmagan mablag‘ —belgilangan ko‘rsatilgan tadbirlarni o‘tkazish uchun;

– 25 foizdan ko‘p bo‘lmagan mablag‘ — O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi hamda uning idoraviy mansub tashkilotlari xodimlarini moddiy rag‘batlantirish va ijtimoiy muhofazasi uchun.

Jamg‘armaning daromad va xarajatlar smetasi byudjetdan tashqari mablag‘lar bo‘yicha byudjet tashkilotlari uchun (choraklar, tushumlar manbalari va ularning sarflanish yo‘nalishlari bo‘yicha) qonunchilikda belgilangan tartibda tuziladi va Jamg‘arma Kengashi tomonidan tasdiqlanadi. Jamg‘armaning bo‘s sh mablag‘laridan grant asosida milliy madaniy davlat

dasturlari va loyihalarini moliyalashtirish (birgalikda moliyalashtirish) uchun foydalanilishi mumkin.

Jamg'arma o'ziga yuklangan vazifalar va funksiyalarni bajarish doirasida quyidagi huquqlarga ega:

- belgilangan tartibda davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro hokimiyati organlaridan Jamg'arma vakolatlariga kiruvchi masalalarni hal etish uchun zarur axborotlarni so'rash va olish;

- o'z bank hisobraqamlarida belgilangan manbalardan kelib tushayotgan mablag'larni jamg'arish;

- Jamg'arma tomonidan ajratilayotgan mablag'lardan maqsadli foydalanilishini nazorat qilish, qoidabuzarliklar aniqlangan taqdirda moliyalashtirishni to'xtatish yoki ajratilgan mablag'larni qaytarib olish;

- vaqtinchalik bo'sh mablag'larni likvidli moliyaviy instrumentlarga (depozitlar, qimmatli qog'ozlar, obligatsiyalar va shu kabilarga) joylashtirish;

- Jamg'arma mablag'larining madaniyat va san'atni rivojlantirishga doir aniq loyihalar uchun ajratilishida shartlarni belgilash;

- shartnomalar, shu jumladan oldiga qo'yilgan maqsad va vazifalarni amalga oshirish uchun xorijiy hamkorlar bilan tuzish;

- madaniyat va san'atni rivojlantirishning turli masalalari bo'yicha belgilangan tartibda tashabbuslar bilan chiqish;

- ommaviy axborot vositalarida o'z faoliyati haqida materiallar chop etish;

- Jamg'arma vakolatiga kiruvchi masalalar bo'yicha xalqaro hamkorlikni amalga oshirish.

Jamg'arma quyidagilarga majbur:

- belgilangan asosiy vazifalarning bajarilishini ta'minlash;

- Jamg'arma mablag'larining maqsadli va samarali sarflanishi yuzasidan doimiy nazoratni amalga oshirish;

- Jamg'arma daromadlarining istiqbolli ko'rsatkichlari bajarilishi samaradorligini tahlil qilish, aniqlangan va mablag'larining kelib tushishiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan

kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha tegishli choralar ko'rish.

Jamg'arma har yili qonunchilikka muvofiq moliyaviy hisobotni tayyorlaydi. Jamg'armaning moliyaviy hisoboti moliyaviy yil yakunlangandan so'ng auditorlik tashkilotlari tomonidan majburiy tartibda tekshiriladi. Moliyaviy hisobot, auditorlik xulosasi va rahbariyatga xat har yili 1 maydan kech bo'limgan muddatda Jamg'arma Kengashiga taqdim etiladi. Jamg'arma mablag'larining maqsadli sarflanishi yuzasidan nazorat qonunchilikka muvofiq amalga oshiriladi. Jamg'armani qayta tashkil etish va tugatish qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Bahs-munozara va nazorat uchun savollar

1. O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi huzuridagi Madaniyat va san'atni rivojlantirish jamg'armasining asosiy vazifalarini sanab o'ting;
2. O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi huzuridagi Madaniyat va san'atni rivojlantirish jamg'armasining mablag'laridan foydalanish yo'nalishlarini izohlang;
3. O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi huzuridagi Madaniyat va san'atni rivojlantirish jamg'armasi daromadlarini shakllantirish manbalarini sanab o'ting;
4. O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi huzuridagi Madaniyat va san'atni rivojlantirish jamg'armasi mablag'larini sarflash tartibini izohlang.

**15-BOB. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR
MAHKAMASI HUZURIDAGI TADBIRKORLIK
FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNI QO'LLAB-
QUVVATLASH DAVLAT JAMG'ARMASI**

Reja:

15.1. Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasining mohiyati va ahamiyati

15.2. Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasining tashkiliy tuzilishi va moliyaviy manbalari

15.1. Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasining mohiyati va ahamiyati

2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasiga muvofiq mamlakatimizda xususiy mulk manfaatlarini ishonchli himoya qilish, tadbirkorlik faoliyati uchun yanada qulay imkoniyatlar yaratish, davlatning iqtisodiyotdagi ishtirokini qisqartirish borasida aniq chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasini tashkil etish to'g'risida" 2017-yil 17-avgustdagি PQ-3225-sон qarori qabul qilindi. Ushbu qarorning ijrosini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" 2017-yil 8-sentyabrdagi 704-sонli qarori tasdiqlandi va bu qarorga ko'ra yangi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-

quvvatlash davlat jamg'armasi tashkil etildi. Bu jahon amaliyotida mavjud bo'lib, masalan, AQShda kichik biznesni qo'llab-quvvatlashga byudjet mablag'lari tomonidan katta sarf-xarajat amalga oshiriladi.⁶¹

Jamg'arma xususiy tadbirkorlik faoliyatini himoya qilish va kafolatlashning huquqiy mexanizmlarini mustahkamlash, ularni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning yangi vositalarini joriy etish, tadbirkorlik subyektlarining kredit resurslaridan foydalanishini osonlashtirish, yangi ish o'rinalarini yaratishni rag'batlantirish hamda respublika bank-moliya tizimi faoliyatini yanada takomillashtirish bilan shug'ullanadi.

Kichik biznes subyektlariga tijoriy banklar orqali milliy va xorijiy valyutada moliyaviy ko'mak ko'rsatish jamg'armaning asosiy vazifalaridan hisoblanadi.

Faoliyati tugatilayotgan Toshkent shahridagi kichik sanoat zonalari kafolat jamg'armasi hamda Kichik biznesni rivojlantirish kafolat fondining 50 mln dollar hamda 100 mlrd so'mlik pul mablag'lari ko'rinishidagi dastlabki badali va boshqa mablag'lar hisobidan jamg'armaning moliyaviy asoslari shakllantiriladi.

Jamg'arma mablag'lari qishloq xo'jaligi, birinchi navbatda energosamarador issiqxonalar, chorvachilik, parrandachilik, baliqchilik, quyonchilik, asalarichilik, uzumchilik va bog'dorchilik, xususan intensiv bog'larni tashkil etishga qaratilgan loyihalarni moliyalashtiradi.

Shuningdek, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishslash, ularni saqlash bo'yicha infratuzilmalar va logistika markazlarini yaratish, ko'p kvartirali uylarda umumfoydalanishdagi joylarni obodonlashtirish va ta'mirlash va boshqa maqsadlar uchun ham kreditlar ajratiladi, shuningdek, jamg'arma to'g'ridan-to'g'ri Vazirlar Mahkamasiga hisobot beradi.

Kichik biznes va tadbirkorlik subyektlariga quyidagi shakllarda moliyaviy yordam ko'rsatish jamg'armaning asosiy vazifasi hisoblanadi:

⁶¹ Richard Allen and Dimitar Radev. Extrabudgetary Funds. International Monetary Fund. 18p. June. 2010

a) kichik tadbirkorlik subyektlariga mazkur Nizomda qayd etilgan maqsadlarga kredit ajratish uchun tijorat banklariga, jumladan, jalb etilgan xorijiy kredit liniyalari hisobidan resurslar ajratish;

b) kichik tadbirkorlik subyektlariga tijorat banklari kredit miqdorining 50 foizigacha, lekin 2 mlrd so'm hajmdagi kreditlari bo'yicha kafil bo'lish;

d) tijorat banklarining qiymati 4 mlrd so'mdan oshmaydigan miqdordagi kreditlari bo'yicha foiz xarajatlarini qoplash uchun quyidagi ekvivalentda kompensatsiya berish:

– milliy valyutada – qayta moliyalashtirish stavkasidan oshmaydigan foiz stavkasida — O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining qayta moliyalashtirish stavkasining 40 foizigacha bo'lgan miqdorda;

– xorijiy valyutada – tijorat banklari tomonidan belgilangan foiz stavkasining 40 foizi, ammo 3 foizdan ortiq bo'lмаган miqdorda.

Quyidagi rasmda jamg'armaning tegishli subyektlarga moliyaviy yordam ko'rsatish bosqichlari ko'rsatilgan.

Jamg'arma o'z faoliyatini quyidagi asosiy yo'nalishlar bo'yicha amalga oshiradi:

– kichik tadbirkorlikni rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash sohasida davlat siyosatini yuritish, moliyaviy xizmatlardan foydalanishni kengaytirish va kredit ajratish, shu jumladan ijtimoiy ahamiyatga ega loyihibalar va yo'nalishlarga kredit ajratish shartlarini engillashtirishga ko'maklashish;

– kichik tadbirkorlikni rivojlantirish orqali ish o'rirlari tashkil etish imkonini beradigan davlat, tarmoq va hududiy dasturlar, loyihibalar hamda tadbirlarni amalga oshirishda ishtirok etish;

– kichik tadbirkorlik subyektlarining innovatsion faoliyatini qo'llab-quvvatlash, yangi turdag'i mahsulotlar yaratish va ishlab chiqarishni rag'batlantirish, shuningdek ishlab chiqarish faoliyatiga samarali yangi texnologiyalarni joriy etishga ko'maklashish;

Bosqichlar	Subyektlar	Tadbirlar	Muddatlar
1-bosqich	Kichik tadbirkorlik subyekti	Tijorat bankiga kredit berish to'g'risida zarur hujjatlar ilova qilingan arizani taqdim etish.	Zaruratga qarab
2-bosqich	Tijorat banki filiali	Kichik tadbirkorlik subyekti taqdim etgan hujjatlarni ko'rib chiqish, loyihaning moliyaviy-iqtisodiy samaradorligini baholash. Kredit taqdim etish to'g'risida ijobiy qaror qabul qilinganda kredit berishga rozilik berilgani haqida hujjatlar paketi ilova qilingan xulosani bosh tijorat bankiga yuborish va tadbirkorga ko'rib chiqish natijalari to'g'risida xabar berish.	5 ish kuni davomida
3-bosqich	Bosh tijorat banki	Hujjatlarni tekshirish, umumlashtirish va jamg'armaga yuborish.	2 ish kuni davomida
4-bosqich	Jamg'arma ijro etuvchi direksiysi	Bosh tijorat bankidan moliyaviy yordam olish uchun kelgan hujjatlarni ko'rib chiqish, ularni umumlashtirish va Komissiyaga kiritish. Moliyaviy yordam ko'rsatishga rozilik berish yoki uni rad etish to'g'risida qaror qabul qilish. Qarorni bosh tijorat bankiga yuborish.	Haftasiga kamida bir marta 1 ish kuni davomida
5-bosqich	Jamg'arma tijorat banklari, kichik tadbirkorlik subyektlari	Jamg'arma qarori asosida moliyaviy yordam ko'rsatish uchun shartnomalar tuzish.	3 ish kuni davomida

15.1-rasm. Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi tomonidan moliyaviy yordam ko'rsatish

- ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan birqalikda respublikada kichik tadbirkorlikni rivojlantirishni qo'llab-

quvvatlashni takomillashtirish muammolarini o‘rganishga doir kompleks ilmiy va amaliy tadqiqotlar amalgalashirilishini tashkil etish.

15.2. Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash davlat jamg‘armasining tashkiliy tuzilishi va moliyaviy manbalari

Jamg‘armaning tashkiliy tuzilishida eng yo‘qori organi bu jamg‘armaning boshqarish kengashi hisoblanadi va uning tarkibi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan tasdiqlanadi.

Jamg‘armaning boshqarish kengashining asosiy vazifalari:

– jamg‘arma moliyaviy yordam ko‘rsatishi uchun ishlab chiqarishning ustuvor sohalari va kichik tadbirkorlik yo‘nalishlari bo‘yicha takliflar ishlab chiqadi va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga tasdiqlash uchun kiritadi;

– jamg‘armaning daromad va xarajatlari bo‘yicha har yilgi prognozlarni tasdiqlaydi;

– jamg‘arma bo‘s sh mablag‘larini tijorat banklarining depozitlariga va boshqa moliyaviy aktivlarida joylashtirish bo‘yicha cheklangan parametrlarni belgilaydi;

– jamg‘armaning Ijro etuvchi direksiysi faoliyati, shu jumladan mablag‘larning maqsadli yo‘naltirilishi, kichik tadbirkorlik subyektlariga moliyaviy yordam ko‘rsatishga doir qarorlarning o‘z vaqtida qabul qilinishi yuzasidan nazoratni amalgalashiradi;

– jamg‘arma rahbarining Jamg‘arma mablag‘laridan foydalanish to‘g‘risida, shuningdek manfaatdor vazirliklar, idoralar va boshqa tashkilotlar vakillarining amalgalashirilayotgan operatsiyalar samaradorligi va taqdim etilgan resurslar, Jamg‘arma va boshqa sohalar kafilligi hamda kompensatsiyalari natijalari haqida hisobotlarini muntazam eshitadi;

– jamg‘armani yillik auditdan o‘tkazish uchun, jumladan, uning mablag‘laridan maqsadli foydalanish bo‘yicha auditorlik tashkilotini belgilaydi;

– O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga jamg‘armaning ustav kapitalini ko‘paytirish to‘g‘risida takliflar kiritadi.

Jamg‘armaning ijro etuvchi direksiyasi Jamg‘armaning ijro etuvchi organi hisoblanadi va u:

– jamg‘arma joriy faoliyatini rasman boshqaradi;

– tijorat banklaridan kelgan hujjatlarni ko‘rib chiqadi va o‘z vakolatlari doirasida jamg‘arma resurslari, kafilligi va kompensatsiyalarini taqdim etish haqida qarorlar qabul qiladi;

– O‘zbekiston Respublikasining navbatdagi yil uchun Davlat byudjeti asosiy parametrlari bilan bog‘liq holda jamg‘arma daromad va xarajatlarining har yilgi prognozlarini shakllantiradi hamda Kengashga tasdiqlash uchun belgilangan tartibda kiritadi;

– jamg‘arma mablag‘larini shakllantirish manbalarini kengaytirishga doir takliflarni ishlab chiqadi va ko‘rib chiqish uchun Kengashga kiritadi;

– jamg‘arma oldiga qo‘yilgan vazifalarning o‘z vaqtida va samarali bajarilishi uchun zarur qo‘srimcha mablag‘larni jalg etish bo‘yicha amaliy choralar ko‘radi;

– jamg‘arma daromad va xarajatlarini hisobga olish hamda ularning ijrosi to‘g‘risida hisobotdorlikni ta’minlaydi va tasdiqlash uchun Kengashga taqdim etadi;

– jamg‘arma mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanishni tizimli asosda monitoring qilib boradi;

– kichik tadbirkorlik subyektlarini belgilangan tartibda moliyaviy jihatdan qo’llab-quvvatlaydi.

– Jamg‘armaning bo‘shturgan mablag‘larini Kengash tomonidan belgilangan tartibda parametrlar doirasida tijorat banklarining depozitlariga hamda boshqa moliyaviy aktivlarga joylashtiradi.

Jamg‘arma mablag‘lari quyidagi manbalar hisobidan shakllantiriladi:

– Toshkent shahridagi Kichik sanoat zonalari kafolat jamg‘armasini va Kichik tadbirkorlikni rivojlantirish kafolat jamg‘armasini keyinchalik tugatish va ularning 50 million AQSh dollari hamda 100 milliard so‘m miqdoridagi tegishli pul mablag‘lari shaklida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash davlat jamg‘armasini tashkil etish to‘g‘risida” 2017-yil 17-avgustdagি PQ-3225-son qaroriga 1-ilovada ko‘rsatilgan tashkilotlar badallari hisobidan shakllantiriladigan Jamg‘armaning boshlang‘ich badali;

– O‘zbekiston Respublikasi davlat byudjetining ushbu maqsadlar uchun har yilgi tasdiqlanadigan ajratmalar doirasidagi mablag‘lari, 2017 yilda esa Jamg‘arma resurs bazasini shakllantirish uchun – 100 milliard so‘m;

– O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki har yilgi sof foydasining O‘zbekiston Respublikasi davlat byudjetiga yo‘naltiriladigan qismi;

– xalqaro moliya institutlari, xorijiy hukumat tashkilotlari va boshqa donorlarning Jamg‘arma zimmasiga yuklangan vazifalarni amalga oshirish uchun j Alb etiladigan kreditlari (qarzlari) va grantlari;

– jamg‘armaning, jumladan, depozitlarni joylashtirish, kafolatlar berishdan tushadigan daromadlari, shuningdek, qonun hujjatlariga zid bo‘lmagan boshqa manbalar.

Jamg‘arma mablag‘lari “Mikrokreditbank” aksiyadorlik tijorat bankida ochiladigan maxsus hisob raqamida to‘planadi.

Xorijiy valyutadagi mablag‘lar jamg‘armaning O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklarida belgilangan tartibda ochiladigan maxsus valyuta hisob-raqamlariga o‘tkaziladi.

Jamg‘arma mablag‘laridan:

– tijorat banklariga kichik tadbirkorlik subyektlariga kredit ajratish uchun resurslar taqdim etish;

– tijorat banklariga qarz oluvchilarning kreditlari bo‘yicha taqdim etilgan kafolatlar bilan bog‘liq to‘lovlarini to‘lash;

- tijorat banklarining kreditlari bo'yicha foizli xarajatlarning bir qismini qoplash uchun foydalaniladi.
- jamg'arma faoliyatini moddiy-texnik ta'minlash, asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar xarid qilish, Kengash tomonidan belgilanadigan tartibda operatsiya xarajatlarini, shu jumladan, mehnatga haq to'lash va mehnatga haq to'lashga tenglashtirilgan to'lovlarini hamda rag'batlantiruvchi tusdagi to'lovlarini to'lash xarajatlarini amalga oshirish.

Bahs-munozara va nazorat uchun savollar

1. Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasining tashkil etilishidan maqsad nima?
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasini tashkil etish to'g'risida" 2017-yil 17-avgustdagи PQ-3225-son qarorining mazmun-mohiyatini aytib bering.
3. Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasining asosiy maqsadini ayting.
4. Jamg'arma mablag'lарidan qanday maqsadlarda sarflanadi?
5. Jamg'arma mablag'lарining shakllanish manbalari nimalardan iborat?
6. Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasining tashkiliy tuzilishini tushuntiring.
7. Jamg'armaning ijro etuvchi direksiyasi qanday vazifalarini amalga oshiradi?

16-BOB: O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI HUZURIDAGI OROL BUYI MINTAQASINI RIVOJLANTIRISH JAMG'ARMASI

Reja:

16.1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasi huzuridagi Orol buyi mintaqasini rivojlantirish jamg'armasining asosiy vazifalari va mablag'laridan foydalanish yo'naliishlari

16.2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasi huzuridagi Orol buyi mintaqasini rivojlantirish jamg'armasi daromadlarini shakllantirish manbalari va tartibi

16.3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasi huzuridagi Orol buyi mintaqasini rivojlantirish jamg'armasi mablag'larini sarflash tartibi

16.1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasi huzuridagi Orol buyi mintaqasini rivojlantirish jamg'armasining asosiy vazifalari va mablag'laridan foydalanish yo'naliishlari

Hozirgi zamonning eng yirik global ahamiyatga ega ekologik fojeasi, Markaziy Osiyo mamlakatlari va uning 60 millionlik xalqini tashvishlantirib kelayotgan Orol dengizi muammosining ekologik, ijtimoiy-iqtisodiy va gumanitar salbiy oqibatlari mintaqaning barqaror rivoji, genofondi va kelajak avlodiga tog'ridan-tog'ri tahdid manbai bo'lib kelmoqda. Orolbo'yи muammosi bevosita Turkmaniston, Qozog'iston va O'zbekiston, hamda bilvosita Tojikiston va Qирг'изистон hududlarini qamrab oladi. Orolbo'yи hududi o'zining xilma-xil hayvonot va o'simlik dunyosiga ega bo'lib, ushbu havzada 38 turdagи baliq va kamyob hayvonlar mavjud bo'lgan. Jayronlar 1 million boshgacha, flora 638 turdagи kamyob o'simliklarni tashkil etgan. Orol dengizi 1960 yilgacha eng yirik yopiq suv havzalaridan biri bo'lgan,

hududi 68,9 ming kv. km, suv miqdori 1083 kub km, uzunligi 426 km, kengligi 284 km va eng chuqur joyi 68 metrni tashkil qilgan. Orol dengizi mintaqasi iqtisodining rivoji, sanoati, aholining ish bilan bandligi va barqror ijtimoiy infratuzilmani shakllanishida muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Avval ushbu dengiz baliq etishtirish bo'yicha dunyodagi ilg'or maskanlardan biri hisoblangan bo'lib, Orolbo'yi havzasidagi yillik baliq ovlash hajmi 30-35 ming tonnani tashkil qilgan. Orol dengizi qirg'oqlarida yashovchi aholining 80 foizidan ko'prog'i baliq ovlash va baliq mahsulotlarini tayyorlash va etkazish bilan band bo'lgan. Amudaryo va Sirdaryo deltalarining unumdar yerlari, hamda serhosil yaylovlari 100 mingdan ziyod odamlarning chorvachilik, parrandachilik bilan mashg'ul bo'lishini, hamda ularning qishloq xo'jaligi mahsulotlarini etishtirishlarini ta'minlagan. Shuningdek, Orol dengizini havzaning iqlimini tartibga solishdagi, hamda butun mintaqada ob-havoning keskin o'zgarishini yumshatishdagi vazifasi aholi turmushi sharoitlariga, qishloq xo'jaligi va ekologiyaga ijobiy ta'sir ko'rsatardi. Qish faslida mintaqaga kirib keladigan ulkan havo oqimi iliq, yoz faslida esa Orol dengizi akvatoriyasida iqlim salqin holatda bo'lgan.

Orol dengizi muammosi XX asrning 60-yillarida mintaqadagi ikki yirik transchegaraviy daryolar Amudaryo va Sirdaryo suv resurslaridan o'ylamasdan foydalanish natijasida paydo bo'ldi va ulkan tahdid manbaiga aylandi. Ushbu ikki daryordan Orol dengiziga har yili 56 kub. km suv quyilgan. Aholining sezilarli tarzda ko'payishi, urbanizatsiya, yerlearning shiddat bilan o'zlashtirilishi, ekologik oqibatlarni o'ylamasdan Orol dengizi havzasida yirik gidrotexnik va irrigatsiya inshootlarining qurilishi sayyoradagi eng chiroyli havzaning qurishiga olib keldi. Bir avlod ko'z o'ngida butun bir dengiz qurib bo'ldi. Orolbo'yini jonsiz sahroga aylantirgan degradatsiya jarayoni davom etmoqda.

Orol dengizi fojeasi - eng katta global ekologik halokatlardan biri bo'lib, xususiyati va ko'lamiga ko'ra turli ekologik muammolarni keltirib chiqarmoqda. Aynan shu

bois Orol dengizi tanazzulining salbiy oqibatlarini bevosita boshidan kechirayotgan Markaziy Osiyo mamlakatlari, birinchi navbatda, O'zbekiston jahon hamjamiyatini tobora qurib borayotgan ushbu dengizni qutqarish, mintaqadagi ekologik ahvolni barqarorlashtirish va eng muhimi, bu erda yashayotgan aholi hayotini yaxshilashga da'vat etib keladi.

Bugungi kunda Orol dengizining katta qismi Orolbo'y'i mintaqasini shafqatsizlarcha qamrab olayotgan 5,5 million gektardan iborat qum-tuz sahrosiga aylangan. Olimlarning ta'kidlashicha, har yili atmosferaga qurib borayotgan dengiz tubidan 75 million tonnadan ziyod chang va zaharli tuzlar ko'tarilib, 400 kilometrlik maydon bo'ylab tarqalmoqda. Orol dengizining G'arbdan Sharq tomoniga esadigan kuchli havo oqimi yo'lida joylashgani va bu aerozollarning atmosfera yuqori qatlamlariga ko'tarilishiga yordam berayotgani atrof-muhit ifloslanishi oqibatlarini yanada kuchaytirmoqda. Tuz oqimlari alomatlari butun Yevropa va hatto Shimoliy muz okeanida ham kuzatilmoqda.

Yaqin vaqtlargacha kattaligi bo'yicha dunyoda to'rtinchini ko'l bo'lgan Orol dengizi tabiiy zaxiralarga boyligi bilan mashhur edi. Orolbo'y'i mintaqasi esa rivojlanayotgan va biologik jihatdan boy tabiiy muhit hisoblanardi. Orolning o'ziga xosligi va xilma-xilligi hech kimni befarq qoldirmasdi. Mahalliy aholining aytishicha, Orolbo'y'i bir paytlar Qoraqum va Qizilqum sahrosi o'rtaida joylashgan najotbaxsh maskan bo'lgan.

Suvning ifloslanishi, dengizning qaqragan tubidan katta miqdorda tuz va chang ko'tarilishi Orolbo'y'i mintaqasi aholisi orasida turli kasalliklarning ko'payishiga sabab bo'lmoqda. Ayniqsa, bu erdag'i xavfli ekologik holat bolalarga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Orol dengizining halokatga uchrashi tabiatga ham katta zarar etkazayotir. Mintaqada hayvonot va nabotot olami genofondining deyarli yarmidan ko'pi, ya'ni baliqlarning 11, sut emizuvchilarining 12, qushlarning 26 va o'simlikning 11 turi yo'q bo'lib ketgan.

Suv resurslarining tanqisligi, ichimlik suvi sifatining pasayishi, ernen ifloslanishi va yaroqsiz holga kelishi, bioxilma-xillikning keskin kamayib ketishi, aholi salomatligi va genofondining yomonlashuvi, iqlim o'zgarishlari, ehtimol, shu bilan bog'liq ravishda mintaqqa asosiy daryolari oqimining katta qismi hosil bo'ladigan Pomir va Tyan-Shan muzliklari maydonining qisqarib borishi – bular Orol dengizining halokati natijasida vujudga kelayotgan muammolarning bir qismi, xolos.

Ta'kidlash joizki, O'zbekiston va Markaziy Osiyo mintaqasi mamlakatlari ko'p yillardan buyon ushbu ekologik ofat oqibatlarini bartaraf etish yo'lida samarali ishlarni amalga oshirmoqda. 1993-yilning yanvar oyida O'zbekiston, Turkmaniston, Qozog'iston, Tojikiston va Qirg'iziston hamkorligida Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasining tashkil etilgani bu borada muhim voqeа bo'ldi. O'zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti Islom Karimov ushbu masalani ilk bor BMT Bosh assambleyasining 1993-yil 28-sentabrda bo'lib o'tgan 48-sessiyasida ko'tarib chiqqan va jahon hamjamiyati e'tiborini Orol dengizi muammosiga qaratgan edi. Bundan tashqari, Orol fojeasining halokatli oqibatlari kuchli ta'sir ko'rsatayotgan davlatlar vakillari Bosh assambleyaning 1995-yil 24-oktabrdagi 50-sessiyasida jahon hamjamiyatiga Orol dengizi va Orolbo'yи mintaqasini qutqarishda yordam so'rab murojaat qildi. Davlatimiz rahbari BMTning Atrof-muhit bo'yicha dasturi shaf'eligidagi Orol dengizi va Orolbo'yи muammolari bo'yicha kengashni tashkil qilish tashabbusini ilgari surdi.

2008-yili Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov tashabbusi bilan Birlashgan Millatlar Tashkiloti ko'magida Toshkentda «Orol muammolari, ularning aholi genofondi, o'simlik va hayvonot olamiga ta'siri hamda oqibatlarini engillashtirish uchun xalqaro hamkorlik chora-tadbirlari» va «Orol dengizi mintaqasida ekologik ofat oqibatlarini yumshatish bo'yicha hamkorlikni rivojlantirish» mavzusida bo'lib o'tgan xalqaro konferensiyalar mintaqadagi ekologik ahvolni yaxshilashda muhim ahamiyat kasb etdi.

Konferensiya doirasida ishlab chiqilgan Harakat rejasi Orol dengizi havzasi davlatlariga yordam ko'rsatish bo'yicha 2011-2015-yillarga mo'ljallangan uchinchil dasturning asosini tashkil etdi.

Shunday bo'sada Orol fojeasi insoniyat tarixidagi eng yirik ekologik va gumanitar fojealardan biri bo'lib qolmoqda. Orolni asosini dengiz sifatida saqlab qolish, ekologik inqirozni oldini olish demakdir. Lekin quruq saxrolar qurshovida qolib ketgan bu dengizni suv xavzasini sifatida saqlab qolish ancha mushkul.

Bugun Orolbo'yi mintaqasini qayta tiklash muammolarini engillashtirish, aholi salomatligi va genofondini saqlash, ekotizimlarni qayta tiklash va himoya qilish, aholining munosib hayot kechirishi uchun barcha zarur shart-sharoitlarni yaratish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda. Avvalo shuni ta'kidlash joizki, Orol dengizi muammolarini bartaraf etish masalasi o'z ko'lami jihatidan mazkur mintaqa davlatlari iqtisodiy imkoniyatlaridan yuqori turadi. Shu bilan birligalikda, Orol dengizi qurishining ekologik, ijtimoiy-iqtisodiy va gumanitar oqibatlari keskinlashuvini, hamda Orolbo'yida yashovchi aholi yashash muhiti inqirozinining kuchayayotganligini hisobga olib, BMT va jahon hamjamiyatining jiddiy ko'magisiz ushbu global muammoni hal etish mumkin emasligi tobora aniq bo'lib bormoqda. Umuman olganda bu masalaga yangicha ilmiy jihatdan asoslangan tarzda hamda mutaxassislarining fikrlarini e'tiborga olgan xolda yondashish darkor. Orol misolida tabiat ustidan erishilayotgan har bir muvaffaqqiyat -. ma'lum tarzda yuzaga chiqadigan mag'lubiyat orqali ham sezilarli asorat qoldirishi ko'zga yaqqol tashlanib qoldi. Hozirgi paytda davlatimizning bosh maqsadi faqat qurib borayotgan Orolni asrab qolish, uning tizimga xavfini kamaytirish emas, balki o'sha hududlarda yashovchi insonlarning ijtimoiy xayotini yaxshilashdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2017 — 2021 yillarda Orolbo'yi mintaqasini rivojlantirish Davlat dasturi to'g'risida"gi 2017 yil 18 yanvardagi PQ-2731-som qarorini

bajarish yuzasidan hamda Orolbo'yi mintaqasida ekologik va ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatni va aholining turmush sharoitlarini yaxshilashga va sifatini oshirishga yo'naltirilgan loyihalar, tadbirlar va dasturlarni shakllantirish va barqaror moliyalashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasning 2017 yil 27 mart kuni 159-sonli "o'zbekiston respublikasi moliya vazirligi huzuridagi orolbo'yi mintaqasini rivojlantirish jamg'armasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi qarori qabul qilindi va unga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Orolbo'yi mintaqasini rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari shakllantirish va ulardan foydalanish tartibi belgilandi.

Jamg'arma O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 18 yanvardagi PQ-2731-son qarori bilan tasdiqlangan 2017 — 2021 yillarda Orolbo'yi mintaqasini rivojlantirish Davlat dasturi (keyingi o'rinnlarda Dastur deb ataladi) loyihalari va tadbirlarini amalga oshirishni moliyalashtirish uchun tashkil etilgan. Jamg'arma yuridik shaxs hisoblanmaydi.

16.2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasi huzuridagi Orol buyi mintaqasini rivojlantirish jamg'armasi daromadlarini shakllantirish manbalari va tartibi

Jamg'arma mablag'lari quyidagi manbalar hisobiga shakllantiriladi:

- O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasiga o'tkaziladigan mablag'larning o'n foizi;
- avtomobilarga gaz to'ldiradigan kompressor stantsiyalari tomonidan realizatsiya qilinadigan tabiiy gazga maxsus investitsiya ustamalarining o'n foizi;
- O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetining maqsadli mablag'lari, shu jumladan markazlashtirilgan investitsiyalar;
- xalqaro moliya institatlari va boshqa xorijiy donorlarning imtiyozli kreditlari (qarzlari);

- jismoniy va yuridik shaxslarning, homiylik jamg'armalarining grantlari, ixtiyoriy badallari, xorijiy donorlarning mablag'lari;
- Jamg'armaning vaqtincha bo'sh mablag'larini joylashtirishdan tushgan daromadlar;
- qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa moliyalashtirish manbalari.

O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasiga o'tkaziladigan o'n foiz miqdoridagi mablag'lar O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi tomonidan hisobot davridan keyingi oyning 5-kunidan kechikmay har oyda Jamg'armaga o'tkaziladi. Avtomobilarga gaz to'ldiradigan kompressor stantsiyalari tomonidan realizatsiya qilinadigan tabiiy gazga maxsus investitsiya ustamalari summasining o'n foizi miqdoridagi mablag'lar "O'zbekneftgaz" MXK tomonidan "O'ztransgaz" AK va uning tashkilotlaridan mablag'lar tushgan sanadan boshlab ikki ish kuni mobaynida Jamg'armaga o'tkaziladi.

Xalqaro moliya institutlarining va boshqa xorijiy donorlarning imtiyozli kreditlari (qarzlari), jismoniy va yuridik shaxslarning, homiylik jamg'armalarining grantlari, ixtiyoriy badallari, xorijiy donorlarning, shu jumladan O'zbekiston Respublikasi norezidentlarining mablag'lari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda Jamg'armaning g'aznachilik shaxsiy raqamlariga tushadi, xalqaro moliya institutlarining va boshqa xorijiy donorlarning tartibotlari yoki xorijiy kreditlar va grantlarni berishning shartlarida boshqacha tartib belgilangan holatlar bundan mustasno. Jamg'arma mablag'lari O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining Axborot tizimida ochiladigan g'aznachilik shaxsiy raqamlarida jamlanadi.

Jamg'arma mablag'larini boshqarish O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining Investitsiyalar boshqarmasi tomonidan amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining Investitsiyalar boshqarmasi:

- zarurat bo'lganda joyning o'ziga borib Orolbo'yı mintaqasini rivojlantirish bo'yicha manzilli dasturlarni shakllantirishda ishtirok etadi;
 - Orolbo'yı mintaqasini rivojlantirish bo'yicha manzilli dasturlarni amalga oshirish doirasida obyektlarni qurish, rekonstruksiya qilish, modernizatsiya qilish, jihozlash va ta'mirlashning manzilli ro'yxatlari bajarilishini tahlil qiladi va monitoringini olib boradi;
 - O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Orolbo'yı mintaqasini rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari hisobiga moliyalashtiriladigan manzilli dasturlarni amalga oshirish bo'yicha komissiyaga (keyingi o'rnlarda Komissiya deb ataladi) taqdim etish uchun Jamg'arma daromadlari va xarajatlarining prognozini hamda choraklar va oylarga taqsimlagan holda prognozning yillik bajarilishi to'g'risidagi hisobotni tayyorlaydi;
 - moliyalashtirish manbalari bilan bog'liq holda Orolbo'yı mintaqasini rivojlantirish bo'yicha manzilli dasturlarni bajarishning asosiy yo'nalishlari yuzasidan Komissiyaga takliflar kiritadi;
 - Jamg'arma daromadlari va xarajatlarining oylar bo'yicha ro'yxatini tasdiqlash uchun O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi rahbariyatiga kiritadi;
 - Orolbo'yı mintaqasini rivojlantirish bo'yicha manzilli dasturlarni moliyalashtirish uchun nazarda tutilgan Jamg'arma mablag'lari hisobi yuritilishini ta'minlaydi.
- Jamg'arma daromadlari va xarajatlari prognozini tayyorlash, ko'rib chiqish va tasdiqlash kelgusi yil uchun O'zbekiston Respublikasi rivojlanish davlat dasturlari va Davlat byudjeti loyihamalarini tayyorlash bilan bog'liq holda ushbu Nizomga muvofiq amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi Iqtisodiyot vazirligi, Markaziy bank, «O'zbekneftgaz» MXK, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va Xorazm viloyati hokimligi bilan birgalikda har yili kelgusi yil uchun ko'rsatilgan manbalardan Jamg'armaga mablag'lar tushishi prognozlarini tayyorlaydi. Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, Xorazm viloyati hokimligi O'zbekiston

Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi bilan birqalikda har yili 1 maygacha:

– Orolbo'yi mintaqasini rivojlantirish bo'yicha manzilli dasturni shakllantirish uchun ishlab chiqilgan loyihasmeta hujjatlari asosida xarajatlar proqnozi bilan birqalikda obyektlarni qurish, rekonstruksiya qilish, modernizatsiya qilish, jihozlash va ta'mirlashning dastlabki manzilli ro'yxatlarini belgilangan tartibda tayyorlaydilar;

– Orolbo'yi mintaqasini rivojlantirish bo'yicha manzilli dastur loyihasini hamda Orolbo'yi mintaqasini rivojlantirish bo'yicha manzilli dasturni amalga oshirish uchun keyingi yil uchun zarur bo'lgan xarajatlar proqnozi loyihasini O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga taqdim etadilar.

– O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi Iqtisodiyot vazirligi va O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar bo'yicha davlat qo'mitasi bilan birqalikda har yili joriy yilning 1 avgustigacha:

– keyingi yil uchun Jamg'armaga tushishi proqnoz qilinayotgan mablag'lari doirasida Orolbo'yi mintaqasini rivojlantirish bo'yicha manzilli dasturning yakuniy parametrlarini kelishadi;

– keyingi yil uchun Jamg'arma daromadlari va xarajatlari proqnozini tayyorlaydi;

– Orolbo'yi mintaqasini rivojlantirish bo'yicha manzilli dastur loyihasini, shuningdek Jamg'arma daromadlari va xarajatlari proqnozini keyinchalik ularni kelgusi yil uchun O'zbekiston Respublikasi rivojlanish davlat dasturi hamda Davlat byudjeti loyihalariга kiritish uchun ko'rib chiqish va tasdiqlash uchun kiritadi.

Bunda O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining qayta moliyalashtirish stavkasidan oshadigan foizli xarajatlarni qoplashga ajratiladigan subsidiyalar summasi keyingi yil uchun Jamg'arma daromadlari proqnozining o'n foizi miqdorida belgilanadi. Zarurat bo'lganda ajratiladigan subsidiyalar summasi Komissiya qaroriga muvofiq aniqlashtiriladi. Jamg'arma daromadlari va xarajatlarining yillik parametrlari tasdiqlangandan keyin O'zbekiston

Respublikasi Moliya vazirligi 5 kun mobaynida keyingi yil uchun xarajatlarning belgilangan hajmlarini Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va Xorazm viloyati hokimligiga etkazadi.

16.3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasi huzuridagi Orol buyi mintaqasini rivojlantirish jamg'armasi mablag'larini sarflash tartibi

Jamg'arma mablag'laridan Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyatida quyidagilarga yo'naltirilgan loyihalarni amalga oshirishni moliyalashtirish uchun foydalaniladi:

- issiqlik ta'minoti tizimini, shu jumladan mahalliy bug' qozonlari qurish hamda ko'p kvartirali uylarga va ijtimoiy obyektlarga issiqlik energiyasi berish tizimlarini qurish yo'li bilan yaxshilash;
- drenaj tizimini, shu jumladan drenaj quduqlari va kollektorlarni mukammal ta'mirlash va qurish hamda sug'orish tizimlarini mukammallashtirish yo'li bilan yaxshilash;
- Nukus va Urganch shaharlari uy-joy fondining ko'p kvartirali uylaridagi umumiy foydalaniladigan va uylar ichidagi muhandislik kommunikatsiyalarini ta'mirlash, shuningdek bolalar maydonchalari barpo etgan holda uylarga yondosh hududlarni obodonlashtirish;
- aholi punktlarini, Nukus va Urganch shaharlarini, shuningdek tumanlar markazlarini zamonaviy arxitektura-obodonlashtirish standartlari talablarini hisobga olgan holda obodonlashtirish tadbirlarini amalga oshirish, shu jumladan mavzelar ichidagi ko'chalar, maydonlar va xiyobonlarni, kichik bog'larni ta'mirlash hamda tashqi yoritish tarmoqlarini takomillashtirish;
- chekka va borish qiyin bo'lgan qishloq tumanlaridagi aholi uchun suvni sho'rsizlantiradigan qurilmalar berish;
- suv ta'minoti tizimini rivojlantirish va aholining toza ichimlik suvdan va kanalizatsiya xizmatlaridan foydalanish

darajasini oshirish, shuningdek sanitariya va maishiy chiqindilarni utilizatsiya qilish tizimlarini yaxshilash;

– madaniyat muassasalari, teatrlar, madaniyat va istirohat bog'lari, bolalar maydonchalari va axborot-resurs markazlarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash;

– suv resurslarini boshqarish tizimi yanada takomillashtirilishini hisobga olgan holda cho'rga aylanishga qarshi tadbirlarni amalga oshirish;

– Dasturni amalga oshirish doirasida loyiha-qidiruv ishlarini amalga oshirish;

– Dasturga kiritilgan loyihalarning tashabbuskorlariga tijorat banklari tomonidan kreditlar berishda O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining qayta moliyalashtirish stavkasidan ko'pi bilan 4 foizga oshadigan foizli xarajatlarni qoplashga tijorat banklari tomonidan subsidiyalar ajratish;

– Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyati aholisining turmush sharoitlari va sifatini yaxshilash bo'yicha boshqa tadbirlar.

○ O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining qayta moliyalashtirish stavkasidan ko'pi bilan 4 foizga oshadigan foizli xarajatlarni qoplashga subsidiyalar maqsadli hisoblanadi va tijorat banklari (keyingi o'rinnarda banklar deb ataladi) tomonidan qat'yan quyidagi yo'nalishlar bo'yicha amalga oshiriladigan loyihalarni moliyalashtirish maqsadlariga milliy valyutada kreditlar berishda ajratiladi:

– qishloq xo'jaligi mahsulotlarini, dorivor o'tlar va o'simliklarni, mahalliy mineral-xomashyo tabiiy resurslarini qayta ishlash asosida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish, shuningdek iste'mol tovarlari ishlab chiqarish loyihalarini amalga oshirish;

– zamonaviy, suvni tejaydigan sug'orish texnologiyalarini joriy etish, sovutish quvvatlari, zamonaviy chorvachilik, parrandachilik va baliqchilik xo'jaliklari, go'sht, sut, teri va mo'ynani qayta ishlash korxonalarini barpo etish asosida qishloq xo'jaligi ekinlarini o'stirish, intensiv bog'lar va zamonaviy teplitsa xo'jaliklari tashkil etishning yangi texnologiyalarini joriy etish.

Banklarning joylardagi filiallari ko'rsatilgan yo'nalishlar bo'yicha loyihalarni banklarning kredit siyosati doirasida belgilangan mezonlardan, shuningdek yangi ish o'rirlari tashkil etishni, zamonaviy energiya va resurslarni tejaydigan texnologiyalarni joriy etishni, shu jumladan energiyaning tiklanadigan manbalarini (quyosh kollektorlari va boshqalarni) qo'llanishni, ularni milliy valyutadagi kreditlarni jalb etish hisobiga amalga oshirishni mo'ljallagan loyihalar tashabbuskorlari bo'lgan yuridik shaxslar tomonidan taqdim etilgan Orolbo'y mintaqasidagi sanitariya-ekologiya vaziyatini yaxshilash chora-tadbirlarini nazarda tutadigan mezonlardan kelib chiqqan holda ko'rib chiqadilar. Amalga oshirishga tavsiya etilgan loyihalar ro'yxati loyihalar tashabbuskorlariga kreditlar ajratish masalasini belgilangan tartibda ko'rib chiqish uchun tegishli kredit qo'mitalariga yuboriladi. Banklarning joylardagi filiallari har qaysi kredit oluvchi bo'yicha hujjatlar paketini tayyorlaydilar va ularni umumlashtirish uchun bosh banklarga yuboradilar. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining qayta moliyalashtirish stavkasidan oshadigan foizli xarajatlarni qoplashga subsidiyalar ajratish uchun bosh banklar kreditlar rasmiylashtirilishiga ko'ra har oyda, har qaysi oyning 25-kunidan kechikmay O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga ko'rib chiqish uchun murojaatni quyidagilarni ilova qilgan holda taqdim etadilar:

- loyihaning ko'rsatilgan yo'nalishlarga muvofiqligi to'g'risida bosh bankning xulosasi;
- bankning yoki uning filialining kredit qo'mitasi qarori;
- kreditni qoplashning tasdiqlangan jadvali (ajratilayotgan subsidiya summasini oylarga taqsimlagan holda).

O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining qayta moliyalashtirish stavkasi o'zgargan taqdirda ajratilayotgan subsidiyalar summasi kredit rasmiylashtirilgan kunda qayd etilgan darajada o'zgarishsiz qoladi. Taqdim etilgan materiallar O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan ular tushgan kundan boshlab 10 ish kunidan

ko'p bo'lмаган muddatda ko'rib chiqiladi. Subsidiyalar ajratish uchun asoslar O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan etarli emas deb e'tirof etilgan taqdirda rad etishning sabablari izohlangan holda rad etish to'g'risida yozma xabarnoma yuboriladi. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining qayta moliyalashtirish stavkasidan oshadigan foizli xarajatlarni qoplashga subsidiyalar ajratish bosh bank tomonidan har oyda hisobot davridan keyingi oyning 15-kunidan kechikmay, bosh banklarning buyurtmanomalari asosida, loyihamar tashabbuskorlari tomonidan amalda qoplangan kreditning foizli xarajatlari summasidan kelib chiqqan holda, subsidiyani chegirib amalga oshiriladi. Loyaliga tashabbuskori tomonidan O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining qayta moliyalashtirish stavkasidan oshadigan foizli xarajatlarni qoplashga ajratiladigan subsidiyalar summasi kechikib qoplangan taqdirda kechikib to'langan summa to'lashning tasdiqlangan jadvalida qayd etilgan summadan ortiq bo'lmasligi kerak.

Jamg'arma mablag'lari Jamg'armaning O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi Axborot tizimida ochiladigan g'aznachilik shaxsiy raqamidan sarflanadi.

Jamg'arma mablag'lardan foydalanan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligida ro'yxatdan o'tkazilgan:

- obyektlarni qurish, rekonstruksiya qilish, modernizatsiya qilish, jihozlash va ta'mirlash bo'yicha qonun hujjalarda belgilangan tartibda o'tkazilgan tender (tanlod) savdolari natijalarini hisobga olgan holda — Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va Xorazm viloyati hokimligi;

- Dasturga kiritilgan loyihamar tashabbuskorlariga beriladigan kreditlar bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining qayta moliyalashtirish stavkasidan oshadigan foizli xarajatlarni qoplashga subsidiyalar ajratishni hisobga olgan holda, kreditni qoplashning tasdiqlangan jadvallari asosida tegishli banklar xarajatlarining tegishli smetalari asosida amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining G'aznachiligi obyektlarni qurish, rekonstruksiya qilish, modernizatsiya qilish, jihozlash va ta'mirlash, shuningdek subsidiyalar ajratish yuzasidan majburiyatlar bo'yicha shartnomalarni belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazadi hamda ular bo'yicha qat'yan xarajatlar smetalarida nazarda tutilgan mablag'lар doirasida xarajatlar to'lovini obyektlarni qurish, rekonstruksiya qilish, modernizatsiya qilish, jihozlash va ta'mirlashning tasdiqlangan manzilli ro'yxatlariga muvofiq amalga oshiradi. Orolbo'yı mintaqasini rivojlantirish bo'yicha manzilli dasturlarni amalga oshirish doirasida obyektlarni qurish, rekonstruksiya qilish, modernizatsiya qilish, jihozlash va ta'mirlash bo'yicha xarajatlarni to'lash G'aznachilikning hududiy boshqarmalari tomonidan to'lov topshiriqnomalari hamda buyurtmachilarining bajarilgan ishlar va ko'rsatilgan xizmatlar to'g'risida taqdim etilgan hisobot ma'lumotlari asosida quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

a) obyektlarni qurish, rekonstruksiya qilish, modernizatsiya qilish, jihozlash va ta'mirlashni bajarish:

– obyektlarni qurish, rekonstruksiya qilish, modernizatsiya qilish, jihozlash va ta'mirlash dastlabki ikki oy mobaynida proqnoz qilinayotgan yil uchun tender (tanlod) savdolari natijalari bo'yicha aniqlangan ishlar qiymatining 30 foizigacha miqdorda teng ulushlarda avans to'lovlarini amalga oshirish;

– har oyda, ajratilgan avansni mutanosib tarzda ushlab qolishni hisobga olgan holda, bajarilgan ishlar qiymatining 95 foizigacha miqdorida joriy moliyalashtirish;

– shartnomada ko'rsatilgan kafolat muddati o'tgach — qolgan 5 foizni pudratchiga to'lash;

b) asbob-uskunalar (sho'rsizlantirish qurilmalari va boshqalarni) sotib olish:

– shartnoma umumiyligi summasining 30 foizi miqdorida avans to'lovini amalga oshirish;

– ajratilgan avans to'lovlarini ushlab qolgan holda, etkazib berishlarning amaldagi hajmidan kelib chiqib har oyda joriy moliyalashtirishni amalga oshirish.

Jamg'arma mablag'larini Orolbo'yi mintaqasini rivojlantirish bo'yicha manzilli dasturlarda nazarda tutilmagan maqsadlar uchun sarflash taqiqlanadi. Jamg'arma mablag'larining joriy moliya yili yakunlari bo'yicha qoldiqlari olib qo'yilmaydi va keyingi yilga o'tkaziladi. Jamg'arma mablag'larining tushishi va sarflanishi bo'yicha hisobga olish va hisobot tuzish O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi. Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, Xorazm viloyati hokimligi va tegishli banklar har oyda, hisobot davridan keyingi oyning 5-kunidan kechikmay O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga obyektlarni qurish, rekonstruksiya qilish, modernizatsiya qilish, jihozlash va ta'mirlashga, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining qayta moliyalashtirish stavkasidan oshadigan foizli xarajatlarni Orolbo'yi mintaqasini rivojlantirish bo'yicha manzilli dasturlarni amalga oshirish doirasidagi subsidiyalar tarzida qoplashga ajratilgan Jamg'arma mablag'laridan foydalanish to'g'risidagi hisobotlarni O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan shakl bo'yicha taqdim etadilar.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi har chorakda hisobot davridan keyingi oyning 10-kunidan kechikmay Komissiyaga Jamg'armaning Orolbo'yi mintaqasini rivojlantirish bo'yicha manzilli dasturni bajarishga ajratilgan mablag'laridan foydalanish bo'yicha hisobotlarni taqdim etadi. Jamg'arma mablag'laridan maqsadli foydalanilishini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining Nazorat-taftish bosh boshqarmasi va uning hududiy bo'linmalari tomonidan amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi Orolbo'yi mintaqasini rivojlantirish bo'yicha manzilli dastur doirasida bajarilgan ishlar va ko'rsatilgan xizmatlar to'g'risida, shuningdek ularning birlamchi hujjatlarga (schyot-fakturalarga) hamda amalda bajarilgan ishlar (xizmatlar) hajmlariga muvofiqligi to'g'risida Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va

Xorazm viloyati hokimligining taqdim etilgan hisobot ma'lumotlari asosida Jamg'arma mablag'laridan maqsadli foydalanilishi monitoringini olib boradi. Jamg'arma mablag'laridan Orolbo'yи mintaqasini rivojlantirish bo'yicha tasdiqlangan manzilli dasturlarga muvofiq maqsadli foydalanish yuzasidan javobgarlik Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashiga, Xorazm viloyati hokimligiga va tegishli banklarga yuklanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2019 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va davlat byudjeti parametrlari hamda 2020-2021 yillarga byudjet mo'ljallari to'g'risida" gi 26 dekabr 2018 yilda qabul qilingan PQ-4086 son qaroriga ko'ra 2019 yil 1 yanvardan boshlab ushbu jamg'armaning faoliyati to'htatildi.

Bahs-munozara va nazorat uchun savollar

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasi huzuridagi Orol buyi mintaqasini rivojlantirish jamg'armasining asosiy vazifalarini sanab o'ting;
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasi huzuridagi Orol buyi mintaqasini rivojlantirish jamg'armasining mablag'laridan foydalanish yo'nalishlarini izohlang;
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasi huzuridagi Orol buyi mintaqasini rivojlantirish jamg'armasi daromadlarini shakllantirish manbalarini sanab o'ting;
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasi huzuridagi Orol buyi mintaqasini rivojlantirish jamg'armasi mablag'larini sarflash tartibini izohlang.

**17-BOB: O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR
MAHKAMASI HUZURIDAGI MUTAXASSISLARNI
XORIJDA TAYYORLASH VA VATANDOSHLAR BILAN
MULOQOT QILISH BO'YICHA «EL-YURT UMIDI»
JAMG'ARMASI**

Reja:

17.1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi mutaxassislarni xorijda tayyorlash va vatandoshlar bilan muloqot qilish bo'yicha "El-yurt umidi" jamg'armasining vazifalari, faoliyatining asosiy yo'nalishlari va huquqlari

17.2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi mutaxassislarni xorijda tayyorlash va vatandoshlar bilan muloqot qilish bo'yicha "El-yurt umidi" jamg'armasi faoliyatini tashkil etish, uning mulki va moliyaviy mablag'lari

17.3. Xorijda ta'lim olish uchun nomzodlarni tanlov asosida tanlab olishni o'tkazish tartibi

17.1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi mutaxassislarni xorijda tayyorlash va vatandoshlar bilan muloqot qilish bo'yicha "El-yurt umidi" jamg'armasining vazifalari, faoliyatining asosiy yo'nalishlari va huquqlari

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi mutaxassislarni xorijda tayyorlash va vatandoshlar bilan muloqot qilish bo'yicha "El-yurt umidi" jamg'armasi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 25 sentyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi mutaxassislarni xorijda tayyorlash va vatandoshlar bilan muloqot qilish bo'yicha "El-yurt umidi" jamg'armasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi PF-5545-sonli farmoniga asosan tashkil etilgan bo'lib, Jamg'arma Xorijda stipendiatlarning malaka oshirishi,

stajirovkasi va o'qishini tashkil etish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Iste'dod" jamg'armasining huquqlari, majburiyatlari va shartnomalari, shu jumladan xalqaro shartnomalari bo'yicha huquqiy vorisi hisoblanadi.

Xorijda yashayotgan va professional faoliyatini yuritayotgan vatandoshlarimiz, ayniqsa, katta ilmiy salohiyatga ega olimlar, mutaxassislar va iste'dodli yoshlar bilan yaqin hamkorlikni yo'nga qo'yish, shuningdek, O'zbekistonning har tomonlama va jadal rivojlanishi uchun zarur, jahon mehnat bozorida raqobatbardosh va yuqori malakali mutaxassislarni yetakchi xorijiy ta'limga muassasalarida hamda O'zbekistonda tayyorlash va malakasini oshirish orqali kadrlar bilan ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi qoshidagi Mutaxassislarni xorijda tayyorlash va vatandoshlar bilan muloqot qilish markazi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga bo'y sunadigan Mutaxassislarni xorijda tayyorlash va vatandoshlar bilan muloqot qilish bo'yicha "El-yurt umidi" jamg'armasi qayta tashkil etildi.

Jamg'armaga O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan lavozimga tayinlanadigan va lavozimidan ozod etiladigan direktor rahbarlik qiladi. Jamg'arma direktori maqomi, mehnatga haq to'lash, maishiy, tibbiy va transport xizmati ko'rsatish sharoitlariga ko'ra vazirning birinchi o'rinnbosariga, uning o'rinnbosarlari esa vazir o'rinnbosarlariga tenglashtiriladi. Jamg'arma xodimlariga O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'limga vazirligidagi tegishli lavozimlar uchun belgilangan mehnatga haq to'lash va moddiy rag'batlantirish miqdorlari va sharoitlari tatbiq etiladi. Jamg'arma xodimlariga ular ishining hajmi va samaradorligidan kelib chiqqan holda direktor qaroriga asosan lavozim maoshlarining 100 foizigacha miqdorida oylik ustama belgilanadi.

Jamg'arma direktoriga jamg'arma tuzilmasiga, zarur hollarda, xodimlarning belgilangan soni va mehnatga haq to'lash fondi doirasida o'zgartirish kiritish, jamg'armaga yuklatilgan vazifalarni bajarishga davlat va xo'jalik

boshqaruvi organlari, nodavlat notijorat tashkilotlar, ilmiytadqiqot va ta'lim muassasalari, shuningdek, xorijiy va xalqaro tashkilotlarning malakali ishchi va mutaxassislarini shartnomaga asosida jalb etish huquqi berildi.

Jamg'armaning moliyaviy ko'magida xorijda magistratura va doktorantura dasturlari asosida ta'lim olgan, malaka oshirgan, stajirovka o'tagan stipendiatlar zimmasiga stipendiat bilan tuzilgan shartnomada belgilangan muddat davomida oliy ta'lim muassasasi yoki ilmiy muassasada, shuningdek, vazirliklar, idoralar va boshqa davlat tashkilotlarida ishlab berish majburiyati yuklatildi, stipendiat uzsiz sabablarga ko'ra xorijiy ta'lim va ilmiy muassasalarning talabalari safidan chiqarilganda, malaka oshirish, stajirovka o'tash, magistratura va doktorantura dasturlari bo'yicha ta'lim olishi tugagandan so'ng O'zbekiston Respublikasi hududida, shuningdek, oliy ta'lim yoki ilmiy muassasada, vazirliklar, idoralar va boshqa davlat tashkilotlarida mehnat faoliyatini davom ettirishdan bosh tortganda, Jamg'arma tomonidan stipendiatni o'qitishga sarflangan barcha moliyaviy xarajatlar stipendiat tomonidan qoplab beriladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi xorijda ta'lim olish, malaka oshirish va stajirovka o'tash uchun nomzodlarni tanlov asosida tanlab olishni tashkil etishda Jamg'armaga har tomonlama uslubiy yordam ko'rsatilishi belgilandi. Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasiga va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasiga Jamg'arma orqali xorijiy mamlakatlarda ta'lim olgan stipendiatlarning ta'lim olganlik to'g'risidagi hujjatlarini, shu jumladan fan doktori ilmiy darajasini, maxsus sinovlarsiz nostrifikatsiyadan o'tkazishni (ekvivalentligini belgilashni) ta'minlanishi belgilandi.

Jamg'arma xarajatlarini moliyalashtirish manbalari etib quyidagilar belgilandi:

a) stipendiatlarning xorijiy ta'lim va ilmiy muassasalarida o'qitishni, malakasini oshirishni va stajirovkani o'tashini

tashkil etish, xorijiy mutaxassislarini, shu jumladan vatandoshlarimizni respublikada mehnat faoliyatini amalga oshirishga jalg etish bo'yicha:

– 2018 yilda — O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Ta'lim va tibbiyot muassasalarining moddiy-texnik bazasini rivojlantirish jamg'armasidan oliv ta'lim muassasalari ob'ektlarini qurish, rekonstruktsiya qilish, kapital ta'mirlash va jihozlash uchun ko'zda tutilgan hajmning 10 foizigacha miqdorida Jamg'armaning asoslangan hisob-kitoblari bo'yicha ajratiladigan mablag'lar;

– 2019 yildan boshlab — keyinchalik tegishli yildagi iste'mol narxlarining prognoz indeksiga teng koeffitsientni qo'llagan holda har yili O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetidan ajratiladigan 45 milliard so'm miqdoridagi mablag'lar;

– tegishli yilda Jamg'armaga ajratiladigan byudjet mablag'lari umumiyligi summasining 5 foizi miqdorida respublika oliv ta'lim muassasalarining byudjetdan tashqari (oshirilgan shartnomalar stavraklari bo'yicha to'lov-shartnomalar asosida o'qitishdan tushadigan) mablag'laridan ajratmalar;

– jismoniy va yuridik shaxslarning xayriya mablag'lari;

– xalqaro moliya institutlari va xorijiy tashkilotlarning grantlari, shuningdek, qonun hujjatlari bilan taqiqlanmagan boshqa manbalar;

b) Jamg'armaning joriy ta'minoti, shu jumladan xodimlar mehnatiga haq to'lash va Jamg'armaga yuklatilgan vazifalarni bajarish bo'yicha:

– 2018 yilda — O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi bilan kelishilgan holda Jamg'armaning Vasiylik kengashi tomonidan belgilanadigan miqdorda respublika oliv ta'lim muassasalarining byudjetdan tashqari (to'lov-shartnomalar asosida o'qitishdan tushadigan) mablag'laridan ajratmalar;

– 2019 yildan boshlab — O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti mablag'lari;

– xo‘jalik faoliyatidan va shartnoma asosida xizmatlar ko‘rsatishdan tushumlar;

– jismoniy va yuridik shaxslarning xayriya mablag‘lari, shuningdek, qonun hujjatlari bilan taqiqlanmagan boshqa manbalar.

Respublika oliy ta‘lim muassasalari ro‘yxati va byudjetdan tashqari (oshirilgan shartnoma stavkalari bo‘yicha to‘lov-shartnoma asosida o‘qitishdan tushadigan) mablag‘lardan Jamg‘armaga ajratmalar summasi O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi bilan kelishilgan holda Jamg‘armaning Vasiylik kengashi tomonidan tasdiqlanadi. Jamg‘arma 2022 yil 1 yanvarga qadar davlat maqsadli jamg‘armalariga soliq va majburiy to‘lovlardan ozod qilindi. Jamg‘armaga to‘rtta engil avtotransport vositasi, shu jumladan uchta shaxsiy va bitta navbatchi avtomobil saqlash uchun limit ajratildi.

O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi, Adliya vazirligi va Ichki ishlar vazirligi Jamg‘armaga:

– vatandoshlar va xorijiy mutaxassislar bilan aloqalarni yo‘lga qo‘yishda;

– stipendiatlar xorijiy mamlakatlarga viza olishida, konsullik hisobiga qo‘yilishida, notarial va boshqa xizmatlar ko‘rsatilishida, borgan davlatida stipendiatlarning o‘qishi, malaka oshirishi va stajirovka o‘tashini monitoring qilishda;

– chet eldan ishga taklif etilayotgan xorijiy mutaxassislarning viza olishida;

– xorijdagi vatandoshlarning tashkilotlari, xorijiy davlatlarda faoliyat yuritayotgan o‘zbek madaniy markazlari va jamiyatlari to‘g‘risidagi axborotlarni to‘plashda, shuningdek, xalqaro tashkilotlar, xorijiy ilmiytadqiqot va ta‘lim muassasalari hamda boshqa tashkilotlar bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish va rivojlantirishda amaliy yordam ko‘rsatishi belgilandi.

O‘zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi belgilangan tartibda:

- Jamg‘armani kerakli aloqa, shu jumladan hukumat aloqasi bilan, uning internet jahon axborot tarmog‘iga keng polosali kirish bilan ta’minlashi;
- vatandoshlarning elektron reestri (ma’lumotlar bazasi)ni yaratish va yuritish, shuningdek, xorijiy ekspertlarni jalb qilgan holda videokonferentsiyalar, internet-forumlar va teleko‘priklar o’tkazishda zarur texnik yordam ko’rsatishi ta’kidlab o’tildi.

Jamg‘arma O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga bo‘ysunadi. Jamg‘arma faoliyatiga umumiy rahbarlik va nazorat qilish, Jamg‘arma moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va xodimlar malakasini oshirishni tashkil etish O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan amalga oshiriladi. Jamg‘arma o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon, qaror va farmoyishlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaror va farmoyishlari, boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga amal qiladi

Jamg‘arma davlat tashkiloti shaklidagi yuridik shaxs hisoblanib, o‘z mustaqil balansi, O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G‘aznachiligidagi shaxsiy hisobvaraqlari, bank hisobvaraqlari (shu jumladan, xorijiy valyutada), O‘zbekiston Respublikasi davlat gerbi tasviri va davlat tilidagi o‘z nomi tushirilgan muhr, shtamp va boshqa belgilariga ega.

Quyidagilar Jamg‘armaning vazifalari va faoliyatining asosiy yo‘nalishlari hisoblanadi:

- xorijdagi nufuzli ilmiy-tadqiqot, ta’lim va tibbiyot muassasalarida, iqtisodiyotning istiqbolli tarmoqlarida, ayniqsa, eng yangi materiallar va innovatsion texnologiyalarni ishlab chiqarish va qo’llash sohalarida ishlayotgan, qimmatli ilmiy va amaliy tajribaga ega vatandoshlarimiz bilan aloqalar o‘rnatish;

- davlat organlarining kadrlar bo‘yicha xizmatlari tomonidan foydalанилиши va onlayn tarzda izlash amalga

oshirilishi mumkin bo'lgan jahon mamlakatlari va mutaxassisliklar bo'yicha kataloglashtirilgan qimmatli ilmiy va amaliy tajribaga ega vatandoshlarning elektron reestri (ma'lumotlar bazasi)ni yaratish va yuritish;

– xorijiy olimlar, o'qituvchilar, muhandislar va boshqa mutaxassislar, shu jumladan vatandoshlarni ta'lim, sog'liqni saqlash, iqtisodiyot va davlat boshqaruvi sohalariga, ayniqsa, yangi, istiqbolli tarmoqlarga jalb etish, ular uchun qulay sharoitlar yaratish, dolzarb muammolarini hal etish, ularning salohiyatidan samarali foydalanishni ta'minlash bo'yicha takliflar ishlab chiqish va tadbirlarni amalga oshirish;

– ta'lim, sog'liqni saqlash va iqtisodiyot sohalarida ishlayotgan vatandoshlar orasida O'zbekistonning ijobiliy qiyofasini shakllantirish, O'zbekiston Respublikasida iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohani rivojlantirish masalalari bo'yicha ularning g'oya va fikrlarini to'plash, umumlashtirish va tegishli tashkilotlarga etkazish, shuningdek, to'plangan materiallarni tayyorlash va tarqatishning samarali tizimini yaratish;

– xorijda O'zbekistonning ijobiliy imidjini shakllantirish va qo'llab-quvvatlashda, shuningdek, rivojlangan mamlakatlarning nufuzli ta'lim va ilmiy markazlari bilan aloqalarni yo'nga qo'yish va hamkorlikni rivojlantirishda vatandoshlar salohiyatidan faol foydalanish;

– rivojlangan mamlakatlarning yetakchi ta'lim va ilmiy muassasalarida magistratura va doktorantura hamda malaka oshirish va stajirovka dasturlari bo'yicha ta'lim, sog'liqni saqlash, iqtisodiyot va davlat boshqaruvi sohalaridagi istiqbolli mutaxassislar, shu jumladan pedagoglar va ilmiy kadrlarni tanlab olish va tayyorlashni tashkil etish;

– nufuzli xorijiy ta'lim va ilmiy muassasalarda istiqbolli mutaxassislarni o'qishini monitoring qilish, ularning O'zbekistonda munosib ishga joylashishiga ko'maklashish, ushbu mutaxassislarning mehnat faoliyatini monitoring qilish, ularning kasbiy jihatdan o'sishiga va mansab pillapoyalarida ko'tarilishiga ko'maklashish;

– mamlakatimizdagi hamda xorijiy ekspertlarning, shu jumladan vatanadoshlarimizning O'zbekistondagi ijtimoiy-siyosiy va sotsial-iqtisodiy islohotlarning borishiga oid tahliliy materiallari chop etiladigan jurnallar, ilmiy to'plamlarni tayyorlash va keng tarqatish;

– davlat organlari va boshqa tashkilotlarda kadrlarni xorijda tayyorlash va xorijiy mutaxassislarni jalb etish borasidagi ishlar holatini monitoring qilish hamda ushbu tizimni takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

– ta'lim, sog'liqni saqlash, iqtisodiyot va davlat boshqaruvi sohalarida xalqaro tashkilotlar, xorijiy mamlakatlarning davlat tuzilmalari va nodavlat tashkilotlari bilan aloqalarni yo'lda qo'yish, ularni hamkorlik va rivojlanish bo'yicha loyihalarni amalga oshirishga jalb etish.

Jamg'arma o'z vazifalari va faoliyatining asosiy yo'nalishlariga muvofiq quyidagi huquqlarga ega:

– davlat organlari va boshqa tashkilotlardan xorijda kadrlar tayyorlash bo'yicha ishlar holati, xorijiy mutaxassislarga talab va ularni, shu jumladan vatandoshlarni jalb etish, shuningdek, jalb etilgan mutaxassislar faoliyatining samaradorligiga doir tegishli axborotni so'rash;

– xorijiy mutaxassislar, shu jumladan vatandoshlarni vazirlik va idoralar, oliy ta'lim muassasalari va respublikaning boshqa tashkilotlariga jalb etish;

– xorijda ta'lim olgan, malaka oshirgan va stajirovka o'tagan mahalliy mutaxassislarni ishga joylashtirish masalalari bo'yicha davlat organlari va boshqa tashkilotlari bilan o'zaro hamkorlik qilish;

– respublikaga ilg'or xorijiy o'qituvchilar, olim va mutaxassislarni oliy ta'lim muassasalari va pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash hamda malakasini oshirish markazlarining ta'lim jarayonida ishtiroy etish uchun belgilangan tartibda taklif etish;

– O'zbekiston Respublikasi va xorijiy mamlakatlar hududida o'z nomidan va o'z vakolatlari doirasida jismoniy

va yuridik shaxslar bilan shartnomalar va boshqa hujjatlarni tuzish va imzolash;

– O‘zbekiston Respublikasi va xorijiy mamlakatlarda turli ko‘rgazmalar, tanlovlар, konferentsiyalar, boshqa ilmiy va ta’lim tadbirlarini tashkil etish;

– Jamg‘arma faoliyatiga vazirliklar, idoralar, ta’lim, ilmiy va boshqa muassasalar xodimlari va mutaxassislarini shartnoma asosida jalb etish;

– respublika hududida va uning tashqarisida tashkil etiladigan xalqaro ta’lim va ilmiy tashkilotlar, turli nodavlat notijorat tashkilotlarining belgilangan tartibda ta’sischisi va hammuassisi bo‘lish;

– shartnoma asosida turli ilmiy va ta’lim xizmatlarini ko‘rsatish.

Fond qonun hujjatlariga zid bo‘lmagan boshqa faoliyatni amalga oshirish huquqiga ega.

17.2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi mutaxassislarni xorijda tayyorlash va vatandoshlar bilan muloqot qilish bo‘yicha “El-yurt umidi” jamg‘armasi faoliyatini tashkil etish, uning mulki va moliyaviy mablag‘lari

Jamg‘arma boshqaruvining oliy organi Vasiylik kengashi hisoblanadi. Jamg‘arma Vasiylik kengashi tarkibi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlanadi. Jamg‘arma Vasiylik kengashining majlislari rais yoki uning topshirig‘iga ko‘ra rais o‘rinnbosari rahbarligida o‘tkaziladi. Jamg‘arma Vasiylik kengashining majlislari zaruriyatga qarab, lekin bir yilda kamida bir marta o‘tkaziladi. Jamg‘arma Vasiylik kengashining qarori bayonnaoma bilan rasmiylashtiriladi.

Quyidagilar Jamg‘arma Vasiylik kengashining vazifalari hisoblanadi:

– Jamg‘armaga umumiy rahbarlikni amalga oshirish va uning faoliyatini nazorat qilish;

– Jamg‘armaning daromad va xarajatlari yillik parametrlari, ularning ijrosi to‘g‘risidagi yillik hisobotlarni,

shuningdek, Jamg'armaga yuklatilgan vazifalarning bajarilishi to'g'risidagi hisobotlarni tasdiqlash;

– yetakchi xorijiy ta'lismi va ilmiy muassasalarda magistratura va doktorantura dasturlari, malaka oshirish va stajirovka o'tash bo'yicha asosiy yo'nalishlar va yillik maqsadli o'quv dasturlarini (stipendiatlarning sonini) tasdiqlash;

– xorijiy, shu jumladan vatandoshlar orasidan olimlar, o'qituvchilar, muhandislar va boshqa mutaxassislarini ta'lismi, sog'liqni saqlash, iqtisodiyot va davlat boshqaruvi sohasiga jalb etish bilan bog'liq xarajatlarni tasdiqlash;

– xorijda O'zbekiston to'g'risidagi ijobjiy axborot muhitini shakkantirishga qaratilgan tadbirlarni amalgalash bilan bog'liq xarajatlarni tasdiqlash, iqtisodiy jihatdan rivojlangan mamlakatlarning nufuzli ta'lismi va ilmiy markazlari, xalqaro tashkilotlar bilan aloqalarni yo'lgan qo'yish va hamkorlikni rivojlantirish;

– Jamg'arma tomonidan xorijiy ta'lismi va ilmiy muassasalarda magistratura va doktorantura dasturlari bo'yicha ta'lismi olish, malaka oshirish, stajirovka o'tash uchun nomzodlarni tanlab olish bo'yicha o'tkaziladigan tanlov natijalarini tasdiqlash;

– xorijda magistratura va doktorantura dasturlari bo'yicha ta'lismi olgan mahalliy mutaxassislarini ishga joylashtirish va kasbiy o'sishi masalalarini muvofiqlashtirish;

– xorijda ta'lismi olgan, malaka oshirgan va stajirovka o'tagan pedagoglar, ilmiy kadrlar va mutaxassislarining bilimlari, qobiliyati, malakaviy imkoniyatlarining to'laqonli ro'yobga chiqishini ta'minlash;

– Jamg'arma faoliyatiga aloqador boshqa masalalarni ko'rib chiqish va ular bo'yicha qarorlar qabul qilish.

Jamg'arma Vasiylilik kengashi a'zolari Jamg'armani boshqarish bo'yicha majburiyatlarini jamoatchilik asosida olib boradilar. Jamg'armaning joriy faoliyatini tashkil etish va amalga oshirish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan lavozimga tayinlanadigan va

lavozimidan ozod etiladigan direktor tomonidan ta'minlanadi.

Jamg'arma direktori:

- Jamg'armaning joriy faoliyatini tashkil etadi va unga yuklatilgan vazifalarning bajarilishiga doir choralar ko'radi;
- Jamg'arma Vasiylik kengashi tomonidan belgilangan yo'naliislarga muvofiq Jamg'arma faoliyatiga umumiy rahbarlikni amalga oshiradi;
- Jamg'arma Vasiylik kengashi qarorlarining bajarilishini ta'minlaydi;
- Jamg'arma xodimlarini lavozimga tayinlaydi va lavozimidan ozod etadi;
- davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, boshqa tashkilotlar, shu jumladan xorijiy davlatlarda, xalqaro tashkilotlarda Jamg'arma manfaatlarini ifodalaydi;
- Jamg'armaning shtatlar jadvali va xarajatlar smetasini Vasiylik kengashiga tasdiqlash uchun taqdim etadi;
- Jamg'armaning lavozim yo'rqnomalari va boshqa hujjatlarini tasdiqlaydi;
- belgilangan tartibda Jamg'arma xodimlarini moddiy rag'batlantirish bo'yicha choralar ko'radi;
- qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ishonchnomalar beradi;
- shartnomalar tuzadi va Jamg'arma xodimlari tomonidan bajarilishi majbur bo'lgan buyruqlar chiqaradi.

Jamg'armaning mulki asosiy vositalar, binolar, inshootlar, uskunalar, aylanma mablag'lari va mablag'larni shakllantirishning barcha manbalari hisobidan xarid qilingan boshqa moddiy qimmatliklar, shuningdek, Jamg'armaning moliyaviy resurslaridan iborat. Jamg'arma mulkinining qiymati uning mustaqil balansida aks ettiriladi.

Quyidagilar Jamg'arma xarajatlarini moliyalashtirish manbalari hisoblanadi:

- O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti mablag'lari;
- respublika oliy ta'lim muassasalarining byudjettdan tashqari (oshirilgan shartnoma stavkalari bo'yicha to'lov-

shartnama asosida o'qitishdan tushadigan) mablag'lardan ajratmalar;

- xo'jalik faoliyati va shartnama asosida xizmat ko'rsatishdan tushumlar;
- jismoniy va yuridik shaxslarning xayriya mablag'lari;
- xalqaro moliyaviy institutlar va xorijiy tashkilotlarning grantlari;
- qonun hujjatlari bilan taqiqlanmagan boshqa manbalar.

Respublika oliy ta'lim muassasalari ro'yxati va byudjetdan tashqari (oshirilgan shartnama stavkalari bo'yicha to'lov-shartnama asosida o'qitishdan tushadigan) mablag'lardan Jamg'armaga ajratmalar summasi O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi bilan kelishilgan holda Jamg'arma Vasiylik kengashi tomonidan tasdiqlanadi. Jamg'arma xodimlariga O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligidagi tegishli lavozimlar uchun belgilangan mehnatga haq to'lash va moddiy rag'batlantirish miqdorlari va sharoitlari tatbiq etiladi. Jamg'arma o'z majburiyatlar bo'yicha qonun hujjatlariga muvofiq unga tegishli barcha mulk bilan javobgar boladi. Jamg'arma belgilangan tartibda buxgalteriya hisobini amalga oshiradi, moliyaviy va statistik hisobotni yuritadi.

Jamg'armani qayta tashkil etish va tugatish O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan amalga oshiriladi.

17.3. Xorijda ta'lim olish uchun nomzodlarni tanlov asosida tanlab olishni o'tkazish tartibi

Magistratura va doktorantura dasturlari bo'yicha ta'lim olish, malaka oshirish va stajirovka o'tashga yuborish Jamg'arma tomonidan tanlov asosida amalga oshiriladi. Nomzodlarni tanlov asosida tanlab olishni tashkil etish va o'tkazish tanlov asosida tanlab olishni o'tkazish bo'yicha komissiyalar tomonidan amalga oshiriladi, ularning shaxsiy tarkibi va ish tartibi Jamg'armaning Vasiylik

kengashi tomonidan har bir tanlov uchun alohida tasdiqlanadi. Xorijda magistratura va doktorantura dasturlari bo'yicha ta'lim olish, malaka oshirish va stajirovka o'tashga qabul qilish faqat O'zbekiston Respublikasi fuqarolari uchun hamda qabul va tanlab olishning yagona qoidalari asosida amalga oshiriladi.

Tanlovlarda quyidagi shaxslar ishtirot etishi mumkin emas:

- magistratura dasturlari bo'yicha — 23 yoshdan kichik va 40 yoshdan katta bo'lgan, shuningdek, ilgari o'xshash mutaxassislik bo'yicha xorijda magistraturada tahsil olganlar;

- doktorantura dasturlari bo'yicha — 25 yoshdan kichik va 45 yoshdan katta bo'lgan, shuningdek, avval PhD yoki fan doktori ilmiy darajasini olganlar;

- malaka oshirish va stajirovka o'tash dasturlari bo'yicha — 25 yoshdan kichik va 50 yoshdan katta bo'lgan, shuningdek, Jamg'arma dasturlaridan biri asosida so'nggi uch yil mobaynida xorijda ta'lim olganlar;

- xorijda ta'lim olish uchun tanlangan mutaxassislik bo'yicha 2 yildan kam mehnat tajribasiga, shu jumladan pedagogik stajga ega bo'lganlar;

- davlat hokimiyatining saylab qo'yiladigan organlarida faoliyat yuritayotganlar;

- og'ir yoki o'ta og'ir jinoyatlarni sodir etganlik uchun sudlanganligi tugallanmagan yoxud sudlanganligi olib tashlanmaganlar.

Favqulodda holatlarda, vazirlik yoki idora rahbarining tavsiyasiga asoslangan holda komissiyalar qaroriga ko'ra magistratura va doktorantura dasturlari bo'yicha ta'lim olishga tanlab olishda tegishli vazirlik va idoralarning mos ravishda 45 va 50 yoshgacha bo'lgan xodimlari ishtirot etishiga ruxsat beriladi. Xorijda ta'lim olish uchun tanlov davlat va rus tilida o'tkaziladi. Xorijiy til bo'yicha test sinovlari ta'lim olinadigan mamlakat tili yoki ingliz tilida o'tkaziladi (agar qabul qilayotgan xorijiy oliy ta'lim yoki ilmiy muassasada o'qitish ingliz tilida olib borilsa).

Jamg'arma stipendiyalari belgilangan tartibda Jamg'arma Vasiylik kengashi tomonidan har yili tasdiqlanadigan dasturlarga muvofiq ajratiladi:

- xorijiy ta'limga ilmiy muassasalarda malaka oshirishga — 2 oygacha muddatga;
- xorijiy ilmiy, ta'limga ijod muassasalari, davlat idoralari, korxona va boshqa tashkilotlarda stajirovka o'tashga — 6 oygacha muddatga;
- yetakchi xorijiy oliy ta'limga ilmiy muassasalarda magistratura dasturi asosida ta'limga olishga — 1-2 yil mobaynida, doktorantura dasturi bo'yicha — 1 — 4 yil mobaynida.

Jamg'arma stipendiyalari ushbu Nizom talablari asosida tanlovdan o'tgan shaxslar (stipendiatlar)ga quyidagi xarajatlarni qoplash uchun ajratiladi:

- xorijiy ta'limga ilmiy muassasalarda stipendiatlarni o'qitish qiymati to'lovi;
- stipendiatlar tomonidan viza olish (shu jumladan, xorijiy mamlakatlarning respublikadagi elchixonasi talabiga ko'ra tibbiy ko'rirkdan o'tish xarajatlari);
- stipendiatlarning barcha turdagini transport vositalari bilan ta'limga olish joyiga bo'lgan yo'llkira xarajatlari (ikkala tomonga, yiliga bir martagacha);
- xorijiy mamlakatda ta'limga olish davrida stipendiatlarning yashash, ovqatlanish va transport xarajatlari;
- zarur o'quv va ilmiy adabiyotlar xarid qilish, shu jumladan darsliklar xarid qilish, ilmiy maqolalar chiqarish, maqolalar va ilmiy adabiyotlarning elektron bazasiga obuna bo'lish (ta'limga olish dasturi boshida bir martalik to'lov);
- xorijda ta'limga olish davrida stipendiatlarni tibbiy sug'urtalash;
- Jamg'arma Vasiylik kengashi qaroriga ko'ra xorijda ta'limga olish bilan bog'liq stipendiatlarning boshqa xarajatlari.
- Jamg'arma Vasiylik kengashi qaroriga muvofiq magistratura, doktorantura, malaka oshirish va stajirovka o'tash dasturlari bo'yicha o'tkazilayotgan tanlov haqidagi

e'lon hujjatlarni qabul qilish muddati tugashiga eng kamida bir oy qolganda ommaviy axborot vositalari, shuningdek, internet nashrlar va Jamg'armaning veb-saytiga joylashtiriladi.

Tanlov o'tkazish to'g'risidagi e'lon quyidagi ma'lumotlardan iborat bo'ladi:

- arizalarni qabul qilish muddati va joyi;
- zarur hujjatlar ro'yxati;
- tanlov qatnashchisiga qo'yiladigan talablar (yoshi, mutaxassislik bo'yicha zarur ish tajribasi, xorijiy tilni bilish darajasi, ilmiy maqolalar mavjudligi va boshqalar);
- tanlovnini o'tkazish muddati va joyi;
- aloqa telefonlari va elektron manzili.

Xorijda barcha dasturlar bo'yicha ta'lim olishga nomzodlar Jamg'armaga quyidagi hujjatlarni taqdim qiladilar:

- a) tegishli namunadagi ma'lumotnomma-ob'ektivka (anketa);
- b) ta'lim olish shakli va yo'nalishi ko'rsatilgan holda belgilangan namunadagi komissiya raisi nomiga ariza;
- d) belgilangan namunadagi ikkita fotosurat;
- e) oliy ta'lim muassasasini tugatganligini, shuningdek, ilmiy darajasini (fan nomzodi, PhD va fan doktori.), ilmiy unvonini (katta ilmiy xodim, dotsent, professor) tasdiqlovchi diplomlarning nusxasi;
- f) mehnat daftarchasi nusxasi (mehnat staji bo'lganda);
- g) pasport nusxasi;
- h) belgilangan namunadagi tibbiy ma'lumotnomma;
- i) chet tilidan bilim darajasini belgilovchi amaldagi milliy yoki xalqaro sertifikat (Milliy kvalifikatsiya sertifikati, IELTS, TOEFL va shu kabilar), agar mavjud bolsa.
- j) sudlanmaganligi to'g'risidagi ma'lumotnomma.

Xorijda malaka oshirish, stajirovka o'tashga nomzodlar qo'shimcha tarzda quyidagi hujjatlarni Jamg'arma qabul Komissiyasiga taqdim etadilar:

- a) buyurtmachi tashkilot rahbari yoki uning o'rinnbosari imzosi bilan nomzod tomonidan Xorijda malaka oshirishi va stajirovka o'tashi zarurligi asoslangan tavsiyanoma;

- b) malaka oshirish yoki stajirovka dasturi;
- d) malaka oshirish yoki stajirovka o'tash dasturini amalga oshirish to'g'risida xorijiy muassasa bilan dastlabki kelishuv (agar mavjud bo'lsa).

Xorijda magistratura dasturi bo'yicha ta'lim olishga nomzodlar qo'shimcha tarzda quyidagilarni taqdim qiladilar:

- a) diplomning ilovasi nusxasi;
- b) xorijiy ta'lim yoki ilmiy muassasaga qabul qilish to'g'risidagi hujjat («Letter of acceptance»), agar mavjud bo'lsa;
- d) nomzodning O'zbekistonda va xorijda e'lon qilingan maqolalari ro'yxati va ularning elektron variantlari (mavjud bo'lsa);
- e) xorijda ta'lim olish maqsadi va ta'lim olish tugagandan so'ng olingan bilimlarni O'zbekistonda qo'llash imkoniyatlari haqida esse (yozma ish).

Xorijda doktorantura dasturi bo'yicha ta'lim olishga nomzodlar qo'shimcha tarzda quyidagilarni taqdim qiladilar:

- a) diplomning ilovasi nusxasi;
- b) xorijiy ta'lim yoki ilmiy muassasaga qabul qilish to'g'risidagi hujjat («Letter of acceptance»), agar mavjud bo'lsa.
- d) ushbu sohani rivojlantirish yoki O'zbekistonda natijalarini qo'llash uchun nomzod tadqiqotining dolzarbliги to'g'risida tegishli ilmiy yoki oliy ta'lim muassasasi rahbarining tavsiyaviy xati;
- e) nomzodning O'zbekistonda va xorijdagi ilmiy jurnallarda e'lon qilingan ilmiy maqolalari ro'yxati va ularning elektron variantlari;
- f) rejorashtirilayotgan ilmiy tadqiqot maqsadlari, usullari va natijalarini, ularni O'zbekistonda qo'llash imkoniyatlari to'g'risidagi esse (yozma ish).

Nomzodlarning hujjatlarini qabul qilish, to'plash va dastlabki ko'rib chiqish Jamg'armaning xodimlari tomonidan amalga oshiriladi. Zarur hujjatlardan birini nomzod e'londa ko'rsatilgan muddatda taqdim qilmasa

uning tanlovda qatnashishiga yo'l qo'yilmaydi. E'londa ko'rsatilgan nomzodlarning hujjatlarini qabul qilish muddati tugagandan so'ng Jamg'arma xodimlari va jalb qilingan mutaxassislar tomonidan tayyorlangan dastlabki tahlil natijalari ilova qilingan holda hujjatlar Jamg'armaning tegishli Komissiyasiga taqdim etiladi. Nomzodlar tomonidan taqdim qilingan hujjatlar tanlov tugagandan so'ng qaytarilmaydi.

Xorijda magistratura va doktorantura dasturlari asosida ta'lif olish uchun nomzodlarni saralash to'rt bosqichda amalga oshiriladi:

- 1-bosqich hujjatlarni ko'rib chiqish va belgilangan talablarga eng mos keladigan nomzodlarni dastlabki saralashni ko'zda tutadi (yoshi, mutaxassisligi bo'yicha zarur ish tajribasi, ilmiy maqolalari mavjudligi, tanlangan mutaxassislikning mamlakat rivojlanishidagi belgilangan ustuvor yo'nalishlarga mosligi va boshqa talablar). Ushbu bosqich Jamg'arma xodimlari tomonidan o'tkaziladi.

- 2-bosqichda 1-bosqichda tanlangan nomzodlar ichida amaldagi xalqaro sertifikatga ega bo'lmaganlari bilan xorijiy tillarni bilish darajasini aniqlash bo'yicha suhbat (yoki imtihon) o'tkaziladi (oliy ta'lif va boshqa muassasa xodimlarini jalb qilgan holda, shu jumladan xorijiy).

- 3-bosqichda 2-bosqichda tanlangan nomzodlar bilan o'z mutaxassisligi bo'yicha bilimlari darajasi, intellektual qobiliyatlari, shuningdek, Jamg'arma tomonidan tayyorlangan savolnomalar asosida nomzodlarning dunyoqarashi kengligi hamda O'zbekiston rivojlanishining ustuvor yo'nalishlari va amalga oshirilayotgan islohotlar mazmun mohiyatini bilishini aniqlash bo'yicha suhbat va yozma imtihon (esse) o'tkaziladi (vazirlik va idoralar, oliy ta'lif va ilmiy tashkilotlar, korxona va tashkilotlar mutaxassislar ishtirokida, shu jumladan xorijiy mutaxassislar).

- 4-bosqichda xalqaro sertifikatlangan attestatsiya markazlari ishtirokida xorijiy hamkor talablariga muvofiq oldingi bosqichlardan muvaffaqiyatli o'tgan nomzodlar orasida chet tili bilim darajalarini va/yoki chet tilidagi

tahlil imkoniyatlarini baholash bo'yicha test (IELTS, TOEFL, TestDaf, GMAT, GRE va boshqa) o'tkaziladi.

Har bir bosqichning natijalari tegishli komissiya yig'ilish bayonnomasi bilan tasdiqlanadi.

O'zbekistonda xalqaro standartlashtirilgan testlardan o'tish xarajatlari Jamg'arma tomonidan bir marta to'lab beriladi yoki nomzodlarga qoplab beriladi. Xalqaro standartlashtirilgan testlarni takroriy topshirish yoki xorijiy oliv ta'lif yoki ilmiy muassasa tomonidan ta'lif olish mamlakatida topshirilishi talab qilinadigan kirish imtihonlari xarajatlari Jamg'arma tomonidan qoplanmaydi. Chet elning ta'lif va ilmiy muassasalari talablari darajasida bilimini tasdiqlovchi amaldagi xalqaro sertifikatga ega nomzodlar test sinovlaridan ozod qilinadi. Tegishli komissiya tanlov yakunlarini umumlashtiradi va uni tasdiqlash uchun Jamg'armaning Vasiylik kengashiga taqdim qiladi. Jamg'arma Vasiylik kengashining Xorijda magistratura va doktorantura dasturlari bo'yicha ta'lif olish uchun o'tkazilgan tanlov natijalarini tasdiqlash haqidagi qarori tanlovdan so'ng bir oy muddat ichida e'lon qilinadi. Tanlovdan muvaffaqiyatli o'tgan nomzodlarga belgilangan shakldagi stipendiatlik sertifikatlari topshiriladi. Tanlov yakunlari tasdiqlangandan va sertifikatlar topshirilgandan so'ng Jamg'arma stipendiatlarga xorijiy oliv ta'lif yoki ilmiy muassasasini tanlash va hujjatlar topshirishga maslahat yordamini ko'rsatadi.

Ta'lif olishning xarajatlari, muddati va shartsharoitlaridan kelib chiqib, xorijiy mamlakatni tanlash va stipendiat tomonidan tanlangan undagi ta'lif yoki ilmiy muassasani tasdiqlash huquqi Jamg'arma vakolatida qoladi. Stipendiat ta'lif olishi uchun tanlanadigan oliv ta'lif yoki ilmiy muassasa, qoida tariqasida, tan olingan xalqaro tashkilotlar reytingiga ko'ra jahondagi eng yaxshi 500 talik yoki tanlangan fan yo'nalishi bo'yicha eng yaxshi 200 talik ro'yxatiga kirgan bo'lishi kerak.

Xorijiy oliv ta'lif yoki ilmiy muassasaga hujjatlarni topshirish bo'yicha xarajatlar («Application fee») Jamg'arma tomonidan uch martagacha nomzodga to'lab beriladi. Agar

stipendiat yuqorida ko'rsatilgan talablarga muvofiq tanlangan mutaxassislik bo'yicha magistratura dasturi uchun bir yil, doktorantura dasturi uchun ikki yil mobaynida birorta xorijiy ta'lim yoki ilmiy muassasaga shartsiz qabul qilinganligi to'g'risidagi hujjatni («Unconditional letter of acceptance») taqdim eta olmasa, uning stipendiyasi bekor qilinadi. Har bir tanlov uchun Jamg'armaning Vasiylik kengashi qarori bilan tanlangan mamlakat va mutaxassislikka bog'liq holda magistratura va doktoranturada bitta stipendiatni o'qitishga ajratildigan barcha xarajatlarning eng yuqori summasi belgilanishi mumkin.

Xorijda malaka oshirish va stajirovka o'tash uchun nomzodlarni saralash uch bosqichda o'tkaziladi:

– 1-bosqich hujjatlarni ko'rib chiqish va belgilangan talablarga eng mos keladigan nomzodlarni dastlabki saralashni ko'zda tutadi (yoshi, mutaxassisligi bo'yicha zarur ish tajribasi, ilmiy maqolalari mavjudligi va boshqa talablar). Ushbu bosqich Jamg'arma xodimlari tomonidan o'tkaziladi.

– 2-bosqichda 1-bosqichda tanlangan nomzodlar ichida amaldagi xalqaro sertifikatga ega bo'limganlari bilan xorijiy tillarni bilish darajasini aniqlash bo'yicha suhbat (yoki imtihon) o'tkaziladi (oliy ta'lim va boshqa muassasa xodimlarini jalb qilgan holda, shu jumladan xorijiy).

– 3-bosqichda 2-bosqichda tanlangan nomzodlar bilan o'z mutaxassisligi bo'yicha bilimlari darajasi, intellektual qobiliyatları, shuningdek, Jamg'arma tomonidan tayyorlangan savolnomalar asosida nomzodlarning dunyoqarashi kengligi hamda O'zbekiston rivojlanishining ustivor yo'naliishlari va amalga oshirilayotgan islohotlar mazmun mohiyatini bilishini aniqlash bo'yicha suhbat (va/yoki imtihon) o'tkaziladi (buyurtmachi, oliy ta'lim va ilmiy tashkilotlar, korxona va tashkilotlar mutaxassislari ishtirokida).

Har bir bosqich natijalari tegishli komissiyaning yig'ilish bayonnomasi bilan tasdiqlanadi. Tegishli komissiya tanlov yakunlarini umumlashtiradi va uni

tasdiqlash uchun Jamg'armaning Vasiylik kengashiga taqdim qiladi. Jamg'arma Vasiylik kengashining Xorijda malaka oshirish va stajirovka o'tash uchun o'tkazilgan tanlov natijalarini tasdiqlash haqidagi qarori tanlovdan so'ng bir oy muddat ichida e'lon qilinadi. Tanlovdan muvaffaqiyatlari o'tgan nomzodlarga belgilangan shakldagi stipendiatlik sertifikatlari topshiriladi. Malaka oshirish va stajirovka o'tashning butun muddati davomida stipendiatlarning ish joyi saqlanadi.

Tanlovnинг барча босқичларидан муваффақиятли о'tган ва 6 oyдан ortiq muddatga xorijga ketayotgan nomzodlar quyidagilardan o'tishi kerak:

a) Jamg'arma tomonidan belgilangan ixtisoslashgan tibbiyot markazida tibbiy ko'rikdan;

b) Jamg'arma bazasida quyidagi yo'nalishlar bo'yicha qisqa muddatli o'quv kurslari (shu jumladan onlayn rejimida):

- O'zbekistonda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-siyosiy va sotsial-iqtisodiy islohotlar maqsadi, vazifalari, mohiyati va mazmuni;

- O'zbekiston tarixi;

- O'zbekiston madaniyati, an'analarini va turistik salohiyati;

- Xalqaro etiket va protokol.

Magistratura yoki doktorantura dasturi bo'yicha Xorijda ta'lim olgan stipendiatga, oliy ta'lim yoki ilmiy muassasada, shuningdek, vazirliklar, idoralar va boshqa davlat tashkilotlarida egallagan mutaxassisligi bo'yicha 5 (besh) yildan kam bo'lмаган muddatda uzlusiz ishlab berish majburiyati yuklanadi.

Stipendiatni o'qitishga sarflangan barcha xarajatlar summasi 75 ming AQSh dollaridan oshgan holda, oliy ta'lim yoki ilmiy muassasada, shuningdek, vazirliklar, idoralar va boshqa davlat tashkilotlarida uzlusiz ishlab berish majburiyati 7 (etti) yilgacha etib belgilanishi mumkin.

Xorijda malaka oshirib yoki stajirovka o'tab kelgan stipendiatga oliy ta'lim yoki ilmiy muassasada,

shuningdek, vazirliklar, idoralar va boshqa davlat tashkilotlarida 3 (uch) yildan kam bo'limgan muddat davomida ishlab berish majburiyati yuklanadi.

Stipendiat uzsiz sabablarga ko'ra xorijiy ta'lim va ilmiy muassasalarning talabalari safidan chiqarilganda, malaka oshirish, stajirovka o'tash, magistratura va doktorantura dasturlari bo'yicha ta'lim olishi tugagandan so'ng O'zbekiston Respublikasi hududida, shuningdek, oliy ta'lim yoki ilmiy muassasada, vazirliklar, idoralar va boshqa davlat tashkilotlarida mehnat faoliyatini davom ettirishdan bosh tortganda, Jamg'arma tomonidan stipendiatni o'qitishga sarflangan barcha moliyaviy xarajatlar stipendiat tomonidan qoplab beriladi.

Bahs-munozara va nazorat uchun savollar

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi mutaxassislarni xorijda tayyorlash va vatandoshlar bilan muloqot qilish bo'yicha "El-yurt umidi" jamg'armasining asosiy vazifalarini sanab o'ting;
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi mutaxassislarni xorijda tayyorlash va vatandoshlar bilan muloqot qilish bo'yicha "El-yurt umidi" jamg'armasining mablag'laridan foydalanish yo'nalishlarini izohlang;
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi mutaxassislarni xorijda tayyorlash va vatandoshlar bilan muloqot qilish bo'yicha "El-yurt umidi" jamg'armasi daromadlarini shakllantirish manbalarini sanab o'ting;
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi mutaxassislarni xorijda tayyorlash va vatandoshlar bilan muloqot qilish bo'yicha "El-yurt umidi" jamg'armasi mablag'larini sarflash tartibini izohlang.

18-BOB. XORIJIY MAMLAKATLARDA MAQSADLI JAMG'ARMALAR FAOLIYATI

Reja:

18.1. Xorijiy mamlakatlarda maqsadli jamg'armalar faoliyatini tashkil etishning zarurligi, maqsadi va vazifalari

18.2. Xorijiy mamlakatlarda maqsadli jamg'armalararning tarkibi va turlari. Jamg'armalar daromadlarining shakllanishi va mablag'larining sarflanishi

18.1. Xorijiy mamlakatlarda maqsadli jamg'armalar faoliyatini tashkil etishning zarurligi, maqsadi va vazifalari

Har qanday mamlakat o'z taraqqiyot yo'lini belgilashda moliya tizimining qay darajada tashkil etilganligiga alohida e'tibor qaratilishi tabiiy hol, albatga. Shundan kelib chiqqan holda, bugungi kunda respublikamiz moliya tizimida muhim o'rin tutgan davlat maqsadli jamg'armalarining samarali boshqarilishida rivojlangan mamlakatlar tajribalaridan o'rinali foydalaniylmoqda.

Ma'lumki, xorijiy mamlakatlar moliya tizimida maqsadli fondlar alohida o'rin tutadi. Ularda jamlanadigan mablag'lar hajmi yuqori bo'lib, masalan, Fransiyada maxsus fondlarning miqdori jihatidan mamlakatning davlat byudjetiga yaqin. Yaponiyada davlat xaratjalaring yarmidan ko'pi ana shunday jamg'armalar hisobidan moliyalashtirilsa, Buyuk Britaniyada bu ko'rsatkich byudjetning uchdan bir qismini tashkil etadi. Albatta, bu fondlarning iqtisodiy va ijtimoiy vazifalari mavjud. Davlat bu fondlarning mablag'lari bilan ishlab chiqarish jarayoniga aralashadi, tashkilot va muassasalarga kreditlar va subsidiyalar beradi, shuningdek, aholiga ijtimoiy xizmatlar ko'rsatadi.

Xorijiy mamlakatlar tajribasiga asosan kambag‘allik va aholi o‘rtasida kuchli iqtisodiy tengsizlikning oldini olish maqsadida daromadni taqsimlash va qayta taqsimlash bo‘yicha davlat chora-tadbirlari tizimi ijtimoiy siyosat deb yuritiladi. Keng ma’noda “ijtimoiy siyosat” deganda shaxsnинг hayot faoliyatini shunday sharoitlarini yaratish va tutib turish bo‘yicha ko‘rilgan barcha chora-tadbirlar tushuniladi. U o‘z navbatida shaxsnинг rivojlanishiga yordam beradi va uning ijodiy imkoniyatlarini to‘liq namoyon qilishini rag‘batlantiradi.

Amaliyotdan ma‘lum bo‘lishicha, g‘arb mamlakatlarida fondlar va notijorat tashkilotlarning vakolatli mulk negizida tuzish keng tarqalgan. Fondlar va notijorat tashkilotlarning ayni shu turlari muayyan ijtimoiy muammolarni hal qilishga ko‘proq yo‘naltirilgan. Bu tashkilotlar byudjeti bir qator manbalar: ta’sischilarining ta’sis hujjatida belgilangan tushumlar, hukumat subsidiyalari va soliq to‘lashdagi imtiyozlari ko‘rinishida, a’zolarning badallik to’lovleri va ixtiyoriy badallari, tashkilotlar va jismoniy shaxslarning mulkiy badallari va xayriya ulushlari hisobidan, notijorat tashkilotlar tuzilishiga sabab bo‘lgan ijtimoiy maqsadlarga erishish uchun zarur bo‘lgan tadbirkorlik faoliyatidan olingan tushumlar, aksiya, obligatsiya va boshqa qimmatli qog‘ozlardan olinadigan dividendlardan olinadigan daromadlardan shakllandi.

“Insoniyat taraqqiyoti” konsepsiysi paydo bo‘lishi bilan kambag‘allikka, savodsizlikka, ishsizlikka qarshi kurashga oid maxsus bandlik dasturlari va vositalari ishlab chiqildi, ijtimoiy investitsiya jamg‘armalari paydo bo‘ldi, aholini ish bilan ta’minalash masalasiga e’tibor kuchaydi. Xalqaro mehnat tashkiloti rahbarligida, butun dunyo miqyosida mehnat bilan bandlik, aholini oziq-ovqat, turar joy, kiyim-kechak bilan ta’minalash, ta’limga va sog‘liqni saqlashga bo‘lgan ehtiyojlarni qondirishga aniq reja asosida yordam ko‘rsatishga kirishildi.

Yaponiyada juda ko‘p kredit fondlari mavjud. Jumladan, moliyaviy korporatsiyalar fondlari (uy-joy qurilishini moliyalashtirish korporatsiyalari, kichik va o‘rta

korxonalarini moliyalashtirish korporatsiyalari) va maxsus banklar jamg'armalari (Yaponiya eksport va import banki, Yaponiya rivojlantirish banki, qishlok xo'jaligi uchun markaziy kooperativ banki) mavjud. Moliyaviy korporatsiyalar jamg'armalari byudjet mablag'lari, shuningdek, beriladigan kreditlar foizlari hisobiga tashkil etiladi. Bu jamg'armalar inkirozga uchragan korxonalarini moliyalashtirish yoki boshqa kredit manbasiga ega bo'lмаган kompaniyalarga moliyaviy yordam berish maqsadida ularga chegirma foizlarda qarz beradi.

Yaponiyada trast fondlariga tushadigan fondlar qisman davlat obligatsiyalarini sotib olishga yo'naltiriladi, ularning katta qismi esa davlat moliya institutlarini, mahalliy organlar byudjetlarini va davlat korporatsiyalarini moliyalashtirish, shuningdek, davlat byudjetidagi maxsus hisobraqamga yo'naltiriladi. Nafaqa va sug'urta badallari bilan birgalikda, ularning tushumi va sarfini hisobga olgan holda, ular "Investitsiyalar va qarzlar bo'yicha davlat dasturi" deb ataladigan dasturni belgilaydi. "Investitsiyalar va qarzlar bo'yicha davlat dasturi" qonun chiqaruvchi organ tomonidan tasdiqlangan bo'lib, "ikkinchi" byudjetga aylanadi.

AQSh federal byudjeti mamlakatning eng katta byudjeti hisoblansada davlat jamg'armalari umumiy hisobda bundan kattadir va u turli funksiyalarni amalga oshiradi.⁶²

Davlat moliya institutlari milliy iqtisodiyotning ustuvor, joriy vazifalarini har tomonlama va tezkor qo'llab-quvvatlash hamda amalga oshirish maqsadlariga xizmat qiladi. Bu institutlar mintaqaviy rivojlanishni moliyalashtirish tizimini tashkil qiladi. Davlat moliya institutlari mustaqil bo'lib, "o'z-o'zini moliyalashtirish" tamoyiliga asoslangan holda ish olib borib, investitsiyalash va kreditlar bo'yicha mustaqil hamda xolis, siyosiy va moliyaviy nuqtai nazardan qarorlar qabul qiladi.

Kredit jamg'armalari davlat jamg'arma kassalari va boshqa kredit tashkilotlari ixtiyoridagi mablag'lar bo'lib,

⁶² Robert D.Lee Jr., Ronald W.Johnson, Philip G. Joyce. PUBLIC BUDGETING SYSTEMS. Jones & Bartlett Learning; 9 edition. USA, 2012. P75

qaytarib berish va foiz to'lash sharti bilan beriladi. Bu jamg'armalardan davlat buyurtmalari bajariladi va mamlakat bevosita rivojlanib boradi. Shuni hisobga olgan xolda, har qanday iqtisodiyotda ham maqsadli jamg'armalarning mavjudligi shu davlatning barqaror taraqqiyoti mezonidir.

Yaponiyada esa soliq tushumlarini qayta taqsimlashni amalga oshiruvchi maxsus hisobraqam mavjud. Soliq tushumlarining ma'lum qismi uning hisobraqamida jamlanib, ehtiyojlariga ko'ra mahalliy byudjetlarga o'tkazib beriladi. Uning qayta taqsimlanishi aholi sonidagi farqlar va hududlar iqtisodiyoti rivojlanish darajasiga qarab, amalga oshiriladi.

Maxsus fondlar huquqiy asosi va mablag'larning ishlatish maqsadiga ko'ra bir-biridan farq qiladi. Ular markazlashgan va mahalliy fondlar bo'lishi mumkin. Markazlashgan fondlar-investitsiya fondi, valyuta fondi bo'lishi mumkin. Mahalliy fondlarning soni juda ko'p. Masalan, Buyuk Britaniyada barpo etilgan fondning mablag'lari, asosan kapital qo'yilmalarni moliyalashtirish uchun ishlatiladi.

"Ijtimoiy jamg'armalar – aholiga ijtimoiy xizmat ko'rsatishga yo'naltirilgan resurslardir. Ushbu fondlarning kengayish zaruriyati ishlab chiqarishning rivojlanishi, yollanma mehnat bilan shug'ullanuvchilarning soni, ilmiy-texnik rivojlanish bilan vujudga kelgan jamiyatning turli guruhlari qarashlari orasidagi farqning va mamlakat aholisining yosh darajasi ortishi natijasida vujudga keldi. Oxirgi o'n yillikda sanoati rivojlangan mamlakatlar ijtimoiy jamg'armalari hajmi absolyut miqdorda 5-6 barobarga ortdi". Ijtimoiy fondlar hajmining ortishi ijtimoiy to'lovlarini oshirish imkonini berdi, Jamg'armalar uch manba hisobidan tashkil topadi: sug'urtalanuvchilarning sug'urta badallari, tadbirkorlarning sug'urta badallari va davlat subsidiyalari.

Sug'urtalanuvchilarning badallari bevosita ularning foydasidan ajratiladi va mohiyatiga ko'ra, to'g'ri maqsadli soliq hisoblanadi. Badal stavkalari ko'pgina rivojlangan

mamlakatlarda daromad hajmidan qat'iy nazar, ma'lum foizlarda belgilanadi va bu yillik maksimal badal summasi yoki maksimal daromad stavkasini belgilashda inobatga olinadi. Sug'urtalanuvchilar va tadbirkorlar uchun esa sug'urta stavkalari amal kiladi. Ba'zi davlatlarda (GFR) stavkalar ikkala guruh to'lovchilari uchun bir xil bo'lsa, boshqa bir mamlakatlarda (Buyuk Britaniya, Fransiya) stavkalar turlicha bo'ladi. Ko'p davlatlarda sug'urtalanuvchilar uchun stavkalar daromadiga ko'ra foiz hisobida belgilanadi, tadbirkorlar uchun esa jami ish haqi jamg'armasiga emas, balki oldindan belgilab qo'yilgan jami maksimal ish haqiga qarab belgilanadi va maksimal hajmdan oshgan summa hisobga olinmaydi. Shuning uchun ham kompaniyada malakali mutaxassislar ulushining ko'pligi ular ish haqining ijtimoiy jamg'armalarga shunchalik kam pul mablag'lari o'tkazishiga olib keladi.

Yuqorida aytib o'tganimizdek, maxsus fondlarning mablag'larini ishlatalishiga qarab iqtisodiy, ijtimoiy, shaxsiy va mol-mulkini sug'urtalash, ilmiy-tadqiqot, harbiy-siyosiy, xalqaro fondlarga bo'linadi. Iqtisodiy fondlarning mablag'lari xususiy kompaniyalar va kam rentabelli davlat korxonalarini, asosan, iqtisodiyotni rivojlanish jarayonlarining inqiroz paytida moliyalashtirish uchun yo'naltiriladi.

Iqtisodiy jamg'armalar xo'jalik faoliyatini tartibga solish uchun mo'ljallangan bo'ladi, masalan, investitsiya va konyukturaga oid jamg'armalar shular jumlasidandir. Bunday jamg'armalarning mablag'lari davriy inqiroz davrida xususiy kompaniyalar va past rentabelli davlat korxonalariga yo'naltiriladi. Bunday yordamlar esa, beg'araz subsidiyalar va imtiyozli kreditlar ko'rinishida ko'rsatiladi.

AQShda federal byudjetning mablag'lari hisobidan shakllanadigan iqtisodiyotni qayta qurish va rivojlantirish fondi mavjud. Uning asosiy vazifasi — xususiy sanoat kompaniyalarini bank operatsiyalarida sug'urtalashdan iborat.

Fransiyada ikkinchi jahon urushi tamom bo'lgandan keyin "Modernizatsiya fondi" shakllandi, boshqa fondlar bilan birlashgandan so'ng, 1955 yilda "Iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirish fondi" shakllantirildi. Fond investitsiya dasturlarini, shuningdek, mintaqalarni rivojlantirish rejalarini, mamlakatda ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishni, ishchi kuchlarini qayta tayyorlash va sanoat korxonalarini industrial markazlardan boshqa rayonlarga o'tkazishni moliyalashtiradi. Milliy lashtirilgan va xususiy korxonalarga umudavlat rivojlantirish dasturlari asosida mablag'lar qaytarilmaydigan ssuda va uzoq muddatli imtiyozli kredit ko'rinishida beriladi.

Fan va texnika yanada taraqqiy etishi natijasida, sanoatda ilmiy tadqiqotlarni qo'llab-quvvatlovchi va shu yo'nalishdagi turli tadqiqotlarni amalga oshiruvchi davlat ilmiy markazlarini ta'minlashga yo'naltirilgan ilmiy tadqiqot jamg'armalari tashkil qilinish zaruriyati tug'ildi. Shunga ko'ra ko'pgina rivojlangan mamlakatlarda turli ilmiy, jamg'armalar tashkil qilingan bo'lib, ular federal byudjet tushumlari, sanoat korxonalari foydalaridan ajratmalar, shu bilan birga, universitet va kollejlardan tushadigan badallar hisobidan shakllanadi. Bu jamg'arma fundamental tadqiqotlar bo'yicha turli dasturlar, ilmiy darajaga erishganlik uchun mukofotlar, ilmiy markazlar qurish, kadrlar tayyorlash, tajriba o'tkazuvchi kompaniyalar faoliyati va undan olingan natijalarni sanoat va qishloq xo'jaligida qo'llanilish va boshqa shu kabi sohalarni moliyalashtirishni ko'zda tutadi.

18.2. Xorijiy mamlakatlarda maqsadli jamg'armalarning tarkibi va turlari. Jamg'armalar daromadlarining shakllanishi va mablag'larining sarflanishi

Xorijiy mamlakatlarda amaldagi maqsadli fondlarning tasniflanishini ko'rib chiqamiz.

Maqsadli jamg'armalar huquqiy maqomi va ishlatalish maqsadlariga ko'ra farqlanadi. Huquqiy maqomiga ko'ra maxsus fondlar davlat va mahalliy fondlarga ajratiladi.

Federativ davlatlar (AQSh, Kanada)da federatsiya a'zolari ham maxsus fond tashkil qilish huquqiga ega. Davlat maxsus fondlari markaziy hokimiyat ixtiyoroda bo'ladi. Bularga eng muhim fondlar: investitsiya, valyuta, ijtimoiy sug'urta va boshqa jamg'armalarni kiritishimiz mumkin. Mahalliy hokimiyat organlari ixtiyoroda esa ko'p miqdorda mahalliy jamg'armalar mavjud bo'lib, ulardan eng kattasi zayom jamg'armasi hisoblanadi. Buyuk Britaniyada bunday jamg'armalar XIX-asrdan buyon mavjud, bulardan, asosan, kapital jamg'armalarni moliyalashtirishda foydalaniladi.

Maqsadli fondlar ishlatilish maqsadlariga kura, iqtisodiy, ilmiy-tadqiqiy, kredit, ijtimoiy, shaxsiy va mulk sug'urtasiga oid, harbiy-siyosiy yoki davlatlararo rivojlantirish bo'yicha davlat dasturlari asosida faoliyat yurituvchi fondlarga bo'linishi mumkin. Kredit jamg'armalari Fransiyada katta ahamiyatga ega bo'lib, ular jumlasiga "Fransiya banki", "Tashqi savdo banki", "Depozit-omonat kassa fondlari"ni kiritishimiz mumkin.

AQSh da 2 ta yirik fond mavjud. Ular "Milliy ilmiy fond" va "Byuro standartlarining ilmiy fondi" deyiladi. Birinchi fondning mablag'lari Federal byudjetdan ajratilagan mablag'lar, sanoat korxonalarining foydasidan ajratmalar hisobiga va universitet va kollejlarning ajratmalari hisobga shakllanadi. Fonddan fundamental tadqiqot dasturlarini amalga oshirish, ilmiy izlanishlar uchun mukofotlar, ilmiy markazlar qurilishi uchun, kadrlar tayyorlash kabi xarajatlar moliyalashtiriladi.

Ikkinchi fonddan kompaniyalarning tadqiqotlar o'tkazishiiga sharoit yaratish, ilmiy izlanishlarni sanoat va qishloq xo'jaligiga yetkazish uchun moliyalashtiriladi.

Buyuk Britaniyada davlat byudjetiga bog'liq bo'lмаган va alohida mustaqil balansga ega bo'lgan ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish "Milliy korporatsiya fondi" mavjud. Uning mablag'lari yangi ixtirolarni ishlatish huquqi beradigan litsenziyani sotishdan tushgan mablag'lar hisobiga shakllanadi. Davlat fondga muddatsiz avanslar va har yili subsidiyalar beradi. U ilmiy tekshirish

natijalarini ishlab chiqarishga tatbiq etayotgan xususiy korxonalarni kapital qo'yilmalarini va unga bog'liq muammolarni hal qilish xarajatlarini moliyalashtiradi.

Buyuk Britaniyada Milliy korporatsiya fondi davlat byudjetidan holi ravishda tadqiqotlarni rivojlantirish bo'yicha mustaqil balansga ega. Davlat bu jamg'armaga muddatsiz avans va yillik subsidiyalar beradi. Bu mablag'lar hisobidan esa turli muammolarning ilmiy yechimlari va olingan natijalarini ishlab chiqarishga tatbiq etuvchi xususiy muassasalar faoliyati moliyalashtirib boriladi. Shuningdek, davlat universitetlari, milliy va xususiy kompaniyalar laboratoriylarida olib boriladigan tajriba ishlarini qo'llab-quvvatlab, ularni sanoatda o'zlashtirilishiga keng imkoniyatlar yaratib beradi.

Ijtimoiy fondlar aholiga ijtimoiy xizmat ko'rsatishga yo'naltirilgan resurslardir. Keyingi yillarda ijtimoiy fondlarning hajmi AQShda ijtimoiy dasturlarning amalga oshirish uchun turli darajada boshqariladigan ko'p sonli ijtimoiy fondlar faoliyat ko'rsatadi. Bulardan uchta eng yirik fondlarni ko'rsatish mumkin. "Keksayganda, nogironliknida va boquvchisini yo'qtganda sug'urtalash fondi", "Davlat xizmatchilarini sug'urtalash fondi", "Muhtojlarga yordam fondi" mavjud.

"Yaponiyada davlatning maxsus fondlari moliya resurslarini tashkil etishning shakli bo'lib, ular markaziy yoki mahalliy hukumat tasarrufida va maqsadga qaratilgan holda mavjud bo'ladi. Ular moliya tizimining muhim bo'lagi hisoblanadi. Bu fondlarni tashkil etish va sarflash tartibi moliya huquqi orqali aniq va qatiy belgilanadi. Byudjetdan tashqari fondlar davlat mulki hisoblanadi va ko'rsatilganlaridan boshqa maqsadlarga sarf qilinishi mumkin emas. Byudjetdan tashqari fondlar markazlashgan yagona pul fondi – byudjetdan ancha avval maxsus fondlar va o'ziga xos hisobraqamlar ko'rinishida mavjud bo'lgan. Davlat o'zining faoliyat doirasini kengaytirilishi bilan tobora yangi xarajatlarga ehtiyoj sezaboshladi. Ularni qoplash uchun mablag'lar maxsus

fondlarda to'plandi va maxsus maqsadlarga qaratildi”⁶³. Bu fondlar hajmining kengayishiga bir qator sabablar mavjud: birinchidan, davlat organlarida tadbirkorlikning ho'jalik hayotiga aralashishi va ularni moliyaviy qo'llab-quvvatlash uchun qo'shimcha mablag'lar paydo bo'lmoqda, ikkinchidan, bu fondlar byudjetdan mustaqil holda davlat tomonidan alohida e'tibor qaratishi lozim bo'lgan muhim muammolarni hal qilish uchun mo'ljallangan, uchinchidan, byudjetdan tashqari fondlar ma'lum sharoitlarda, ya'ni aktiv qoldiqqa ega bo'lganda byudjet taqchilligini qoplash uchun ishlatilishi mumkin.

Germaniyadagi ijtimoiy sug'urta fondi tarkibida juda ko'p avtonom fondlar bor, ular ijtimoiy sug'urtaning alohida turlarini qamrab oladi. “Ishchi va xizmatchilarning pensiya fondi”, “Bemorligi uchun sug'urta fondi”, “Ishsizlikdan sug'urtalash fondi” va boshqalar.

Buyuk Britaniyada ikkita asosiy ijtimoiy fond mavjud: “Milliy sug'urtalash fondi” va “Davlat tashkilotlarining pensiya fondi”.

Yaponiyada byudjetdan tashqari fondlarning faoliyati – milliy daromadni davlat tomonidan aholikig ma'lum ijtimoiy guruuhlar foydasiga qayta taqsimlash usulidir. Yaponiyada quyidagi byudjetdan tashqari fondlar faoliyat ko'rsatadi: “Sog'lijni saqlashni sug'urtalash fondi”, “Milliy pensiya fondi”, “Ishlab chiqarishda ko'rilgan zararni sug'urtalash fondi”, “Ishsizlikni sug'urtalash fondi”.

Yaponiyada ham turli xildagi iqtisodiy jamg'armalar mavjud:

- investitsiyaviy byudjet yoki davlat investitsiyalari va qarzlar dasturi;
- markaziy va mahalliy hukumatning avtonom byudjetlari;
- maxsus hisobraqamlar.

Eng yirik fondlardan biri – “Investitsion byudjet” bo'lib, uning maqsadi – davlat tomonidan investitsiyalar yo'naltirish va qarzlar berish dasturini bajarishdir. Bu fond sug'urta qilingan, jamg'arilgan pensiya va boshqa

⁶³ Vahobov A. Bozor munosabatlari tizimidagi ijtimoiy fondlar. T.: Sharq. 2003. №7. -117 b.

mablag'lardan shakllanadi va subsidiyalar va imtiyozli kreditlar ko'rinishida davlat sektorini moliyalashtirishga ishlataladi. Pasaytirlgan narx va ta'riflar siyosatidan davlat korporatsiyalar faol faoliyat ko'rsatishishi uchun sharoit yaratadi. "Investitsion byudjet" fondi korporatsiyalarga shunday xizmat ko'rsatib, mazkur fond yordamida keng tarmoqli xususiy sektorni qo'llab-quvvatlaydi.

Jahon tajribasida byudjetdan tashqari fondlarning juda ko'p turlari mavjud, lekin bu fondlarni ikki katta guruhga ajratish mumkin. Ijtimoiy yo'naltirilgan fondlar (pensiya fondlari, majburiy tibbiy sug'urta fondlari, davlat bandlik fondlari, ijtimoiy sug'urta fondlari, aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash umummilliy fondlari) va o'z yo'nalishi va manbalariga ega iqtisodiy fondlar.

Xorijiy mamlakatlar maxsus fondlariga turli xil avtonom va birlashtirilgan byudjetlar, byudjetdan tashqari fondlar, maxsus smeta va hisobraqamlarni kiritishimiz mumkin. Ularga eng avvalo, iqtisodiy va ijtimoiy vazifalar yuklatiladi. Davlat bunday jamg'armalar mablag'lari hisobidan ishlab chiqarish jarayoniga aralashishi, korxonalarga turli xil subsidiyalar va kreditlar taklif qilishi, shu bilan birga, tashqi qarzlarni to'lashi va aholiga ijtimoiy xizmat ko'rsatish chora-tadbirlarini ko'rishi mumkin. Maxsus fondlardagi mablag'larning ishlatilishi maqsadli xarakterga ega. Masalan, ijtimoiy sug'urta fondidan pensiya va nafaqalar to'lanadi, kredit fondlaridan muassasa va tashkilotlarga, kompaniyalarga va boshqa mamlakatlarga ssudalar beriladi.

Aksariyat rivojlangan davlatlardagi ijtimoiy sug'urta jamg'armalari sug'urtalanuvchilarga pensiya va to'lovlarini to'lashi, shu bilan birga nafaqat mamlakat miqyosidagi tadbirkorlarga, balki chet mamlakatlarga ham ssuda mablag'lari berish maqsadida tashkil qilingan. Shuni alohida ta'kidlash joizki, hamma maqsadli fondlarda ham xarajat turlari aniq ko'rsatilavermaydi, Bunga misol qilib, Buyuk Britaniya bosh g'aznachisi fondini olishimiz mumkin. Bu jamg'arma vazirlik va idoralar hisobidagi

qoldiq mablag'lardan tashkil topgan bo'lib, boshqa fondlardagi muvozanatni saqlab turishga yo'naltiriladi.

Fransiyada, ikkinchi jahon urushi tugatilgandan so'ng, modernizatsiya fondi tashkil etilgan bo'lib, 1955 yilda boshqa fondlarga qo'shib yuborilishi natijasida "Iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirish jamg'armasi"ga aylantirildi. Unga byudjet ajratmalari bilan bir qatorda, ssuda kapitali bozoridagi qarz mablag'lari ham kelib tushadi. Jamg'arma asosan, investitsion dasturlarni moliyalashtirish bilan birga, hududiy rivojlantirish rejalar, mamlakatda ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish, ish kuchini qayta tayyorlash va sanoat markazlaridagi korxonalarni qoloq hududlarga o'tkazish ishlarini amalga oshiradi. Mablag'lar umum davlat rivojlantirish dasturiga ko'ra investitsiya qilgan milliy va xususiy korxonalarga qaytarilmas moliyaviy yordam yoki uzoq muddatli kreditlar shaklida beriladi.

Fransiyada alohida ahamiyatli fondlarga quyidagilar kiradi: "Bemorligi, nogironligi, bolaliligi uchun sug'urta fondi", "Pensiya fondi", "Oilalarga yordam fondi", "Ishsizlarga yordam milliy fondi".

Rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, aksariyat davlatlardagi amaldagi byudjetdan tashqari maqsadli jamg'armalar faoliyatini mamlakat ijtimoiy holatini yanada yaxshilash, kichik tadbirkorlik taraqqiyotiga keng yo'l ochib berish bilan birga, ilm-fan sohasini yanada takomillashtirish va shu orqali iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashga qaratilgan.

Bahs-munozara va nazorat uchun savollar

1. Maqsadli jamg'armalarning faoliyatini tartibga soluvchi qanday xalqaro hujjatlarni bilasiz?
2. Xorijiy mamlakatlarda maqsadli jamg'armalar faoliyatini tashkil etishning zarurligini tushuntiring.
3. Yaponiyada qanday maqsadli jamg'armalar faoliyatini yo'lga quyilgan?
4. Yevropa mamlakatlarida davlat maqsadli va byudjetdan tashqari jamg'armalar faoliyatini tushuntiring.

5. Lotin Amerikasi davlatlarida maqsadli jamg‘armalar faoliyatini tushuntiring.
6. AQSHda qanday jamg‘armalar mavjud?
7. Xorijiy mamlakatlar fondlari faoliyatini o‘rgangan holda O‘zbekistonda davlat maqsadli va byudjetdan tashqari jamg‘armalar faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha qanday taklif va tavsiyalar berolasiz?

GLOSSARY

A

Aholi – Er yuzida yoki uning muayyan hududi, qit'a, mamlakat, tuman, shaharida istiqomat qiluvchi odam (inson) lar majmui. Aholini tadqiq etish bilan maxsus fan – demografiya shug'ullanadi.

Aktiv – (lat. activus – faol, ta'sirchan, ishchan) – 1) buxgalteriya balansining chap qismi, korxonaning muayyan sanada va pul ifodasida barcha vositalarini, ularning tarkibi va joylashuvini (asosiy fondlar, aylanma vositalar, pul vositalari, kapital sarflar, qarzdarlik talabnomalari va b.) aks ettiradi; 2) korxona yoki tashkilotning mulki yoki resurslari (bino, mashina, naqd pul, qimmatli qog'ozlar va b.). Pulga tez sotilishi (aylanishi) mumkin bo'lgan, bozori chaqqon aktivlar (veksellar, qimmatli qog'ozlar, oltin, naqd pul va b.) likvid aktivlar deyiladi.

Aktuar hisob-kitoblarning uslubiy asosi – bu ekvivalentlik tamoyiliga amal qilish, ya'ni sug'urta to'lovlari va ajratmalari (nafaqlar) o'rtasida o'zaro muvozanatni ta'minlash.

Aktuar hisob-kitoblar – matematik va statistik uslublar tizimi hisoblanib, uning yordamida sug'urta tariflari miqdori, hajmi, har bir sug'urtalanauvchining sug'urta fondini tashkil etishdagi hissasi, moliyaviy barqarorlik va sug'urta operatsiyalarining rentabelligi aniqlanadi.

B

Bandlik – aholini ish bilan ta'minlash, mehnatga layoqatli aholining ijtimoiy foydali mehnat bilan mashg'ul bo'lishi.

Band shaxs – o'zini ish bilan mustaqil ta'minlaydigan va ish vaqtini hisobga olish mumkin bo'lмаган jismoniy shaxs, tadbirkor, shu jumladan yuridik shaxs tashkil etmasdan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi, bevosita qoramol o'stiradigan hamda chorvachilik

mahsulotlari va boshqa qishloq xo'jaligi mahsulotlari sotadigan shaxsiy yordamchi va dehqon xo'jaligida band bo'lgan shaxs, shuningdek oilaviy tadbirkorlik va hunarmandchilik subyekti;

Birja – qimmatli qog'ozlar, valyuta, tovar, ish kuchi va xom ashyo sotiladigan va xarid qilinadigan muassasa.

Boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi – pensiya jamg'armasi mablag'i hisobidan har oyda beriladigan to'lovlardan iborat bo'lib, uning miqdori vafot etgan boquvchining ish haqiga, uning qaramog'ida bo'lib kelgan mehnatga qobiliyatsiz oila a'zolari soniga bog'liq. Vafot etgan boquvchining qaramog'ida bo'lgan mehnatga qibiliyatsiz oila a'zolari boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi olish huquqiga ega bo'ladi. Bunda farzandlarga va qonunda belgilangan shaxslarga pensiya ular boquvchining qaramog'ida turgan-turmaganidan qat'i nazar tayinlanadi;

Boshqarish (iqtisodiyotda) – xo'jalik obyektining iqtisodiy tizimi holatini tartibga solish va yo'naltirish jarayoni; subyektlar, idoralar tomonidan kishilar va iqtisodiy obyektlarga ongli maqsadga muvofiq ta'sir ko'rsatishni bildiradi, ularning faoliyatini yo'naltirish va ko'zlangan natijalarga erishish maqsadlarida amalga oshiriladi.

Byudjet – (ingl. budget – hamyon, mablag') – belgilangan muddat uchun ishlab chiqilgan, me'yorlashtirilgan hamda qonuniy ravishda tasdiqlangan daromadlar va xarajatlar yig'indisi.

Byudjet tashkiloti – Davlat funksiyalarini amalga oshirish uchun belgilangan tartibda davlat hokimiyati organlarining qaroriga ko'ra tashkil etilgan, Davlat byudjeti mablag'lari hisobidan saqlab turiladigan notijorat tashkilot.

Byudjet tizimi – barcha darajadagi byudjetlar, davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlari va byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari jamg'armalari, byudjet tizimi byudjetlarini tuzish va tashkil etish prinsiplari, ular o'rtaida byudjet jarayoni mobaynida yuzaga keladigan o'zaro munosabatlari yig'indisi.

Byudjet jarayoni – byudjet tizimi byudjetlarini shakllantirish, tuzish, ko'rib chiqish, qabul qilish, tasdiqlash va ijro etish, ularning ijrosini nazorat qilish, byudjet tizimi byudjetlarining ijrosi to'g'risidagi hisobotlarni tayyorlash va tasdiqlash, shuningdek ular o'rtaqidagi o'zaro munosabatlar jarayoni.

Byudjet tizimi byudjetlari – O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti, davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlari va byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari jamg'armalari.

Byudjet tasnifi – byudjet tizimi byudjetlarining daromadlari va xarajatlari, shuningdek Davlat byudjeti taqchilligini qoplash manbalarini guruhashdan iborat bo'lib, byudjet tizimi byudjetlarini shakllantirish, tuzish va ijro etishni tizimlashtirish uchun foydalaniadi.

Byudjetlararo transfertlar – O'zbekiston Respublikasining respublika byudjetidan Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjetiga, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlariga, davlat maqsadli jamg'armalariga hamda buning aksicha o'tkaziladigan, shuningdek Qoraqalpog'iston Respublikasining respublika byudjetidan, viloyatlarning viloyat byudjetlaridan va Toshkent shahrining shahar byudjetidan tumanlar va shaharlar byudjetlariga hamda buning aksicha o'tkaziladigan mablag'lari.

Byudjetdan moliyalash – davlat byudjetdan davlat buyurtmalarini amalga oshirish, davlat dasturlarini bajarish, davlat tashkilotlarini saqlash (ta'minlash) bilan bog'liq xarajatlarga pul mablag'lari ajratish.

Byudjetdan tashqari jamg'armalar – davlatning davlat byudjetiga kiritmaydigan va aniq maqsadlarga mo'ljallangan pul mablag'lari.

Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining daromadlari – jamg'arma daromadlari yagona ijtimoiy to'loving belgilangan miqdordagi tushumlari, fuqarolarning sug'urta badallari, korxona va tashkilotlarning majburiy ajratmalari va boshqa daromadlar hisobidan shakllantiriladi;

Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining xarajatlari -jamg'armaning mablag'lardan ishlayotgan va ishlamaydigan pensionerlarga davlat pensiyalarini to'lash, pensionerlarga davlat pensiyalarini to'lash, davlat pensiya ta'minoti huquqiga ega bo'lмаган keksa va mehnatga qobiliyatsiz fuqarolarga, dafn etish marosimi uchun nafaqalar, belgilangan tartibda aniqlanadigan boshqa xarajatlar uchun foydalaniadi;

Byudjet dotatsiyasi – o'z daromadlari va byudjetni tartibga soluvchi boshqa mablag'lar etishmagan taqdirda quyi byudjetning xarajatlari bilan daromadlari o'tasidagi farqni qoplash uchun yuqori byudjetdan quyi byudjetga qaytarmaslik sharti bilan ajratiladigan pul mablag'lari.

Byudjet subventsiyasi – qonun hujjatlarida nazarta tutilgan tartibda muayyan maqsadlarga sarflash sharti bilan yuqori byudjetdan quyi byudjetga qaytarmaslik sharti bilan ajratiladigan pul mablag'lari.

Byudjet defitsiti – muayyan davrda byudjet xarajatlarining byudjet daromadlaridan ortiq bolgan summasi.

Byudjet profitsiti – muayyan davrda byudjet daromadlarining byudjet xarajatlaridan ortiq bolgan summasi.

Byudjet ssudasi – yuqori byudjetdan quyi byudjetga yohud respublika byudjetidan rezident-yuridik shaxsga yoki chet el davlatiga qaytarish sharti bilan ajratiladigan mablag'.

V

Vaqtincha mehnatga layoqatsizlik davri – ish davrida boshlangan vaqtincha mehnatga layoqatsizlik davri davomiyligi ushbu ish joyi bo'yicha beriladigan ma'lumotnomalar bo'yicha belgilanadi;

G

Global moliyaviy-iqtisodiy inqiroz – jahoning deyarli barcha mamlakatlarida moliyaviy, ijtimoiy va iqtisodiy sohalardagi mutanosiblik va nisbatlarning keskin izdan chiqishi natijasidagi beqarorlik va chuqur tanglik holatlarining vujudga kelishi.

D

Davlat byudjeti – davlatning muayyan vaqt (odatda, bir yil) uchun mojlallangan pul daromadlari va xarajatlari majmui. Davlat byudjeti davlat ixtiyoridagi pul fondlarining taqsimlanishini bildirib, u davlat moliyasining bosh bo‘g‘ini hisoblanadi. Davlat byudjeti tarkiban umum davlat byudjeti va mahalliy byudjetga bo‘linadi.

Davlat zayomlari – byudjetga pul to‘plash maqsadida davlat nomidan sotish uchun chiqariladigan, davlatning qarzdorligini tasdiqlovchi qimmatli qog‘oz.

Davlat byudjeti profitsiti – muayyan davrda O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti daromadlarining uning xarajatlaridan oshib ketishi;

Davlat byudjeti taqchilligi – muayyan davrda O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti xarajatlarining uning daromadlaridan oshib ketishi;

Davlat moliyaviy nazorati — byudjet to‘g‘risidagi qonun hujjatlarining ijrosi ustidan nazoratni amalga oshirish maqsadida moliyaviy nazorat obyektlarining buxgalteriya, moliya, statistika, bank hujjatlari va boshqa hujjatlarini o‘rganish hamda taqqoslash;

Davlat qarzi — O‘zbekiston Respublikasining ichki va tashqi mablag‘larni jalb qilish natijasida vujudga kelgan majburiyatlar;

Davlat mulki – mulkchilik shakllaridan biri, davlatga qarashli va uning o‘z vazifalarini bajarishi uchun zarur barcha mol-mulklar va mulkiy huquqlar.

Davlat qimmatli qog‘ozlari – byudjet kamomadlarini qoplash maqsadlarida hukumat yoki mahalliy hokimiyat idoralari nomidan chiqarilgan va albatta, hukumat tomonidan kafolatlangan qimmatli qog‘ozlar.

Daromad – keng ma’noda kirim bo‘lgan har qanday pul mablag‘lari yoki pul qiymatiga ega bo‘lgan moddiy boyliklarni olish, iqtisodiy subyekt o‘z faoliyati natijasiga ko‘ra oladigan pul va tovar – moddiy tushum. Daromad pul va moddiy shaklga ega bo‘lib, ularning yig‘indisi jami daromadni hosil qiladi.

Deontologiya – shifokor zimmasida har bir bemorni davolashdek ulkan mas’uliyat bor. Xastahol kishining sog’ayishida shifokorning munosabati ham muhim rol o’ynaydi. Bunday munosabat tibbiyotda “deontologiya” deyilib, bu atama birinchi bor ingliz olimi Bentam tomonidan kiritilgan. Deontologiya vrachning har bir harakati, yuz ifodasining o’zgarishi, gapirish ohangi, kiyinishi, hushmuomalaligi, ziyrakligi, sergakligi, donoligi, qobiliyati, olyjanobliligi, qat’iyatliligi, odobi va madaniyatni, hozirjavobligi singari insoniy fazilatlari majmuasidan iborat.

Devalvatsiya (de va lot. valeo – qiymat) – milliy pul birligi kursining xorij valyutalariga nisbatan pasaytirilishi.

Depozit (lot. depositum – omonat, asrab qo’yilgan) – bankka qo’yilgan omonatlar. Bunday depozitlarning muddatli va talab qilib olinadigan turlari bor.

Diversifikatsiya – (lot. diversificatio – o’zgarish, xilmoxil taraqqiyot) – korxonalarining faoliyati sohalari va ishlab chiqaradigan mahsulotlari turining kengayishi, yangilanib turishi. Disversifikatsiya ishlab chiqarishda yuqori samaradorlikka erishish, iqtisodiy foyda olish, bankrotlikka barham berish va boshqa maqsadlarda amalga oshiriladi.

Dividend – (lot. dividendum – taqsimlanadigan narsa) – aksiyadorlar jamiyati foydasidan aksiya egasiga har yili beriladigan va uning daromadiga aylangan qismi. Dividendning miqdori aksiyadorlar jamiyatining sof foydasi, aksiyalar soni va qiymatiga bog’liq.

Yo

Yoshga doir pensiya – bu fuqaroning avvalgi davrlardagi mexnat faoliyati uchun yoshi va mexnat stoji hisobga olingan holda umrbod moddiy ta’minlash uchun ijtimoiy sug’urta jamg’armasi mablag’lari hisobidan qaytarib olmasliklari sharti bilan muntazam ravishda to’lab turiladigan to’lovlardir;

Yoshga doir pensiya olish huquqi – yoshga doir pensiya olish huquqiga erkaklar 60 yoshga to’lganda va ish stajlari kamida 25 yil bo’lgan taqdirda, ayollar 55 yoshga

tolganda va ish stajlari kamida 20 yil bo'lgan taqdirda ega bo'ladilar;

Yopiq aksiyadorlik jamiyati – aksiyalari faqat o'zining ta'sischilari yoki oldindan belgilab qo'yilgan boshqa shaxslar o'rtaida taqsimlanadigan jamiyat.

J

Jamg'arma – aholi, korxona va davlat joriy daromadlarining kelajakdagi ehtiyojlarini qondirish va daromad olish maqsadlarida to'planib borishi. Jamg'armalar – 1) xarajatlardan, chiqimlardan orttirib, tejab to'plangan pul; 2) kelgusidagi ehtiyojlar uchun daromadning bir qismini ajratib qo'yish; 3) doimiy badallar va reinvestitsiya yo'li bilan kapital qo'yilmalarni pul ko'rinishida jamlash; 4) pul va moddiy vositalarni ma'lum bir maqsad yo'lida foydalanish uchun jalb etish (masalalan, pensiya jamg'armasi, investitsiya jamg'armasi); 5) ma'lum bir faoliyat turiga, kishilarning muayyan ijtimoiy guruhiga ko'maklashish maqsadida tuzilgan tashkilot; 6) aksiyalar nazorat paketini qo'liga kiritish maqsadida, narxiga ta'sir etmagan holda ularni doimiy ravishda sotib olish.

Jamg'arib boriladigan ixtiyoriy pensiya badallari – shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvarag'iga ixtiyorilik asosida kiritiladigan pul mablag'lari;

Jamg'arib boriladigan majburiy pensiya badallari – shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvarag'iga majburiy tartibda kiritiladigan pul mablag'lari;

Jamg'arib boriladigan pensiya badallarini kirituvchi (badal kirituvchi) – jamg'arib boriladigan pensiya to'lovlarini oluvchining foydasiga badallar kiritayotgan jismoniy shaxs yoki ish beruvchi yuridik shaxs (bundan buyon matnda ish beruvchi deb yuritiladi);

Jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti – fuqarolarni shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlaridagi mablag'lardan davlat pensiyasiga qo'shimcha ravishda pul mablag'lari bilan ta'minlash;

Jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti olish huquqi – O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, shuningdek O'zbekiston Respublikasi hududida doimiy yashovchi chet

el fuqarolari va fuqaroligi bo'lмаган shaxslar jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti olish huquqiga ega;

Jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti bo'yicha davlat kafolatlari – davlat jamg'arib boriladigan pensiya tizimida ishtirok etuvchi fuqarolarga shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlarida jamg'arilgan mablag'lari saqlanishi hamda to'lanishini kafolatlaydi;

Jamg'arib boriladigan pensiya daftarchasi – jamg'arib boriladigan pensiya daftarchasida hisobga olingan sana, fuqaroning shaxsiga oid ma'lumotlar, shu jumladan shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvarag'ining tartib raqami, shuningdek boshqa zarur ma'lumotlar ko'rsatiladi va uni berish tartibi, daftarcha shakli O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi;

Jamg'arib boriladigan pensiya to'lovlarini olish huquqi – jamg'arib boriladigan pensiya tizimida ishtirok etuvchi fuqarolar pensiya to'lovleri oluvchi sifatida jamg'arib boriladigan pensiya to'lovlarini qonun hujjalariغا muvofiq davlat pensiyasini olish huquqi yuzaga kelgan taqdirda olish huquqiga ega;

I

Imtiyozli pensiya ta'minoti – tegishli asoslar mavjud bo'lganda fuqarolarni odatdagidan qulayroq shartlarda (belgilanganidan oldinroq yoki kamroq mehnat stoji talab etilgani xolda va va x.k.z.) pensiya b-n ta'minlashga oid qonunchilik tizimi.

Investitsiya (lot. investio – o'rash) – iqtisodiyotni rivojlantirish maqsadida o'z mamlakatida yoki xorijda turli tarmoqlarga, ijtimoiy-iqtisodiy dasturlarga, innovatsiya, tadbirkorlik loyihalariга uzoq muddatli kapital kiritish (qo'yish). Pulning vaqtga bog'liq qiymati nazariyasiga ko'ra, investitsiya kelajakda naf olish maqsadida mablag'lari qo'yishdir.

Ish bilan band bo'lgan shaxsning ish stoji – O'zbekiston Respublikasi davlat soliq organlari tomonidan taqdim etiladigan ma'lumotlar asosida Pensiya jamg'armasi

bo'limining sug'urta badallari to'langanligini tasdiqlaydigan ma'lumotnomasi bo'yicha belgilanadi;

Ish haqi — shaxsning pensiyani hisoblash uchun qabul qilinadigan ish haqi;

Ish staji — mehnat daftarchasi va ish joyidan, xizmatdan, o'qishdan yoki arxivdan berilgan boshqa hujjatlar bo'yicha aniqlangan, ishdagi tanaffuslardan qat'i nazar, qonun hujjatlariga muvofiq pensiya ta'minoti huquqini beradigan mehnat faoliyati va boshqa faoliyatning umumiyligi;

Ish staji to'liq bo'lмаган chog'dagi pensiya – pensiya tayinlash uchun etarlicha ish stajiga ega bo'lмаган umumiylik kasallik oqibatidagi I va II guruh nogironlariga nogironlik pensiyasi bor stajga mutanosib miqdorda tayinlanadi;

Ish staji uchun pensiyalarning oshirilishi – pensiya tayinlashda talab etiladiganidan ortiqcha ish stajining har bir to'liq yili uchun pensiyalarning tayanch miqdorlari yoshga doir pensiyalar-pensiyani hisoblab chiqarish uchun olinadigan o'ttacha oylik ish haqining 1 foizi miqdorida;

Ish staji uchun I va II guruh nogironlariga nogironlik pensiyalarning oshirilishi – pensiyani hisoblab chiqarish uchun olinadigan o'ttacha oylik ish haqining 1 foizi miqdorida, boquvchisini yo'qotganlik pensiyalari oilaning mehnatga qobiliyatsiz har bir a'zosi uchun-boquvchining o'ttacha oylik ish haqining 0,5 foizi miqdorida oshiriladi;

Ish haqining yakka tartibdagi koeffitsienti – tegishli oy uchun pensiyani hisoblash uchun qabul qilinadigan haqiqiy ish haqining aynan shu oy uchun eng kam oylik ish haqi nisbatida aniqlanadigan miqdor;

Imtiyoz – ma'lum bir majburiyatlarni bajarishdan qisman (yoki to'liq) ozod etish, ma'lum bir qulayliklarga ega bo'lish.

Innovatsiya (ingl. innovations – kiritilgan yangilik, ixtiro) – 1) texnika va texnologiya avlodlarini almashtirishni ta'minlash uchun iqtisodiyotga sarflangan mablag'lar; 2) ilmiy-texnika yutuqlari va ilg'or tajribalarga asoslangan

texnika, texnologiya, boshqarish va mehnatni tashkil etish kabi sohalardagi yangiliklar, shuningdek, ularning turli sohalar va faoliyat doiralarida qo'llanilishi.

Inflyatsiya – (lot. Inflatio – shishish, bo'rtish, ko'tarilish), pulning qadrsizlanishi – tovar-pul muvozanatining buzilishi natijasida muomalada xo'jalik aylanmasi ehtiyojlaridan ortiq darajada qog'oz pullar miqdorining ko'payib ketishi, pul massasining tovarlar massasidan ustunligi natijasida tovar bilan ta'minlanmagan pullarning paydo bo'lishi.

Iqtisodiy faol aholi – milliy xo'jalikda band bo'lgan barcha kishilar bilan bir qatorda ish qidirayotgan mehnatga layoqatli aholi. Ular iqtisodiy jihatdan faol va tegishli faoliyatda qatnashishi mumkin, biroq, daromad oladigan manbalari kam yoki mablag'lari yo'qligi tufayli bu faoliyatni amalgga oshira olmaydilar.

Ijtimoiy ta'minot – keksaygan, mehnatga layoqatsiz bo'lgan va boquvchisini yo'qotgan fuqarolarga moddiy, tibbiy va ijtimoiy yordam ko'rsatish bo'yicha davlat tomonidan belgilangan ijtimoiy-iqtisodiy tadbirlar tizimi. Ijtimoiy himoyaning muhim tarmog'i.

Ijtimoiy himoya – keng ma'noda – mamlakat aholisini ijtimoiy va moddiy muhofaza qilinishini ta'minlaydigan va jamiyatda qaror topgan huquqiy, iqtisodiy, ijtimoiy chora-tadbirlar majmui; tor ma'noda – davlat va jamiyatning yoshi, salomatligi holati, ijtimoiy ahvoli, tirikchilik vositalari bilan etarli ta'minlanmagani tufayli yordamga, ko'makka muhtoj fuqarolar to'g'risidagi g'amxo'rligi.

Ijtimoiy yordam – davlat va jamiyatning qariligi, sog'lig'i, ijtimoiy ahvoli, tirikchilik uchun vositalar bilan etarli ta'minlanmagani tufayli yordamga muhtoj fuqarolar to'g'risida g'amxo'rligi. Ijtimoiy yordam pensiyalar, nafaqalar to'lash, kam ta'minlangan oilalarga moddiy yordam ko'rsatish, 16 yoshgacha farzandi bo'lgan kam ta'minlangan oilalarga oylik nafaqa to'lash, bemorlar va keksalarga xizmat ko'rsatish, bolalarga g'amxo'rlik qilish ko'rinishida amalgga oshiriladi.

Ijtimoiy sug‘urta – davlat tomonidan joriy etiladigan, nazorat qilinadigan va kafolatlanadigan keksalar, mehnatga layoqatsizlarni ta’minalash, yordam ko’rsatish tizimi. Mehnatga layoqatsizlarni moddiy ta’minalashning qat’iy kafolatli tizimi ijtimoiy sug‘urtani bildiradi.

Ijtimoiy nafaqa – muayyan sabablarga ko’ra, mehnat qilish imkoniyatiga ega bo’lmagan va doimiy ravishda yordamga muhtoj fuqarolarga davlat tomonidan beriladigan nafaqa.

K

Kapital bozori, fond bozori – bo’sh turgan pul mablag’larini toplash, ularni ssuda kapitaliga aylantirish, so’ngra uni ishlab chiqarish jarayonlari ishtirokchilari o’tasida taqsimlash munosabatlari; qimmatli qog’ozlar, korxonalarining aksiyalari hamda davlat obligatsiyalari bilan oldi-sotdi operatsiyalari olib boriladi.

M

Maxsus ish staji – xalq xo’jaligining muayyan tarmoqlarida, kasblar va lavozimlarda qonun hujjaligiga muvofiq imtiyozli pensiya ta’minoti huquqini beradigan mehnat faoliyatining davomiyligi;

Maxsus ish stajining tasdiqlanishi – teatrlar va boshqa teatr-tomosha korxonalarini va jamoalarining artistlari ayrim toifalarining imtiyozli pensiya ta’minoti olish huquqini beradigan maxsus ish staji mehnat daftarchasi bilan tasdiqlanadi;

Mehnat daftarchasida zarur ma’lumotlar mavjud bo’lmagan hollarda maxsus ish staji – kasb (lavozim)ning nomi, bajariladigan ishning janrga mansubligi, xususiyati yoki ish kechgan tashkilotning maqomi to’g’risida mehnat daftarchasida zarur ma’lumotlar mavjud bo’lmagan hollarda maxsus ish staji ushbu shaxsga nisbatan ma’lumotlar mavjud bo’lgan ish joyidan berilgan ma’lumotnomasi bilan tasdiqlanadi;

Mehnat daftarchasi – ish stajini tasdiqlaydigan asosiy hujjal hisoblanadi;

Majburiyat (huquqda) – fuqarolik huquqiy munosabati. Unga asosan bir shaxs (qarzdor) boshqa shaxs (kreditor)

foydasiga muayyan harakatni amalga oshirish (mol-mulkni topshirish, ishni bajarish va h.k.)ga yoki muayyan harakatdan o'zini saqlashga majbur bo'ladi, kreditor esa qarzdordan o'zining majburiyatini bajarishni talab qilish huquqiga ega.

Modernizatsiya, modernizatsiyalash, modernizatsiya qilish (frants. moderne – eng yangi, zamonaviy) – biror narsani yangilash, unga zamonaviy tus berish, uni zamonaviy talablarga muvofiq o'zgartirish. Modernizatsiya qilishda mashina, apparat, turli texnologik qurilmalar, muhim kashfiyotlar texnika taraqqiyoti talablariga muvofiq qayta ishlanadi.

Monitoring – (ingl. monitoring – kuzatish, nazorat qilish) – malum bir hodisa yoki jarayonning holatini kuzatish, hisobga olish, baholash va istiqbolini belgilash. Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish sohasida qo'llaniladigan monitoring berilgan ssuda (qarz)ni qoplash va unga foiz to'lash jarayonining borishi ustidan nazorat qilishda namoyon bo'ladi.

N

Nafaqa – muhtoj odamlarga davlat, korxona, muassasa va ayrim shaxslar tomonidan beriladigan yordam puli. O'zbekiston Respublikasida mehnat stajiga ko'ra beriladigan pensiyadan farqli holda nafaqa davlat tomonidan, asosan, bolalikdan nogiron, yolg'iz qariya va yolg'iz nogironlarga, mehnatga vaqtinchalik qobiliyatsizlarga, homilador va tuqqan ayollarga, 3 yoshgacha bo'lgan bolalari tarbiyasi bilan band bo'lgan ayollarga, ishsizlarga, kam ta'minlangan va ko'p bolali oilalarga beriladi.

Nogironlik, invalidlik – kasallik, shikastlanish, mayib-majruhlik, baxtsiz hodisalar tufayli butunlay yoki ma'lum muddat mehnat qobiliyatini yo'qotish. Jismoniy yoki aqliy nuqsonlari borligi sababli ijtimoiy yordam va himoyaga muhtoj shaxs nogiron hisoblanadi.

Nogironlik pensiyasi – mehnat qobiliyatini amalda uzoq muddatga yoki butunlay yo'qotish munosabati bilan tayinlanadi.

P

Penya (lot. poena – jazolash) – majburiyatlarning o‘z vaqtida bajarmaganligi uchun to‘lanadigan pul jarimasi. Kechiktirib yuborilgan majburiyat summasidan foizlarda belgilanadi va kechikkan muddatning har bir kuni uchun undiriladi.

Pensiya (lot. pension – to‘lod) – fuqarolarga davlat yoki boshqa subyektlar tomonidan qonunda belgilangan hollarda muntazam va, odatda, umrbod to‘lanadigan to‘lovlar. Ijtimoiy ta’minot shakli hisoblanadi.

Pensiya miqdori – ish stajining muddatiga bog‘liq bo‘lib, pensiyaning tayanch miqdoridan, ish staji uchun pensiyaning oshirilishidan, pensiyaga qo‘shiladigan ustama haqlardan tarkib topadi;

Pensiyaga oid hujjatlar yig‘majildi – ular asosida pensiya so‘rab murojaat qilgan shaxsga pensiya tayinlangan hujjatlarning tikilgan turkumi;

Pensiyaga oid hujjatlar yig‘majildi turadigan joy – pensiya olish joyi bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasining tuman (shahar) bo‘limi;

Pensiya tayinlashni so‘rab murojaat etish – pensiya tayinlash, pensiya miqdorini qayta hisoblab chiqish, pensiyaning bir turidan boshqa turiga o‘tkazish, shuningdek ilgari to‘xtatib qo‘yilgan (to‘xtatilgan) pensiya to‘lashni belgilangan tartibda tiklash (qayta tiklash) to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasining tuman (shahar) bo‘limiga ariza berish;

Pensiya jamg‘armasi – aholini davlat tomonidan kafolatlangan ijtimoiy himoya qilishni amalga oshirish uchun zarur moliyaviy bazani yaratish, pensiya va nafaqalarni qonunda belgilangan miqdorlarda to‘lashni mablag‘ bilan ta’minlashni amalga oshiradigan jamg‘arma.

Preferentsiya – 1) investitsiya va innovatsiya xarajatlarini moliyalashtirish uchun investitsion soliq krediti va maqsadli soliq imtiyozi ko‘rinishida belgilangan imtiyoz, engillik; 2) iqtisodiyotni maqsadga muvofiq

rivojlantirish va tartibga solishda ayrim soha va tarmoqlar, korxona va ishlab chiqarish turlariga nisbatan beriluvchi imtiyoz, afzallik va ustuvorliklar.

S

Sug'urta – 1) tabiiy ofatlar, har xil baxtsiz hodisalar ro'y berishi natijasida ko'rilgan zararni qoplash va boshqa pul qoplamlari to'lash uchun maqsadli pul jamg'armalarini tashkil etish va undan foydalanish bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlar tizimi; 2) yuridik yoki jismoniy shaxslar to'laydigan sug'urta mukofotlaridan shakllantiriladigan pul fondlari hisobidan muayyan voqeа (sug'urta hodisasi) yuz berganda ushbu shaxslarga sug'urta shartnomasiga muvofiq sug'urta tovonini (sug'urta pulini) to'lash yo'li bilan ularning manfaatlarini himoya qilish.

T

Taktika – belgilangan maqsadga erishish uchun ishlatiladigan vosita va usullar majmuasi.

Tartibga solish (iqtisodiy) – bu iqtisodiy jarayonlar rivojlanishining yo'nalishlarini aniqlash, yo'nga qo'yish va ma'lum tizimga solishga qaratilgan maqsadli yo'naltirilgan harakat.

Tibbiy-mehnat ekspert komissiyalari (TMEK) – hayot faoliyati cheklanganligini ekspertizadan o'tkazish, nogironlik guruhini, sabablari, boshlangan vaqt va muddatlarini aniqlash bo'yicha tibbiy-mehnat ekspert komissiyalari;

U

Uchuvchilar va uchuvchi-sinovchilar tarkibiga kiruvchi xodimlarning ayrim toifalariga imtiyozli pensiya ta'minoti huquqini beradigan maxsus ish staji – uchuvchilar va uchuvchi-sinovchilar tarkibiga kiruvchi xodimlar uchun – tegishli tashkilot tomonidan berilgan uchilgan soatlarni tasdiqlaydigan ma'lumotnoma bilan tasdiqlanadi. Uchuvchi-sinovchilar tarkibiga kiradigan ayrim xodimlarning sinov texnikasini sinashda bandligi tashkilotlar tomonidan berilgan ma'lumotnomalar bilan tasdiqlanadi;

F

Fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar, apatriidlar – muayyan mamlakatning fuqarosi hisoblanmaydigan va biron chet davlat fuqaroligiga mansubligini isbotlaydigan dalillari bo‘lmagan shaxslar. Shaxs o‘z fuqaroligini yo‘qotgan va yangidan fuqarolik huquqini olmagan vaqtida fuqarosizlik kelib chiqadi. O‘zbekiston Respublikasida yashab turgan, lekin, O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligi to‘xtatilgan, boshqa davlat fuqarosi bo‘lmagan shaxslarga ichki ishlar idorasi tomonidan fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarga mo‘ljallangan istiqomat guvohnomasi beriladi.

X

Xarbiy xizmatchilarning pensiya ta’minoti – xarbiy xizmatchilarni, ichki ishlar organlarining boshliqlar va oddiy xodimlar tarkibidan bo‘lgan shaxslarni hamda ularning oila a’zolarini pensiya bilan ta’minalash shartlari, normalari va tartibi qonun hujjatlari bilan belgilanib, bunda harbiy xizmatchilar, shuningdek ichki ishlar organlari boshliqlar va oddiy xodimlar tarkibidan bo‘lgan shaxslar pul ta’minotining barcha turlari fuqaro shaxslarning ish haqi singari bir xilda hisobga olinadi;

Xalqaro konvensiya – xalqaro shartnoma turlaridan biri; davlatlarning, odatda, biron-bir ixtisoslashgan sohada o‘zaro huquq va majburiyatlarini belgilaydi.

Xarajatlar, sarf-xarajatlar, chiqimlar – tovarlarni ishlab chiqarish va muomala jarayonida turli resurslar (xom ashyo, materiallar, mehnat, xizmatlar, mablag‘lar) sarflari bilan bog‘liq chiqimlarning pul shaklidagi ifodasi. Asosan, ishlab chiqarish va muomala xarajatlariga bo‘linadi.

Xususiy sektor – iqtisodiyotning xususiy mulkchilik va xo‘jalik yuritishning erkin bozor usullariga, iqtisodiy alohidalashuviga asoslangan sohasi. Bozor iqtisodiyoti davlat va nodavlat sektorlaridan iborat. O‘z navbatida, nodavlat sektori xususiy va jamoa sektorlariga bo‘linadi. Xususiy sektor nodavlat sektorining bosh bo‘g‘ini.

Ch

Chet elda ishslash davrlari bo‘yicha ish stoji – O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarida

o'zgacha hol nazarda tutilmagan bo'lsa, byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga belgilangan sug'urta badallari to'langan bo'lsa, qo'shib hisoblanadi;

Sh

Shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvarag'i – fuqaroning Xalq bankidagi egasi yozilgan shaxsiy hisobvarag'i bo'lib, badal kirituvchilarning jamg'arib boriladigan pensiya badallari va shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvarag'idagi mablag'larga hisoblab qo'shilgan foizlar ana shu hisobvaraqqqa kelib tushadi hamda unda hisobga olinadi;

Shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlari ochish – jamg'arib boriladigan pensiya tizimida hisobga olinayotganda fuqarolarga Xalq banki umrbod qilib belgilanadigan, doimiy shaxsiy tartib raqamlı shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlari fuqaroning pesporti asosida ochadi;

Shaxsning yakka tartibdagi ish haqi koeffitsienti – ishdagi mavjud tanaffuslaridan qat'i nazar, (pensiya tayinlash uchun murojaat qilgan shaxsning tanlashiga ko'ra), mehnat faoliyatining oxirgi o'n yili mobaynidagi istalgan ketma-ket oltmish oyidan har bir oyi uchun aniqlanadi, bunda shaxsning pensiyani hisoblash uchun qabul qilinadigan haqiqiy ish haqi tegishli oydagagi eng kam oylik ish haqi miqdoriga bo'linadi;

Ya

Yalpi ichki mahsulot (YaIM) – mamlakat iqtisodiy faoliyatining muayyan davr davomidagi umumiy natijalarini tavsiflaydigan ko'rsatkich. Mamlakat hududida joylashgan barcha korxonalar (chet el va qo'shma korxonalari ham shu hisobga kiradi) jami ishlab chiqarish omillari bilan ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlarning bozor qiymatlaridagi ifodasi bo'lib, uning miqdori milliy hisoblar tizimi asosida hisoblab chiqiladi.

Yalpi milliy mahsulot (YaMM) – mamlakatning ma'lum muddat ichida umumiy iqtisodiy faoliyatini tavsiflovchi yakuniy makroiqtisodiy ko'rsatkichlaridan biri. YaMM davlatning bozor narxlarida ifodalangan barcha birlamchi

daromadlari (ularning mamlakat hududida yoki uning tashqarisida ishlab chiqarish omillari tufayli yuzaga kelishidan qat’iy nazar) jami yig’indisini ko’rsatadi. YaMM milliy hisoblar tizimi asosida hisoblanadi.

Yangi nikohdan o’tilganida pensiyani saqlab qolish – er (xotin)ning vafot etganligi sababli tayinlangan pensiya pensioner yangi nikohdan o’tganida ham saqlanib qoladi;

Yashash joyi – turar joy, kvartira, xizmat turar joyi, ixtisoslashtirilgan uylar (yotoqxona, pansionat, yolg’iz keksalar uchun maxsus uy, nogironlar, faxriylar uchun internat uy va boshqalar), shuningdek pensiya uchun murojaat qilgan jismoniy shaxs ijara qilingan shartnomasi (ikkilamchi ijara), ijara shartnomasi yoxud qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa asoslar bo'yicha mulkdor sifatida doimiy yashaydigan (doimiy ro'yxatdan o'tgan) boshqa turar joy, doimiy yashash joyi mavjud bo'lмаган (doimiy ro'yxatdan o'tmagan) taqdirda – vaqtincha yashash (vaqtincha ro'yxatdan o'tish) joyi;

O'

O’zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi – respublikaning markaziy moliya-iqtisodiy organi sifatida O’zbekiston Respublikasining moliyaviy, narx siyosatini hayotga tatbiq etadi va uning butun hududida moliya, narx-navoni tashkil etish faoliyatiga umumiy rahbarlikni amalga oshiradi. O’zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Qoraqalpog’iston Respublikasi Moliya vazirligi, viloyatlar va tumanlar hokimliklari boshqarmalari va bo’limlari, davlat sug’urta idoralari, shuningdek, ularga qarashli davlat korxonalari, muassasalari va tashkilotlari O’zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining yagona tizimini tashkil etadi. O’zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga binoan O’zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tayinlanadigan va O’zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi tasdiqlaydigan Vazir boshchilik qiladi. Moliya vazirligi yuridik shaxs hisoblanadi, O’zbekiston Respublikasining Davlat gerbi tasvirlangan va o’z nomi yozilgan muhrga ega bo’ladi.

O'zbekiston Respublikasi Xalq banki – Aktsiyadorlik tijorat Xalq banki O'zbekistonning qadimiy banklaridan biri hisoblanadi. Toshkentda birlamchi jamg'arma kassalar 1875 yilda tashkil etilgan. O'zbekiston Respublikasi Hukumatining 1995 yil 4 oktyabrdagi qaroriga asosan «O'zjamg'armabank» Davlat-tijorat Xalq banki etib qayta tashkil etildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 24 apreldagi “Aktsiyadorlik jamiyatlarida zamonaviy korporativ boshqaruv uslublarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-4720-sonli farmoniga asosan bank nomi “Aktsiyadorlik tijorat Xalq banki” nomiga o'zgartirildi. Ayni paytda, Hukumatning doimiy ravishda qo'llab quvvatlashi tufayli Xalq banking salohiyati yanada oshib bormoqda.

Bugungi kunda, Xalq banki O'zbekiston bank tizimining muhim bo'g'ini hisoblanadi. Uning 197 hududiy va tuman (shahar) filiallari, 33 ta mini-bank va 1 000 dan ortiq jamg'arma va maxsus kassalari iqtisodiyotning real sektoriga - kichik biznes subyektlari va aholiga keng qamrovli bank xizmatlarini ko'rsatib kelmoqda.

Xalq banking asosiy vazifalaridan biri O'zbekistonning keksa fuqarolarini nafaqalar bilan o'z vaqtida ta'minlashdan iborat. O'zbekiston Respublikasi «Fuqarolarning jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti to'g'risida»gi qonuniga asosan fuqarolarning davlat pensiya ta'minotiga qo'shimcha tariqasida jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti tizimi yo'lga qo'yilgan. Xalq banki yagona, o'z filiallarini bir-biri bilan bog'lovchi va etarlicha himoyalovchi elektron baza yaratish uchun ko'p ishlarni amalga oshirdi.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi – idoraviy jihatdan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga qarashli hamda o'z faoliyati to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining birinchi o'rinnbosari-Moliya vaziriga, Jamg'armaning Kuzatuv kengashi raisiga hisob beradi.

Pensiyalar, ijtimoiy nafaqalar, kompenstsiya to'lovlarini va boshqa to'lovlarни tayinlashni, moliyalashtirishni, hisobga olishni va ularning to'lanishi monitoringini olib borishni, ushbu maqsadlarga yo'naltiriladigan maqsadli moliyaviy resurslarni jamlashni, shuningdek tibbiy-mehnat ekspertizasi xizmatlari faoliyatini tashkil etishni amalga oshirish bo'yicha asosiy vazifalari, funksiyalari va vakolatlarini belgilaydi.

Jamg'arma tizimiga: jamg'armaning Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridagi boshqarmalari; jamg'armaning tuman (shahar) bo'limlari; Respublika tibbiy-ijtimoiy ekspertiza inspeksiyasi; bosh, tuman, tumanlararo, shahar va ixtisoslashtirilgan tibbiy-mehnat ekspertizasi xizmatlari kiradi.

Jamg'arma hamda uning hududiy boshqarmalari va tuman (shahar) bo'limlari yuridik shaxs hisoblanadi, mustaqil balansga, banklarda hisob raqamlariga, O'zbekiston Respublikasi Davlat gerbi tasviri tushirilgan muhrga, shuningdek tegishli muhr va shtamplarga ega bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasida doimiy yashaydigan xorijiy fuqarolarga va fuqaroligi bo'lмаган shaxslarga chet eldagи ish staji – O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarida o'zgacha hol nazarda tutilmagan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasidagi ishga to'g'ri keladigan stajning uchdan biridan ortiq bo'lмаган doirada kiritiladi;

O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining yollanish (kontrakt) bo'yicha chet eldagи ish staji – O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligining Tashqi mehnat migratsiyasi masalalari agentligi tomonidan mehnat daftarchalariga kiritiladigan yozuvlar bo'yicha aniqlanadi;

Q

Qoramol etishtirish, shaxsiy yordamchi va dehqon xo'jaliklarida etishtirilgan chorvachilik mahsulotlarini sotish bilan band bo'lgan shaxslarga mehnat staji – agar mazkur shaxs ushbu kalendar yilning kamida 9 oy

mobaynida badallar to'lagan bo'lsa pensiya tayinlash uchun ish stajiga to'liq kalendar yil qo'shib hisoblanadi.

Qimmatli qog'ozlar – 1) o'z egasiga mulkka egalik huquqini va daromad ko'rinishida muayyan pul summasini olish huquqini beradigan pul yoki tovar hujjatlari (aksiya, obligatsiya, akkreditiv, veksel, chek va b.); 2) o'zining egasiga dividend va foiz ko'rinishida daromad olish huquqini beruvchi mulk tituli. Ularning tarkibiga aksiyalar, obligatsiyalar va boshqalar kiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Me'yoriy-huquqiy hujjatlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-y., 16-son, 176-modda.
2. O'zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksi. O'zbekiston Respublikasi qonuni. ORQ-360-son. 26.12.2013. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2013 y. №52-I-son.
3. O'zbekiston Respublikasi "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi qonuni. ORQ-938-XII-son, 03.09.1993. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2016-y., 17-son, 173-modda.
4. O'zbekiston Respublikasi "Fuqarolarning jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti to'g'risida"gi qonuni. 702-II-sori, 02.12.2014. O'zbekiston Respublika qonun hujjatlari to'plami, 2015-y., 33-son, 439-modda.
5. "Aholini ish bilan ta'minlash to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi qonunining 1998 yil 1 mayda tasdiqlangan yangi tahriri (616-I-son qonun) (o'zgartirish va qo'shimchalar bilan).
6. O'zbekiston Respublikasi "Ijtimoiy sheriklik to'g'risida"gi qonuni. ORQ-376-son. 25.09.2014. O'zbekiston Respublika qonun hujjatlari to'plami, 2014-y., 39-son, 488-modda.
7. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi -T., O'zbekiston 2008-yil (o'zgartirish va qo'shimchalar bilan).
8. O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi- T., O'zbekiston 2010-yil (o'zgartirish va qo'shimchalar bilan).
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Fuqarolarning pensiya ta'minoti tizimini yanada

takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2009-yil 30-dekabrdagi PF-4161-son farmoni.

10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi 2017-yil 7-fevraldaggi PF-4947-son farmoni, Xalq so‘zi, 2017-y., 28 (6722)-son; O‘zbekiston Respublika qonun hujjatlari to‘plami, 2017-y., 6-son, 70-modda.

11. “Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili” Davlat dasturini ishlab chiqish va amalga oshirishning tashkiliy chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 17-dekabr F-4760-son farmoyishi, O‘zbekiston Respublika qonun hujjatlari to‘plami, 2017-y., 8-son, 119-modda.

12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tshqari Pensiya jamg‘armasining tashkiliy tuzilmasini shakllantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2009-yil 30-dekabrdagi PQ-1252-sonli qarori.

13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-yil 30-dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasining 2012-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozlari va davlat byudjeti parametrlari to‘g‘risida”gi PQ-1675-sonli qarori.

14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 25-dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasining 2013-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozlari va davlat byudjeti parametrlari to‘g‘risida”gi PQ-1887-sonli qarori.

15. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013-yil 25-dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasining 2014-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozlari va davlat byudjeti parametrlari to‘g‘risida”gi PQ-2099-sonli qarori.

16. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014-yil 4-dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasining 2015-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi va davlat byudjeti parametrlari to‘g‘risida”gi PQ-2270-sonli qarori.

17. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 22-dekabrdagi "O'zbekiston Respublikasining 2016-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"gi PQ-2455-sonli qarori.

18. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 27-dekabrdagi "O'zbekiston Respublikasining 2017-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"gi PQ-2699-sonli qarori.

19. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 29-dekabrdagi "O'zbekiston Respublikasining 2018-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"gi PQ-3454-sonli qarori.

20. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 26-dekabrdagi "2019 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va davlat byudjeti parametrlari hamda 2020-2021 yillarga byudjet mo'ljallari to'g'risida"gi PQ-4086-sonli qarori.

21. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 18-martdag'i "Moliya organlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2847-sonli qarori. O'zbekiston Respublika qonun hujjatlari to'plami, 2017-y., 13-son, 201-modda.

22. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Aholining ish bilan bandligini kengaytirish hamda mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish organlari faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2008 yil 29 dekabrdagi PQ-1024-son qarori.

23. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Bandlik sohasida davlat siyosatini yanada takomillashtirish va mehnat organlari faoliyati samaradorligini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi farmoni. 2017 yil 24 may.

24. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 24.05.2011 yil 145-son Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 21 dekabrdagi 595-son qarori bilan tasdiqlangan "Xalq banki tomonidan fuqarolarni jamg'arib boriladigan pensiya

tizimida shaxsan hisobga olishni yuritish tartibi to‘g‘risidagi nizomga o‘zgartirishlar kiritish haqida”gi qarori.

25. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 21-dekabrdagi “Fuqarolarning jamg‘arib boriladigan pensiya ta‘minoti to‘g‘risida”gi qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari haqidagi 595-sonli qarori.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentlari asarlari va ma’ruzaları:

26. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O‘zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo’llari va choralar. T: O‘zbekiston. 2009. 56 b.

27. Karimov I.A. Bosh maqsadimiz – keng ko‘lamli islohotlar va modernizatsiya yo‘lini qat’iyat bilan davom ettirish. – T.: O‘zbekiston. 2013. 32 b.

28. Karimov I.A. 2014 yil yuqori o‘sish sur’atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o‘zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yili bo‘ladi. – T.: O‘zbekiston. 2014. 32 b.

29. Karimov I.A. 2015 yilda iqtisodiyotimizda tub tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish, modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish hisobidan xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikka keng yo‘l ochib berish – ustuvor vazifamizdir. – T.: O‘zbekiston. 2014. 32 b.

30. Karimov I.A. Bosh maqsadimiz – mavjud qiyinchiliklarga qaramasdan, olib borayotgan islohotlarni, iqtisodiyotimizda tarkibiy o‘zgarishlarni izchil davom ettirish hisobidan xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikka yanada keng yo‘l ochib berish hisobidan oldinga yurishdir. – T.: O‘zbekiston. 2016. 72 b.

31. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 488 b.

32. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining

kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 104 b.

33. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birligida barpo etamiz. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 56 b.

34. Mirziyoyev Sh.M. qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minalash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 48 b.

35. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2018 yil 28 dekabr.

3. Darslik va o‘quv adabiyotlari:

36. Mamatov B.S. Pensiya jamg‘armasi faoliyati. O‘quv qo’llanma. – T.: “Barkamol fayz media”, 2017. – 280 b.

37. Allayarov Sh.A., Toshmuhamedova D.A. Davlat pensiya ta’minoti. O‘zuv qo’llanma. – T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2015. – 248 b.

38. Vahobov A.V., T.Malikov. Moliya. Darslik. – T.: “Noshir” 2012.-712 b.

39. Jun Peng. State and Local Pension Fund Management. Auerbach Publications. USA, 2008.

40. Kasimova G.A., Botirov A.A. Jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minoti. Monografiya. «TAMADDUN». T., 2015. 118 b.

41. Po’latov D.X., Nurmuhamedova B.I. G‘aznachilik. Darslik. – T.: “Sano-standart”, 2014. – 272 b.

42. Qosimova G.A. G‘aznachilik. O‘quv qo’llanma. T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2013. 448b.

43. Qosimova G.A., Karimova Z.X. Budjetdan tashqari fondlar. O‘quv qo’llanma. –T.: “IQTISOD-MOLIYA”. 2009. - 212 b.

44. Xaitov A., Ziyadulaev M. O‘zbekistonda pensiya ta’minoti va xorijiy tajribasi. O‘quv qo’llanma. –T.: “Adolat”. 2009. -172 b

45. Malikov T., Jalilov P., Byudjet-soliq siyosati. Mongrafiya. T.: Akademnashr, 2011. 472 b.

4. Davriy nashrlar (gazeta va jurnallar)

46. Abdullaev M. Zamonaviy pensiya tizimi va uning istiqbollari // Bozor, pul va kredit. 2013 yil. № 6, 8-b.

47. Abdullaev Z.A. O razvitii nakopitelnoy pensionnoy sistemi v Uzbekistane. “Pensiya ta’minoti tizimini rivojlantirish istiqbollari” Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. Toshkent: 2014 y., 224-b.

48. Vaxabov D.R. Pensiya tizimini isloq qilishning jahon tajribasi // Moliya. – Toshkent, 2010.- № 4., 21-27 b.

49. Hamdamov Sh.K. Jamg’arib boriladigan pensiya ta’minoti mablag’laridan investitsion maqsadlarda foydalanish. “O’zbekiston Respublikasida pensiya ta’minoti tizimining dolzarb muammolari” mavzusidagi vazirlik miqyosidagi ilmiy-amaliy anjuman tezislar to’plami. Toshkent. 2017-y. 155 b.

50. Sholdarov D.A., Tursunov J.P. Aholi turmush darajasini belgilash ko’rsatkichlari va ularning pensiya ta’minoti tizimidagi o’rni. “Moliya” ilmiy jurnali. 2/2017. 72-bet.

51. Umarov S.S. Jamg’arib boriladigan pensiya fondini investision faolligini oshirish. “Pensiya ta’minoti tizimini rivojlantirish istiqbollari” Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. Toshkent: 2014 y., 231-234 b.

5. Internet saytlari:

www.mf.uz (O’zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi);

www.mehnat.uz (O’zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining rasmiy sayti);

www.lex.uz (O’zbekiston Respublikasi milliy qonunchiligi);

www.publicfinance.uz (O’zbekistonda byudjet islohotlari loyihasi);

www.pfru.uz (O’zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg’armasi).

MUNDARIJA

Kirish.....	3
-------------	---

1-BOB. DAVLAT MAQSADLI VA BYUDJETDAN TASHQARI JAMG'ARMALARINING MOHIYATI VA AHAMIYATI

1.1. Davlat maqsadli va byudjetdan tashqari jamg'armalarning mohiyati va ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati.....	5
1.2. Davlat maqsadli va byudjetdan tashqari jamg'armalarning guruhanishi va turlari.....	13
1.3. Davlat maqsadli va byudjetdan tashqari jamg'armalarning shakllanish manbalari va mablag'laridan foydalanish yo'nalishlari.....	20

2-BOB. MOLIYA TIZIMIDA DAVLAT MAQSADLI VA BYUDJETDAN TASHQARI JAMG'ARMALARINING TUTGAN O'RNI

2.1. Moliya tizimida davlat maqsadli va byudjetdan tashqari jamg'armalarning o'rni	23
2.2. Ijtimoiy siyosatni amalga oshirishda davlat maqsadli va byudjetdan tashqari jamg'armalarning ahamiyati.....	25
2.3. Davlat maqsadli jamg'armalarining funksional jihatiga ko'ra tasniflanishi	37

3-BOB. BYUDJETDAN TASHQARI JAMG'ARMALARINING TASHKILIY-HUQUQIY ASOSLARI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI

3.1. Byudjetdan tashqari jamg'armalarning tashkiliy huquqiy asoslari	40
3.2. Byudjetdan tashqari jamg'armalarning boshqaruvi va rivojlanish tendensiyalari.....	45

4-BOB. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MOLIYA VAZIRLIGI HUZURIDAGI BUDJETDAN TASHQARI PENSIYA JAMG'ARMASI

4.1. Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining mohiyati va tashkiliy tuzilishi.....	48
4.2. Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi faoliyatining asosiy vazifalari va funksiyalari	52
4.3. Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining	

daromad va xarajatlari	57
4.4. Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasidan to'lanuvchi davlat pensiyalari va ijtimoiy nafaqalar.....	68

**5-BOB. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI BANDLIKKA
KO'MAKLASHISH DAVLAT JAMG'ARMASI**

5.1. Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasining maqsadi, mohiyati va ahamiyati.....	79
5.2. Mamlakatda bandlikni ta'minlashda Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasining o'rni	82
5.3. Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasi mablag'larini shakllantirish va ulardan foydalanish	85

**6-BOB. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI
HUZURIDAGI RESPUBLIKA YO'L JAMG'ARMASI**

6.1. Respublika yo'l jamg'armasining ahamiyati, maqsadi va vazifalari.....	92
6.2. Respublika yo'l jamg'armasi moliyaviy resurslarining shakllanishi va xarajatlarini amalga oshirish yo'nalishlari	98
6.3. Respublika yo'l jamg'armasi byudjetini tuzish, ko'rib chiqish va tasdiqlash	105

**7-BOB: O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MOLIYA VAZIRLIGI
HUZURIDAGI BYUDJETDAN TASHQARI TA'LIM VA TIBBIYOT
MUASSASALARINING MODDIY-TEXNIKA BAZASINI
RIVOJLANTIRISH JAMG'ARMASI**

7.1. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Ta'lism va tibbiyot muassasalarining moddiy-texnika bazasini rivojlantirish jamg'armasining asosiy vazifalari va mablag'laridan foydalanish yo'nalishlari.....	111
7.2. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Ta'lism va tibbiyot muassasalarining moddiy-texnika bazasini rivojlantirish jamg'armasi daromadlarini shakllantirish manbalari va tartibi	121
7.3. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Ta'lism va tibbiyot muassasalarining moddiy-texnika bazasini	

rivojlantirish jamg'armasi mablag'larini sarflash tartibi	125
--	-----

8-BOB: O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING TIKLANISH VA TARAQQIYOT JAMG'ARMASI

8.1. O'zbekiston Respublikasining Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi faoliyati va uning tashkiliy huquqiy asoslari	137
8.2. O'zbekiston Respublikasining Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi mablag'larini shakllantirish manbalari va tartibi	151
8.3. O'zbekiston Respublikasining Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi mablag'laridan foydalanish tartibi.....	152
8.4. O'zbekiston Respublikasining Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasiga mablag'lar kelib tushishi va ulardan foydalanish prognozini tayyorlash, ko'rib chiqish hamda tasdiqlash	156

9-BOB. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI HUZURIDAGI SUG'ORILADIGAN YERLARNING MELIORATIV HOLATINI YAXSHILASH JAMG'ARMASI

9.1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash jamg'armasining zarurligi, vazifa va funksiyalari.....	159
9.2. Sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash jamg'armasining moliyaviy manbalari va xarajat yo'naliishlari.....	176
9.3. Sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash jamg'armasi faoliyatini boshqarish.....	178

10-BOB. O'ZBEKISTON FAXRIYLARNI IJTIMOIY QO'LLAB- QUVVATLASH "NURONIY" JAMG'ARMASI

10.1. O'zbekiston faxriylarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash "Nuroniy" jamg'armasining ijtimoiy mohiyati	183
10.2. "Nuroniy" jamg'armasining asosiy vazifalari.....	185

11-BOB. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI "MAHALLA" XAYRIYA JAMG'ARMASI	
11.1. Respublika "Mahalla" xayriya jamg'armasining ijtimoiy mohiyati	188
12-BOB: O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MOLIYa VAZIRLIGI HUZURIDAGI RESPUBLIKA MAQSADLI KITOB JAMG'ARMASI	
12.1. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Respublika maqsadli kitob jamg'armasi faoliyatining maqsadi va asosiy vazifalari	196
12.2. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Respublika maqsadli kitob jamg'armasi mablag'lari manbalarining shakllanishi va jamlanish tartibi	202
12.3. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Respublika maqsadli kitob jamg'armasi mablag'larini sarf qilish tartibi	206
13-BOB: O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI HUZURIDAGI QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARINING DAVLAT XARIDI VA QISHLOQ XO'JALIGINI TEKNIKA BILAN JIHOZLASHNI MAQSADLI MOLIYALASHTIRISH JAMG'ARMASI	
13.1. Jamg'arma faoliyatining tashkiliy-huquqiy asoslari	211
13.2. Jamg'armaning daromadlari va xarajatlari tizimi.....	217
13.3. Jamg'arma mablag'laridan foydalanishni nazorat qilish	223
14-BOB: O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VAZIRLIGI HUZURIDAGI MADANIYAT VA SAN'ATNI RIVOJLANTIRISH JAMG'ARMASI	
14.1. O'zbekiston Respublikasida madaniyat va san'at sohasini rivojlantirishning zarurligi va ahamiyati	230
14.2. O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi huzuridagi Madaniyat va san'atni rivojlantirish jamg'armasining vazifalari va funksiyalari	243
14.3. O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi	

huzuridagi Madaniyat va san'atni rivojlantirish jamg'armasi faoliyatini tashkil etish, uning moliyaviy manbalari va ularni sarflashning asosiy yo'nalishlari	247
15-BOB. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI HUZURIDAGI TADBIRKORLIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNI QO'LLAB-QUVVATLASH DAVLAT JAMG'ARMASI	
15.1. Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasining mohiyati va ahamiyati.....	252
15.2. Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab quvvatlash davlat jamg'armasining tashkiliy tuzilishi va moliyaviy manbalari	256
16-BOB: O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI HUZURIDAGI OROL BUYI MINTAQASINI RIVOJLANTIRISH JAMG'ARMASI	260
16.1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasi huzuridagi Orol buyi mintaqasini rivojlantirish jamg'armasining asosiy vazifalari va mablag'lardan foydalinish yo'nalishlari.....	260
16.2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasi huzuridagi Orol buyi mintaqasini rivojlantirish jamg'armasi daromadlarini shakllantirish manbalari va tartibi.....	265
16.3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasi huzuridagi Orol buyi mintaqasini rivojlantirish jamg'armasi mablag'larini sarflash tartibi.....	269
17-BOB: O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI HUZURIDAGI MUTAXASSISLARNI XORIJDA TAYYORLASH VA VATANDOSHLAR BILAN MULOQOT QILISH BO'YICHA «EL-YURT UMIDI» JAMG'ARMASI	
17.1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi mutaxassislarni xorijda tayyorlash va vatandoshlar bilan muloqot qilish bo'yicha "El-yurt umidi" jamg'armasining vazifalari, faoliyatining asosiy yo'nalishlari va huquqlari.....	276
17.2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi	

huzuridagi mutaxassislarni xorijda tayyorlash va vatandoshlar bilan muloqot qilish bo'yicha "El-yurt umidi" jamg'armasi faoliyatini tashkil etish, uning mulki va moliyaviy mablag'lari	284
17.3. Xorijda ta'lim olish uchun nomzodlarni tanlov asosida tanlab olishni o'tkazish tartibi	287

18-BOB. XORIJIY MAMLAKATLARDA MAQSADLI JAMG'ARMALAR FAOLIYATI

18.1. Xorijiy mamlakatlarda maqsadli jamg'armalar faoliyatini tashkil etishning zarurligi, maqsadi va vazifalari	297
18.2. Xorijiy mamlakatlarda maqsadli jamg'armalarining tarkibi va turlari. Jamg'armalar daromadlarining shakllanishi va mablag'larining sarflanishi	302
Glossariy	309
Foydalanilgan adabiyotlar	329

B.S.MAMATOV, SH.K.XAMDAMOV, J.P.TURSUNOV

DAVLAT MAQSADLI VA BYUDJETDAN TASHQARI JAMG‘ARMALAR

Darslik

Muharrir Sh. Bazarova

Badiiy muharrir K. Boyxo‘jayev

Kompyuterda sahifalovchi K. Boyxo‘jayev

Nashr. lits. AI № 305. 22.06.2017.

Bosishga ruxsat 26.09.2019-yilda berildi.

Bichimi 60x84/16. Ofset qog‘ozi. «New Times Roman»
garniturasi. Shartli b.t. 19,8. Nashr hisob t. 20,6.

Adadi 60 dona. 44-buyurtma.

“IQTISOD-MOLIYA” nashriyoti.
100000, Toshkent, Amir Temur, 60^{“A”}.

“DAVR MATBUOT SAVDO” MChJ
bosmaxonasida chop etildi.
100198, Toshkent, Qo‘yliq, 4-mavze, 46.